01
2026
Maxsus son
ISSN 2091-554-3

VETERINARIYA MEDITSINASI

TIBBIYOT INSONNI,
VETERINARIYA INSONIYATNI ASRAYDI!





O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VETERINARIYA VA CHORVACHILIKNI RIVOJLANTIRISH QO‘MITASI

VETERINARIYA VA CHORVACHILIK SOHASIDA PEDAGOG HAMDA MUTAXASSIS KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI

“VETERINARIYA VA CHORVACHILIK SOHASIDA MALAKA OSHIRISH TIZIMINING FAN-TA'LIM BILAN O‘ZARO INTEGRATSIYASI: HAMKORLIK VA IMKONIYATLAR”
mavzusidagi

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

25-26
MART
2026-YIL

Таҳририят кенгаши:
Х.Б.Юнусов – **СамДВМЧБУ ректори, профессор (раис)**
Ж.А.Азимов – **ЎзР ФА академиги (аъзо)**
А.И.Ятусевич – **РФА академиги (аъзо)**
Е.Д.Джавадов – **РФА академиги (аъзо)**
Ю.А.Юлдашбаев – **РФА академиги (аъзо)**
Д.А.Девришов – **РФА мухбир аъзоси (аъзо)**
С.В.Шабунин – **РФА академиги (аъзо)**
К.В.Племяшов – **РФА мухбир аъзоси (аъзо)**
С.В.Позябин – **профессор (аъзо)**
Ш.А.Джабборов – **профессор (аъзо)**

Таҳрир ҳайъати:
Ҳ.Салимов – **профессор**
Қ.Норбоев – **профессор**
А.Даминов – **профессор**
Р.Б.Давлатов – **профессор**
Б.Бакиров – **профессор**
Б.М.Эшбуриев – **профессор**
Н.Б.Дилмуродов – **профессор**
Ф.Акрамова – **б.ф.д., профессор**
Б.А.Элмуродов – **профессор**
А.Г. Ғафуров – **профессор**
Н.Э.Юлдашев – **профессор**
Х.Б.Ниёзов – **профессор**
Ю.Салимов – **профессор**
Б.Д.Нарзиев – **профессор**
Р.Ф.Рўзиқулов – **профессор**
Г.Мамадуллаев – **в.ф.д.**
Д.Н.Федотов – **ВДВМА доценти**
Х.К.Базаров – **доцент**
Т.И.Тайлақов – **доцент**
Б.А.Кулиев – **доцент**
Ф.Б.Ибрагимов – **доцент**
З.Ж.Шопулатова – **доцент**
Н.Б.Рўзиқулов – **доцент**
Д.Д.Алиев – **доцент**
Ш.Х.Қурбонов – **доцент**
Ж.Б.Юлчиев – **доцент**
О.Э.Ачилов – **доцент**

Бош муҳаррир вазифасини бажарувчи:
Абдунаби АЛИҚУЛОВ
Муҳаррир:
Дилшод ЮЛДАШЕВ
Дизайнер:
Ҳусан САФАРАЛИЕВ

Лойиҳа ташаббускори ва раҳбари:
Ветеринария ва чорвачиликни ривожлантириш қўмитаси
Муассислар:
Ветеринария ва чорвачиликни ривожлантириш қўмитаси, “AGROZOOVETSERVIS” масъулияти чекланган жамияти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлигида 2018 йил 2 февралда 0284-рақам билан рўйхатга олинган

Журнал 2007 йил сентябрдан чоп этилмоқда

Манзил:100070, Тошкент шаҳри, Усмон Носир, 22.
Таҳририят манзили: 100022, Тошкент шаҳри, Қушбеги кўчаси, 22-уй
Тел.: **99** 307-01-68,

E-mail: zooveterinariya@mail.ru
www.Vetmed.uz

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYAR VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VETERINARIYA VA CHORVACHILIKNI RIVOJLANTIRISH QO‘MITASI

VETERINARIYA VA CHORVACHILIK SOHASIDA PEDAGOG HAMDA MUTAXASSIS KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI

“VETERINARIYA VA CHORVACHILIK SOHASIDA MALAKA OSHIRISH TIZIMINING FAN-TA’LIM BILAN O‘ZARO INTEGRATSIYASI: HAMKORLIK VA IMKONIYATLARI”

mavzusidagi

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

25-26-mart



Samarqand - 2026

Таҳририят кенгаши:
Х.Б.Юнусов – **ректор СамГУВМЖБ, профессор (председатель)**
Ж.А.Азимов – **академик (член) РУз АН**
А.И.Ятусевич – **РАН академик (член)**
Е.Д.Джавадов – **РАН академик (член**
Ю.А.Юлдашбаев – **РАН академик (член)**
Д.А.Девришов – **РАН член-корреспондент (член)**
С.В.Шабунин – **РАН академик (член)**
К.В.Племишов – **РАН член-корреспондент (член)**
С.В.Позябин – **профессор (член)**
Ш.А.ДЖабборов – **профессор (член)**

Таҳрир ҳайъати:
Х.Салимов – **профессор**
К.Норбоев – **профессор**
А.Даминов – **профессор**
Р.Б.Давлатов – **профессор**
Б.Бакиров – **профессор**
Б.М.Эшбуриев – **профессор**
Н.Б.Дилмуродов – **профессор**
Ф.Акрамова – **д.б.н., профессор**
Б.А.Элмуродов – **профессор**
А.Г. Гафуров – **профессор**
Н.Э.Юлдашев – **профессор**
Х.Б.Ниёзов – **профессор**
Ю.Салимов – **профессор**
Б.Д.Нарзиев – **профессор**
Р.Ф.Рўзиқулов – **профессор**
Г.Мамадуллаев – **д.в.н.**
Д.И.Федотов – **ВДВМА доцент**
Х.К.Базаров – **доцент**
Т.И.Тайлаков – **доцент**
Б.А.Кулиев – **доцент**
Ф.Б.Ибрагимов – **доцент**
З.Ж.Шопулатова – **доцент**
Н.Б.Рузикулов – **доцент**
Д.Д.Алиев – **доцент**
Ш.Х.Курбонов – **доцент**
Ж.Б.Юлчиев – **доцент**
О.Э.Ачилов – **доцент**

Главный редактор И.О.:
Абдунаби АЛИҚУЛОВ
Редактор:
Дилшод Юлдашев
Дизайнер:
Ҳусан САФАРАЛИЕВ

Инициатор и руководитель проекта:
Комитет ветеринарии и развития животноводства
Основатели:
Комитет ветеринарии и развития животноводства,
“AGROZOOVETSERVIS”
ООО

В Агентстве печати и информации Узбекистана Зарегистрирован 2018 г. 2 февраля под номером 0284.

Журнал издается с сентября 2007 года.

Адрес:100070, город Ташкент, Усман Насир, 22.
Адрес редакции: 100022, город Ташкент, улица Кушбеги кўчаси, 22.
Тел.: **99** 307-01-68,

E-mail: zooveterinariya@mail.ru
www.Vetmed.uz

МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И ИННОВАЦИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

КОМИТЕТ ПО РАЗВИТИЮ ВЕТЕРИНАРИИ И ЖИВОТНОВОДСТВА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ИНСТИТУТ ПЕРЕПОДГОТОВКИ И ПОВЫШЕНИЯ КВАЛИФИКАЦИИ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КАДРОВ И СПЕЦИАЛИСТОВ В ОБЛАСТИ ВЕТЕРИНАРИИ И ЖИВОТНОВОДСТВА

Международная научно-практическая конференция
на тему:
«ИНТЕГРАЦИЯ СИСТЕМЫ ПОВЫШЕНИЯ КВАЛИФИКАЦИИ В СФЕРЕ ВЕТЕРИНАРИИ И ЖИВОТНОВОДСТВА С НАУКОЙ И ОБРАЗОВАНИЕМ: СОТРУДНИЧЕСТВО И ВОЗМОЖНОСТИ»

25-26 марта



Самарканд – 2026

Editorial council
Kh.B.Yunusov- Rector of Samarkand State University of Veterinary Medicine, Animal Husbandry and Biotechnology, professor(chairman)
J.A.Azimov – UzAS academician (member)
A.I. Yatusevich – RAS academician (member)
E.D.Djavadov – RAS academician (member)
Yu.A. Yuldashbaev – RAS academician (member)
D.A.Devrishov – RAS correspondent member (member)
S.V.Shabunin – RAS academician (member)
K.V.Plemyashov – RAS correspondent member(member)
S.V.Pozyabin – professor (member)
Sh.A.Jabborov – professor (member)

Editorial board
H. Salimov – professor
K. Norboev – professor
A. Daminov – professor
R.B. Davlatov – professor
B. Bakirov – professor
B. M. Eshburiev – professor
N.B. Dilmurodov – professor
F. Akramova – doctor of biology, professor
B.A. Elmurodov – professor
A.G. Gafurov – professor
N.E. Yuldashev – professor
Kh.B. Niyazov – professor
Yu. Salimov – professor
B. D. Narziev – professor
R. F. Ruzikulov – professor
G. Mamadullaev – v.f.d.
D.I. Fedotov – associate professor of VSAVM
Kh.K. Bazarov – associate professor
T.I.Taylaqov – associate professor
B.A. Kuliev – associate professor
F.B. Ibragimov – associate professor
Z.J.Shopulatova – associate professor
N.B.Ruzikulov – associate professor
D.D.Aliev – associate professor
Sh.Kh.Kurbanov – associate professor
J.B.Yulchiev – associate professor
O.E.Achilov – associate professo

Acting Chief Editor:
Abdunabi ALIKULOV
Editors:
Dilshod YULDASHEV
Designer:
Husan SAFARALIYEV

Published since September 2007

Initiator and leader of the project:
State Committee of Veterinary and Livestock development of the Republic of Uzbekistan

Founders:
State Committee of Veterinary and Livestock development of the Republic of Uzbekistan, "AGROZOOVETSERVIS" Co., Ltd.

Registered in Uzbekistan Press and News agency by 0284

Address: 22, Usmon Nosir, Tashkent, 100070.
Editorial address: 4, Kushbegi, 22. Tashkent, 100022
Tel.: 99 307-01-68,

E-mail: zooveterinariya@mail.ru
www.Vetmed.uz
circulation: Index: 1162

REPUBLIC OF UZBEKISTAN MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION

COMMITTEE OF VETERINARY AND LIVESTOCK DEVELOPMENT OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

INSTITUTE FOR RETRAINING AND ADVANCED TRAINING OF PEDAGOGICAL AND SPECIALIZED PERSONNEL IN THE FIELD OF VETERINARY MEDICINE AND LIVESTOCK

International scientific and practical conference on the topic:

"INTEGRATION OF THE SYSTEM OF ADVANCED TRAINING IN THE FIELD OF VETERINARY MEDICINE AND LIVESTOCK WITH SCIENCE AND EDUCATION: COOPERATION AND OPPORTUNITIES"

March 25th-26th



Samarkand-2026

SO‘Z BOSHI

Shavkat Mirziyoyev:
“Ilm-fan bo‘yicha intensiv va progressiv rivojlanishni yo‘lga qo‘ymasak bo‘lmaydi”!!!

Veterinariya va chorvachilik sohasida pedagog hamda mutaxassis kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutida 2026-yilning 25-26-mart kunlari “Veterinariya va chorvachilik sohasida malaka oshirish tizimining fan-ta’lim bilan o‘zaro integratsiyasi: hamkorlik va imkoniyatlar” mavzusida Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya bo‘lib o‘tdi.

Anjumanning asosiy maqsadi veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimini barqaror rivojlantirish, fan-ta’lim bilan o‘zaro integratsiyasi, sohasiga oid mavjud muammolar, erishilgan yutuqlar va istiqboldagi dolzarb vazifalarni mahalliy va xorijiy olimlar hamda mutaxassislar ishtirokida atroflicha muhokama qilishdan iborat.

Konferensiyani institut direktori, professor R.B.Davlatov kirish so‘zi bilan ochib berdi va quyidagilarni qisqacha bayon qilib o‘tdi.

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimi bugungi kunda jadal islohotlar bosqichiga kirgan bo‘lib, mazkur jarayon mamlakatda raqobatbardosh, yuqori malakali va zamonaviy dunyoqarashga ega mutaxassislarni tayyorlashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ymoqda. Bu borada ta’lim tizimining sifat ko‘rsatkichlarini oshirish, innovatsion pedagogik yondashuvlarni joriy etish va ta’lim mazmunini tubdan yangilash asosiy ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilanmoqda. Xususan, 2020-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, Prezidentimizning qator farmon va qarorlarida pedagog kadrlar salohiyatini oshirish, ularning kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash, pedagoglarni yangicha tafakkur, kreativ yondashuv va mustaqil fikrlash asosida tayyorlash masalalari alohida e’tirof etilgan.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, ta’lim sifatining barqaror o‘sishini ta’minlashda pedagog kadrlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki zamonaviy ta’lim tizimida o‘qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki o‘quvchi shaxsining shakllanishi, uning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi, raqamli va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Bunday vazifalarni samarali bajara olish esa o‘qituvchining kasbiy kompetensiyalariga, ya’ni kasbiy bilim, amaliy ko‘nikma, axloqiy va ijtimoiy mas’uliyat, shuningdek, shaxsiy va kasbiy rivojlanish salohiyatiga bevosita bog‘liqdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-dekabrdagi “Qishloq xo‘jaligi hamda veterinariya va chorvachilik sohalari kadrlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-420-sonli qaroriga asosan Samarqand shahrida “Veterinariya va chorvachilik sohasida pedagog hamda mutaxassis kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti”ning tashkil etilishi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 10-dekabrdagi “Qishloq xo‘jaligi, veterinariya va chorvachilik sohasi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini yo‘lga qo‘yish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi 783-sonli qaroriga asosan “Veterinariya va chorvachilik sohasidagi rahbar va mutaxassis kadrlar, ilmiy-tadqiqot muassasalari rahbar va ilmiy xodimlarining uzluksiz malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning tasdiqlanishi va ijrosining boshlanganligi veterinariya va chorvachilik sohasida faoliyat olib borayotgan barcha mutaxassis va soha olimlari uchun muhim yangilik bo‘ldi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Bugungi xalqaro konferensiyada xorijiy hamkor tashkilotlar (Rossiya, Latviya, Turkiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston)ning 21 nafar, shuningdek, Respublikamizning turli hududlardagi tashkilotlari (Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi va uning tizimimidagi tashkilotlar, SamDVMChBU, uning Toshkent va Nukus filiallari, “Veterinariya meditsinasi” jurnali tahririyati, “Chorvachilik va naslchilik ishi” jurnali tahririyati, ToshDAU, Chorvachilik va

parrandachilik ilmiy-tadqiqot instituti, AndQX-AI, SamATI, Vererinariya ilmiy-tadqiqot instituti, Qorako‘lchilik va cho‘l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti)ning 100 nafardan ortiq rahbar xodimlari, soha mutaxassislari, professor-o‘qituvchilar, malaka oshrish kurslari tinglovchilari, doktorantlar, tadqiqotchilar, magisrtantlar va iqtidorli talabalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri kelib ishtirok etishdi.

Ushbu anjumanda O‘zbekiston Rispublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi Fan va ta’limni rivojlantirish bo‘limi boshlig‘i, b.f.d., professor A.A.Safarov, O‘zbekiston Rispublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Oliy ta’lim tashkilotlarini tashkil etish va faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig‘i, i.f.d., professor F.B.Ahrorov, Oliy ta’lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti direktori, professor U.Sh.Begimqulov, xorijlik olimlardan esa Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti huzuridagi milliy fanlar akademiyasi “Fanlararo markaz” direktori, professor K.D.Alixanov, Tojikiston qishloq xo‘jaligi fanlar akademiyasi huzuridagi “Biologik xavfsizlik muammolari va biotexnologiya” instituti direktori, v.f.d., professor A.O.Abdulloyev, Patris Lumumba nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti “Veterinariya meditsinasi” departamenti dotsenti V.I.Semyonova, Latviya biofanlar va texnologiyalar universiteti professori, v.f.d. I.M.Shyematovich, O‘sh davlat universiteti “Veterinariya meditsinasi va biotexnologiya” kafedrasi mudiri, q.x.f.d., professor A.X.Abdurasulov hamda Qozoq milliy agrar tadqiqotlar universiteti “Zooinjeneriya va biotexnologiya” kafedrasi dotsenti A.D.Oraqbaevalar so‘zga chiqishib, o‘zlarining qimmatli fikr-mulohazalarini bildirishdi va konferensiya ishiga omadlar tilashdi.

Konferensiyaning yalpi yig‘ilishida Veterinariya va chorvachilik sohasida pedagog hamda mutaxassis kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti Pedagog kadrlar masalalari bo‘yicha direktor o‘rinbosari, dotsent N.B.Ro‘ziqulov “O‘zbekistonda veterinariya va chorvachilik sohasida ilmiy-pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimining bugungi holati va istiqboldagi vazifalar” mavzusida, Turkiya Respublikasining Firat universiteti va Qirg‘iz Respublikasining “Qirg‘iz-Turk” Manas universiteti professori Ali Rişvanli “Does body mass influence mean arterial pressure in dogs? associations with cardiovascular parameters” mavzusida, Patris Lumumba nomidagi Rossiya xalqlar do’stligi universiteti (RUDN) “Veterinariya meditsinasi” departamenti dotsenti, b.f.d., v.f.n. A.C.Karamyan “Биоэтические основы проведения научных исследований” mavzusida, Tojikiston qishloq xo‘jaligi fanlar akademiyasi huzuridagi “Biologik xavfsizlik muammolari va biotexnologiya” instituti direktori, v.f.d., professor A.O.Abdulloyev “Эпизоотология чумы мелких жвачных в Таджикистане” mavzusida, Sankt-Peterburg davlat veterinariya meditsinasi universitetining uzluksiz kasbiy ta’lim markazi rahbari Y.A.Sidoruk “Перспективы международного сотрудничества в области повышения квалификации” mavzusida, Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti huzuridagi milliy fanlar akademiyasi “Fanlararo markaz” direktori, professor K.D.Alixanov “Гигиена и санитария при производстве молока в животноводстве” mavzusida, Chorvachilik va parrandachilik ilmiy tekshirish instituti qoshidagi “Quyonchilik selertsiyasi va genetika” markazi direktori, q.x.f.n., katta ilmiy xodim D.Q.Yuldashev “O‘zbekiston Respublikasining quyonchilik sohasidagi amaliyot, ilm-fan yutuqlari, mavjud muammolar va ularning yechimlari” mavzusida, Qorako‘lchilik va cho‘l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti “Oziqlantirish va saqlash” bo‘limi mudiri, q.x.f.d. (DSc), dotsent B.S.Yaxyayev “O‘zbekiston cho‘l yaylov o‘simliklarini fitobiotik oziqa qo‘shimchasi sifatida qo‘zilar ratsionida foydalanishning samaradorligi” mavzusida hamda Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti “Veterinariya meditsinasi” kafedrasi mudiri, dotsent I.A.Sobirov “Veterinariya sohasida malaka oshirish tizimining ahamiyati” mavzusida taqdimotlar qilishdi.

Konferensiyaning shu‘balar bo‘yicha yig‘ilisha esa 90 dan ortiq ma’ruzalar oflayn va onlayn formatda tinglandi. E’tiborli jihati shundaki, bu taqdimotlarning 30 ga yaqini xorijiy hamkor tashkilotlar professor-o‘qituvchilari, soha mutaxassislari, doktorantlar, tadqiqotchilar, magisrtantlar va iqtidorli talabalar tomonidan bayon qilindi.

Shuningdek, ushbu konferensiya doirasida Sankt-Peterburg davlat veterinariya meditsinasi universiteti, Qirg‘iz-Turk “Manas” universiteti, Tojikiston qishloq xo‘jaligi fanlar akademiyasi huzuridagi “Biologik xavfsizlik muammolari va biotexnologiya” instituti hamda Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti bilan 2026-2030-yillarga mo‘ljallangan o‘zaro hamkorlik memarondumlari ham imzolandi.

Memorandumlarni imzolashdan asosiy maqsad malaka oshirish yo‘nalishida yaqindan hamkorlik qilish, xalqaro malaka oshirish kurslarini tashkil etish, stajirovka o‘tashni yo‘lga qo‘yish, xalqaro loyihalar tayyorlash, o‘quv jarayoniga malakari professor-o‘qituvchi va mutaxassislarni jalb qilish, professor-o‘qituvchilar va tinglovchilar almashinuvini yo‘lga qo‘yish hamda hamkorlikda xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalar tashkil etishdan iborat.

Mazkur xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya yakunida veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimini barqaror rivojlantirish masalalari yetakchi xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan tahlil etildi va sohaga oid mavjud muammolar, erishilgan yutuqlar va istiqboldagi dolzarb vazifalar muhokama qilindi. Yetakchi xorijiy va mahalliy olimlar ishtirokida pedagog va mutaxassis kadrlarning malakasini uzluksiz oshirish, ularni qayta tayyorlash va qo‘shimcha kasbiy ta’lim olish bo‘yicha ochiq elektron resurslar yaratish va joylashtirish, shuningdek, stajirovkalar dasturlarini tashkil etish, yetakchi xorijiy olimlarni malaka oshirish kurslariga keng jalb etish bo‘yicha kelishuvga erishildi.

Konferensiya jarayoni YouTube kanalida to‘g‘ridan-to‘g‘ri jonli efirda uzatib borildi, shuningdek, konferensiya tafsilotlari Samarqand MTRK televideniyasining “Kun xabarlari” dasturidan munosib o‘rin oldi.

Tashkiliy qo‘mita



UDK: 619:639.31:576.89

BALIQLARNING LIGULIDOZ QO‘ZG‘ATUVCHILARI BILAN ZARARLANISH DARAJASI

A.E.Boltayev, *mustaqil izlanuvchi,*
Sh.A.Djabbarov, *professor,*
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali

Аннотация: *В данной статье изучена степень заражённости однолетних и двухлетних карп, сазана и пёстрого толстолобика возбудителями лигулидоза - Ligula intestinalis и Digramma interrupta. Исследования проводились на основе рыб, отобранных из Туябугузского водохранилища Ташкентской области. По полученным результатам установлено, что показатели интенсивности и экстенсивности инвазии у двухлетних рыб выше по сравнению с однолетними. Полученные данные имеют важное научно-практическое значение для разработки профилактических мероприятий по предупреждению лигулидоза в рыбоводческих хозяйствах.*

Summary: *This article examines the level of infection in one-year-old and two-year-old common carp, wild carp, and silver carp caused by the ligulidosis pathogens Ligula intestinalis and Digramma interrupta. The study was conducted on fish collected from the Tuyabuguz Reservoir in the Tashkent region. The results showed that the intensity and extensiveness of invasion in two-year-old fish were higher compared to one-year-old fish. The obtained findings have important scientific and practical significance for developing preventive measures against ligulidosis in fish farming enterprises.*

Kalit so‘zlar: *ligulidoz, ligulid, Ligula intestinalis, Digramma interrupta, invaziya intensivligi, invaziya ekstensivligi, karp, sazan, chupor do‘ngpeshona, sestoda.*

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda aholining sifatli va ekologik toza oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondirish maqsadida chorvachilikning barcha tarmoqlari, jumladan baliqchilik sohasini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Baliqchilik tarmog‘ining barqaror rivoji esa, avvalo, baliqlarda uchraydigan yuqumli va parazitar kasalliklarni chuqur o‘rganish, ularning oldini olish va samarali kurash choralarini ishlab chiqishni talab etadi.

Dunyo miqyosida baliq va baliq mahsulotlariga bo‘lgan talab juda katta. Shuning uchun dunyo baliqchiligining hozirgi holati dengizlar, okeanlar va ichki suv resurslarining dunyo aholisini oziq-ovqat va baliq mahsulotlari bilan to‘liq ta’minlay olmaganligi bilan bog‘liq va eng qimmatli ozuqa hisoblanmish baliq mahsulotlarini yetishtiradigan va ta’minlaydigan katta sanoat obyektlarining ahvoli og‘irligicha qolmoqda [2; 3; 4; 5; 6].

Respublikamizda baliqchilikni jadal rivojlantirish, baliq mahsulotlari ishlab chiqarishning zamonaviy va innovatsion uslublarini joriy etgan holda ishlab chiqarish hajmini oshirish, sohani tartibga solish bo‘yicha bir qator qonun hujjatlari qabul qilinib, ularning ijrosini sifatli va puxta ta’minlash choralari ko‘rilmoqda.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-avgustdagi PQ-4816 sonli “Baliqchilik tarmog‘ini qo‘llab-quvvatlash va uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida, Respublikamizda baliqchilik tarmog‘ini qo‘llab-quvvatlash, baliqchilik va baliq ovlash xo‘jaliklari faoliyati samaradorligini oshirish, ushbu sohada yer va suv resurslaridan oqilona va samarali foydalanish hamda intensiv texnologiyalarning keng joriy etilishini ta’minlashga katta e’tibor qaratilgan. Biroq, baliq va baliq mahsulotlarini ko‘paytirishda baliqlarda uchraydigan ayrim kasalliklar, jumladan, baliqlar

kasalliklari ushbu sohaning rivojiga ma'lum darajada to‘sqinlik qilib kelmoqda [1].

Hozirgi kunda ushbu farmon va qarorlarning ijrosi yuzasidan mamlakatimizda ko‘plab amaliy tadbirlar o‘tkazilmoqda. Sohaning jadal rivojlanishi bilan bir qatorda baliqlar kasalliklariga qarshi kurash, oldini olish va diagnostika qilish bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish katta nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda ko‘plab havfli kasalliklarning aksariyati yetarli darajada chuqur o‘rganilgan, ularni profilaktikasi va davolash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan. Lekin, joylarda malakali kadrlar talab qilinmoqda, ular aniq sharoitlarda maqbul bo‘lgan va iqtisodiy samarali tadbirlarni tanlay ola bilishi, qaysikim kasalliklardan ko‘riladigan zararni oldini olishi va kamayitirishi lozim.


Tadqiqot obyekti va uslublari. Tadqiqotlar Toshkent viloyati Tuyabo‘g‘iz suv omboridan olingan karpsimonlar oilasiga mansub baliqlarda olib borildi. Laboratoriya tekshiruvlari Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filialida amalga oshirildi.

Tajribalar uchun 120 dona bir yillik va 120 dona ikki yillik baliqlar tanlab olindi. Baliqlarning *Ligula intestinalis* va *Digramma interrupta* bilan zararlanish darajasini aniqlash maqsadida invaziya intensivligi (II) va invaziya ekstensivligi (IE) ko‘rsatkichlari umumqabul qilingan parazitologik usullar asosida hisoblandi.

Tadqiqot natijalari va ularning tahlili. Toshkent viloyatining Tuyabo‘g‘uzsuv omborining soxillaridagi ligulid qo‘zg‘atuvchilari bilan zararlangan karpsimonlar oilasiga mansub uch turdagi baliqlarni bir va ikki yilliklarini tekshiruvdan o‘tkazildi. Bir yillik karp balig‘ining 40 donasi tekshirilganda, ularning 5 donasi ligulidlar bilan zararlangan bo‘lib invaziya intensivligi 3,2±0,21 nusxani, invaziya ekstensivligi esa 12,5 % tashkil etdi.


Ikki yillik 40 dona karp baliqlari tekshiruvdan o‘tkazilganda, ulardan 9 donasi ligulidlar bilan zararlangan bo‘lib invaziya intensivligi 4,6±0,38 nusxani, invaziya ekstensivligi esa 22,5% tashkil etishi aniqlandi (1-rasm).

Bir yillik sazan balig‘ining 40 donasi tekshirilganda, ularning 7 donasi ligulidlar bilan zararlangan bo‘lib invaziya intensivligi 4,3±0,32 nusxani, invaziya ekstensivligi esa 17,5 % tashkil qildi. Ikki yillik sazan baliqlarini tekshiruvdan o‘tkazganimizda 40 dona baliqlarning 11 donasi ligulidlar bilan zararlangan bo‘lib invaziya intensivligi 6,1±0,52 nusxani, invaziya ekstensivligi esa 27,5% tashkil etdi.




1-rasm. Ligula intestinalis qo‘zg‘atuvchisi

Bir yillik chpor do‘ngpeshona balig‘ining 40 donasi tekshirilganda ularning 3 donasi ligulidlar bilan zararlangan bo‘lib invaziya intensivligi 2,6±0,17 nusxani, invaziya ekstensivligi esa 7,5 % tashkil qildi (1-diagramma).



1-diagramma

Ikki yillik chpor do‘ngpeshona baliqlarini tekshiruvdan o‘tkazganimizda 40 dona baliqlarning 5 donasi ligulidlar bilan zararlangan bo‘lib invaziya intensivligi 3,1±0,1 nusxani, invaziya ekstensivligi esa 12,5% ni tashkil qildi (*2-Diagramma*).



2-diagramma

Jami hammasi bo‘lib, shu uch turdagi baliqlar ligulid qo‘zg‘atuvchilariga tekshirilganda bir yillik baliqlarda 120 dona baliqdan 15 donasi ligulidlar bilan zararlangan bo‘lib invaziya intensivligi 3,8±0,3 nusxani berdi, invaziya ekstensivligi esa 12,5% ni tashkil qildi.

Ikki yillik baliqlarda bu tekshiruv o‘tkazilganda 120 dona baliqdan 25 donasi ligulidlar bilan kasallangan bo‘lib chiqdi. Invaziya intensivligi 4,6±0,33 nusxani, shu bilan birga invaziya ekstensivligi 20,8 3% ni tashkil qildi.

Karp baliqlarining bir yilliklarida invaziya ekstensivligi 12,5 % ni, ikki yilliklarida esa 22,5 % ni tashkil etib, invaziya ekstensivlikning 10,0 % ga yuqori ekanligi kuzatildi. Xuddi shuningdek Sazan turidagi baliqlarda xam 10,0 % va Chupor do‘ngpeshona baliqlarida esa 5,0 ga yuqori ekanligi aniqlandi.

Xulosa qilib aytganda tajribalarda tekshiruvdan o‘tkazilgan baliqlarning ikki yilliklarida *Ligula intestinalis* va *Digramma interrupta* bilan zararlanish darajasi, ya’ni invaziya intensivligi (3,8±0,3-4,6±0,33 nusxa) va invaziya ekstensivligi (12,5-20,83 %) bir yillik baliqlardan yuqori ekanligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-avgustdagi PQ-4816 sonli “Baliqchilik tarmog‘ini qo‘llab-quvvatlash va uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

2. Беляев Е.Н. Информационный сборник статистических и аналитических материалов “Заболеваемость протозоозами и гельминтозами населения РФ в 1996-гг”. / Беляев Е.Н., Ясинский А.А., Сыскова Т.Г. и др. - Москва Федеральный центр. Госсанэпиднадзора Минздрава России. 2001.-112с.

3. Вишняускас А.Ю., Пакатурене Д.А., Бараускас К.Ю., Подопригора А. Ершов В.Е., Паршин В.А., КессерВ.С., Вишняускас А.А. Эффективность фазинекса при фасциолезе овец и крупного рогатого скота //Бюлл. ВИГИС, 1986. - Вып. 46. - с. 8-12.

4. Демидов Н.В. Антгельминтики.в ветеринарии. - М., 1982. - 367 с.

5. Дорошина М.В. Содержание фенасала в крови овец при введении различных доз препарата // Бюл. Всес. ин-та гельминтол., 1968. - Вып. 2. - с. 54-55.

6. Дорошина М.В. К изучению токсичности дихлорофена, битионола и фенасала //Бюл. Всес. ин-та гельминтл. им. акад. К.И. Скрябина, 1967. - Вып. 1. - с. 47-51.

UO‘T: 638.145.3

MAHALLIY POPULYASIYADAGI ASALARILAR SELEKSIYA ISHLARI ASALARI MAHSULDORLIGIGA TA’SIRI

X.B.Yunusov, *SamDVMCHBU professori, b.f.d.,*
O.A.Maxmadiyorov, *SamDVMCHBU dotsenti, q.x.f.f.d.,*
F.F.Narziyeva, *SamDVMCHBU tayanch doktoranti,*
J.O.Abdullayev, *SamDVMCHBU tayanch doktoranti,*
U.S.Tirkashov, *SamDVMCHBU talabasi*

Аннотация: *В статье рассматриваются вопросы создания высокопродуктивных линий путем селекции в местных пчелиных семьях, их зимостойкость, продуктивность семей, миграционные особенности и устойчивость к болезням.*

Annotation: *The article discusses the creation of highly productive lines through selection in local bee colonies, their winter hardiness, colony productivity, migration characteristics and resistance to diseases.*

Kalit so‘zlar: *populyasiya, ekotip, aborigen, liniya, eketeryer, interyer, onadon, seleksiya, infeksiya, invaziya, genotip.*

Mavzuning dolzarbligi: Bugungi kunda qishloq xo‘jaligining asosiy sohasi hisoblangan asalarichilikni rivojlantirish borasida ham, bir qator ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, asalarichilik sohasini barqaror rivojlanishiga huquqiy asos bo‘lgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-oktyabrdagi, “Respublikamizda asalarichilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” PQ-3327-sonli qarori bu borada muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizning “Naslchilik to‘g‘risida”-gi qonunga asosan, bugungi kunda Respublikada asalarichilik sohasida ham naslchilik fermer xo‘jaliklari tashkil etildi. Asalarichilikda ilmiy-texnik taraqqiyotni tezlashtiradigan asosiy omillaridan biri, bu seleksiya yutuqlarini ishlab chiqarishda joriy qilishdir.

Asalarichilikda seleksiya natijalari, ko‘pincha asalarilarning irsiyatiga bog‘liq bo‘ladi. Irsiyat asalarilarning nasldorlik sifatlarini belgilab bersa, tashqi muhit sharoitlari, uning namoyon bo‘lishiga va mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Boshqacha qilib aytganda, asalarining genotipi va fenotipi bir biriga chambarchas bog‘liq.

O‘zbekistonda asalari seleksiyasiga yetarlicha e’tibor berilmoqda. Chunki, respublikamizda asalari oilasi mahsuldorligini oshirishda va qishloq xo‘jaligi ekinlari gulini asalari yordamida changlantirish faoliyatini yuksaltirishda asalarichilikda seleksiya yutuqlarini qo‘llash katta ahamiyatga ega. O‘zbekiston respublikasi xududlarida asalarilarning 70 % dan ziyodi mahalliy populyasiyadagi asalarilar va ularning ekotiplari tashkil etadi. Karpat asalari zotlaridan mahalliy populyasiyadagi asalarilarning mahsuldorligini oshirishda, ulardan foydalanishning kattagina imkoniyatlari mavjud.

Bu populyasiyadagi asalarilar o‘zining yuqori kimmatli biologik, morfologik va xo‘jalik – foydali xususiyatlari bilan, ya’ni ona asalarining kunlik tuxum qo‘yishi, oilani o‘sishi va rivojlanishi, yuvoshligi va ko‘chga kam ajralib chiqishi bilan alohida ajralib turadi. Ba’zi bir eksteryer belgilari bilan tanasidagi tuklarining ranglari va biologik xususiyatlari bilan, ular ko‘pincha italyan zotli asalarilarga juda o‘xshab ketadi. Xususan, mahalliy asalari populyasiyasining tog‘li xududlarida, asrlar davomida iqlimlashgan, uning o‘ziga xos ekotipi mavjudligi katta ilmiy ahamiyatga ega. Bu ekotip asrlar dovomida, tabiiy tanlash yo‘li bilan, tog‘li sovuq iqlim sharoitida ham qishlovga juda chid-

amliligi, ortib boshqa mintaqalarda iqlimlashgan asalarilarga nisbatan, uning sovuqqa bardoshligi birmuncha oshgan.

Hozirga kunda tog‘ ekotipidagi asalarilardan seleksiya yo‘li bilan, ularni ko‘paytirib, boshqa xududlarda, nafaqat asal mahsulotlarini ko‘paytirishda foydalanmasdan, balkim qishloq xo‘jalik ekinlarining hosildorligini oshirishda, ham keng foydalanmoqdalar.

Samarqand viloyatining tog‘li xududlarida 100 mingdan ziyod asalari oilasini boqish uchun qulay imkoniyatlar mavjud. Tog‘li xududlardagi o‘simliklar olamining 60 dan ziyod oilasi, 200 xil navi va 300 turi mavjud bo‘lib, ularning 70 foizidan ziyodi asalga boy o‘simliklar turiga kiradi.

Tadqiqot o‘tkazish joyi va manbai. Tadqiqot ishlari Samarqand viloyati Tayloq tumanida, asalari oilasini rivojlanishini tezlashtirish maqsadida, “Orzu Olim Dilmurod asallari” fermer xo‘jaligida olib borildi. Har bir tajriba guruhlarida 30 tadan asalari oilalari o‘xshashlik asosida tanlab olindi. Tajriba guruhlaridagi asalari oilalaridan aprel oyida sun’iy usulda ona asalari yetishtirildi. Yetishtirilgan ona asalari qizlaridan 20 tadan namunalar olinib, ularning vazni va eksteryer ko‘rsatkichlari o‘rnagildi. Shuningdek, urug‘langan ona asalarilar vazni va ularning kunlik tuxum qo‘yishi ham hisobga olindi.

Tadqiqot natijalari. O‘tkazilgan o‘lchov ishlarimiz shuni ko‘rsatdiki, tajriba guruhlaridagi ona asalari – qizlari, tog‘li xududlarda o‘zining barcha xususiyatlarini nazorot guruhlariga nisbatan tez va yaxshi namoyon etdi. Bunday oilalarda ona asalarining kunlik tuxum qo‘yishi darajasini o‘rgandik, uning natijalari quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval ma’lumotlarining ko‘rsatishicha, may oyida ona asalari urug‘lanib qaytgach, kunlik tuxum qo‘yishi 747,2 donani tashkil etgan bo‘lsa, iyun oyida 1760,1 donani va iyul oyida esa eng ko‘p 2063 donani tashkil etgan. Bu esa nazorat guruhiga nisbatan 2,4 va 14,9 % ga ko‘pdir. Bu ko‘rsatkich hamma variantlarda statistik to‘g‘ri bo‘lib, Cv, 13,9 % ni tashkil etadi. (R>0,999).

Keyingi oylarda uning kunlik tuxum qo‘yishi oysayin pasayib borgan va sentyabr oyiga kelib 1535 donaga tushganligi aniqlandi (R>0,95). Bu-

1-jadval.

Mahalliy asalari va ularning yangi avlodlarining kunlik tuxum qo‘yishi (dona hisobida)

Tadqiqot o‘tkaziladigan vaqti	n	lim	Mahalliy ona asalari M±m	lim	Yangi seleksiyalangan avlodi M±m
Mart	10	438-638	538,3±9,1	--	--
Aprel	10	831-1031	931,2±7,3	--	--
May	10	1044-1840	1440,4±10,1	648-846	747,2±8,4
Iyun	10	1718-1980	1718,0±44	1530-1991	1760,1±10,4
Iyul	10	1690-1880	1794,1±31,4	1017-2019	2063,1±30,1
Avgust	10	1567-1766	1667,5±21,4	1642-2040	1841±18,2
Sentyabr	10	1169-1367	1268,3±18,4	1430-1635	1535,0±14,3

2-jadval.

Tajribadagi ona asalarilar vazni va ularning tuxum naychalarini soni

Guruhlar	n	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi
Ona asalari vazni (mg)	10	187,5±1,70	191,6±1,28
Tuxum naychalari soni (dona)	10	288,9±1,80	312,9±1,80
Onadon balandligi (sm)	10	3,06±0,02	3,17±0,01
Onadonnng ichki xajmi (sm^3)	10	1,06±0,01	1,09±0,01
Onadon diametri (sm)	10	0,98±0,01	1,01±0,01
Onadon chukurligi (sm)	10	2,86±0,01	2,82±0,01

lar albatta tog‘li xududlarda kechki paytlarda xavo xaroratini pasayishi va gulchang beruvchi o‘simliklar gulining kamayib, borishiga bog‘liq ekanlagidan dalolat beradi.

Shuningdek, yangi tug‘ilgan yosh ona asalarilarning vazni, undagi tuxum naychalari soni, hamda ona asalari yetishib chiqan onadonlar xajmi o‘rganildi, bu to‘g‘ridagi ma’lumotlar 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval ma’lumotlaridan ko‘ranishicha, tajriba guruhlarida ona asalari vazni 191,6±1,28 mg va (Cv, - 3,65 %) undagi tuxum naychalarini soni 312,9±1,80 donani (Cv, - 1,82 %) tashkil etgan. Nazorat guruhlarida ona asalari vazni 187,5±4,06 mg (Cv, - 4,06 %) va tuxum naychalari soni esa 288,9±1,80 donani (Cv, - 3,41 %) tashkil etdi.

Tajriba guruhlaridagi onadonlar hajmining o‘lchami ham boshqa guruhlarga nisbatan ancha farq qildi.

Tajriba guruhlarida onadonlar xajmi 1,09±0,01 va nazorat guruhlarida esa 1,06±0,01 sm^3 ni tashkil etdi. (R>0,999). Barcha onadonlar ichida ona asalari ozuqasi qoldiqlari borligi aniqlandi. Bu esa ona asalarini rivojlanishi davri-

3-jadval.

Yangi asalari liniyalarining mahsuldorligi va ularning qishlov ko‘rsatkichlari

Guruhlar	n	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi
Asal to‘plashidan oldin oila kuchi (kg)	10	9,6±0,05	13,0±0,09
Asal xosili olindi (kg)	10	29,1±7,11	36,1±4,15
Yangi ramka to‘kildi (dona)	10	3,5±1,09	5,0±4,15
Qishlov oldidan oila kuchi (25-XI) (kg)	10	6,3±0,04	6,2±1,02
Qishlov davrida asalari o‘limi (kg)	10	0,48±0,04	0,20±0,02
Qishlov davrida ozuqa sarfi (kg)	10	10,6±0,14	9,1±0,14
Ozuqa sarfi yo‘lakcha hisobida (kg)	10	1,68±0,02	1,46±0,02

da, ozuqasi yetarlicha miqdorda ekanligidan dalolat beradi.

Tajriba guruhlarida asalari qishlovi ham o‘rganib chiqildi. Qishlov davri ancha uzoq ya’ni 88 kun davom etgan bo‘lsa ham, tajriba guruhlarida asalari o‘limi deyarli kam bo‘ldi, asalari uyasi ichidagi namlik darajasi va asalarilarning ich ketish holatlari kuzatilmadi. Yangi asalari liniyalarining mahsuldorlik ko‘rsatkichlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinishicha, tajriba guruhlarida qishlov davrida ozuqa sarfi bo‘yicha har bir asalari oilasiga 9,1 kg ozuqa sarflangan bo‘lsa, nazorat guruhlarida esa 10,6 kg.ni tashkil etgan. Bu esa nazorat guruhlarida ozuqa sarfi tajriba guruhlariga nisbatan 16,4 % ga ko‘p bo‘lgan. Asalari oilasi qishlov davrida bir kunda o‘rtacha 103-120 gr gacha ozuqa asal iste’mol qilganligini ko‘rsatadi.

Bahor va yoz oylarida o‘rganilgan ko‘rsatkichlar shuni ko‘rsatadiki, asalari oilasi kuchi va uning miqdori, ona asalarining kunlik tuxum qo‘yishi, oila mahsuldorligi hamda ularning yangi mumpardali ramkalarni to‘qishi bo‘yicha tog‘li xududlarida joylashgan tajriba guruhlarida asal to‘plash mavsumidan oldin nazorat guruhlariga nisbatan ancha yuqori bo‘ldi. Bu to‘g‘ridagi ma’lumotlar 3-jadvalda keltirilgan.

Tajriba guruhlarida, ayniqsa, oila kuchi bo‘yicha, ular nazorat guruhiga nisbatan 35,4 % ga oishb ketdi. Xuddi shunday ona asalarining eng ko‘p maksimal kunlik tuxum qo‘yishi 2063,1±30,1 donani tashkil etdi yoki bu nazorat guruhiga nisbatan 14,9 % ga ko‘p (R>0,999). Ayniqsa, asal to‘plash davrida yangi liniyalarning har bir oilasidan 36,1 kg tavar asal to‘pladi. Bu esa nazorat guruhiga nisbatan 7,1 kg.ga ko‘p yoki bu 24,1 % ni tashkil etadi. Tajriba guruhlarida yangi mumpardali ramkalar to‘kish bo‘yicha ham nazorat guruhlariga nisbatan 42,8 % ga ko‘p bo‘lgan. Bular hamma variantlarda ham stetistik to‘g‘ridir. (R>0,999).

Xulosalar: O‘tkazilgan ikki yillik tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, tog‘li xududlardagi ona asalari qizlaridan tashkil topgan tajriba guruhlarida, asalari oilasi qishlovi, rivojlanish xususiyatlari, ona asalarining kunlik tuxum qo‘yishi, asal va mum mahsulodorligi, kam ko‘ch ajratishi ancha yuqori bo‘lganligidan dalolat beradi. Shularni hisobga olib, yangi yaratilayotgan asalari liniyasi juda qimmatli genotip ekanligi, ular mustahkam, doim bir xil bo‘lib, o‘zgarmasligi, o‘zining ijobiy xususiyatlarini yangi avlodlariga tez bera olishi bilan tavsiflanadi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Методы проведения научно-исследовательских работ в пчеловодство. г. Рыбное, 2002.

2. Крахотин Н.Ф. Медоносные угодья высокогорий для павильониого пчеловодства Сборник “Кормопроизведство, кормление и содржание с/х.ных животных”. Труды УзНИИЖ, Тошкент, 1980, стр. 67-70.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublikamizda asalarichilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3327 sonli qarori. Qishloq xayoti gazetasi, 2017 yil 17 oktyabr.

4. Тўраев О.С., Алимов Ш.М., Юулдошев А., Норбоев М. Пскомский горный экотип местной популяции пчел Узбекистана Сборник научных трудов “Современние тенденции развития аграрного комплекса”. Астрахань. 2016, стр.1104-1106.

5. Тўраев О.С., Махмадияров О.А., Куччиев О., Норбоев М. Селекция местной популяции медоносный пчел в Узбекистане. Сборник научных трудов “Современнье тенденции развития аграрного комплекса”. Астрахань. 2016, стр.1107-1109.

УДК: 619:636.7:616.995.1:615:616

DRACOCEPHALUM KOMAROVII МАҲАЛЛИЙ ЎСИМЛИГИДАН ТАЙЁРЛАНГАН ЭКСТРАКТНИНГ ИТЛАРДА АНТИГЕЛЬМИНТИК САМАРАДОРЛИГИ БЎЙИЧА КЛИНИК ВА ПАРАЗИТОЛОГИК КЎРСАТКИЧЛАРНИ АНИҚЛАШ

Н.М.Мухитдинова[1], Т.Ж.Абдиева[2], Н.Б.Каримова[3], А.А.Сафаров[4];

[1]Самарқанд давлат ветеринария медицинаси, чорвачилик ва биотехнологиялар университети Тошкент филиали таянч докторанти;

[2]Самарқанд давлат ветеринария медицинаси, чорвачилик ва биотехнологиялар университети Нукус филиали таянч докторанти;

[3]Республика ҳайвонлар касалликлари ташхиси ва озиқ-овқат маҳсулотлари хавфсизлиги давлат маркази директори;

[4]Ветеринария ва чорвачиликни ривожлантириш қўмитаси бошқарма бошлиғи

Аннотация. *В данной статье описаны результаты применения экстракта Dracocephalum komarovii в качестве перспективного фитотерапевтического противогельминтного средства против гельминтоза у собак.*

Abstract: *This article describes the results of using Dracocephalum komarovii extract as a promising phytotherapeutic anthelmintic agent against helminthiasis in dogs.*

Калит сўзлар. *Итлар гельминтозлари. Dracocephalum komarovii экстракти. Фитотерапевтик восита. Антигельминтик. Клиник ва паразитологик кўрсаткичлар.*

Кириш. Бугунги кунда жаҳон ветеринария паразитологиясида итсимонлар (Canidae) оиласига мансуб ҳайвонларда учрайдиган гельминтозлар, уларнинг фауна таркиби, тарқалиши, эпизоотологик хусусиятлари ҳамда экологик омиллар билан ўзаро боғлиқлигини ўрганиш масаласи энг долзарб тадқиқот йўналишларидан бири ҳисобланади. Мазкур йўналишда амалга оширилаётган фундаментал ва амалиётга йўналтирилган илмий изланишлар нафақат ҳайвонлар соғлиғини сақлаш, балки инсон саломатлиги учун хавф туғдирувчи зооноз касалликларни баҳолаш нуқтаи назаридан ҳам муҳим аҳамиятга эга (Siyadatpanah et al., 2020).

Одамлар билан яқин алоқада бўлган уй итларининг гельминтозларини доимий равишда мониторинг қилиб бориш ва қарши кураш чораларини ишлаб чиқиш долзарб масалалардан саналади.

Антигельминтик воситаларнинг аксарияти ўз таъсирини гельминтларнинг ўсиши ва ривожланишини сусайтириш ёки уларни нобуд қилиш орқали намоён этади. Паразитар касалликларни келтириб чиқарадиган гельминт турларининг катта хилма-хиллиги ушбу йўналишдаги курашни мураккаблаштиради. Шу муносабат билан, синтетик бирикмаларга нисбатан хавфсиз деб ҳисобланадиган ўсимликка асосланган ан-

тигельминтик воситаларни қўллашга қизиқиш ортиб бормоқда. Ўсимлик манбаали альтернатив воситалар арзон табиий ресурс бўлиб, айрим ҳолларда улар синтетик антигельминтик препаратларга нисбатан юқори самарадорликка эга эканлиги қайд этилган (Karumari et al., 2014, Zirintunda et al., 2022).

Lamiaceae оиласига мансуб *Dracocephalum komarovii* (маҳаллий номи “бўзбош”) ўсимлиги Марказий Осиё флорасида учрайдиган эфир мойли доривор ўсимлик ҳисобланади. Унда биологик фаол моддаларнинг юқори концентрацияси мавжуд бўлиб, халқ табобатида яллиғланишга, микробларга қарши ва ошқозон-ичак касалликларида қўлланиб келинган. Сўнгги йилларда ушбу ўсимликдан олинган моддаларнинг гельминтларга қарши фаоллиги қишлоқ хўжалик ҳайвонларида, жумладан қўй ва эчкилар нематодозларига қарши антигельминтик восита сифатида қўлланилмоқда (Тожибоев и др., 2019, Амиров, 2025).

Ўсимликнинг биокимёвий таркиби ўрганилганда қуйидаги асосий компонентлар мавжудлиги аниқланди: эфир мойлари (1 - 3 %), линалоол, гераниол, цитронеллол, тимол, карвакрол, флавоноидлар, апигенин, лютеолин, фенол кислоталари, розмарин кислотаси, кофей кислотаси, таннинлар ва терпенлар. Ушбу моддаларнинг кўп қисми антибактериал, антиоксидант ва антигельминтик фаолликка эга эканлиги илмий адабиётларда кўрсатилган. Мазкур маҳаллий ўсимликнинг юқорида келтирилган кимёвий таркибдан ва фармокологик хусусиятларни инобатга олган ҳолда итлар гельминтозларига Ўзбекистон шароитида илк бор қўлланилди. *Dracocephalum komarovii* ўсимлиги таркибидаги эфир мойлар ва флавоноидлар итлардаги гельминт инфекцияларига қарши истиқболли фитотерапевтик агент сифатида қаралиши мумкин. Бироқ, уни амалий ветеринарияга тўлиқ жорий этиш учун кенг кўламли клиник синовлар, хавфсизлик протоколлари, фармакокинетик тадқиқотлар олиб борилиши зарур.

Материал ва методлар. Тадқиқотларда *Dracocephalum komarovii* ўсимлигининг ер устки қисмларидан олинган экстрактнинг итлар гельминтларига қарши самарадорлиги аниқланди. Бунда тадқиқотлар 2024-йил февраль-март ойларида Тошкент вилояти Пискент туманида жойлашган “Меҳр” номли ҳайвонларни вақтинча сақлаш марказида сақланаётган турли ёш ва жинсдаги жами 30 бош итларда тажрибалар ўтказилди. Тажрибаларда уй итлари 15 тадан икки гуруҳга ажратилди: тажриба гуруҳига *Dracocephalum komarovii* экстракти берилди, назорат гуруҳига эса антигельминтик восита берилмади. Олинган натижалар статистик таҳлил қилинди.

Натижалар. Итларга экстракт беришдан олдин ҳар икки гуруҳда ҳам паразитар зарарланиш даражаси деярли бир хил эканлиги аниқланди (1850 ± 420 ва 1790 ± 460 тухум/г). Тажрибаларнинг 7-кунида тажриба гуруҳида 1 грамм нажасда аниқланган гельминт тухумлари сони 420 ± 160 гача пасайган бўлса, 14-кунда у янада кескин камайиб, 120 ± 80 тухум/г ни ташкил этди. Бу 93,5 % самарадорликка тенг ҳисобланади. Назорат гуруҳида эса 1 грамм нажасда аниқланган гельминт тухумлари сони амалда ўзгармаган - фақат 14 % камайиш кузатилган. Натижалар ўртасидаги фарқ статистик жиҳатдан муҳим ($p<0.001$) (1-жадвал).

Ушбу ҳолат экстрактнинг аниқ антигельминтик таъсирга эгалигини кўрсатади. Экстракт қабул қилган итларда ич кетиш ҳолатлари 7/15 дан 1/15 гача камайган, иштаҳа пастлиги 6/15 дан 1/15 гача камайган. Назорат гуруҳида эса бундай ижобий динамика кузатилмаган.

Озиқланиш ҳолати ва вазн ўзгариши таҳлил қилинганда тажриба гуруҳида вазн ўртача +0.8 кг ($p<0.05$), назорат гуруҳида эса −0.1 кг. Бу ҳам экстракт таъсирида паразитоз оқибатларининг

1-жадвал

Dracocephalum komarovii экстрактининг итларда антигельминтик самарадорлиги бўйича клиник ва паразитологик кўрсаткичлар динамикаси

№	Кўрсаткич	Тажриба гуруҳи (15 бош)	Назорат гуруҳи (15 бош)
1.	Тажрибадаги итлар бош сони	15	15
2.	Экстракт беришдан олдин (тухум/г)	1850 ± 420	1790 ± 460
3.	7-кундан кейин (тухум/г)	420 ± 160	1620 ± 390
4.	14-кундан кейин (тухум/г)	120 ± 80	1540 ± 370
5.	Тухумларнинг камайиш фоизи	93.5 %	14.0 %
6.	Статистик аҳамият	p< 0.001	аҳамиятли эмас
7.	Ич кетиш (экстракт беришдан олдин)	7/15	6/15
8.	Ич кетиш (14-кундан кейин)	1/15	5/15
9.	Иштаҳанинг пастлиги (экстракт беришдан олдин)	6/15	5/15
10.	Иштаҳанинг пастлиги (14-кундан кейин)	1/15	4/15
11.	Ўртача вазн (экстракт беришдан олдин)	17.8 ± 3.2 кг	18.1 ± 3.5 кг
12.	Ўртача вазн (14-кундан кейин)	18.6 ± 3.3 кг	18.0 ± 3.4 кг
13.	Ўртача вазн ўзгариши	+0.8 кг (p<0.05)	−0.1 кг
14.	Жигар ферментлари (ALT/AST)	меъёрда	меъёрда
15.	Ножўя таъсири	енгил (3/15)	кузатилмади
16.	Аллергик реакциялар	аниқланмади	аниқланмади
17.	Умумий клиник хулоса	аҳвол сезиларли яхшиланди	деярли ўзгариш кузатилмади

камайиши ва озиқ моддалар ўзлаштирилиши яхшиланганини англатади.

Қўшимча хавфсизлик баҳоси ўрганилганда жигар ферментлари меъёрда қолган. Фақат назорат гуруҳидаги 3/15 бош итда енгил ножўя таъсир кузатилган. Аллергик реакциялар аниқланмаган. Бу препаратнинг клиник жиҳатдан нисбатан хавфсиз эканлигини кўрсатади.

Олинган натижаларга кўра, *Dracocephalum komarovii* ўсимлигидан тайёрланган экстракт гельминтларга қарши 93,5 % салбий таъсир кўрсатиб, клиник ҳолатни сезиларли даражада яхшилади. Назорат гуруҳида бундай самара кузатилмади. Юқоридагилардан келиб чиқиб, мазкур модда итларда антигельминтик восита сифатида қўлланиш имкониятига эга деб ҳисобланади.

Хулоса. Олиб борилган тадқиқотлар натижалари Dracocephalum komarovii ўсимлигидан тайёрланган экстрактнинг итлар гельминтозларига қарши юқори антигельминтик самарадорликка эга эканлигини кўрсатди. Экстракт қўлланилган тажриба гуруҳида гельминт тухумлари миқдори 14 кун ичида 93,5% га камайиб, клиник ҳолатнинг сезиларли яхшиланиши, ич кетиш ва иштаҳа бузилишларининг пасайиши ҳамда тирик вазннинг ошиши қайд этилди. Назорат гуруҳида эса бундай ижобий динамика кузатилмади. Шунингдек, хавфсизлик

кўрсаткичлари экстрактнинг клиник жиҳатдан нисбатан хавфсиз эканлигини тасдиқлади. Олинган натижалар *Dracocephalum komarovii* экстрактини итлар гельминтозларига қарши истиқболли фитотерапевтик антигельминтик восита сифатида қўллаш мумкинлигини илмий асослайди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Karumari, R. J., Sumathi, S., Vijayalakshmi, K., and Ezhilarasi, S. (2014). Anthelmintic Efficacy of Sesbania Grandiflora Leaves and Solanum Torvum Fruits against the Nematode Parasite Ascaridia Galli. Am. J. Ethnomedicine 1 (5), 326–333.

2. Siyadatpanah A, Pagheh AS, Daryani A, Sarvi S, Hosseini SA, Norouzi R, Boundenga L, Tabatabaie F, Pereira ML, Gholami S, Nissapatorn V. Parasitic helminth infections of dogs, wolves, foxes, and golden jackals in Mazandaran Province, North of Iran. Vet World. 2020 Dec;13(12):2643-2648.

3. Zirintunda G, Biryomumaisho S, Kasozi KI, Batiha GE-S, Kateregga J, Vudriko P, Nalule S, Olila D, Kajoba M, Matama K, Kwizera MR, Ghoneim MM, Abdelhamid M, Zaghlool SS, Alshehri S, Abdelgawad MA and Acai-Okwee J (2022) Emerging Anthelmintic Resistance in Poultry: Can Ethnopharmacological Approaches Offer a Solution?. Front. Pharmacol. 12:774896. doi: 10.3389/fphar.2021.774896

4. Тожибаев К.Ш., Бешко Н.Ю., Шомуродов Х.Ф., Кодиров У.Х., Тургинов О.Т., Шарипова В.К. “Кадастр флоры Узбекистана Кашкадарьинская область” Издательство «Фан» АН РУз., 2019. – 256 с.



УДК: 619:636.7:576.89:616.9:615

ТОШКЕНТ ВОҲАСИ ИТСИМОНЛАРИ (CANIDAE) ГЕЛЬМИНТОФАУНАСИ ВА УЛАРНИНГ ЗООНОЗЛАР ТАРҚАЛИШИДАГИ АҲАМИЯТИ

Н.М. Муҳитдинова, *таянч докторант,*
Самарқанд давлат ветеринария медицинаси,
чорвачилик ва биотехнологиялар университети
Тошкент филиали,
С.С. Оққиев, *мустақил изланувчи,*
Самарқанд давлат ветеринария медицинаси,
чорвачилик ва биотехнологиялар университети

Аннотация. *В данной статье представлены результаты исследования видового состава, эпизоотологических характеристик и значения в распространении зоонозных гельминтозов гельминтофауны псовых (Canidae), обитающих в Ташкентском оазисе. Исследования выявили 26 видов гельминтов, относящихся к 4 классам (Cestoda, Trematoda, Acanthocephala, Nematoda), с использованием комплексных гельминтологических, молекулярно-генетических и статистических методов. Общая экстенсивность инвазии у псовых составила 81,4%. Лидерами по видовому разнообразию паразитов оказались домашние собаки (25 видов). Виды, имеющие зоонозное значение, были идентифицированы на основе молекулярных маркеров (ITS-2, COX1). Полученные результаты имеют большое значение для борьбы с зоонозными гельминтами в рамках концепции «One Health».*

Abstract. *This article presents the results of a study of the species composition, epizootological characteristics, and significance for the spread of zoonotic helminthiasis in the helminth fauna of canids (Canidae) inhabiting the Tashkent oasis. The study identified 26 helminth species belonging to 4 classes (Cestoda, Trematoda, Acanthocephala, Nematoda) using integrated helminthological, molecular genetic, and statistical methods. The overall prevalence of infestation in canids was 81.4%. Domestic dogs (25 species) turned out to be the leaders in parasite species diversity. Species of zoonotic significance were identified using molecular markers (ITS-2, COX1). The results obtained are of great importance for the fight against zoonotic helminths within the framework of the One Health concept.*

Калит сўзлар: *Canidae, гельминтофауна, зооноз, эпизоотология, молекуляр диагностика, антигельминтик восита.*

Итсимонлар (Canidae) оиласи вакиллари табиий ҳамда антропоген биоценозларда кенг тарқалган бўлиб, паразитар касалликларнинг табиий ўчоқлари шаклланишида муҳим эпизоотологик аҳамият касб этади. Айниқса, уй итлари инсонлар билан доимий ва яқин мулоқотда бўлиши туфайли зооноз гельминтозларнинг эпидемиологик занжирида трансмиссив ва контакт йўл билан юқиш жараёнларида ўзига хос "кўприк" звено вазифасини бажаради.

Зооноз аҳамиятга эга бўлган паразитлар, жумладан *Toxocara canis, Toxascaris leonina, Echinococcus granulosus* ҳамда *Dirofilaria repens* инсон саломатлиги учун юқори эпидемиологик хавфга эга бўлиб, уларнинг тарқалиши жамоат саломатлиги нуқтаи назаридан алоҳида аҳамият талаб қилади.

Ўзбекистонда итсимонлар паразитофаунасига оид илмий изланишлар мавжуд (Матчанов, 1967; Мўминов ва Аллаёров, 1968; Мўминов ва б. 1984; Сафаров и др., 2018; Сафаров, 2020, 2024) бироқ, Тошкент воҳаси шароитида замонавий молекуляр-генетик маркерлар асосида комплекс эпизоотологик мониторинг тадқиқотлари етарли даражада амалга оширилмаган. Шу жиҳатдан мазкур тадқиқот

минтақавий зооноз гельминтозларнинг ҳозирги ҳолатини баҳолаш ва илмий асосланган профилактик чора-тадбирларни ишлаб чиқиш нуқтаи назаридан долзарб ҳисобланади.

Материал ва усуллар. Тадқиқот ишлари Тошкент вилоятининг табиий ва урбанизациялашган ҳудудларида 2023-2025 йиллар давомида ўтказилди. Текширув объекти сифатида уй итлари ва ёввойи итсимонлар (бўри, чиябўри, тулки, корсак) олинди. Тадқиқотда К.Скрябиннинг (1928) тўлиқ ва тўлиқ бўлмаган гельминтологик ёриб кўриш усулидан фойдаланилди. Шунингдек, копроскопик ва ларвоскопик текширувлар, морфологик ва морфометрик идентификация, ПЗР орқали ITS-2 ва COX1 ген маркерларини таҳлил қилиш, филогенетик (BioEdit, ClustalX) ва статистик таҳлил (Biostat, OriginPro) усулларидан фойдаланилди. Инвазия экстенсивлиги (ИЭ) ва интенсивлиги (ИИ) 95% ишонч оралиғи асосида ҳисобланди.

Олинган натижалар. Тадқиқот натижаларига кўра, итсимонларда жами 26 тур гельминт аниқланди, шундан Cestoda синфига мансуб 9 тур (*Dibothriocephalus latus, Dipylidium caninum, Joyeuxiella rossicum, Mesocestoides lineatus, Taenia hydatigena, T. pisiformis, T. multiceps, Hydatigera taeniaeformis, Echinococcus granulosus*), Trematoda – 2 тур (*Dicrocoelium dendriticum, Alaria alata*), Acanthocephala – 1 тур (*Macracanthorynchus catulinus*) ва Nematoda – 14 тур (*Trichuris vulpis, Dioctophyme renale, Strongyloides stercoralis, Ancylostoma caninum, Uncinaria stenocephala, Crenosoma vulpis, Toxascaris leonina, Toxocara canis, Spirocerca arctica, Physaloptera praeputialis, Ph. sibirica, Gongylonema pulchrum, Dirofilaria immitis, D. repens*)ни ташкил этди. Умумий инвазия экстенсивлиги 81,4% даражасида қайд этилди. Паразитлар тур хилма-хиллиги ва инвазия кўрсаткичлари бўйича энг юқори натижалар уй итларида кузатилиб, уларда 25 тур гельминтлар аниқланди.

Зооноз аҳамиятга эга турлар орасида *Toxocara canis, Echinococcus granulosus, Dirofilaria immitis* ҳамда *D. repens* кенг тарқалганлиги қайд этилди. Итлар ва чиябўриларда аралаш инвазиялар 85–90% ҳолатларда учраб, паразитлар ассоциацияси таркиби 3–7 турдан иборат эканлиги кузатилди. Бу ҳолат паразит-хўжайин тизимида мураккаб биоценотик муносабатлар шаклланганлигини кўрсатади.

Молекуляр-генетик тадқиқотлар доирасида *Toxascaris leonina* турининг митохондриал COX1 гени фрагментлари секвенирланди ва олинган нуклеотид кетма-кетликлари халқаро GenBank маълумотлар базасига киритилди (1-жадвал).

Филогенетик таҳлил натижалари мазкур изолятларнинг жаҳонда қайд этилган штаммлар билан юқори даражада гомологияга эга эканлигини тасдиқлади, бу эса тур идентификациясининг ишончлилигини кўрсатади.

Олинган натижалар Тошкент воҳаси шароитида итсимонлар гельминтофаунаси юқори даражада шаклланганлигини ва урбанизациялашган ҳудудларда инвазия кўрсаткичлари нисбатан юқори эканлигини кўрсатди. Бу ҳолат санитария-гигиена омиллари, дайди итлар популяцияси зичлиги ҳамда антропоген таъсир даражаси билан изоҳланади.

Тадқиқот олиб борилган ҳудудда зооноз турларнинг кенг тарқалганлиги инсон саломатлиги учун жиддий эпидемиологик хавф туғдиради. Айниқса, болалар орасида токсокароз ва эхинококкоз касалликлари ривожланиш хавфи юқори ҳисобланади.

Молекуляр-генетик усулларнинг қўлланилиши паразитларни тур даражасида аниқ идентификация қилиш имконини бериб, эпизоотик мониторинг самарадорлигини сезиларли даражада оширади.

Хулоса. Тошкент воҳасида тарқалган итсимонларнинг гельминтлар билан умумий зарарланиш даражаси 81,4% ни ташкил

1-жадвал.

Тошкент вилоятида итларда аниқланган Toxascaris leonina паразити ва уларнинг GenBank идентификация рақамлари

№	Паразит тури	Хўжайин	Ҳудуд	GenBank тизимидаги идентификация рақами
1	*T. leonina*	Ит ва мушук	Тошкент вилояти	PV125711
2	*T. leonina*	Ит ва мушук	Тошкент вилояти	PV125712
3	*T. leonina*	Ит ва мушук	Тошкент вилояти	PV125713
4	*T. leonina*	Ит ва мушук	Тошкент вилояти	PV125714
5	*T. leonina*	Ит ва мушук	Тошкент вилояти	PV082439
6	*T. leonina*	Ит	Қорақалпоғистон	PP865013
Мос равишда GenBank тизимига кириш ҳаволалари				
1	PV125711	https://www.ncbi.nlm.nih.gov/nuccore/PV125711		
2	PV125712	https://www.ncbi.nlm.nih.gov/nuccore/PV125712		
3	PV125713	https://www.ncbi.nlm.nih.gov/nuccore/PV125713		
4	PV125714	https://www.ncbi.nlm.nih.gov/nuccore/PV125714		
5	PV082439	https://www.ncbi.nlm.nih.gov/nuccore/PV082439		
6	PP865013	https://www.ncbi.nlm.nih.gov/nuccore/PP865013		

этади. Ҳудуддда зооноз аҳамиятга эга турлар, жумладан *Toxocara canis, Echinococcus granulosus, Dirofilaria immitis* ва *D. repens* кенг тарқалганлиги ўрганилган ҳудудда инсон саломатлиги учун эпидемиологик хавф мавжудлигини кўрсатади. Олинган натижалар минтақада зооноз гельминтозларни мониторинг қилиш ва профилактика чора-тадбирларини такомиллаштириш зарурлигини асослайди.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Матчанов Н.М. К гельминтофауне собак Ташкентской области // Труды Узб.н.-и. вет. инта. – Самарканд, 1967. – 18. – С. 163-173.

2. Муминов П. Материалы по гельминтофауне собак Ферганской долины // Материалы научн. конф. об-ва гельминтолог. Узбекистана. - Ташкент, 1968. - С. 38-39.

3. Муминов П.А., Султанов М.А., Эльбусинова М., Сиддиков Б.Х., Мавлянова Р.Д. Гельминты домашных плотоядных // Экология паразитов животных северо - востока Узбекистана. – Ташкент: «Фан», 1984. – С. 55-57. 125

4. Сафаров А.А. Паразитофауна хищных млекопитающих (Mammalia: Carnivora) животных Узбекистана. Автореф. дис…док. биол. наук. (DSc). – Ташкент, 2024. -56 с.

5. Сафаров А.А. Фауна и экология паразитов собак (*Canis lupus familiaris*) мегаполиса Ташкента. Автореф. дис…доктора философии (PhD). – Ташкент, 2020. -41 с.

6. Сафаров А.А., Акрамова Ф.Д., Шакарбаев У.А., Азимов Д.А. Паразитофауна домашней собаки (*Canis familiaris*) современного мегаполиса Ташкента // Российский паразитологический журнал. - Москва, 2018. – Т.12. Вып.4. – С. 41-49.

7. Скрябин К.И. Методы полных гельминтологических вскрытий позвоночных, включая и человека.: - Ленинград.: 1-го МГУ, 1928. - 45 с.

УДК: 619:636.7:615

ИТЛАР ОРГАНИЗМИГА АНТИГЕЛЬМИНТИК ДОРИ ВОСИТАЛАРИНИНГ ТАЪСИР МЕХАНИЗМЛАРИ

С.С. Оққиев, *мустақил изланувчи,*
Самарқанд давлат ветеринария медицинаси,
чорвачилик ва биотехнологиялар университети,
Н.Б. Каримова, *директор,*
Республика ҳайвонлар касалликлари ташхиси ва
озиқ-овқат маҳсулотлари хавфсизлиги давлат маркази,
Н.М. Муҳитдинова, *таянч докторант,*
Самарқанд давлат ветеринария медицинаси,
чорвачилик ва биотехнологиялар университети
Тошкент филиали

Аннотация. *Гельминтозы у собак - одно из наиболее распространенных паразитарных заболеваний в ветеринарной практике. Противогельминтные препараты, используемые для обеспечения эффективной дегельминтизации, относятся к различным фармакологическим группам и вызывают их гибель, воздействуя на нервно-мышечную систему, энергетический обмен или метаболические процессы паразитов. В статье анализируются основные противогельминтные группы препаратов, широко используемые против гельминтозов собак в условиях Узбекистана, и их молекулярно-биохимические механизмы действия.*

Abstract. *Helminthiasis in dogs is one of the most common parasitic diseases in veterinary practice. Anthelmintic drugs used for effective deworming belong to various pharmacological groups and cause death by affecting the neuromuscular system, energy metabolism, or metabolic processes of the parasites. This article analyzes the main anthelmintic groups of drugs widely used against helminthiasis in dogs in Uzbekistan and their molecular and biochemical mechanisms of action.*

Калит сўзлар: *итлар, антигельминтиклар, фармакодинамика, бензимидазоллар, макроциклик лактонлар, празиквантел.*

Итлар орасида нематодозлар, цестодозлар ва трематодозлар кенг тарқалган бўлиб, айрим турлар зооноз аҳамиятга эга. Масалан, *Toxocara canis, Ancylostoma caninum, Echinococcus granulosus*, *Dirofilaria immitis* ва *D. repens* ветеринария ва жамоат саломатлиги нуқтаи назаридан муҳим ҳисобланади. Шунингдек, Ўзбекистон шароитида бугунги кунга қадар йиртқич сутэмизувчи ҳайвонларда, жумладан уй йиртқичларида 25 турдаги зооноз гельминтозлар қўзғатувчилари аниқланганлиги (Safarov et al., 2022, 2023; Сафаров, 2024) маълумки, антигельминтик воситаларнинг самарадорлиги уларнинг паразит организмига нисбатан селектив токсик таъсирига асосланган. Бунда препаратлар паразитнинг ҳаётий муҳим тузилмаларига таъсир кўрсатади, бироқ миқдор ва қўллаш тартибига риоя қилинганда эгаси учун нисбатан хавфсиз ҳисобланади.

Антигельминтик препаратларнинг асосий фармакологик гуруҳлари:

1. Бензимидазоллар

Бензимидазол гуруҳи вакиллари (масалан, Albendazole, Fenbendazole) кенг таъсир доирасига эга.

Таъсир механизми:

β-тубулин билан боғланиб, микротубулалар полимеризациясини блоклайди;

глюкоза транспортини издан чиқаради;

паразит ҳужайраларида АТФ синтезини сусайтиради;

энергетик танқислик натижасида гельминтлар ўлади.

Бу препаратлар асосан нематодалар ва айрим цестодаларга қарши самарали.

2. Макроциклик лактонлар

Ушбу гуруҳга Ivermectin, Milbemycin oxime каби препаратлар киради.

Таъсир механизми:

паразит нерв ва мушак ҳужайраларидаги глутаматга сезгир хлор каналларини фаоллаштиради;

ҳужайра мембранаси гиперполяризациясига олиб келади;

нейромускуляр фалаж ривожланади;

паразит организмдан чиқарилади ёки ҳалок бўлади.

Макроциклик лактонлар айниқса филяриялар, жумладан Dirofilaria immitis га қарши юқори самарадорликка эга.

3. Празиквантел ва изохинолин ҳосилалари

Praziquantel цестодаларга қарши энг самарали воситалардан бири ҳисобланади.

Таъсир механизми:

паразит тегументининг ўтказувчанлигини оширади;

кальций ионларининг ҳужайрага киришини кучайтиради;

мушакларнинг тез ва доимий қисқаришига олиб келади;

паразит деструкцияга учрайди.

Ушбу механизм айниқса Echinococcus granulosus каби цестодаларга нисбатан юқори самара беради.

4. Тетрагидропиримидинлар

Pyrantel каби препаратлар нематодаларга қарши қўлланилади.

Таъсир механизми:

никотинергик ацетилхолин рецепторларини стимуляция қилади;

доимий деполяризацияни чақириб чиқаради;

спастик фалаж юзага келади;

паразит ичак перистальтикаси орқали чиқарилади.

Фармакокинетик хусусиятлар. Антигельминтик препаратларнинг самарадорлиги уларнинг сўрилиши, биокираолишлиги ва метаболизмига боғлиқ. Масалан, альбендазол жигарда актив метаболит - альбендазол сулфоксидга айланади. Макроциклик лактонлар липофил хусусиятга эга бўлиб, ёғ тўқималарида тўпланиши мумкин.

Айрим зотларда Р-гликопротеин транспортери мутацияси туфайли ивермектинга сезувчанлик юқори бўлиши мумкин, бу невротоксик таъсир хавфини оширади.

Резистентлик муаммоси. Антигельминтикларга резистентлик глобал муаммо ҳисобланади. У β-тубулин генларидаги мутациялар, ион каналлари ўзгариши ёки дори метаболизмининг фаоллашиши билан боғлиқ бўлиши мумкин. Шу боис: препаратларни ротация қилиш, тўғри дозалаш, эпизоотологик мониторингни йўлга қўйиш муҳим ҳисобланади.

Хулоса. Итларда қўлланиладиган антигельминтик дори воситалари паразитларнинг нерв-мушак тизими, энергетик алмашинуви ва ҳужайра структураларига селектив таъсир кўрсатиш орқали юқори самарадорликни таъминлайди. Бензимидазоллар микротубулалар синтезини блоклайди, макроциклик лактонлар нейромускуляр фалаж келтириб чиқаради, пра-

зиквантел тегумент деструкциясига олиб келади, тетрагидропиримидинлар эса спастик фалажни ривожлантиради.

Рационал қўллаш, фармакокинетик хусусиятларни инобатга олиш ва резистентлик профилактикаси дегельминтизация самарадорлигини оширишда ҳал қилувчи аҳамиятга эга ҳисобланади.

Фойдалаилган адабиётлар

1. Safarov A, Mihalca AD, Park G-M, Akramova F, Ionică AM, Abdinabiev O, Deak G, Azimov D (2022) A Survey of Helminths of Dogs in Rural and Urban Areas of Uzbekistan and the Zoonotic Risk to Human Population. Pathogens. 11(10), pp. 1085.

2. Safarov A., Khan A., Azimov D., Akramova F., Saparov K., & Ben Said M. Helminth Fauna in Carnivoran Mammals from Uzbekistan // Zoodiversity, 2023. 57(4).

3. Сафаров А.А. Паразитофауна хищных млекопитающих (Mammalia: Carnivora) животных Узбекистана. Автореф. дис…док. биол. наук. (DSc). – Ташкент, 2024. -56 с.



УДК: 636.933.2.036.

КОНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЙ ТИП ОВЦЕМАТОК РАЗНОГО СМУШКОВОГО ТИПА СЕРОЙ ОКРАСКИ ГУЗАРСКОГО ЗАВОДСКОГО ТИПА

У.М. Исматов, *соискатель,* **С. Базаров,** *д.с.х.н., профессор,*
С. Сатторов, *к.с.х.н., доцент,*
Самаркандский государственный университет
ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологий

Аннотация: *В статье изучено конституциональный и смушковый тип овцематок серой окраски Гузарского заводского типа.*

Abstact: *The article examines the constitutional and fleece type of grey-colored Guzar factory type sheep.*

Ключевые слова: *Овцы серой окраски, генофонд, оттенка, расцветка, селекция, породный тип, заводские типы, завитковые типы, овцематки.*

Keywords: *Gray-colored sheep, gene pool, shade, color, selection, breed type, factory types, curly types, ewes.*

Каракульские овцы по эколого-биологическим и продуктивным особенностям отличаются от овец других пород приспособленностью к резко-континентальному климату, круглогодичному пастбищному содержанию, способностью продуцировать высокоценный мех, стойко передавать потомству хозяйственно-полезные признаки, сохраняя их в ряду поколений.

Специфика и целенаправленность племенной работы позволили значительно расширить количество породных и заводских типов, создать новые, разнообразие окрасок, расцветок, завитковое многообразие и оригинальные стада овец.

Богатый генофондный материал, сосредоточенный в высокопродуктивных заводских типах каракульских овец, являющийся результатом селекционных достижений, составляет племенную ценность породы. Рациональное и целенаправленное их использование позволит усовершенствовать методы селекции и в дальнейшем обогатить породу новыми заводскими типами овец, приспособленных к разведению в различных пастбищно-климатических зонах.

Одной из основных особенностей племенной работы в каракулеводстве является большое количество признаков, по которым ведется селекция. Среди них ведущей и наиболее важной считается извитость волосяного покрова новорожденных ягнят, образующие различные по типу и формам завитки.

В зависимости от наличия тех или иных типов и форм завитков на площади шкурки ягненка, их взаиморасположения, качества волосяного покрова они подразделяются на четыре завитковых типа - полукругло-завитковые, плоско и ребристо завитковые и ягнята с переросшим завитком.

В развитии учения о конституции большую роль сыграла теория соотносительной изменчивости Ч.Дарвина, то есть корреляции. Соотносительная изменчивость послужила основой и П. Н. Кулешову для научного обоснования им классификации типов конституции.

С. Ю. Юсупов (2005) конституция животных неразрывно связана с продуктивностью, в основе его типов лежат особенности функций организма или его отдельных систем, выражающиеся в определенном типе телосложения, темпераменте животного и характере его продуктивности. Еще на первых этапах становления каракулеводческой науки рекомендовалось

Таблица 1.

Смушковый тип овцематок	Кол-во гол	Конституциональные типи,% (X+Sx)		
		Крепкий	Грубый	Нежный
Опытная группа (n432)				
Полукруглый	154	71,0±5,03	20,1±4,26	8,9±4,02
Ребристый	119	65,7±5,11	24,2±4,33	10,1 ± 4,26
Плоский	111	56,8±5,10	27,0±4,42	17,0±4,53
Кавказский	48	59,8±6,0l	34,6±3,12	5,6±3,41
Контрольная группа (n=410)				
Полукруглый	161	65,4±4,12	26,1±3,36	8,5±2,6
Ребристый	91	62,6±4,04	22,8±3,9l	14,6±3,11
Плоский	89	51,9±3,65	23,2+3,25	24,9+3,24
Кавказский	69	58,8+3,21	34,8+4,12	6,4+4,15

при отборе и подборе овец учитывать не только качество смушки в ягнячьем возрасте, но и конституцию животного.

Учитывая значимость данного показателя, мы в условиях предгорных пастбищах племенного каракулеводческого ООО Гузар Кашкадарьинской области провели исследования по сравнительному изучению конституциональных типов серых овцематок разного смушкового типа.

Анализ приведенных в таблице 1 данных показывает, что в обеих группах наибольшее количество овец крепкого конституционального типа было отмечено у жакетного типа в опытной (71,0±5,03) и в контрольной группе (65,4±4,12). Овцематки с грубой конституцией были отмечены у кавказского смушкового типа в опытной группе (34,6±3,12), и в контрольной группе (34,8+4,12), Нежелательный нежный тип больше всего зафиксировано у овцематок с плоским смушковым типом в опытной группе (17,0+4,53), и в контрольной группе (24,9±3,24).




Рисунок 1

Данные рисунка 1 показывает, что доля овцематок крепкой конституции в рассматриваемой популяции разных смушковых типов различна. Основным селекционным направлением естественно является приплод крепкой конституции, но бараны - производители разных смушковых типов по разному передают этот показатель своему потомству. Так, больше всего этот показатель передали бараны Жакетного смушкового типа (71,0%), грубого конституционального типа было больше у кавказского типа (34,6%) и нежелательный нежный тип больше всего зафиксировано у овцематок плоского типа (24,9%). Эти различия не большие.

Таким образом, результаты сравнительного изучение конституции овцематок серой окраски в условиях южных регионов Кашкадарьии показало, что овцематки независимо от смушкового типа в основном имели крепкий тип, удельный вес овцематок грубой конституции был больше всего у кавказского типа, и у плоского смушкового типа было наименьшее количество у овцематок нежного конституционального типа.

Широкое использование в селекционном процессе конституциональ-ных особенностей овец серой окраски будет способствовать повышению качества каракулевой продукции, увеличению выхода экспортоориентиро-ванного каракуля и, в целом, экономической эффективности отрасли.

Список использованной литературы:

1. Базаров С.Р.,Сатторов С.Б. Изучение шерстной продуктивности каракульских овец сур разных конституциональных типов. Ж. Чорвачилик ва наслчилик иши №3. 2024 йил.23-24 бетлар.

2. Плохинский Н.А. Руководства по биометрии для зоотехников. Москва. “Колос”. 1969 г. 255 стр.

3. Юсупов С. Ю.-Конституциональная дифференциация и продуктивность каракульских овец разных окрасок. Монография. Самарканд, 2005г, ст.152.

4. Юсупов С., Фазилов У. Т., Газиев А., Базаров С., Сатторов С. Высокопродуктивные популяции каракульских овец Узбекистана. Самарканд 2016. 156 стр.



UDK: 636.2

MONBELYARD ZOTLI SIGIRLARNING SUT MAHSULDORLIGI

Sh.K.Amirov, *q.x.f.n., professor,*
I.N.Siddiqov, *v.f.n., katta o`qituvchi,*
Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti,
Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti,
J.T.Ilyasov, *tayanch doktorant,*
Qoraqalpoǵiston qishloq xójaligi va agrotexnologiyalar instituti

Аннотация. *В статье представлены данные о влиянии сезона отела на молочную продуктивность коров породы Монбельяр. Коровы, отелившиеся осенью в группе II, превосходили коров отелившиеся летом в группе I по молочной продуктивности на 397,0 кг (P<0,001); по содержанию жира в молоке на 17,3 кг (P<0,001); по содержанию белка в молоке на 14,7 кг и по коэффициенту молочной продуктивности на 46,6 кг или 6,0% (P<0,01). Также коровы в группе II показали превосходство по молочной продуктивности с содержанием жира 4% на 430,4 кг (**P<0,001). Коэффициент стабильности лактации составил 78,4% у коров в группе I и 81,0% у коров в группе II, что на 2,6% выше, чем в первой группе. Однако коэффициент стабильности лактации у коров в обеих группах находился в пределах нормы.*

Annotation. *The article presents information about the effect of the calving season on the milk productivity of Montbéliarde breed cows. Cows that calved in the autumn season in group II showed superiority compared with their peers in group I that calved in the summer season by 397.0 kg in the amount of milk milked (P<0.001); by 17.3 kg in milk fat yield (P<0.001); by 14.7 kg in milk protein yield and by 46.6 kg or 6.0% in the milk productivity coefficient (P<0.01). Also, superiority in the amount of 4% fat milk was observed in cows of group II – 430.4 kg (**P<0.001). The stability coefficient of lactation was 78.4% in cows of group I, while in cows of group II it was 81.0%, which was 2.6% higher than their peers in the first group. Nevertheless, in both groups of cows the lactation stability coefficient was within the normal range.*

Kalit so'zlar. *Qoramol, Monbelyard, sigir, "Qo'ng'irotboy Mexri" fermer xo'jaligi, MChJ, simmental, buqa, mahalliy Elzas qizil mollari, yog' oqsil'* sutdorlik koeffisienti va h.k.

Kirish. O'zbekistonga Monbelyard zotli qoramollar 2016 yildan so'ng keltirila boshlandi. Hozirgi kunda Respublikaning turli viloyatlarida va Qoraqalpog'iston Respublikasida o'rchitilmoqda. Ular jumlasiga Qoraqalpog'iston Respeblikasidagi Taxiatosh tumanidagi "Ashirboy ota " MChJ, Nukus tumanidagi "Qo'ng'irotboy Mexri" fermer xo'jaligi, Namangan viloyatidagi "Zaytun kafe restaurant" MChJ, Samarqand viloyatidagi "Temur Tulagan ko'chat va nihollari" fermer xo'jaligi, Sirdaryo viloyatidagi "Sardoba Temir yo'llar" MChJ, Toshkent viloyatidagi "Asl chimboy agro" fermer xo'jaligi, Farg'ona viloyatidagi "Xaydarov Sobirjon bog'i" ,"Qolgandaryo agro zamini", "Donaxon Nazarova" fermer xo'jaliklari va "Xojikulova Muxabbatxon faxri" MChJ kabilar kiradi.

Ushbu zotni ajdodlari XVIII asrda Shvesariyadan Fransiyaga keltirilgan. Shvitsariyadan keltirilgan simmental buqalar bilan mahalliy Elzas qizil mollari duragaylangan. Duragay avlodlarni yaxshi oziqlantirib, ularda maqsadli seleksiya tadbirlari olib borilishi natiyjasida monbelyard zoti shakllantirilgan. Mahalliy sharoitda tayyorlanadigan pishloqlar uchun xamoshyo sut yetishtirish maqsadida 100 yildan ortiq vaqt mobaynida Monbelyard zotli sigirlarda selektsiya ishlari olib borilganligi haqida ma'lumotlar bor.

Monbelyard zotli sigirlar yuqori sut mahsuldorlikni namoyon etishi bilan birgalikda sutining sifati bo'yicha pishloq sanoatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Material va metodlar. Ilmiy-tadqiqotlar 2022-2024 yillar davomida Qoraqalpog'iston respublikasi Nukus tumani Kerder qishlog'idagi "Qung'irotboy Mexri" fermer xo'jaligini urchitilayotgan monbelyard zotli uchinchi tog'imdagi sigirlarda o'tkazildi. Tajribada asosiy omil ; sigirlarni to'g'ish muddatlari asos qilib olindi. Tajribada ikkita guruh shakllantirilib; I-guruhi (nazorat - to'g'ish muddati yoz fasliga to'g'ri kelgan), II -guruh (tajriba – to'g'ish muddati kuz fasliga to'g'ri kelgan) uchinchi to'g'imdagi sigirlar berkitildi. Sigirlarning laktatsiyadagi sut miqdori nazorat sog'imi o'tkazish yo'li bilan aniqlandi (sog'im miqdori, yog' va oqsil oyda bir marta); sutning yog'liligi, oqsil miqdori Laktan 1-4 M analizatorida; sigirlarning sutdorlik koeffitsienti, yog' chiqimi, oqsil chiqimi, 4 % yog'li sut miqdori va sutdorlik koeffisienti umum qabul qilingan formulalar asosida hisoblandi; sigirlarning tirik vazni ertalab oziqlantirilmasdan va sug'orilmasdan tarozida tortib aniqlandi. Tajribalar natijasida olingan ma'lumotlarga N.A.Ploxinskiy tomonidan ishlab chiqilgan variasion statistika talablari asosida o'rtacha arifmetik miqdor va uning xatosi, o'zgaruvchanlik (variatsiya) koeffisientini hisoblash yo'li bilan biometrik ishlov berildi. Olingan raqamli ma'lumotlarni qayta ishlash personal kompyuterning Microsoft Excel 97 dasturidan foydalanib amalga oshirildi.

Olingan natijalar va tahlili. Sigirlar etuk yoshga uchinchi laktatsiyadan so'ng erishadi. Biz tajribalarimizda turli fasllarda tuqqan sigirlarning sut mahsuldorlik ko'rsatkichlarini uchinchi laktatsiya kesimida o'rgandik va tahlil qildik.

Uchinchi laktatsia davomida II-guruhdagi sigirlar I-guruhdagi tengqurlaridan sog'ilgan sut miqdori bo'yicha 397,0 kg yoki 8,65 % ga (P<0,001); sut yog'i chiqimida 17,3 kg yoki 9,52 % ga (P<0,001); sut oqsili chiqimi bo'yicha 14,7 kg yoki 9,32 % ga va sutdorlik koeffisienti ko'rsatkichida 46,6 kg yoki 6,0 % ga ustunlikni namoyon etdi (P<0,01). Shuningdek, 4%-li yog'li sut miqdori bo'yicha ham ustunlik II-guruhdagi sigirlarda kuzatildi 430,4 kg (**P<0,001).

Uchinchi laktatsiya davrida sigirlarning tirik vazni ko'rsatkichida farq ham ikkinchi guruhdagi ustunligida kechib, 46,6 kg ga yoki 6 ,0 5 ni tashkil etdi.

1-jadval.

Monbelyard zotli sigirlarning III-laktatsiyadagi sut mahsuldorlik ko'rsatgichlari, (n-15) $X \pm S_x$

Ko'rsatkichlar	I guruh (nazorat)		II guruh (tajriba)	
	$\overline{X} \pm S\overline{x}$	Cv, %	$\overline{X} \pm S\overline{x}$	Cv, %
Sog'ilgan kunlar soni, kun	305		305	
Laktatsiyadagi sog'ilgan sut, kg	4588,7±61,60	5,20	4985,7±67,55**	5,25
Sutdagi yog' miqdori, %	3,96±0,02	2,07	3,99±0,02	2,28
Sutdagi oqsil miqdori, %	3,44±0,02	2,09	3,46±0,02	2,61
Sut yog'i chiqimi, kg	181,6±2,72	5,80	198,9±2,66**	5,18
Sut oqsil chiqimi, kg	157,7±2,40	5,90	172,4±2,77*	6,23
4%-li yog'li sut miqdori, kg	4542,8±68,03	5,80	4973,2±66,54**	5,18
Tirik vazn, kg	595,7±3,78	2,45	610,3±4,46*	2,83
Sutdorlik koeffisienti	770,3±11,56	6,18	816,9±15,22*	6,23

Eslatma: *P<0,01; **P<0,001.

2-jadval.

Sigirlarning III laktatsiya oylari davomida sut miqdorining o‘zgarishi, $\overline{X} \pm S_{\overline{x}}$

Laktatsiya oylari, oy	Sog‘ilgan sut miqdori, kg	Sutdagi yog‘ miqdori, %	Sutdagi yog‘ chiqimi, kg	Sutdagi oqsil miqdori, %	Sutdagi oqsil chiqimi, kg
I guruh (nazorat)					
I	509,3±11,88	3,90±0,02	19,9±0,49	3,62±0,05	18,5±0,61
II	735,2±10,10	3,80±0,01	28,0±0,44	3,41±0,04	25,1±0,56
III	635,3±6,00	3,96±0,02	25,1±0,30	3,47±0,03	22,0±0,29
IV	581,3±12,64	3,92±0,03	22,8±0,64	3,35±0,03	19,5±0,51
V	512,3±12,64	3,93±0,02	20,1±0,37	3,22±0,01	16,5±0,34
VI	436,8±6,35	3,99±0,01	17,4±0,29	3,30±0,02	14,4±0,26
VII	400,4±7,45	4,16±0,04	16,6±0,73	3,40±0,02	13,6±0,28
VIII	354,1±7,20	4,00±0,02	14,2±0,31	3,53±0,03	12,5±0,31
IX	261,0±8,73	4,07±0,01	10,6±0,36	3,57±0,01	9,3±0,32
X	163,0±5,07	4,14±0,02	6,7±0,21	3,72±0,04	6,1±0,23
Jami	**4588,7±75,56**	**3,99±0,02**	**182,9±3,11**	**3,46±0,02**	**158,8±3,26**
II guruh (tajriba)					
I	540,3±9,48*	3,89±0,02	21,0±0,41*	3,57±0,05	19,3±0,51
II	785,1±9,37**	3,79±0,02	29,8±0,40**	3,39±0,03	26,6±0,39*
III	702,2±11,28***	3,95±0,03	27,7±0,59**	3,41±0,05	24,0±0,67**
IV	638,2±10,05**	3,90±0,02	24,9±0,49*	3,34±0,06	21,4±0,61*
V	582,8±9,34***	3,92±0,03	22,8±0,48***	3,21±0,01	18,7±0,33***
VI	518,3±8,31***	3,97±0,03	20,6±0,44***	3,29±0,02	17,1±0,34***
VII	430,6±9,63**	3,98±0,04	17,2±0,51	3,39±0,04	14,7±0,49*
VIII	365,3±6,64	3,98±0,02	14,5±0,26	3,52±0,02	12,9±0,28
IX	265,7±7,80	4,06±0,01	10,8±0,31	3,56±0,04	9,5±0,34
X	157,2±5,57	4,12±0,01	6,5±0,23	3,69±0,03	5,8±0,23
Jami	**4985,7±78,14****	**3,96±0,02**	**197,3±3,53****	**3,44±0,02**	**171,6±3,62****

Eslatma: *P<0,05; **P<0,01; ***P<0,001.

Sigirlarning sut mahsuldorligiga baho berish usullari ko‘p, ammo asosiy ko‘rsatkichlardan biri bu laktatsiya qiyaligiga qarab bohalash hisoblanadi.

Laktatsiya qiyaligi (egriligi) bu- kunlik yoki oylik sog‘ilgan sut miqdorini grafikda tasvirlashdir. Laktatsiya egriligini aniqlash bilan, sigirning genetik potentsiyali haqida qo‘shimcha ma’lumotlarga ega bo‘linadi. Potentsiyalini yuzaga chiqarishda oziqlantirish, saqlash, individual xususiyatlarining ta’siri haqida tasavvur hosil qilinadi. Shu sababli biz tajribalarimizda sigirlarning laktasiya oylari kesimida sut mahsuldorligini uzgarishini o’rgandik.

Jadval ma'lumotlaridan, har ikkala guruhdagi sigirlarda eng yuqori sog'im miqdori laktatsiyaning ikkinchi oyida kuzatilganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Birinchi guruhdagi sigirlarda laktatsiyaning uchinchi oyida, ikkinchi oyiga nisbatan sut sog'im miqdori, 13,5 % ga, to'rtinchi oyida uchinchi oyiga nisbatan 11,3 % ga, beshinchi oyida to'rtinchi oyiga nisbatan 11,8 % ga, oltinchi oyida beshinchi oyiga nisbatan 14,7 % ga, yettinchi oyida oltinchi oyiga nisbatan 8,3 % ga, sakkizinchi oyida ettinchi oyiga nisbatan 11,5 % ga, to'qqizinchi oyida sakkizinchi oyiga nisbatan 26,3 % ga va o'ninchi oyida to'qqizinchi oyiga nisbatan 37,5 % ga kamaygan.

Ikkinchi guruhdagi sigirlarda bu ko'rsatkichlar qo'yidagicha yani; laktatsiyaning uchinchi oyida, ikkinchi oyiga nisbatan sut sog'im miqdori, 10,5 % ga, to'rtinchi oyida uchinchi oyiga nisbatan 11,3 % ga, beshinchi oyida to'rtinchi oyiga nisbatan 9,1 % ga, oltinchi oyida beshinchi oyiga nisbatan 11,0 % ga, yettinchi oyida oltinchi oyiga nisbatan 16,9 % ga, sakkizinchi oyida ettinchi oyiga nisbatan 15,2 % ga, to'qqizinchi oyida sakkizinchi oyiga nisbatan 27,2 % ga va o'ninchi oyida to'qqizinchi oyiga nisbatan 40,8 % ga kamaydi.

Sigirlarni sutdan chiqish munosabati bilan to'qqizinchi va o'ninchi oylarda sut sog'imini keskin kamayishi kuzatildi. Laktatsiyaning qolgan oylarida sut sog'imini pasayishida keskin o'zgarishlar kuzatilmadi. Xuddi shunga mos ravishda kunlik sog'im miqdorida ham pasayishlar kuzatilib, sigirlarni laktatsiya davomida sut berish miqdorini bir tekisda kechgan deyish mumkin.

Laktatsiyaning turg'unlik koeffitsienti I-guruhdagi sigirlarda 78,4 % ni tashkil etib, II-guruhdagi sigirlarda 81,0 % ni nashkil etib, birinchi guruhdagi tengqurlaridan 2,6 % ga yuqori bo'ldi. Shunday bo'lsada, har ikkala guruhdagi sigirlarda laktatsiyaning turg'unlik koeffitsenti me'yor darajasida bo'lgan deyish mumkin.

III-tug'imdagi sigirlarning laktatsiya oylari bo'yicha sut sog'imini o'rganganimizda, laktatsiyaning I oyida guruhidagi sigirlar 31 kg yoki 6,1 % nazorat guruhidagi sigirlardan ustunlik bilan boshlagan bo'lsa, ikkinchi oyida 49,9 kg yoki 6,8%; III oyida 66,9 kg yoki 10,5%; IV oyda 97,9 kg yoki 16, 8% ; V oyda 70,5 kg yoki 13,7% ; VI oyda 81,5 kg yoki 18,6% ; VII oyda 30,2 kg yoki 7,6% ; VIII oyda 11,2 kg yoki 3,1% ; IX oyda 4,7 kg yoki 1,8% farq kuzatildi.

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, har ikkala guruhdagi sigirlarning laktatsiyadagi doimiylik koeffitsenti hamda sut miqdorining pasayish indekslari qonuniyat bo'yicha kechdi deyish mumkin. Ikkala guruhdagi sigirlar laktatsiya oylari bo'yicha eng ko'p sog'imni ikkinchi oyda namayon etdi. Sog'in davrining doimiylik koeffitsenti va sut miqdorining pasayish indeksi kuzatilganda eng keskin o'zgarishlar laktatsiyaning to'qqizinchi va o'ninchi oylarida kuzatilib, bu o'zgarishlar sigirlarning sutdan chiqishga tayyorgarlik bilan izohlanadi.

Xulosalar.

Tadqiqotlar natijasida olingan ma'lumotlar tajribadagi har ikkala guruhdagi sigirlar laktatsiya davri bo'yicha me'yor ko'rsatkichni qayd etdi. Sigirlarni me'yor bo'yicha oziqlantirish, saqlash sharoiti bunga ijobiy ta'sir etgan deb xulosa qilish mumkin. Kuz faslida tuqqan sigirlar yoz faslida buzoqlagan sigirlarga nisbatan yuqori sut mahsuldorlikni namoyon etdi. Buni yoz faslida kunning haroratini sigirlarning sut mahsuldorligiga salbiy ta'sir etgan deb izohlash mumkin. Laktatsiyaning turg'unlik koeffitsienti I-guruhdagi sigirlarda 78,4 % ni tashkil etib, II-guruhdagi sigirlarda 81,0 % ni nashkil etib, birinchi guruhdagi tengqurlaridan 2,6 % ga yuqori bo'ldi. Shunday bo'lsada, har ikkala guruhdagi sigirlarda laktatsiyaning turg'unlik koeffitsenti me'yor darajasida bo'ldi. Sigirlarning tug'ish mavsumini kuz va qish fasliga rejalashtirish nafaqat sigirlarning sut mahsuldorligiga balkim, buzoqlarning sog'lomligiga ham ijobiya ta'sir etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алифанова Ю.П., Елисеев В.А., Востроилов А.В., Алифанов В.В. Продуктивность и технологические свойства молока животных монбельярдской породы отечественного и импортного происхождения / Вестник Воронежского госагроуниверситета. - 2015. - №2. - С.

2. Востроилов А.В. Использование монбельярдской породы крупного рогатого скота при промышленной технологии производства молока в условиях ЦЧЗ России . Актуальные вопросы ветеринарной медицины и технологии животноводства: материалы научной и учебно-методической конференции профессорского и преподавательского состава, научных сотрудников и аспирантов факультета ветеринарной медицины и технологии животноводства. - Выпуск 3, Воронеж: ВГАУ, 2014 - С.232 - 235.

3. Востроилов А.В., Востроилов С.А., Елисеев В.А. Продуктивные качества монбельярдской породы КРС в условиях молочного комплекса / Актуальные вопросы ветеринарной медицины и технологии животноводства. Материалы научной конференции. - Выпуск 3. - 2014

4. Востроилов А.В., Елисеев В.А. Молочная продуктивность животных породы монбельярд импортного происхождения / Воронежский аграрвестник №9 (162) Сентябрь 2016

5. Дунин И. Перспективы развития молочного скотоводства и конкурентоспособность молочного скота, разводимого в Российской Федерации // Молочное и мясное скотоводство. - 2013. - №3. - С.1-5.

6. Елисеев В.А., Востроилов А.В. Влияние монбельярдской породы крупного рогатого скота на качество молочных продуктов / Инновационные технологии и технические средства для АПК: материалы международной научно-практической конференции молодых учёных и специалистов (Россия, Воронеж, 15-17 ноября 2015 г.). - Ч I. - Воронеж: ФГБОУ ВО Воронежский ГАУ, 2016. - 183-186 с.

7. Костомахин Н.М. Породы крупного рогатого скота. М.: Колос, 2011. С. 66-67-119 с ISBN 978 -5-9532-0749-2



УДК: 595.42

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ АКАРИЦИДОВ ПРОТИВ КРАСНОГО КУРИНОГО КЛЕЩА

Д.С.Вахидова, *профессор,*
Ф.Й. Болтаев, *ассистент,* **А.К.Волынкина,** *студентка,*
С.Салихова, *студентка, ТашГАУ*

Аннотация*: Поскольку в птицеводстве красные куриные клещи вызывают большие экономические потери в виде снижения мясной и яичной продуктивности, а также массовые падежи взрослых кур и цыплят авторы анной статье приводят материалы по применению современного эффективного акарицидного препарата Дельцида против клещей в промышленном птицеводстве. Изучены методы обработки помещений и самой птицы и установлены дозы и сроки проведения акарицидных обработок.*

Annotation: *Red mites represent a major economic burden on the poultry industry. The meat and egg production of chickens is declining, and chicken mortality is also observed. In this regard, the authors of the article provide materials on the use of the acaricide Delcid. The dosage and timing of application of the drug have been established, and the effectiveness of the acricide against chicken mites has also been established.*

Ключевые слова*: птичьи клещи, Dermanyssus gallinae эктопаразиты, акарициды, имаго клещей, визуальный осмотр, вирусные инфеакции, уровень чувствительности, эффективность акарицида.*

Введение. Птицеводство в Узбекистане на сегодняшний день является одной из ключевых отраслей аграрного сектора, играющей важную роль в обеспечении продовольственной безопасности, занятости сельского населения и развитии малого бизнеса. По данным Государственного комитета по статистике Республики Узбекистан, в 2022 году в стране было произведено 8,1 миллиарда яиц и свыше 600 тысяч тонн мяса птицы, при этом объем производства в частных фермерских и дехканских хозяйствах составляет более 70% от общего показателя. Планируется, что к 2026 году производство яиц достигнет 10 миллиардов, а мяса птицы — 800 тысяч тонн, что требует системного подхода к управлению здоровьем птицы и профилактике паразитарных инвазий.

Одной из самых актуальных проблем в птицеводстве Узбекистана, особенно в условиях интенсивного промышленного выращивания, остаётся заражение кур красным птичьим клещом (Dermanyssus gallinae). Этот эктопаразит широко распространён на всей территории Республики Узбекистан, особенно в регионах с жарким и сухим климатом, который способствует его быстрому размножению. Клещ паразитирует на курах, утках и другой домашней птице, питаясь кровью и вызывая у птицы анемию, стресс, потерю веса и снижение яйценоскости, что непосредственно влияет на экономические показатели хозяйства.

Исследования показывают, что при тяжёлой инвазии продуктивность яичного стада может снижаться до 20–30%, а смертность цыплят увеличивается в несколько раз. Более того, Dermanyssus gallinae является переносчиком опасных заболеваний, включая сальмонеллёз, вирусные инфекции и гемопротозоонозы, что делает борьбу с ним не только экономическим, но и санитарно-ветеринарным приоритетом.

Сложность борьбы с этим паразитом заключается в высокой устойчивости клещей к многим применяемым акарицидам, способности выживать в окружающей среде без хозяина до 8–10 месяцев и в способности скрываться в трещинах, вентиляционных каналах и других труд-

нодоступных местах птичников.

Многие акарициды вызывают у клещей резистентность и поэтому нет эффективности их применения. Также, акарициды имеют свойства накапливаться в организме птицы, т.е. в печени, в мышцах, а также в подкожной клетчатке, что является не допустимым для применения в пищу человека, так как это может вызвать отравление и изменения функций отдельных органов у людей

Цель исследования. Целью наших исследований стало изучение фауны красных клещей - эктопаразитов кур в условиях современного птицеводства и разработка эффективных схем профилактических мероприятий.

Задачи исследования:

- изучить паразитофауну сельскохозяйственных птиц на птицефабриках Сырдариьнской области;

- выявить закономерности локализации эктопаразитов на курах в зависимости от возраста, сезонности и специализации предприятия;

- изучить эффективность инсекто акарицидного действия препарата «Дельцид» на клещей D.gallinae определить экономический эффект от его применения;

- изучить эффективность препарата альфа - циперметрин против куриных клещей с помощью обработки помещений и клеток в присутствии и в отсутствии птиц.

Материалы и методы исследования. Методика проведения исследований по паразитированию красных клещей (Dermanyssus gallinae) на курах включает в себя несколько этапов: визуальный осмотр птиц и помещений, сбор клещей для идентификации и лабораторных исследований, а также оценку степени поражения птиц

Визуальный осмотр птиц: Осмотр проводили в вечернее или ночное время, когда клещи наиболее активны и выходят из укрытий. Осматривали оперение кур, уделяя внимание области вокруг клоаки, под крыльями и на груди. Обращали внимание на наличие клещей, их количество и признаки поражения кожи (покраснения, ранки).

Лабораторные исследования:

Собранных клещей направляли в лабораторию для идентификации и определения вида (красный куриный клещ - Dermanyssus gallinae).

При необходимости проводили микроскопическое исследование соскобов кожи птиц для выявления клещей и их яиц.

Осматривая птицу, обращали внимание на цвет и целостность кожного покрова и перьев, а также на состояние основания перьев на предмет наличия эктопаразитов, лапы птиц осматривали на предмет паразитирования клещей. При постановке диагноза использовали эпизоотологические данные, клинические признаки и данные лабораторных исследований. Кроме клинического осмотра птиц разных возрастных групп проводилось тщательное паразитологическое обследование всех птицеводческих хозяйств, на предмет обнаружения эктопаразитов птиц, осмотру подвергали клетки, яичные транспортеры и яичные ленты, стыки конструкций, кормушки, полы и пр. в разных батареях на разных ярусах и производственных залах.



Рис.1. Колонии клещей D. Gallinae

Вид клещей определяли при просмотре в лупу МБС 10, сверяясь с паразитологическим

атласом. При просмотре проб обнаруживались клещи на всех стадиях развития – яйца, личинки, нимфы и имаго способствовать распространению инвазий между птицефабриками



Рис.2 Имаго клещей

Выявление закономерностей локализации эктопаразитов на курах в помещениях в зависимости от возраста, сезонности и специализации предприятия

При паразитологическом обследовании птицеводческих предприятий были обнаружены только клещи D.gallinae. Клещи паразитировали только на куроводческих предприятиях, направленных на получение яичной продукции при клеточных условиях содержания. Колонии красного куриного клеща были обнаружены во всех местах производственных залов, но чаще ближе к центру зала, на уровне 2-3 ярусов (колонии в этих местах особенно крупные). При этом колонии клещей находили и в зимнее и в летнее время, очевидно, это связано с установкой постоянного микроклимата помещений для содержания птиц. Также не было выявлено закономерностей локализации паразитов в зависимости от возраста птиц.

При исследовании типовых производственных залов была установлена закономерность между движениями воздушных масс в помещении и количеством красных куриных клещей D.gallinae в 1г субстрата, а именно: чем меньше движение воздушных масс, тем больше клещей находили в пробе субстрата.

Результаты исследованию. Для борьбы с клещами у кур с помощью Дельцида, готовиться водная эмульсия препарата и обрабатывается птичник, избегая попадания препарата на птиц, корм и воду. Дельцид эффективен против красного куриного клеща и других эктопаразитов. Растворяется Дельцид в воде в соответствии с инструкцией (обычно 1 ампула на 1,6 литра воды). Инсектоакарицидное средство для животных, которое используется для борьбы с эктопаразитами, такими как клещи, блохи, вши, и для дезинсекции и дезакаризации помещений. Препарат выпускается в виде концентрата эмульсии, который необходимо разбавлять водой перед применением.

Дельцид обладает выраженной акарицидной активностью, не вызывая при этом заметных отрицательных изменений в состоянии птиц, даже при непосредственной обработке их эффективными концентрациями препарата. Однако, этот препарат почти не изучен как и аккарицид по отношению к красным куриным клещам, не изучены санитарно-гигиенические режимы и методы применения его в условиях птицеводческих ферм. Нет утвержденных соответствующими органами рекомендаций, наставлений по применению данного препарата на практике. Дельцид обладает выраженной акарицидной активностью, не вызывая при этом заметных отрицательных изменений в состоянии птиц, даже при непосредственной обработке их эффективными концентрациями препарата. Однако, этот препарат почти не изучен как и аккарицид по отношению к красным куриным клещам, не изучены санитарно-гигиенические режимы и методы применения его в условиях птицеводческих ферм. Нет утвержденных соответствующими органами рекомендаций, наставлений по применению данного препарата на практике.

Результаты лабораторных исследований. Чувствительность красных куриных клещей к Дельциду.

В опытах были использованы красные куриные клещи, собранные в цехах по выращиванию кур. Полученные данные приведены в нижеследующей таблице.

Показатель уровня чувствительности, мкг/г	Дельцид	Хлорофос	Разница в показателях дельцида к хлорофосу
$ЛД_{10}$	0.03 0,001	11.6	11.6
$ЛД_{50}$	2.92 $^{+}_{-}$ 0.02	31.7 +- 0.4	10.7
$ЛД_{100}$	5.01 -+ 0.3	53.6 +- 0.05	10.6

На основании проведенных исследований было установлено, что Дельцид является эффективным акарицидом для чувствительных популяций красных клещей. При этом, показатель токсичности Дельцида для клещей был в 10.7 раза выше, чем у хлорофоса (по $ЛД_{50}$). Аналогичные показатели уровня чувствительности красных куриных клещей к хлорофосу получены и в опытах.

Выводы:

1. Наиболее эффективным акарицидным препаратом против красных куриных клещей является препарат Дельцид.

2. Применение 0,2 % водной эмульсии Дельцида путем опрыскивания самой птицы и помещений не вызывает отрицательных явлений в поведении кур и не влияет на яйценоскость и суточный мясной привес.

3. Разработка рекомендаций и инструкций по применению Дельцида в промышленном птицеводстве представляет цель наших дальнейших научных исследований.

Список использованной литературы

1. Абрамов В.Е. Эффективность применения препарата Ивермек OR против эктопаразитов птицы / / Птицеводство. – 2014. –№ 5. – С.1-45.

2. Акбаев М.Ш. и др. Паразитология и инвазионные болезни животных [Текст]: учеб. пособие для вузов /. – М.: Колос, 1998 – 743 с.

3. Акбаев, Р.М. Аргазидоз кур и домашней водоплавающей птицы в условиях птичников частного сектора / Российский ветеринарный журнал. Сельскохозяйственные животные. – 2012. – № 2. – С.18-19.

4. Архипов, И.А. Гарантированное уничтожение экто- и эндопаразитов в присутствии птицы /// Птицеводство. – 2014. – № 12. – С.45-48.

5. Л.А. Гайсина, Д.Г. Латыпов // Ученые записки Казанской государственной академии ветеринарной медицины им. Н.Э. Баумана. – 2014. – № 3. – С. 100-103.

6. Кошкина, Н.А. Персидский клещ Argas Persicus – паразит и переносчик инфекций у кур / Вестник АПК Ставрополья. – 2015. – № 1. – С. 109-111.

7. Лихарева А.И. Эффективность препарата «Энитраз» при обработке красного куриного клеща. Сборник научных трудов международной учебно-методической и научно-практической конференции, посвященной 95-летию кафедры паразитологии и ветеринарно- санитарной экспертизы. – 2015. – С.113-115.

8. Нагорная, Л.В. Особенности использования различных методов борьбы с красным куриным клещом / Ветеринарный журнал. – 2014. – №2. – С.45-46.

9. Сафарова М.И. Новый препарат для борьбы против красного куриного клеща / Ветеринарный журнал. – 2014. – №2. – С.45-46.

10. Сафарова М.И., А.А. Торопов // Птицеводство. – 2013. – № 6. – С. 45-46.

11. Токарев А.Н. Действие фипронила на красных куриных клещей / Теория и практика борьбы с паразитарными болезнями. – 2014. – №15. – С.319-322.

12. Ярощук, А.И. Изучение эффективности различных концентраций дельтаметрина на клещах Dermanyssus gallinae / Вопросы нормативно-правового регулирования в ветеринарии. – 2017. – № 1. – С. 58.

13. Ali, W. Laboratory screening of potential predators of the poultry red mite (Dermanyssus gallinae) and assessment of Hypoaspis miles performance under varying biotic and abiotic conditions / Veterinary parasitology. – 2012. – Vol.187. – P. 341-344.

UO‘K: 636.2.637.1/3.

SENAJ OZUQASIDAN FOYDALANISHNING SUTINING YOG‘LILIK DARAJASINI O‘ZGARISHIGA TA’SIRI

Sh.A.Abdumannonova, *talaba,*
O.Z.Javxarov, *ilmiy rahbari, q.x.f.f.d . (PhD), dotsent,*
Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Аннотация. *В статье изучено влияние введения сенажа из бобово-злаковых культур в рацион дойных коров на молочную продуктивность и качественные показатели молока. Исследования проводились в течение 305-дневной лактации в племенном фермерском хозяйстве «Тургунбой Шокиров», расположенном в Асакинском районе Андижанской области. В опыте участвовали 20 коров 2–3 лактации, разделённых на контрольную и опытную группы. В рацион опытной группы был включён сенаж с частичным сокращением кукурузного силоса. Установлено, что общий удой молока существенно не изменился, однако содержание жира и белка в молоке у коров опытной группы достоверно увеличилось. Выход молока, пересчитанного на 4% жирности, а также эффективность использования кормов повысились. Полученные результаты подтверждают целесообразность применения сенажа для повышения качества молока и экономической эффективности молочного скотоводства.*

Abstract. *This study investigated the effect of introducing legume–cereal silage (haylage) into the diet of dairy cows on milk yield and quality parameters. The experiment was conducted during a 305-day lactation period at the “Turg‘unboy Shokirov” breeding farm located in Asaka district of Andijan region. Twenty dairy cows in the 2nd–3rd lactation were divided into control and experimental groups. In the experimental group, haylage was included in the ration with a partial reduction of maize silage. The results showed that total milk yield remained almost unchanged between the groups, whereas milk fat and protein contents increased significantly in the experimental group. The yield of standardized 4% fat milk and feed efficiency were higher when haylage was used. These findings confirm that haylage can be effectively used to improve milk quality and enhance the economic efficiency of dairy production under farm conditions.*

Kalit so‘zlar. *Sog‘in sigirlar, senaj, oziqlantirish, sut mahsuldorligi, sut yog‘liligi, sut oqsili, ratsion, ozuqa samaradorligi, laktatsiya, chorvachilik, yem-xashak bazasi*

Kirish. Jahon miqyosida aholini yuqori sifatli oziq-ovqat mahsulotlari, xususan, sut va sut mahsulotlari bilan barqaror ta’minlash qishloq xo‘jaligining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Sutning biologik qiymati uning tarkibidagi oqsil, yog‘, laktoza, mineral moddalar va vitaminlar bilan belgilanib, ayniqsa sut yog‘ining miqdori va sifati uni qayta ishlash sanoati uchun muhim texnologik ahamiyatga ega. Shu bois sog‘in sigirlar sutining yog‘lilik darajasini oshirish va barqaror saqlash zamonaviy chorvachilik oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir.

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi, jumladan chorvachilik tarmog‘ini rivojlantirish davlat siyosati darajasida qo‘llab-quvvatlanmoqda. Bu jaraon aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, ichki bozorni sut va sut mahsulotlari bilan barqaror ta’minlash hamda eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish bilan bog‘liq. Mazkur yo‘nalishda sog‘in sigirlardan olinadigan sutning nafaqat miqdoriy, balki sifat ko‘rsatkichlarini, xususan yog‘lilik darajasini oshirish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Yil davomida barqaror ozuqa bazasini ta’minlashda senaj ozuqasi muhim o‘rin tutadi. Senaj yuqori namlikka ega hajmli ozuqalardan maxsus texnologiya asosida tayyorlanib, oshqozon mikroflorasi faolligini oshiradi va sut yog‘i sintezi uchun muhim bo‘lgan uchuvchan yog‘ kislotalari, ayniqsa sirka kislotasi hosil bo‘lishini rag‘batlantiradi.

Shu sababli shvis zotli sigirlar ratsionda senaj ozuqasining optimal ulushini belgilash hamda uning sut yog‘liligiga ta’sirini mahalliy sharoitda ilmiy jihatdan baholash dolzarb hisoblanadi.

Material va metodlar. Qoramolchilik chorvachilikning yetakchi sohasidir, aholini sut, go‘sht mahsulotlari va yengil sanoatni teri, shoh va boshqa xom ashyo bilan ta’minlaydi. O‘zbekistonda ishlab chiqarilayotgan sutning 98,5 foizi va go‘shtning 64,5 foizi qoramolchilikka to‘g‘ri keladi. Respublikamizda urchitilayotgan sigirlarning har biridan sog‘im davrida 2500-3000 kg. sut, 200-250 kg. go‘sht, 25-30 kg. teri va 7-8 tonnagacha organik o‘g‘it, qoramol terisidan qimmatbaho charm va qo‘shimcha mahsulotlar (qon, suyak, shox, jun va hokazolar) olinib, aholi va yengil sanoat ehtiyojlari uchun ishlatilmoqda.

Chorvachilik xo‘jaliklaridagi chorva mollari ozuqa bazasini mustaxkamlash maqsadida jami 339,7 ming gektar maydonlarga shundan, beda 135,6 ming gektar, makkajo‘xori 158,5 ming gektar, oqjo‘xori 31,8 ming gektar, xashaki lavlagi 13,8 ming gektar asosiy yer maydonlariga ozuqabop ekinlar ekilgan. Bugungi kun holatiga ko‘ra g‘alladan bo‘shagan 176,4 ming gektar yer maydonlaridan 147,7 ming gektariga (84 foiz) ozuqa ekinlari ekilgan.

Sigirlarning sut mahsuldorligini oshirishda oziqlantirish omilining o‘rni beqiyosdir. O‘rtacha, hatto kam sut beruvchi sigirlar mahsuldorligini 4000 kg va undan oshirish uchun ularni to‘g‘ri oziqlantirish asosiy omil ekanligi inkor qilib bo‘lmaydigan oddiy haqiqatdir. Ozuqalarning kimyoviy tarkibini tahlil qilgan holda balanslashtirilgan ratsion asosida qoramollarni oziqlantirish sut mahsuldorligini 30 % ga oshirishga, mahsulot yetishtirishda ozuqalarni 24 % gacha tejashga imkon beradi [7; 14-16-b.], [8; 42-43-b.], [9; 20-22-b.].

Sutdor qoramolchilikda ozuqa tayyorlashning asosiy vazifalaridan biri 1 kg ozuqa tarkibida 10,5-11,0 megajoul almashinuvchi energiya; 15-18 % (boshoqli ekinlar) va 18-23 % dukkaklilar) xom protein bo‘lgan yuqori sifatli dag‘al va shirali ozuqalar bilan ta’minlashdir. Bunday ozuqalar konsentrat ozuqalarni juda kam miqdorda sarflangan holda kuniga har bir sigirdan 20-25 kg sut sog‘ib olish imkonini beradi. Laktatsiyada sigirlar sut mahsuldorligini 5000-6000 kg ga yetkazish uchun ularni yuqori sifatli dag‘al va shirali ozuqalar bilan yetarli darajada ta’minlash talab qilinadi [1; 6-8-b.], [2; 32-33-b.], [10; 32-33-b.].

Laktatsiyadagi sut mahsuldorligi 4000-6000 kg bo‘lgan sigirlar sut bilan birga 144-220 kg oqsil, 150-200 kg yog‘, 200-300 kg sut shakari (laktoza), 6-9 kg kalsiy va 4,5-7 kg fosfor moddalarini chiqarib yuboradi. Bu sigirlar organizmida moddalar almashinuvi jarayonlarining katta kuchlanishda kechishini va oziqlantirish darajasini sut hosil bo‘lish jadalligini hisobga olgan holda tashkil etishni talab qiladi [3; pp.149.], [11; 85-b.], [4; 221-227-b.].

Sigirlar ratsionida almashinuvchi energiya va oqsilning yetishmasligi ozuqalarning me’yorga nisbatan ko‘proq sarflanishiga olib keladi. Masalan, ratsionda bu moddalarning defitsiti 15-25 % bo‘lganda har bir shartli bosh soni hisobiga 0,6-1 tonna ozuqa birligi me’yordagidan ko‘p sarflanadi [5; c. 798-806.]. [6; c. 21-23.], [12; 18-20-b.].

Oziqlantirishni noto‘g‘ri tashkil etish, xususan, ratsionning energiya, protein, mineral moddalar va vitaminlar bilan yetarli darajada ta’minlanmasligi natijasida hayvon organizmining o‘sish va rivojlanish jarayonlari sustlashadi. Bu esa mahsuldorlikning pasayishi, mahsulot sifatining yomonlashishi, immun tizimining zaiflashuvi hamda turli yuqumli va alimentar kasalliklarning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Bundan tashqari, oziqlantirishdagi kamchiliklar xo‘jalikning iqtisodiy samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, mahsulot tannarxining oshishi va foydaning kamayishiga olib keladi.

Yuqorida keltirilgan ilmiy qoidalar va amaliy talablardan kelib chiqqan holda tadqiqot ishlari Andijon viloyati, Asaka tumani hududida joylashgan “Turg‘unboy Shokirov” naslchilik fermer

xo‘jaligi sharoitida olib borildi. Sigirlarni asrash zoogigienik talablar asosida o‘rganiladi va xo‘jalikdagi asrash sharoiti bilan solishtirib tahlil qilindi.

Sigirlarga sarflangan oziqa miqdori har oyda bir marta ketma-ket 2 kun davomida nazorat oziqlantirish orqali o‘rganiladi. Bunda ratsionda berilgan haqiqiy oziqa miqdori va oxurda qolgan nushxo‘rt oziqa miqdori orasidagi farq tarozida tortish orqali aniqlanadi va hisob-kitob qilindi. (A.P.Kalashnikov va boshqalar 1993)

Tajriba davomida sigirlarning tana o‘lchamlari o‘rganilib, shu asosida tana indekslari hisoblanadi.

Sigirlarning laktatsiyasi davomidagi sut miqdori, har 10 kunda bir marta nazorat sog’imini tashkil etish orqali aniqlanadi. Sutning kimyoviy tarkibi har bir nazorat sog’imi vaqtida LAKTAN-4 asbobi yordamida, 4 % - li yog’li sut miqdori, qand, mineral moddalar, sutning energetik qiymati. N.V.Barabanshikov (1984) usulida aniqlandi.

Tajribadagi hayvonlarni iste’mol qilgan ozuqasini suti bilan qoplash xususiyati V.E Nedava (1966) usulida aniqlandi.

Olingan raqamli ma’lumotlar kichik tanlamalar usulida statistik tahlil qilindi bunda kompyuterning EXCEL dasturidan foydalanildi. Ye.M.Merkureva (1983).

Natijalar va ularning tahlili. Qishloq xo‘jalik hayvonlarini yuqori mahsuldorlikka ega qilish, ularning sog‘lom rivojlanishi va nasldorlik sifatlarini oshirish avvalo to‘laqonli, muvozanatlashgan oziqlantirish tizimiga bog‘liq. Shu nuqtai nazardan, hayvonlarni oqsil, energiya, vitaminlar, mineral moddalar hamda boshqa biologik faol moddalar bilan to‘liq ta’minlaydigan mustahkam yem–xashak bazasini yaratish, oziqalar sifatini yaxshilash, ulardan samarali foydalanish va oziqa isrofgarchiligini keskin kamaytirish bugungi kunda qishloq xo‘jaligi oldida turgan eng dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Tajribaning asosiy maqsadi — sog‘in sigirlar ratsionida senaj ozuqasining qo‘llanilishi sutning yog‘lilik darajasiga qay darajada ta’sir ko‘rsatishini aniqlash hamda ushbu ozuqaning iqtisodiy samaradorligini xo‘jalik sharoitida ilmiy asoslangan tarzda baholashdan iborat bo‘ldi.

Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun tajriba hayvonlari barcha ko‘rsatkichlari jihatdan o‘xshash bo‘lgan ikki tajriba guruhiga ajratildi. Har bir guruhga 10 boshdan, jami 20 bosh sog‘in sigir biriktirildi. Tajribaga olingan sigirlar 2–3 laktatsiya davrida bo‘lib, ularning laktatsiya davomidagi o‘rtacha sut mahsuldorligi 6411,2 kg ni, sut yog‘lilik darajasi esa o‘rtacha 3,89 % ni tashkil etdi. Tajriba hayvonlarini guruhlarga ajratishda ularning yoshi, tirik vazni, laktatsiya bosqichi, fiziologik holati hamda dastlabki mahsuldorlik ko‘rsatkichlari inobatga olindi.

Tajribaning asosiy vazifasi senaj ozuqasi hisobiga sigirlar sutidagi yog‘lilik ko‘rsatkichlarini oshirish imkoniyatlarini aniqlash va ushbu o‘zgarishlarning iqtisodiy jihatdan samaradorligini baholashdan iborat bo‘ldi. Tadqiqot natijasida sog‘in sigirlar sutining yog‘lilik darajasi bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlarga erishish hamda mahsulot sifatini yaxshilash ko‘zda tutildi.

Tadqiqot o‘tkazilgan “Turg‘unboy Shokirov” naslchilik fermer xo‘jaligida qoramollarni boqish tizimi yil davomida barqaror, bir xil oziqlantirish tipiga asoslangan bo‘lib, ratsion tarkibida siloslangan ozuqalar ustuvor o‘rin tutadi. Shu sababli, tajriba sharoitlarini xo‘jalik amaliyotiga yaqinlashtirish va olingan natijalarning ishlab chiqarish sharoitida qo‘llash imkoniyatini ta’minlash maqsadida, biz ham umumiy oziqlantirish tizimidan chetga chiqmadik.

Biroq tajriba guruhi uchun tuzilgan ratsion tarkibiga qo‘shimcha ravishda turli boshoqli va dukkakli o‘simliklardan tayyorlangan senaj ozuqasi kiritildi. Senaj kiritilishi munosabati bilan ratsiondagi makkajo‘xori silosining miqdori ma’lum darajada qisqartirildi. Bu o‘zgarish ratsionning umumiy energiya va protein balansiga jiddiy ta’sir ko‘rsatmagan holda, uning strukturasi va fermentatsion xususiyatlarini o‘zgartirishga qaratildi.

1-jadval.

Tajribadagi sog‘in sigirlarga laktatsiya davomida sarflagan ozuqalar miqdori va ularning to‘yimligi (o‘rtacha bir boshga)

№	Ozuqalar turi	Guruxlar			
		Nazorat guruxi		Tajriba guruxi	
		miqdori	ozuqa birligi	miqdori	ozuqa birligi
1	Makkajo‘xori silosi	9150	1830	5795	1159
2	Xar xil o‘simliklar senaji	-	-	2440	701,5
3	Beda pichani	1525	671	1525	671
4	Bug‘doy somoni	610	122	610	122
5	Makkajo‘xori doni yormasi	915	1220	915	1220
6	Paxta shroti	366	335,5	366	335,5
7	Bug‘doy doni yormasi	457,5	579,5	457,5	579,5
8	Arpa doni yormasi	335,5	396,5	335,5	396,5
9	Raps shroti	671	671	671	671
10	Soya uni	152,5	213,5	152,5	213,5
Ratsionning umumiy to‘yimliligi					
1	Oziqa birligi	0	6039	0	6069,5
4	Hazmlanuvchi protein, kg	796,1	0	805,2	0
6	Kalsiy, kg	48,6	0	55,8	0
7	Fosfor, kg	27,6	0	29,4	0
8	Karotin, g	267,5	0	261,4	0

Tadqiqotning asosiy maqsadi mazkur oziqlantirishdagi o‘zgarishlar, ya’ni senaj ozuqasining ratsionga kiritilishi natijasida sut tarkibidagi yog‘lilik darajasining qay darajada o‘zgarishini aniqlash va uni ilmiy asosda baholashdan iborat bo‘ldi. Shu orqali senajning sut yog‘i sinteziga ta’siri hamda uning ishlab chiqarish sharoitidagi samaradorligi o‘rganildi. Tajriba davomida sarflangan ozuqalar miqdori to‘g‘risidagi ma’lumot quyidagi jadvalda keltirilgan.

Tadqiqot 305 kun, ya’ni to‘liq bir laktatsiya davomida olib borilgani natijalarning ishonchliligini ta’minlaydi. Bu davr mobaynida sigirlarning oziqlantirilishida ratsionga keskin o‘zgarishlar kiritilmagan, faqat tajriba guruhi uchun ishlab chiqilgan ratsion tarkibiga senaj qo‘shilgan va shu hisobga makkajo‘xori silosi miqdori kamaytirilgan. Qolgan barcha ozuqalar miqdori ikkala guruhda bir xil saqlangan. Bu esa olingan natijalarni aynan senaj ta’siri bilan bog‘lash imkonini beradi.

Bir xil saqlash va parvarish sharoitida, 305 kunlik laktatsiya davri davomida o‘tkazilgan kuzatuvlar natijasida tajriba guruhidagi sigirlar sut mahsuldorligi ko‘rsatkichlari bo‘yicha nazorat guruhidagi tengqurlariga nisbatan ustunlikka ega ekanligi aniqlandi. Guruhlar kesimida olingan natijalar quyidagi jadvalda keltirilgan.

Tajriba natijalari shuni ko‘rsatadiki, sog‘in sigirlarning laktatsiya davomidagi umumiy sut miqdori nazorat va tajriba guruhlarida deyarli bir xil bo‘lib, mos ravishda 6421,4 va 6418,7 kgni tashkil etgan. Bu holat qo‘llanilgan tajriba omilining sut hajmiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri kuchli ta’sir ko‘rsatmaganini anglatadi. Shu bilan birga, sigirlarning tirik vazni va sutdorlik koeffitsientida ham guruhlar

2-jadval.

Tajribadagi sog‘in sigirlarning laktatsiya davomidagi mahsuldorlik ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar	Guruhlar			
	Nazorat guruxi		Tajriba guruxi	
	X ±Sx	C_v, %	X ±Sx	C_v, %
Laktatsiya davomidagi sut miqdori, kg	6421,4 ± 84,1	4,99	6418,7 ± 99,4	6,95
Sutining yog‘lilik darajasi,%	3,75 ± 0,035	2,83	4,28 ± 0,021	1,80
Sut tarkibidagi oqsil miqdori,%	3,43 ± 0,028	2,70	3,55 ± 0,029	2,85
Sut yog‘i chiqimi, kg	240,8 ± 4,2	6,38	274,7 ± 3,6	6,64
Sut oqsili chiqimi, kg	220,2 ± 3,3	6,07	227,8 ± 3,5	7,53
4%-li sut miqdori, kg	6020 ± 104,7	6,38	6868 ± 90,1	6,64
Tirik vazni, kg	636,2 ± 7,1	4,84	634,8 ± 5,6	3,38
Sutdorlik koeffitsienti, kg	1009,6 ± 14,4	4,58	1012 ± 26,5	9,60

**P<0,001; ***P<0,005

orasida sezilarli farq kuzatilmagan, bu esa tajriba sharoiti hayvonlarning umumiy fiziologik holati va organizm barqarorligiga salbiy ta’sir qilmaganini tasdiqlaydi.

Biroq sut sifati ko‘rsatkichlari bo‘yicha tajriba guruhining ustunligi yaqqol namoyon bo‘lgan. Xususan, sutning yog‘lilik darajasi 4,28% ni, oqsil miqdori esa 3,55% ni tashkil etib, nazorat guruhiga nisbatan statistik jihatdan ishonchli darajada yuqori bo‘lgan (P<0,001; P<0,005). Natijada tajriba guruhida sut yog‘i va sut oqsili chiqimi mos ravishda 274,7 va 227,8 kg ga yetgan. Shuningdek, 4% yog‘lilikka keltirilgan sut miqdorining ortishi (6868 kg) tajriba omili sut mahsulotining texnologik va iqtisodiy qimmatini oshirishga xizmat qilganini ko‘rsatadi.

Xo‘jalikda parvarishlanayotgan sigirlarning muhim xo‘jalik–foydali belgilaridan biri ular tomonidan iste’mol qilingan ozuqaning sut mahsulotiga aylanish darajasi, ya’ni ozuqa qoplash samaradorligi hisoblanadi. Shu maqsadda mazkur tadqiqotda tajribadagi sigirlarning oziqlantirish samaradorligini ifodalovchi ushbu ko‘rsatkichlar o‘rganildi hamda ular ilmiy asosda tahlil qilindi.

Jadval ma’lumotlari sigirlarning sut ishlab chiqarishda **ozuqa sarfi va ozuqa samaradorligi**ni solishtirish imkonini beradi. Laktatsiya davomida 1 bosh sigirga to‘g‘ri kelgan ozuqa birligi nazorat guruhida 6039, tajriba guruhida esa 6069,5 ni tashkil etgan bo‘lib, farq juda katta emas. Umumiy sog‘ilgan sut miqdori ham deyarli teng (6421,4 kg va 6418,7 kg), ya’ni tajriba sharoiti ozuqa sarfini

3-jadval.

Sigirlarning sut hosil qilishga sarflangan ozuqalar miqdori

Ko‘rsatkichlar	Guruhlar	
	Nazorat	Tajriba
Laktatsiya davomida 1 boshga sarflangan ozuqa birligi	6039	6069,5
Laktatsiyada sog‘ilgan sut, kg	6421,4	6418,7
4 %- yog‘li sut miqdori, kg	6020	6868
1 kg tabiiy yog‘likda sut ishlab chiqarishga sarflangan ozuqa birligi	0,94	0,94
1 kg 4 % yog‘li sut ishlab chiqarishga sarflangan ozuqa birligi	1,0	0,88
Har 100 kg ozuqa birligiga ishlab chiqarilgan tabiiy yog‘likdagi sut miqdori, kg	106,3	105,7
Har 100 kg ozuqa birligiga ishlab chiqarilgan 4 % yog‘likdagi sut miqdori, kg	0,99	1,13

keskin oshirmasdan turib sut hajmini saqlab qolishga erishilgan.

Asosiy farq sutning **sifat ko‘rsatkichlariga bog‘liq samaradorlikda** namoyon bo‘ladi. Tabiiy yog‘lilikdagi 1 kg sut ishlab chiqarishga sarflangan ozuqa birligi har ikki guruhda bir xil (0,94) bo‘lgani holda, **4 % yog‘lilikka keltirilgan sut uchun tajriba guruhida ozuqa sarfi kamaygan** (0,88 va 1,0). Bu tajriba guruhida ozuqaning sut yog‘i hosil qilishga yaxshiroq yo‘naltirilganini ko‘rsatadi. Natijada har 100 kg ozuqa birligi hisobiga olingan 4 % yog‘lilikdagi sut miqdori tajriba guruhida yuqori bo‘lgan (1,13 kg va 0,99 kg). Shunday ыilib, tajriba omili ozuqa sarfini oshirmasdan, **ozuqaning qiymatini yaxshiroq “sut yog‘i”ga aylantirish samaradorligini oshirgan**, bu esa ishlab chiqarishning iqtisodiy jihatdan maqbulligini ta’minlaydi.

Xulosa. Tajriba guruhida sigirlarni boshqli-dukkakli o‘simliklardan tayyorlangan senaj asosida oziqlantirish laktatsiya davomida tabiiy sut hajmini kamaytirmadi, aksincha, sut mahsuldorligini barqaror darajada saqlab turishni ta’minladi. Bu holat senajning energiya va ozuqa moddalari bilan ta’minlash qobiliyati yuqori ekanini, uni an’anaviy oziqalarga samarali muqobil sifatida qo‘llash mumkinligini ko‘rsatdi.

Senajning ratsion tarkibiga kiritilishi natijasida sutning yog‘lilik darajasi va oqsil miqdori sezilarli ravishda oshgani kuzatildi. Bu holat senaj tarkibidagi uglevodlar, qandli moddalar va oqsillar qoramol organizmda to‘liqroq hazm bo‘lib, sut bezlaridagi sintezlanish jarayonlarni faollashtirishi bilan izohlanadi. Natijada olingan sutning oziqaviy qiymati va texnologik sifat ko‘rsatkichlari yaxshilandi.

Bazis yog‘lilikka qayta hisoblangan sut miqdorining tajriba guruhida yuqori bo‘lishi mahsulot sifatining yaxshilanishi hisobiga qo‘shimcha iqtisodiy samara olish mumkinligini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Bu holat xo‘jaliklarda sut hajmidan ko‘ra uning sifat ko‘rsatkichlarini oshirish orqali ham daromadni ko‘paytirish imkoni borligini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ashirov M.E., Soatov U. va boshqalar. Turli genotipdagi shvis zotli sigirlarning sut mahsuldorligi. //Respublika ilmiy –amaliy konferensiya materiallari. Toshkent. 2011. 6-8 b.

2. Ashirov M.E., Sodiqova K., Nasriddinov Yo. Shvis zotli sigirlarning sut mahsuldorligini takomillashtirish. // Zooveterinariya. 2014. № 9. 32-33 b.

3. Javkharov, O., Madrakhimov, S., & Khudaybergano-va, K. (2024). Requirements for cows in the organization of industrial milk production. BIO Web of Conferences, 149, 01026.

4. Kholbekova, M. B., Amirov, S. K., & Javxarov, O. Z. (2023). Full-value feeding – a guarantee of high productivity. Academic Research in Educational Sciences, 4(4), 221–227.

5. Javxarov O. Z., Saidov M. M. SUT IShLAB ChIQARIShNI SANOAT TEXNOLOGIYaSI ASOSIDA TAShKIL ETIShDA SIGIRLARGA QUYILADIGAN TALABLAR // Ekonomika i sotsium. – 2024. – №. 12-1 (127). – S. 798-806.

6. Аширов М.Э. Соатов У.Р. Продуктивные свойства коров швицкой породы в зависимости от типа телосложения // Молочное и мясное скотоводство. 2015. № 6. С. 21-23.

7. Романенко Л., Волгин В., Федорова З. Контроль полноценности кормления высокопродуктивных коров.// “Молочное и мясное скотоводство”. Москва, 2010, №3, с.-14-16.

8. Иванов А. Снижаем долю концентратов – повышаем надои. // Животноводство России 2015, № 12, С.-42-43.

9. Гаврин Д., Кряжева В. К вопросу о полноценности кормления лактирующих коров. // “Молочное и мясное скотоводство”. Москва, 2010, №4, с.-20-22.

10. Езерская Ю. Источник глюкозы-Нутемикс MS Энерджи. // Животноводство России. 2015, № 4, с. 32-33.

11. Погодаев С.Ф. Проверка и отбор первотелок. М. Агропромиздат. 1989 – 85 с.

12. Таранович А. Защищенные жиры и белки в кормлении высокопродуктивных коров. // “Молочное и мясное скотоводство”. Москва, 2010, №4. с.-18-20.

УДК: 636.082.22/28

ДИНАМИКА ФИЗИОЛОГИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ И МОРФОЛОГИЧЕСКИХ ИЗМЕНЕНИЙ В КРОВИ БЫЧКОВ СИММЕНТАЛЬСКОЙ ПОРОДЫ И ПОМЕСОВ

Шодлик Мадрахимов, *д.с/х.н., доцент,*
Даниёр Эрназаров, *PhD,*
Нукусский филиал
Самаркандского государственного университета
ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологий

Аннотация. *В статье описаны физиологические и морфологические показатели крови в период роста и развития бычков первого поколения (F_1), полученных от симментальской породы разных генотипов и промышленного скрещивания.*

Summary: *The article describes the physiological and morphological blood parameters during the growth and development period of first-generation (F_1) bulls obtained from Simmental breed of different genotypes and industrial crossbreeding.*

Ключевые слова: *физиологический, морфологический, помесный, генотип, симменталский, биометрия, гематольметр, сетка Горяева.*

Введение. Современный этап развития отрасли скотоводства характеризуется последовательностью и комплексностью влияния эколого-хозяйственных условий на физиологическое состояние организма в период онтогенеза. Эта проблема не теряет своей актуальности, а всё больше приобретает значение при получении животных способных к интенсивному росту и формированию высокой продуктивности (Габидулин В.М., Алимова С.А., 2017).

Зависимость домашних животных от климатических и вообще от экологических условий в значительной степени уменьшается и изменяется человеком. При этом наибольшее значение приобретают искусственные условия: кормление, содержание, разведение (с соответствующим отбором и подбором наиболее приспособленных особей) и эксплуатация, направляющие развитие и продуктивность животных в желательную для человека сторону, и в то же время ослабляющих роль так называемых «ограничивающих» климатических факторов (Исхаков Р.Г., 2013).

Постоянство внутренней среды и устойчивость основных физиологических функций характеризует состояние здорового организма. Любое влияние или воздействие (физическое, химическое, физиологическое, эмоциональное) может вызвать нарушение динамического равновесия организма, оказаться «отклоняющим» или «возмущающим» (Емельяненко А.В., 2020). Выражение «постоянство внутренней среды» следует отнести не к самой «внутренней среде», которая как раз имеет тенденцию к значительным флуктуациям, а к рецепторам, воспринимающим изменения этой среды и через центральную нервную систему регулирующим работу различных механизмов, поддерживающих постоянство отдельных компонентов внутренней среды (Колпаков В.И., 2020).

Важнейшей функцией следует считать функцию защиты организма. Возмущающие

воздействия (раздражения) вызывают изменения регулируемой величины, которые должны устраняться системой регулирования. Возмущения могут вызываться только внешней средой, совокупность внутренних факторов адаптационных механизмов способствует возврату в состояние равновесия (Косилов В.И., 2020).

Определенная специализация в ходе интенсификации скотоводства фактически также предусматривает выделение нескольких уровней динамического состояния организма (Мадрахимов Ш.Н, Абдурасулов А.Х. 2024). Для молочного скотоводства можно выделить следующие уровни:

1) минимальный-экстенсивное содержание аборигенных пород с минимальным уровнем молочной продуктивности, с высокими адаптивными способностями как взрослых особей, так и молодняка, и устойчивости к воздействию региональных сочетаний экосистемы факторов;

2) большинства-полу интенсивное содержание улучшенных пород с более высокой молочной продуктивностью, требующее антропогенного обеспечения защиты животных от экстремального воздействия факторов внешней среды и поддержания в животноводческих помещениях относительно нормированных условий содержания и кормления взрослых особей и молодняка;

3) идеальный-интенсивное содержание высокопродуктивных молочных коров с высоким уровнем защиты животных от неблагоприятного воздействия факторов внешней среды и обеспечением оптимальных условий содержания и кормления по специальным рационам с высокими затратами на профилактику и лечение болезней коров и телят;

4) специальный-отдельные особи с высочайшей молочной продуктив-ностью по породе (рекордистки), с высоким уровнем антропогенного обеспечения, специальным уходом, точно сбалансированным рационом кормления.

Уревень мясной продуктивности скота и качество производимой говядины зависят от многих факторов. Прежде всего, это наследственность, которая проявляется в той или иной мере в зависимости от породных и индивидуальных особенностей животного. Важнейшими факторами, влияющими на этот показатель, являются факторы внешней среды – это кормление и содержание животных. Эти факторы находятся в тесном взаимодействии, установить степень влияния отдельно взятого фактора на мясную продуктивность, крайне затруднительно. Общеизвестно, что наследственность предопределяет, а условия внешней среды обеспечивают развитие организма, считается, что на кормление приходится 59,0%, на генетический фактор 24,0%, и лишь 17,0% приходится на отдельные технологические приемы.

Цель исследования. Изучение физиологических и морфологических показателей крови в период роста и развития симментальских бычков разных генотипов и их помесей в разрезе сезонов года.

Материал и методы исследования. Исследования проводился в 2020-2023 годах на УП “Сардобинский железнодорожный агропромышленный комплекс” в системе АО “Узбекистон темир йуллари” Мирзаабадского района Сырдарьинской области.

Помесные первого поколения (F_1), полученные в результате промышленного скрещивания коров симментальской породы с семенами мясных быков, были разделены на четыре группы: I группу - чистопородные симментальские, II группу – ½ абердин-ангусские х ½ симментальские, III группе - ½ лимузин х ½ симменталские и IV группе – ½ шаролезские х ½ симменталские были отобраны из бычков по 5 голов в каждую группу.

Физиологические признаки бычков (температура тела, пульс и дыхание) в разрезе времен года изучались по методу Э.А.Арзуманяна.

Гематологические методы исследования проводились в ветеринарной лаборатории. В образцах крови определяли количество эритроцитов и лейкоцитов (методе Горяева) и количество гемоглобина (методе Сали).

Все полученные данные подвергаются биометрической обработке по методу Яковенко А.М., Антоненко Т.И., Селионова М.И. (2013).

Результаты и обсуждение исследований. Факторы внешней среды, воздействующие на физиологическое состояние бычков разных генотипов, оказывают непосредственное влияние на процессы обмена веществ. Исходя из этого, при оценке физиологического состояния бычков, полученных от промышленного скрещивания, и степени адаптации к условиям внешней среды, важное значение имеет изучение их физиологических показателей. Физиологические показатели подопытных бычков, принадлежащих к разным генотипам, в разрезе сезонов года приведены в таблице 1.

Таблица 1. Физиологические показатели бычков разных генотипов в разрезе сезонов года

Показатели	Группа (n=5)			
	I	II	III	IV
Зима (Декабр)				
Температура тела, ℃	38,2±0,09	38,1±0,05	38,3±0,07	38,3±0,12
Сердцебиение, за 1 минуту	63,6±0,51	64,2±0,20	63,8±0,37	64,2±0,37
Дыхание, за 1 минуту	24,8±0,37	25,0±0,32	25,4±0,24	25,2±0,20
Весна (Апрел)				
Температура тела, ℃	38,3±0,09	38,2±0,08	38,4±0,05	38,4±0,07
Сердцебиение, за 1 минуту	65,4±0,51	65,2±0,37	65,0±0,55	65,0±0,45
Дыхание, за 1 минуту	26,6±0,24	26,2±0,20	26,4±0,24	26,2±0,37
Лето (Июл)				
Температура тела, ℃	38,8±0,13	38,5±0,22	38,6±0,19	38,5±0,16
Сердцебиение, за 1 минуту	68,8±0,37	68,4±0,24	68,6±0,40	68,0±0,32
Дыхание, за 1 минуту	28,6±0,40	28,2±0,37	28,0±0,45	28,2±0,58
Осень (Октабр)				
Температура тела, ℃	38,5±0,09	38,3±0,11	38,4±0,23	38,2±0,13
Сердцебиение, за 1 минуту	65,6±0,51	64,8±0,37	65,0±0,45	65,2±0,58
Дыхание, за 1 минуту	26,6±0,40	28,2±0,37	28,0±0,45	28,2±0,58

Источник: Анализ данных таблицы 1 показывает, что физиологи-ческие показатели (температура тела, сердцебиение и дыхание) помесных бычков F_1 полученных при промышленном скрещивании, независимо от времени года, были на уровне физиологических параметров нормы.

Следует особо отметить, что температура тела опытных бычков в основном была выше в летний период по сравнению с зимним, весенним и осеним периодом года. В частности, температура тела опытных бычков в летний период по отношению к зимнему периоду была выше соответственно на 0,6; 0,4; 0,3 и 0,2℃, а по отношению к весеннему сезону на 0,5; 0,3; 0,2 и 0,1℃ и к осеннему периоду на 0,3; 0,2; 0,2 и 0,3℃.

Температура тела помесных бычков F_1 полученные от промышленного скрещивания, второй (II), третьей (III) и четвёртой (IV) подопытных групп по отношению к чистопородным сверстникам, была выше во все сезоны года, в частности, в зимний период на 0,2;0,3; 0,4℃ градусов, в весенний период на 0,2;0,3; 0,4℃ градусов, а также в осенний период температура тела у бычков II и III подопытных групп по отношению к зимнему периоду была выше соответственно на 0,6; 0,4; 0,3 и 0,2℃, а по отношению к весеннему сезону на 0,5; 0,3; 0,2 и 0,1℃ и в осенний период у бычков II и III подопытных групп, температура тела была выше на 0,1℃, а у бычков IV подопытной группы показатели были одинаковые.

Выяснилось, что у помесных бычков от промышленного скрещивания, второй (II), третьей (III) и четвёртой (IV) подопытных групп частота сердцебиения в летний период года в 4,2; 4,8 и 4,6 раза, была выше по сравнению с весенним периодом на 3,2; 3,6 и 3,0 раза соответственно, а по сравнению с осенним периодом на 3,6; 3,6 и 2,8 раз выше.

Было отмечено, что у бычков количество дыхательных движений также были немного выше в летний период. В частности, летом дыхание у помесных бычков F_1 второй (II), третьей (III) и четвёртой (IV) подопытных групп, количество дыхательных движений за 1 минуту было выше, по сравнению с показателями в зимний, весенний и осенний периоды года.

Например, количество дыхательных движений по сравнению с зимним периодом года было выше в 3,2; 2,6 и 3,0 раза, по сравнению с весенним периодом в 2,0; 1,6 и 2,0 раза, то в осенний период наблюдается единообразие во всех группах.

При оценке процессов обмена веществ в организме бычков разного генотипа, их общего физиологического состояния и условий внешней среды, а также уровня питательности кормов, даваемых им, изучение форменных элементов крови, то есть их морфологических показателей, имеет важное практическое и теоретическое значение.

Рост и развитие морфологических показателей крови бычков в опытных группах были изучены в разрезе времен года, результаты представлены в таблице 2.

Таблица 2.

Морфологические показатели крови бычков симметалской породы и помесов (n=5)

Группы	Показатели					
	Эритроциты, млн/мм³		Лейкоциты, тыс./мм³		Гемоглобин, г%	
	$\bar{X}\pm S_{\bar{x}}$	Cv, %	$\bar{X}\pm S_{\bar{x}}$	Cv, %	$\bar{X}\pm S_{\bar{x}}$	Cv, %
Зима						
I	6,63±0,10	3,42	7,94±0,12	3,34	10,64±0,51	10,76
II	6,84±0,09	2,88	8,15±0,17	4,73	11,45±0,49	9,63
III	6,86±0,11	3,49	8,10±0,15	4,01	11,27±0,43	8,59
IV	6,89±0,15	4,75	8,08±0,16	4,37	11,10±0,48	9,70
Весна						
I	6,88±0,07	1,92	7,98±0,11	3,18	11,05±0,49	9,93
II	6,99±0,06	2,39	8,23±0,13	3,61	11,55±0,48	9,32
III	6,92±0,08	2,51	8,19±0,15	4,17	11,43±0,50	9,75
IV	6,89±0,09	2,94	8,12±0,15	4,26	11,27±0,44	8,73
Лето						
I	7,10±0,07	2,32	8,24±0,10	2,79	11,69±0,49	9,43
II	7,30±0,10	3,06	8,45±0,12	3,05	11,93±0,31	5,82
III	7,24±0,08	2,60	8,32±0,13	3,60	11,78±0,44	8,82
IV	7,17±0,08	2,34	8,24±0,15	4,10	11,73±0,43	8,25
Осень						
I	7,01±0,08	2,61	7,95±0,11	3,05	11,10±0,46	9,19
II	7,19±0,09	2,67	8,33±0,14	3,88	11,78±0,62	11,85
III	7,14±0,08	2,45	8,26±0,13	3,49	11,58±0,72	13,84
IV	7,08±0,07	2,09	8,23±0,11	3,06	11,28±0,59	11,62

Источник: Анализ данных таблицы 2 показывает, что количество морфологических показателей (эритроцитов, лейкоцитов и гемоглобина) в крови бычков во всех группах находилось на уровне физиологической нормы и существенных различий между группами не наблюдалось.

В экспериментальных группах количество эритроцитов в крови бычков было самым высоким в летний сезон по сравнению с другими временами года.

Например, количество эритроцитов в крови гибридных бычков II, III и IV групп F_1, полученных от промышленного скрещивания в летний период года, по сравнению с зимним периодом соответственно составило 6,7; 5,5 и 4,1%, по сравнению с весенним сезоном 4,4; 4,6 и 4,1% и на 1,5, 1,4 и 1,3% выше по сравнению с осенним сезоном наблюдался.

По этим показателям помесные бычки II, III и IV групп во все сезоны года имели более высокие гематологические показатели по сравнению с бычками симментальской породы. В частности, в зимний период соответственно 3,2; 3,5 и 3,9%, весной 1,2; 0,6 и 0,1%, летом 2,8; 2,0 и 1,0 и осенью 2,6; 1,9 и 1,0 процента соответственно.

Также лейкоциты в крови количество помеса II, III и IV групп в составе крови бычков по сравнению с летним, зимним, весенним и осенним сезонами составило соответственно 3,7; 2,7 и 2,0%; 2,7, 1,6 и 1,5% и 1,4; 0,7 и 0,1% соответственно.

Эти показатели зимой составили 2,6, 2,0 и 1,8% по сравнению с бычками I группы симментальской породы, весной на 3,1, 2,6 и 1,6%, летом на 2,5, 1,0% и осенью на 4,8, 3,9 и 3,5% выше.

Аналогичные изменения наблюдались и в количестве гемоглобина в крови. В частности, количество гемоглобина в крови бычков помеса II, III и IV групп в летний период по сравнению с зимним периодом соответственно составило 4,2; 4,5 и 5,7%, весной 3,3; 3,1 и 4,2% и по сравнению с осенним сезоном 1,3;1,7 и 4,0% соответственно.

Также от промышленного скрещивания полученные помесные бычки зимой по сравнению со своими сверстниками бычков симментальской породы составили 7,6; 5,9 и 4,3%, весной 4,5; 3,4 и 2,0%, летом 2,1;0,8 и 0,3% и осенью 6,1; 4,3 и 1,6% соответственно. Эти данные свидетельствуют о том, что летом бычков кормили богатыми питательными веществами зелеными кормами, в том числе люцерновыми и кукурузными кормами, с морфологическими элементами их крови свидетельствует о насыщении.

Заключение. Физиологические показатели бычков разных генотипов в разные сезоны года были на уровне нормы. Эти данные свидетельствуют о хорошей работе сердечно-сосудистой системы в организме бычков.

Помесные бычки полученные от промышленного скрещивания, наряду с высокой живой массой имели хороший индекс жаростойкости, что свидетельствует о хорошей адаптации к специфическим жарким климатическим условиям Республики Узбекистан.

Таким образом полноценными кормами помесных бычков первого поколения (F_1), положительно влияло на увеличение в их крови форменных элементов, что в свою очередь привело к качественному улучшению процессов обмена веществ в организме, повышению адаптации к неблагоприятным условиям внешней среды и полной реализации генетического потенциала положительно влияющего на увеличение живой массы и формирование мясной продуктивности бычков полученных при промышленном скрещивании.

Использованная литература:

1. Габидулин В.М., Алимова С.А. Генотипические, биологические, физиологические особенности скота абердин-ангусской породы. //Вестник мясного скотоводства. 2017 г., №4 (100), с. 18-24.

2. Волкова С.В., Максимюк Н.Н. Физиологическое состояние родителей и резистентность

новорожденных телят //Сельскохозяйственная биология. 2008 г., №6. с. 95-99.

3. Емельяненко А.В., Кущ Е.Д., Каюмов Ф.Г., Третьякова Р.Ф., Салихов А.А. Морфологической и биохимический состав крови бычков разных пород. //Известия Оренбургского государственного аграрного университета. 2020 г., №2 (82), с. 256-259.

4. Исхаков Р.Г., Ажмулдинов Е.А., Ласыгина Ю.А. Исхаков Р.Г., Ажмулдинов Е.А., Ласыгина Ю.А. Гематологические показатели и естественная резистентнось бычков черно-пестрой, симментальской пород и их помесой с голштинами в условиях промышленного комплекса // Ж. Вестник мясного скотоводства. 2013 г., №1 (79), с. 61-64.

5. Колпаков В.И., Урынбаева Г.Н., Рагимов Г.И., Ивонин А.Н., Дубовскова М.П. Гематологические показатели и бычков разных генотипов. //Ж. Вестник мясного скотоводства. 2015 г., №4 (92), с. 70-73.

6. Косилов В.И., Комарова Н.К., Ермолова Е.М., Иргашев Т.А., Раджабов Ф.М., Никулина Н.П. Гематологические показатели чистопородных и помесных бычков. //Известия Оренбургского государственного аграрного университета. 2020 г., №4 (84), с. 252-255.

7. Скрипниченко Г.Г. Длительность использования коров с разными генотипами как показатель резистентности их организма. — Повышение генетического потенциала молочного скота. М., 1986. с. 188—191.

8. Safarov M. B., Safarov M. M. The Application of the Vitamins Complex as an Antistress Agent in Sheep Breeding. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 5699–5704. 2021 г. Retrieved from https://www.annalsofrscb.ro/index.-php/journal/article/view/729

9. Степанов Д.В., Родина Н.Д., Проблемы акклиматизации животных. //Вестник Орел ГАУ №1 (34) Научное обеспечение развития животноводства 2012 с. 89-93

10. Тузова С.А. Мясная продуктивность бычков молочных пород при интенсивной технологии выращивания. //Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата сельскохозяйственных наук. Краснодар 2021 г.

11. Madrakhimov Sh.N., Roziboev N.R. Growth and development of F1 hybrid progenies of Schwitz cows using beef breeds. // E3S Web of Conferences E3S 371, 01003 (2023), https://doi.org/10.1051/e3sconf/202337101003, (eISSN-2267-1242), p. 1-7.

12. Madrakhimov Sh.N. The effect of feeding on the expression of the hereditary opportunities of monbelyard bulis belonging to different genotypes. //EUROPEAN MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF MODERN SCIENCE ISSN 2750-6274 https://emjms.academicjourna l.io Volume: 22 | Sep-2023, P. 1-6.

13. Мадракҳимов Ш.Н., Абдурасулов А.Х. Рост и развитие бычков симментальской породы и ее помесей с Абердин-ангусской, Лимузинской и Шаролезской. // Вестник ОшГУ. Сельское хозяйство: агрономия, ветеринария и зоотехния, №2(7)/2024, e-ISSN: 1694-8696 №3(8)/2024, с. 122-131.DOI: 10.52754/16948696_2024_3(8)15.

14. Ҳ.Б.Ниёзов., Д.А.Эрназаров., Х.Ҳ.Эшқуватов. Сигирларда бармоқлараро дерматитни (мортелларо касаллиги) турли усулларда даволашнинг самарадорлиги ва қоннинг биокимёвий кўрсаткичлари // Veterinariya meditsinasi. №4/2025.B-24-26.

UO‘K: 619:636.2:616.9

BUZOQLAR VIRUSLI DIAREYA KASALLIGI

B.A.Elmurodov, *v.f.d., professor,*
I.D.Sheralieva, *v.f.f.d. (PhD), katta ilmiy xodim,*
Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Respublikaning chorvachilikka ixtissoslashgan fermer xo‘jaliklari va aholida mavjud virusli diareya kasalligi bilan zararlangan buzoqlarda kasallikning uchrashi, klinik belgilari, patologoanatomik o‘zgarishlari va oldini olish hamda qarshi kurashish chora-tadbirlar bo‘yicha umumiy ma’lumotlar berilgan.*

Аннотация: *В данной статье представлена общая информация о заболеваемости, клинических признаках, патологоанатомических изменениях, а также профилактических и контрольных мерах в отношении телят, инфицированных вирусной диареей, на животноводческих фермах и среди населения Республики.*

Abstract: *This article provides general information on the incidence, clinical signs, pathological changes, as well as preventive and control measures for calves infected with viral diarrhea on livestock farms and among the population of the Republic.*

Kalit so‘zlar: *Mikrobiologiya, epizootologiya, buzoq, virusli diariya kasalligi, vaksina, laboratoriya, oldini olish, qarshi kurash.*

Mavzuning dolzarbligi: Keyingi yillarda mamlakatimiz chorvachiligini rivojlantirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, chorvachilik mahsulotlariga (go‘sht, sut, tuxum) bo‘lgan talabni qondirish maqsadida hukumatimiz tomonidan bir qator qarorlar ishlab chiqildi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2017 yil 1 iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Davlat veterinariya qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish chora tadbirlari to‘g‘risidagi PQ-3026-sonli qarorlar, hamda 2019 yil 28 martdagi «Veterinariya va chorvachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5696-sonli farmonlari, 2019 yil 28 martdagi «O‘zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida»gi PQ-4254-sonli qarorlari shuningdek 2022 yil 31 martadagi PQ-187 sonli hamda 2025 yil 30 yanvardagi PF-15 va PQ-34 sonli “Yaylovlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish chora tadbirlari to‘g‘risidagi qarorlari ijrosini ta’minlashda chorvachilikni jadal rivojlantirish, halqimizni kundan kun o‘sib borayotgan chorva mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondirishga qaratilgan. Ammo, sohani jadal rivojlantirishga chorva hayvonlari orasida uchraydigan virusli diareya kasalligini uchrashi natijasida buzoq va quylarning o‘lishi hamda kasallanishidan katta iqtisodiy zarar keltirmoqda.

Respublikamiz iqtisodiyotining qishloq xo‘jaligida chorvachilik alohida o‘ringa ega va bu sohani rivojlantirishga katta ahamiyat berilmoqda. Qishloq xo‘jaligining asosiy tarmog‘laridan biri bo‘lgan qoramolchilikni rivojlantirishda va rentabelligini oshirishda davlat, fermer hamda xususiy xo‘jaliklardagi qoramollar bosh sonini ko‘paytirish, ularning mahsuldorligini oshirish, sog‘lom bola olish, ularni to‘g‘ri parvarishlash, turli kasalliklardan saqlash kabi omillarga bog‘liq.

Buzoqlar orasida sodir bo‘ladigan virusli diareya kasalligining katta iqtisodiy zarar keltirishi chorvachilikda katta muammolardan biri ekanligi barchaga ma’lum. Mazkur kasallikni tabbiy holatda ozuqalar yemlar orqali organizmga tushishi natijasida chorva mollarini ayniqsa buzoqlarni nobud bo‘lishi veterinariya sohasida muammoni yanadi murakkablashtirmoqda. Veterinariya sohasida sa-




1-2-rasm. Virusli diareya bilan kasallangan buzoqlarning klinik belgilari

marador biologik va kimyoviy preparatlarning yetishmasligi muammoni yanada murakkablashtirib, kasalliklarning kengroq tarqalishiga yordam bermoqda.

Veterinariya fani oldida turgan eng muhim muammolardan biri qishloq xo‘jalik hayvonlari, ayniqsa, yosh hayvonlar orasida uchraydigan virusli diareya kasalligining kelib chiqish sabablari, epizootik holati hamda unga tashxis qo‘yish, majburiy so‘yilgan yoki o‘lgan hayvonlarni patologo-anatomik tekshirish, ichki parenximatoz a’zolarida kasalliklarga xos bo‘lgan klinik belgilari va ularga qarshi kurash chora-tadbirlarini ishlab chiqish, takomillashtirish hamda amaliyotga joriy etishdan iboratdir.

Chorvachilikni rivojlantirishda dunyoning ko‘pgina davlatlari singari Respublikamiz sharoitida ham yosh hayvonlar orasida virusli diariya kasalligi chorvachilik fermer xo‘jaliklariga katta iqtisodiy zarar yetkazishi kuzatilmoqdi. Jumladan yosh hayvonlar tug‘ilgandan boshlab 2-6 oylik bo‘lganiga qadar ayniqsa 15 kunligidan 60-75 kunligigacha bo‘lgan davrda kasallikga ko‘p chalinadi. Kasallik xo‘jaliklarda tarqalgan holda mol bosh soniga nisbatan 10-12 % uchrashi aniqlangan. Bunga sabab asosan buzoqlarning zoogigenik sharoitlarda saqlamaslik va noto‘g‘ri ratsion asosida boqish mastit bo‘lgan qoramollar suti bilan oziqlantirish yoki boshqa kasalliklarning ikkilamchi infeksiyasi sifatida rivojlanishi aniqlangan.

Olingan natijalar va ularning tahlili: Virusli diareya – (lotincha-Diarhea viralis bovum, inglizcha-Viral diarhea) nisbatan buzoqlarda ko‘proq uchraydigan o‘tkir kechuvchi, muloqot paytida yuqadigan kasallik bo‘lib, tana haroratining ko‘tarilishi, og‘iz bo‘shlig‘i, qizilo‘ngach va ovqat hazm qilish yo‘llarining eroziyali-yaralanishi, qon aralash ich ketishi, kuchli so‘lak ajralishi, ko‘z shilliq pardasining yallig‘lanishi, sigirlarda esa bola tashlash kabi xos belgilar bilan kechadi.

Virusli diareya kasalligi bilan kasallangan buzoqlarni patanatomik tekshirganda asosiy o‘zgarish ingichka ichaklarda uchraydi. Ularda shilimshiq, ayrim holda qonli enterit kuzatiladi. Yurak bo‘lmasida, aorta va taloqda qon quyilishlar, o‘pkada qattiqlashgan kichik joylar, mezenterial limfa tugunlarning kattalashishi va qonga to‘lishi, qizarish bo‘lib, taloqda degenerativ o‘zgarishlar ko‘zatiladi.

Epizootologiyasi. Virusli diareya bilan asosan yirik shoxli hayvonlar hamda bug‘ular, kiyiklar, qo‘ylar, cho‘chqalar kasallanadi. Virusli diareya

qo‘zg‘atuvchisi buzoqlardan burni orqali 10 kun davomida ajralib turadi. Surunkali va klinik belgilarsiz kasallangan hayvonlar katta xavf tug‘diradi. Ularda virus tashuvchanlik uzoq vaqt davom etishi mumkin. Kasallanib sog‘aygan hayvonlarning parenxemali a’zolaridan – 200 kungacha, nafas olish yo‘llaridan – 56 kungacha, limfa tugunlaridan – 39 kungacha bo‘lgan davrda, qondan 4 oy davomida qo‘zg‘atuvchi ajratiladi.

Diareya virusi qo‘ylar, echkilar, cho‘chqalar va ayrim yovvoyi hayvonlar turlari organizmida o‘rnashib olib, kasallik qo‘zg‘atuvchisini tabiatdagi manbasini shakllanishiga sabab bo‘ladi. Virus bevosita va bilvosita muloqot yo‘li bilan, ozuqa va ichimlik suvi orqali yuqadi.

Xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar, shu jumladan buzoq boqarlar, mutaxassislar ham kasallikni o‘z poyabzallari, kiyim-kechaklari bilan tarqatishlari mumkin. Virus sigirlarga tabiiy yoki sun’iy urug‘lantirilganda hamda homilaga plasenta orqali o‘tib, ko‘payish organlari potologiyasini keltirib chiqaradi.

Kasallanish darajasi kuz, qish va bahor oylarida eng yuqori bo‘lib, yozda nisbatan kam kasallanish holatlari kuzatiladi. 2 yoshgacha bo‘lgan qoramollar kasallanishga moyil, ko‘pincha 5 oylikgacha bo‘lgan buzoqlar kasallikka chalinadi. Kasallik podadagi 10 % dan 100 % gacha mollarni qamrab oladi. O‘lish darajasi 10-90 % ni tashkil etadi. Kasallikni kelib chiqishiga organizmning umumiy chidamliligini pasaytiruvchi omillar – sanitariya talablarining buzilishi, noqulay ob-havo sharoiti, sifatsiz ozuqalar bilan kam oziqlantirish, ayniqsa ratsionda vitaminlar va minerallarning yetishmasligi, yayrash maydonchalarining yo‘qligi sabab bo‘ladi.

Klinik belgilari va kechishi. Kasallikning yashirin davri 2-6 kun davom etadi. Kasallik o‘tkir, surunkali va abortiv shaklda kechadi. Belgilari, kasallik og‘irligi, tarqalish doirasi hamda o‘lish foizlari virusning virulentligi, hayvonlar ta’sirchanligi va stress omillarning mavjudligiga bog‘liq holda o‘zgarib turadi.

Kasallik homilaligida yuqsa, buzoqlar gipotrofik bo‘lib tug‘iladi, hayotining dastlabki 24 soatida ularda og‘iz bo‘shlig‘i shilliq qavatining giperemiyasi, milklar yallig‘lanishi, tanglayda eroziya yaralari so‘lak ajralishi, ba’zan qon ketishi bilan kechuvchi gastroenterit rivojlanadi. 7-12 kundan so‘ng bunday buzoqlarning 70% ga yaqini pnevmoniya bilan kasallanib, o‘lim darajasi 25-30 % ni tashkil etadi. Bo‘g‘ozlikning 90 va 118 kunlari orasidagi davrda tug‘ilgan buzoqlarda virus yuqqanida, ataksiya, bo‘yin qiyshiqligi, mushaklar tremori va opistotonus bilan tavsiflanuvchi markaziy asab tizimi buzilishining klinik belgilari kuzatiladi. Jun qatlamining tug‘ma jingalakligi ham kuzatiladi.

Kasallikning o‘tkir kechishi, odatda, epizootik jarayonning boshida, asosan yosh mollarda kuzatiladi. U 12-60 soat davomidagi yuqori harorat (39,5-42,3 °C), kuchli depressiya, burundan seroz, keyinchalik esa shilimshiq hamda yiringli-shilimshiq suyuqlik oqishi, ko‘z yoshlanishi, yo‘tal, taxikardiya (daqiqasiga 48-90), ishtaha pasayishi bilan ta’riflanadi. Og‘iz bo‘shlig‘i va burunda avvaliga keng tarqalgan giperimik shishlar paydo bo‘lib, turli o‘lchamdagi bo‘rtmalar (papulalar) (5 dan 30 mm gacha) va tezda yemiriluvchi vezikulalarga aylanadi. Ular o‘rnida qizil, sarg‘ish-kulrang kepaksimon yiringli yallig‘lanish aniq hoshiyalangan eroziya va yaralar hosil bo‘ladi. Bunday hayvonlarda so‘lak ajralishi yaqqol kuzatiladi.

Og‘iz bo‘shlig‘idagiga o‘xshash kasallik belgilari tuyoq oralig‘ida, tuyoq ustida, jinsiy a’zolarda, burun teshigida, ko‘zlar atrofida ham ko‘plab uchraydi. Og‘iz bo‘shlig‘i va burun yallig‘lanishi bilan bir vaqtda yoki ulardan sal keyinroq ich ketishi (diareya) paydo bo‘ladi va gemorragik yallig‘langan to‘g‘ri ichakning to‘satdan tushishi kuzatiladi. Tezagi suyuqlashadi, to‘q-qo‘ng‘ir, shilimshiq, qon aralash, fibrinoz ajratmalar, qo‘lansa hidli havo aralash pufakchali bo‘ladi. Kasal hayvonlar tez orada oriqlaydi, holsizlanadi, bukchaygan, junlari hurpaygan yoki yotgan holatda bo‘ladi.

Ularning jag‘ ostida shish paydo bo‘ladi, o‘rtacha timpaniya rivojlanadi.

Markaziy asab tizimining shikastlanish belgilari: qo‘zg‘aluvchanlik, ataksiya, koma holati paydo bo‘ladi. Aksariyat holatlarda (10-15 %) keratit, ko‘z muguz pardasining xiralashuvi kuzatiladi. Hayvonlar butunlay holsizlanib, koma holatiga tushib o‘ladi. Kasallik o‘tkir kechganda 1-2 hafta davom etib, deyarli hayvon o‘limi bilan yakunlanadi. Kasallikning kechishi sut emish davridagi va voyaga yetgan buzoqlarda ko‘proq uchraydi.

Kasal hayvonlarning ishtahasi pasayadi. Tana harorati 0,5-1,5 °C ga ko‘tariladi yoki bir me’yorda turadi. Yurak urishi va nafas olishning tezlashishi, o‘rta og‘irlikdagi rinit, qisqa vaqtli diareya, leykopeniya kuzatiladi. Rivojlanayotgan leykopeniya virusli diareyaning tashxislovchi muhim belgisi hisoblanadi. Og‘iz bo‘shlig‘ining shilliq qavati yallig‘lanmagan yoki yuzaki yallig‘langan bo‘ladi. Tuyoqlarning yallig‘lanishi va eroziyali yaralar sabab oqsash yuzaga keladi. 2-4 oylikkacha bo‘lgan buzoqlarda kasallikning respirator shakli rivojlanib, rinit, yuqori tanglay va burun shilliq qavati eroziyalari bilan bir qatorda surunkali bronxopnevmoniya belgilari ham kuzatiladi.

Kasallikning surunkali kechishi, o‘tkir va o‘rtacha o‘tkir kasallangan hayvonlarda kuzatiladi. Ammo kasallik ko‘pincha boshidan surunkali kechishi ham mumkin. Bunday hayvonlarda rivojlanishdan orqada qolish, ishtaha pasayishi, uzoq muddatli o‘rtacha isitma, burun va ko‘zdan suyuqlik ajralishi kuzatiladi. Og‘iz bo‘shlig‘ining shilliq qavatida uzoq vaqtgacha bitmaydigan eroziya va yaralar bo‘ladi. Uzoq muddat davom etuvchi diareya va oriqlash kuzatiladi. Bunday hollarda to‘g‘ri ichak tushishi mumkin. Teri elastiklik xususiyatini yo‘qotadi, burmalar, allopesiya, giperkeratozlar yuzaga keladi, hayvon juni xurpayadi. Ko‘pincha pnevmaniya rivojlanadi.

Kasal hayvonlar odatda kasallikning ikkinchi oyi oxiriga borib o‘ladi. Sog‘aygan hayvonlarda sog‘lig‘i va vazni asta-sekinlik bilan 6 oy va undan ortiq vaqtda tiklanadi. Kasal buzoqlar uzoq vaqtgacha virus tashuvchi bo‘lib qoladi. Kasallikning abortiv shakli yosh mollarda qisqa muddatli bezgak, kuchsiz rinit, ba’zan diareya bilan ta’riflanadi. 3-4 kundan so‘ng kasal hayvon sog‘ayadi.

Patologoanatomik o‘zgarishlar. Asosiy morfologik o‘zgarishlar hazm qilish a’zolarida kuzatiladi. Og‘iz, lunj va milklar shilliq qavatlarida, tilning yon sirtida, tanglay va halqumda doimiy ravishda giperemiya yoyiq, ba’zida qo‘shilib ketgan papulalar, eroziya hamda turli o‘lchamdagi, ko‘pincha 2-3 mm diametrli yaralar kuzatiladi. Ularni aksariyat hollarda burunda va burun teshiklari, burun oynasi yuzasida uchratish mumkin.

Qizilo‘ngach bo‘ylab yaqqol ko‘rinib turuvchi ko‘plab yoki bitta-bitta uchrovchi, uzunasiga cho‘zilgan, kulrang-jigarrang qarash bilan qoplangan eroziya va yaralar mavjud bo‘ladi. Ular asosan yuzada joylashgan bo‘lib, ba’zida shilliq osti to‘qimalariga o‘tadi. Katta qorin va shirdonning shilliq qavati qizargan, nuqtasimon qontalashlar, shirdonning pilorik qismida esa turli kattalikdagi eroziyalar va yaralar aniqlanadi.

Ichaklarning barcha qismlarida suyuq-shilliq, shilimshiq va qon aralash, qo‘lansa hidli massa mavjud bo‘ladi. Ingichka ichak shilliq qavatining ayrim joylarida kataral, gemorragik yoki fibrinli-nekrozli yallig‘langan o‘choqlar kuzatiladi. Ichakning limfa tugunlari kattalashgan va shishgan bo‘ladi. To‘g‘ri ichakning shilliq qavatida shilliq qavatining o‘lgan to‘qimalarni ko‘chishi (petexiya), ba’zan esa yaralar kuzatiladi. To‘g‘ri ichak tushgan holatlarda gemorragik toshmalar aniqlanadi.

Virusli diareya o‘tkir kechganda qatqorin limfatik tugunlari kattalashgan, ekssudatli bo‘kkan bo‘ladi. Jigar to‘q sariq rangda bo‘lib, kattalashgan, nekrozli o‘choqlar yoki yog‘ qatlami qoplagan bo‘ladi. O‘t pufagi yallig‘langan, o‘t bilan to‘lgan. Buyraklar ko‘pincha (90 % gacha) hajmi kattalashgan, shishgan, kamqon, bujmaygan holatda bo‘ladi. Kapsula ostida gemorragik o‘choqlar bo‘lishi

mumkin. Kasallik surunkali kechganda buyraklarda umumiy fibroz va tashqi qatlam sirtida popukka o‘xshash o‘simtalar kuzatiladi. Bosh miya shishgan va kattalashgan bo‘ladi. Ko‘pincha o‘pkada bronxit, kataral yoki krupoz bronxopnevmaniyaga xos o‘zgarishlar aniqlanadi.

Vaqtiga yetmay tashlangan homilalarda miya yumshoq to‘qimasining yallig‘lanishi, gemorragik o‘choqlar va asab to‘qimalarining o‘rtacha shishi kuzatiladi. Homilada mo‘miyolanish hollari ham uchrab turadi.

Xulosa: Buzoqlar virusli diariya kasalligi o‘tkir va murakkab klinik belgilar va ingichka ichaklarga shilimshiq, ayrim holllarda qonli ich ketish belgilar bilan namayon qilib, asosiy patologoanatomik o‘zgarishlar hazm qilish a’zolarida aniqlandi, kasallikni davolagandan qo‘ra o‘z vaqtida oldini olgan yaxshidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ibadullaev F.I. “Qishloq xo‘jalik hayvonlarining patologik anatomiyasi” Toshkent “O‘zbekiston”, 2000 y, 102-105 bet.

2. Elmurodov, B. A., Abdalimov, S. H., Navruzov, N. I., & Sheralieva, I. D. Yosh hayvonlar kasalliklari. *Monografiya. Samarqand-2016. “Zarafshon nashriyoti*.

3. Salimov X.S. QambarovA.A. Epizootologiya. Darslik. Samarqand 2016 y.

4. Mamatova M.N. Xususiy epizootologiya. O‘quv qo‘llanma Toshkent 2006 y.

5. Воронин Е.С., Глушков А.А., Сидорчук А.А Общая эпизоотология. Учебник для вузув-М.:Колос, 2005, 176-с.

6. Сюрин В.Н., Белоусова Р.В., Фомина Н.В. Ветеринарная вирусология. -М.: Колос, 1984.-376-с.

7. Соколова Н.Л. Короновирусный энтерит телят. Лабораторная диагностика и специфическая профилактика: дисс. д-ра биол. наук. - М. 1993. 255 – с.



УДК:619:636.2:618

СИГИРЛАРДА БАЧАДОН СУБИНВОЛЮЦИЯСИ, ЭТИОПАТОГЕНЕЗИ, ДАВОЛАШ ВА ОЛДИНИ ОЛИШ

Эшбуриев Бахтияр Маматқулович, *в.ф.д.профессор,*
Уразов Шерали Абдуғаниевич, *мустақил изланувчи,*
СамДВМЧБУ

Annotation: *This article describes the analysis of scientific sources and the results of research on the causes, clinical and developmental features of uterine subinvolution, which are common in fertile cows.*

Аннотация: *В статье представлен анализ научных источников и результаты исследований причин, клиники и особенностей развития субинволюции матки, характерных для фертильных коров.*

Калит сўзлар: *бачадон, субинволюция, гиповитаминозлар, яширин эндометрит, лохий, ҳомила, буғозлик.*

Мавзунинг долзарблиги: Давлатимиз раҳбарияти томонидан чорвадорларга берилаётган имтиёзлар ва кўрсатилаётган амалий ёрдам туфайли чорвачилик сон жиҳатидан жадал ривожланаётган бўлсада, ҳайвонлар маҳсулдорлик кўрсаткичлари пастлигича қолмоқда. Бунинг сабабларини аниқлаш, камчиликларни бартараф этиш орқали соғлом ва маҳсулдор қорамоллар подасини хўжаликнинг ўзида яратиш зооветеринария ходимлари олдида турган долзарб вазифалардан бири ҳисобланади.

Бу борада ветеринария фани ва амалиёти олдига шахсий ёрдамчи, деҳқон ва фермер хўжаликларига қарашли чорва молларининг касалликларига қарши курашиш ва даволашнинг ҳамда ҳайвонлар маҳсулдорлиги ва репродуктив хусусиятларини яхшилашнинг самарали ва камчиқим усулларини ишлаб чиқиш ва амалиётга жорий этиш орқали маҳсулотлар таннархини камайтиришга эришишдек долзарб вазифалар қўйилмоқда.

Қорамоллар зотини яхшилаш ва маҳсулдорлигини ошириш муаммоларини самарали ҳал этишга катта тўсқинлик қилаётган касалликлар орасида ҳайвонлар жинсий аъзоларининг касалликлари, жумладан сигирларнинг бачадон субинволюцияси касаллиги асосий ўринни эгаллайди.

Адабиёт маълумотларининг таҳлили ва шахсий кузатишлар шуни кўрсатадики, Республикамизнинг чорвачилик фермер хўжаликларига четдан келтирилган маҳсулдор сигирларда бачадон субинволюцияси касаллиги ва унинг оқибатидаги бепуштликнинг кенг тарқалганлигига қарамасдан, ушбу касалликнинг сабаблари, ривожланиш хусусиятлари, касаллик эрта аниқлаш, даволаш ва олдини олишнинг самарали усуллари тўлиқ ишлаб чиқилмаган.

Сигирларда бачадоннинг турли касалликлари, шу жумладан бачадон субинволюцияси касаллиги оқибатида ҳайвонлар маҳсулдорлигининг кескин пасайиши, она ҳайвонлар репродуктив хусусиятларининг ёмонлашиши ва уларнинг қисир қолиши ҳисобига фермер хўжаликлари катта иқтисодий зарар кўрмоқда.

Бачадон субинволюциясининг сабаблари ҳомила олди суюқлигининг ҳаддан ташқари кўп ва ҳомиланинг жуда катта бўлиши, гипофиз бези орқа бўлаги ва ҳомила йўлдошининг функционал етишмовчиликлари бўлиши мумкин. Касалликнинг иккиламчи сабаблари бўғоз ҳайвонлар учун мационнинг етарли бўлмаслиги,

сигирларни бўғозлигининг охирги кунларигача соғиш, бир томонлама озиқлантириш, рационда сут ҳайдовчи озуқаларнинг кўплиги ёки етарлича озиқлантирмаслик, витаминлар ва минерал моддаларнинг етишмаслиги, организм резистентлигининг пасайишига сабаб бўлувчи омиллар ҳисобланади [2].

А.М.Чомаев ва бошқалар [3] сигирлар туққандан кейин бачадоннинг тикланиш жараёни учун 50-60 кун кетади, шунинг учун сигирлар туққандан кейинги биринчи ойда уруғлантириш юқори самара бермайди, уруғлантиришни иккинчи ойда амалга ошириш мақсадга мувофиқ деган хулосага келганлар. Муаллифларнинг фикрича, сут маҳсулдорлиги 4000 кг бўлган сигирларни тахминан туққандан кейинги 40-кунларда уруғлантириш энг оптимал муддат ҳисобланади.

Бачадоннинг субинволюциясини олдини олиш ва профилактик даволашда озуқавий қўшимчалар сифатида минералли-витаминли премиксларни рационга киритиш, ҳар куни режали равишда яйратишни ташкил этиш лозим. Касал сигирларни қуйидаги тартибда даволаш тавсия этилади: 0,3-0,5 кг қандни 7 литр сувда эритиб ичириш; бачадон моторикасини кучайтириш мақсадида қуйидаги миотроп воситалардан бирини қўллаш: 1,5-2 мл 1 %-ли синестрол эритмаси, 12-24 соатдан кейин 50 ХБ окситоцин ҳар 8-12 соатда бир марта, жами 2-3 марта; питиутрен ёки маммофизин бир бошга 30-60 ХБ бир суткада бир марта, 3-5 кун давомида; 2-3 мл 0,1%-ли карбохолин ёки 0,5%-ли прозерин эритмаси тери остига ёки мускул орасига, ҳар 3 кунда бир марта, жами 3 марта инекция қилинади [1].

Яширин эндометритлар билан касалланган сигир бачадонига “ФЛЭКС” суспензиясидан бир марта юборилганда бачадон субинволюцияси қайд этилмаган ва жинсий куйикишнинг 1-ярмида сунъий уруғлантирилган. Сигирларда бачадоннинг инволюцияси одатда туққандан кейинги 22-25- кунларда, баъзан 28-30- кунларда тўлиқ тугаши лозим.

Туққандан кейинги 16-19- кунларда тўғри ичак орқали текширилиб фолликулаларнинг етилганлигини кузатиш мумкин [5].

Тадқиқотлар мақсади янги туққан маҳсулдор сигирлар орасида бачадон субинволюцияси касаллигининг тарқалиши, сабаблари ва ривожланиш хусусиятлари, клиник белгилари ва қондаги морфобиокимёвий ўзгаришларни ҳамда ушбу касалликнинг оқибатларини ўрганишдан иборатдир.

Тадқиқотлар объекти ва услубиятлари. Фермер хўжаликлари шароитида янги туққан маҳсулдор сигирлар орасида бачадон субинволюцияси касаллигининг тарқалиши, сабаблари ва ривожланиш хусусиятлари, клиник белгилари ва қондаги морфобиокимёвий ўзгаришларни ҳамда ушбу касалликнинг оқибатларини ўрганиш мақсадида “ўхшаш жуфтликлар” тамойили асосида “эталон” ҳайвонлар сифатида ажратиб олинган 8 бош соғин сигирлар туғишининг 1-ойидан бошланиб, уларнинг уруғлантирилишигача бўлган даврда ҳар 20 кунда бир марта текширишлар ўтказилиб, уларда клиник-физиологик статус ва қоннинг морфобиокимёвий кўрсаткичлари аниқланди.

Хўжаликдаги сигирларнинг умумий ҳолати, иштаҳа, семизлик даражаси, ташқи таъсиротларга жавоб реакциясига эътибор берилди. Умумий қабул қилинган клиник текшириш усуллари билан шиллиқ пардалар, тери ва тери қопламаси, ҳаракат аъзоларининг ҳолати, ошқозон олди бўлимларининг 5 дақиқадаги қисқаришлари сони, тана ҳарорати, 1 дақиқадаги юрак уриши ва нафас сони аниқланди.

Сигирларда жинсий аъзоларни ташқи текширишлар орқали жинсий лаблар ҳолати, ундан шилимшиқ суюқлик оқиши, унинг ранги, ҳиди ва консистенцияси, шиллиқ пардаларнинг ранги аниқланди. Тўғри ичак орқали текшириш ёрдамида бачадоннинг ҳолати ва унинг инво-

люцияси (ўз ҳолига келиши) аниқланиб борилди ҳамда тухумдонлар ҳолати, уларда фолликулалар ёки сариқ тана борлиги аниқланди. Қин ойнаси ёрдамида текшириш билан қин шиллиқ пардасининг, бачадон бўйинчасининг ҳолати, унинг ёпилганлик даражаси, бачадондан ажралаётган суюқликнинг характери ўрганилди. Сигирларда куйга келиш ва жинсий циклнинг кечиши ўрганилди.

Сигирларнинг озуқа рационлари таркиби ва тўйимлиги, таркибидаги ҳазмланувчи протеин, қанд, каротин, кальций, фосфор, клетчатка миқдорлари бўйича зоотехникавий таҳлил қилиниб, озиқлантириш меъёрлари билан таққослаш асосида ҳайвонлар организми эҳтиёжларининг қондирилиш даражаси ўрганилди.

Олинган натижалар таҳлили. Фермер хўжалигида сигирлар рациони асосан силос-концентрат типида эканлиги билан характерланиб, озиқлантириш меъёрларига нисбатан 2,08 озиқа бирлигининг етишмаслиги қайд этилди. Рациондаги ҳазмланувчи протиен 911,8 граммни, у билан таъминланиш эса 105,8 фоизни ташкил этди.

Сигирлар организмининг енгил ҳазмланувчи углеводларга бўлган эҳтиёжларининг қондирилиши 46,4 фоизни ташкил этди, яъни рациондаги қанд миқдорининг меъёрлардан 364,4 граммга камлиги аниқланди. Қанд-оқсил нисбати меъёрдаги 0,8-1,2 ўрнига 0,34 ни ташкил этди.

Хўжаликда сигирлар рационининг макроэлементли таркиби озиқлантириш меъёрларига нисбатан кальцийнинг 2,4 граммга ортиқчалиги ва фосфорнинг 6,3 граммга етишмаслиги билан характерланди. Фосфорнинг кальцийга нисбати 0,46 ни ташкил этди. Рациондаги клетчатканинг миқдори меъёрдаги 2850 г ўрнига 3392 граммни, каротиннинг миқдори 169 мг.ни ташкил этди. Соғин сигирларнинг озиқлантирилишини таҳлил қилиш билан шундай хулосага келдикки, рационлар типи, таркиби ва тўйимлилиги бўйича сигирлар организмининг тўйимли моддалар, биологик фаол моддалар, макро- ва микроэлементларга нисбатан эҳтиёжларини тўлиқ қондирмайди. Рационларнинг оқсилли ва энергетик жиҳатдан номутаносиблиги, қанд-оқсил



Бачадон субинволюсияси билан касалланган сигирлар гематологик кўрсаткичлари.

Кўрсаткичлар	Ўлчов бирлиги	Бачадон субинволюсияси билан касалланган сигирлар	
		Назорат гуруҳи	Тажриба гуруҳи
Эритроситлар	Млн/мкл	6,72±0,36	8,26±1,34
Лейкоситлар	Минг/мкл	6,76±0,12	10,56±0,14
Умумий оқсил	г/л	60,8±0,8	76,5±0,09
Гемоглобин	г/л	108±0,27	113±0,29

Даволаш профилактик тажрибаларни ўтказиш тартиби.

ва фосфор-кальций нисбатларининг пастлиги, сигирларда бачадонни туққандан кейинги қайта тикланишининг кечикиши, яъни бачадон субинволюциясининг келиб чиқишида асосий этиологик омиллар ҳисобланади. Сигирларнинг йил давомида бир жойда сақланиши, гиподинамия ва гипоинсоляция уларда модда алмашинувларининг бузилишлари жинсий аъзоларда патологик ўзгаришлар кузатилишига олиб келади.

Хўжаликдаги сигирларни клиник-гинекологик текшириш билан бачадонни касалликларининг характери ўрганилганда бачадон субинволюцияси - 75% ни, катарал-йирингли эндометрит - 41%, йирингли-фибринли эндометритлар - 4% ни ташкил этди.

Бачадон субинволюцияси билан касалланган сигирларда умумий ҳолсизланиш, бефарқлик, иштаҳанинг ўзгариши, ошқозон олди бўлимларининг гипотонияси, шиллиқ пардаларнинг оқариши (анемия) каби умумий белгилар, қиндан катарал-йирингли экссудат оқиши, тўғри ичак орқали текширилганда бачадонни катталашган бўлиши ва бўшлиғида суюқлик борлиги, тухумдонларда сариқ танани тўлиқ сўрилиб кетмаганлиги каби клиник белгилар кузатилиши характерли бўлди. Тана ҳароратини ўртача 0,5-1^{0}C ва юрак уриши сонини бир дақиқада 10-15 мартагача ортиши қайд этилди. Бу кўрсаткичлар бачадон субинволюцияси тана ҳароратининг кўтарилиш ва юрак уриши сонининг ортиши билан кечиши маълум бўлади.

Бачадон субинволюцияси билан касалланган сигирлар гематологик кўрсаткичлари, текширишларнинг охирига келиб қондаги гемоглобинни ўртача 5 г/л га, эритроцитларни - 1,54 млн/мкл га кўпайиши, лейкоцитларни 3,20 минг/мкл га камайиши билан характерланди.

Биринчи тажриба гуруҳидаги сигирлар қуйидагича даволанди:

-10 %-ли калций хлорид эритмасидан 150 мл, 20 %-ли глюкоза эритмасидан 250 мл, 20 %-ли кофеин натрий бензоат эритмасидан 10 мл аралаштирилиб вена қон томирига кунига бир марта, 3 кун давомида юборилди;

- Утеротон 50 ИБ (10 мл) дозада мускул орасига кунига икки марта юборилди.

- Детрим антибиотигидан 12 мл кунига икки марта 3 кун давомида мускул орасига юборилди.

- “Микровит” препаратидан 6 мл мускул орасига ҳар 10 кунда бир марта, жами 3 марта инекция қилинди.

Иккинчи назорат гуруҳидаги касалланган сигирлар хўжаликда жорий этилган усулда қуйидагича даволанди:

- Бачадон 3 кун давомида кунига бир марта тўғри ичак орқали 5 дақиқа массаж қилинди;

- Лимоксин антибиотигидан кунига бир марта 6 кун давомида мускул орасига 15 мл юборилди.

Хулосалар.

1. Сигирларда бачадон субинволюцияси касаллигининг келиб чиқишида соғиндан чиқарилган даврда бўғоз сигирлар организмининг тўйимли моддалар, витаминлар, макро- ва микроэлементларга нисбатан иҳтиёжларини тўлиқ қондирмаслиги, яйратишнинг етишмаслиги ва янги туққан сигирларни антисанитария шароитларида сақлаш асосий этиологик омиллар ҳисобланади.

2. Сигирларда бачадон субинволюцияси касаллиги умумий ҳолсизланиш, иштаҳанинг ўзгариши, қиндан катарал-йирингли экссудат оқиши, тўғри ичак орқали текширилганда бачадоннинг катталашиши, кўп миқдорда суюқлик бўлиши, тухумдонларда сариқ таначанинг сўрилишини кечикиши каби белгилар кузатилиши ҳамда қондаги эритроситлар сони, гемоглобин, умумий оқсил миқдорларини камайиши, лейкоситлар сонини ортиши билан характерланади.

Адабиётлар рўйхати:

1. Храмцов В. В. Влияние сезонных факторов на воспроизводительтные функции и продуктивность коров [Текст] / В. В. Храмцов, Р. А. Шундулаев, Н. А. Саенко // Ветеринария. - 2004. - №11. - С. 13-14.

2. Чомаев А.М., Чернишева М.Н., Голдина А.А. Молочная продуктивность и сроки осеменения коров. Ж.Зоотехния, №6, 2003, с.30.

3. Эшбуриев Б.М. Ветеринария акушерлиги . 2018 й. 334-336 б.

4. http://www.allvet.ru/diseases/-vet_obstetrics.



UDK: 597.2/.5

ILONBOSH BALIG'INING RIVOJLANISH BIOLOGIYASI

S.I.Mavlanov, *v.f.d., professor,*
G.N.Bazarbaeva, *tayanch doktorant,*
Baliqchilik ilmiy-tadqiqot instituti

Резюме. *Змееголов (Channa argus) - один из перспективных видов рыб, отличающийся биологическими особенностями - способностью дышать атмосферным кислородом, высокой адаптивностью к различным экологическим условиям, быстрым ростом и устойчивостью к болезням. Это рыба может успешно культивироваться даже в условиях дефицита кислорода в водоемах, что особенно важно для регионов с ограниченными водными ресурсами. Мясо змееголовки имеет высокую пищевую ценность и пользуется высоким спросом на внутреннем рынке.*

Summary. *Snakehead (Channa argus) is one of the promising fish species, distinguished by biological features - the ability to breathe atmospheric oxygen, high adaptability to various environmental conditions, rapid growth, and resistance to diseases. This fish can be successfully cultivated even in conditions of oxygen deficiency in water bodies, which is especially important for regions with limited water resources. Snakehead meat has high nutritional value and is in high demand in the domestic market.*

Kalit so'zlar. *Ilonbosh, amur ilonbosh, yirtqich, suzgich qanot, oyquloq, kislorod, suv havzasi, ovlash.*

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, aholining sifatli va arzon oqsil manbalariga bo'lgan ehtiyojini qondirish ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu borada baliqchilik tarmog'ini rivojlantirish, intensiv va innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali baliq mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish dolzarb vazifalardan sanaladi.

Baliqchilik tarmog'ini jadal rivojlantirish, suv resurslaridan samarali foydalanish, baliqchilik xo'jaliklarida mahsuldorlikni oshirish, yuqori moslashuvchan, tez o'suvchi va bozor talabiga mos baliq turlarini yetishtirish talab etiladi. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda an'anaviy karpsimon baliqlar bilan bir qatorda, biologik xususiyatlari ustun bo'lgan noan'anaviy baliq turlarini o'rganish va yetishtirish texnologiyalarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Ilonbosh balig'i (Channa argus) shunday istiqbolli baliq turlaridan biri bo'lib, uning biologik xususiyatlari – atmosfera kislorodidan nafas olish qobiliyati, turli ekologik sharoitlarga yuqori moslashuvchanligi, tez o'sishi va kasalliklarga nisbatan chidamliligi bilan ajralib turadi. Ushbu baliq turi suv havzalarida kislorod yetishmovchiligi kuzatiladigan sharoitlarda ham muvaffaqiyatli yetishtirilishi mumkin bo'lib, bu holat suv resurslari cheklangan hududlar uchun ayniqsa muhimdir. Bundan tashqari, ilonbosh balig'ining go'shti yuqori oziqaviy qiymatga ega bo'lib, ichki bozorda talab yuqori hisoblanadi.

Shu bilan birga, respublika sharoitida ilonbosh balig'ining biologiyasi, o'sish va rivojlanish qonuniyatlari, oziqlanish xususiyatlari hamda sun'iy sharoitda yetishtirish texnologiyasini ilmiy asosda ishlab chiqish masalalari yetarli darajada o'rganilmagan. Amaldagi baliqchilik xo'jaliklarida ushbu baliq turini yetishtirish bo'yicha yagona texnologik yondashuv va ilmiy tavsiyalar mavjud emasligi ishlab chiqarish samaradorligini cheklamoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ilonbosh balig'ining biologiyasini o'rganish ularning populyatsiyasini boshqarish, sun'iy suv havzalarida etishtirish texnologiyasini ishlab chiqish va undan baliqchilik xo'jaligida samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Material va metodlar. Tadqiqot ishlari biologik va morfometrik, adabiyot manbalari, maxsus uslubiy qo'llanmalar hamda aniqlagichlardan foydalanildi.

Natijalar va ularning tahlili. O'zbekiston hududlaridagi suv havzalarida baliqlarning 73 turi uchraydi, ulardan 35 turi ovlanadigan (48%) va 38 turi (52%) past qiymatli sanaladi. Mazkur 35 turdagi baliqlarning atigi 18-20 turi ovlanadi. Ovlanadigan karp, sudak, sharq laqqasi, laqqa, karas, oq amur, oq do'ngpeshona, ilonbosh baliqlarining aksariyati respublikamizning ichki suv havzalarida ovlanadi.

Adabiyot manbalariga ko'ra ovlanadigan baliqlarning aksariyat turlari Cyprinidae oilasi vakillari hisoblanib, sudak, ilonbosh, forel, cho'rtan baliqlarini istiqbolli baliq turlariga kiritish mumkin.

Ilonbosh baliqlari (*Channidae* (Ophiocephalidae) oilasi vakillari) olabug'asimonlar turkumiga mansub yirtqich baliq. Chuchuk suv baliqlari orasida o'ziga xos biologik va ekologik xususiyatlarga ega bo'lib, keng geografik tarqalishi va yuqori moslashuvchanligi bilan ajralib turadi. Ushbu oilaga mansub baliqlar Osiyo va Afrika mintaqalarining tropik va subtropik hududlarida shakllangan bo'lib, hozirgi kunda turli mintaqalarning tabiiy va sun'iy suv havzalarida uchramoqda. Tanasining uzunligi 15-120 sm, 7-10 kg va undan ortiq vazngacha etadi. Ilonboshning asl vatani tropic Afrika, g'arbiy va janubiy-sharqiy Osiyo, Amur daryosi havzasi hisoblanadi.

Uzoq sharq faunasi vakili bo'lgan bu oila vakillari O'zbekiston sharoitida tabiiy holda yashamagan. O'tgan asrning 60-yillari boshida Toshkent viloyati "Qolgan-Chirchiq" baliqchilik xo'jaligiga Moskvadan bir yillik amur ilonbosh baliqlari *Channa argus warpachowskii* turi olib kelingan. Ular bu erda tez ko'payib Sirdaryoga tushgan. Baliqchilik xo'jaligidagi o'simlikxo'r baliqlarni respublikamizdagi boshqa suv havzalariga o'tkazilishi natijasida ilonbosh ham ular bilan birga tarqalgan. Bugungi kunda ilonbosh baliqlari mamlakatimizning tekislik hududlaridagi barcha suv havzalarida uchraydi.

Ilonbosh baliqlarining eng muhim biologik xususiyatlaridan biri bu ularda "qo'shimcha nafas olish organi (suprabrankial apparat)"ning rivojlanganligidir. Ushbu tuzilma ularga atmosferadagi kisloroddan to'g'ridan-to'g'ri foydalanish imkonini beradi. Natijada ilonbosh baliqlari kislorod miqdori juda past bo'lgan, hatto vaqtincha qurib qoladigan suv havzalarida ham yashab qolish qobiliyatiga ega. Ularda moddalar almashinuvi jarayonlari yuqori darajada moslashuvchan bo'lib, turli ekologik sharoitlarda faol hayot kechirishga imkon yaratadi.

Ilonbosh baliqlari asosan turg'un yoki sekin oqimli suv havzalarida – ko'llar, botqoqliklar, kanallar, suv omborlari va sug'orish tizimlarida uchraydi. Ular bentik va nektonik hayot tarzini olib boradi. Oziqlanish jihatidan tipik yirtqich hisoblanib, ratsionining asosini mayda baliqlar, suv hasharotlari, ularning lichinkalari hamda amfibiyalar tashkil etadi. Ekologik plastiklik darajasining yuqoriligi ushbu turning turli muhitlarda tez moslashishini ta'minlaydi.

Ilonbosh baliqlarining o'sish sur'ati suvning harorati, oziqa bazasi va gidrobiologik sharoitlarga bevosita bog'liq. Lichinka davrida plankton organizmlar bilan oziqlansa, keyingi ontogenez bosqichlarida yirtqichlik xususiyati kuchayadi. Qulay sharoitlarda ularning o'sish sur'ati yuqori bo'lib, qisqa muddatda xo'jalik jihatdan foydali biomassa hosil qiladi.

Ilonbosh baliqlari odatda bahor va yoz oylarida, suv harorati optimal darajaga yetganda ko'payadi. Ilonbosh baliqlari ko'payish jarayonida suv o'simliklari orasida uya hosil qilib, urg'ochisi tuxum qo'yadi, erkaki esa tashqi urug'lantirishni amalga oshiradi. Tuxumlar nisbatan yirik, suv yuzasiga yaqin joylashadi va kislorod bilan yaxshi ta'minlanadi. Ularning ayrim turlarida tuxumlarning suzib yurish xususiyati kuzatilsa, ba'zi turlarida ota-ona

baliqlar tomonidan qo'yilgan tuxum va lichinkalarga g'amxo'rlik qilish instinkti kuzatiladi. Bu biologik xususiyat ilonboshlarning yashab qolish darajasini sezilarli oshiradi.

Ilonbosh baliqlari odatda ikki yoshida jinsiy voyaga yetadi. Jinsiy yetilish darajasi suvning harorati, oziqlanish sharoiti va ekologik omillarga bog'liq holda farqlanadi. Urg'ochi individlarda tuxumdonlar yaxshi rivojlangan bo'lib, yuqori unumdorlikka ega bo'ladi, erkak individlarda ko'payish davrida faollik kuzatiladi.

Ilonbosh baliqlarining urchish davri iyun-iyul oylariga to'g'ri kelib, suv harorati 24–30 °C atrofida bo'lganda faollashadi. Tabiiy sharoitda ko'payish jarayoni suv o'simliklariga boy, sayoz va tinch hududlarda, suv yuzasuida poya va barglardan yasalgan uyada sodir bo'ladi.

Xulosalar.

1. Ilonbosh baliqlari qimmatbaho ovlanish ahamiyatiga ega baliq sifatida, hovuz baliqchiligini rivojlantirish uchun istiqbolli tur hisoblanadi.

2. Ilonbosh baliqlari yuqori oziqaviy qiymatga ega bo'lib, go'shti oqsilga boyligi bilan ajralib turadi.

3. Ayrim hududlarda ilonbosh baliqlarining invaziv xususiyatlari mahalliy ixtiofaunaga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shundan kelib chiqib, mazkur baliqlarining biologiyasini chuqur o'rganish ularning populyatsiyasini boshqarish va baliqchilik xo'jaligida samarali foydalanishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. М.А.Юлдашов, Т.В.Салихов, Б.Г.Камилов Ўзбекистон балиқлари // Монография, Тошкент, 2018.-б.1-180.

2. Кунисов Б.М. Промысловые рыбы Республики Узбекистан // Журнал "Мировая наука" №7 (40) 2020.-с.67-69.

3. Юлдашов М.А., Камилов Б.Г. Результаты интродукций чужеродных видов рыб в водоемы Узбекистана. Научные труды Дальрыбвтуза. 2018. №1 (т.44)-с.40-48.

4. Обзор национального рыбоводческого сектора (НАСО) // http://www.fao.org/fishery/countrysector/naso_uzbekistan/ru.

5. Wegleitner, A.E., et al." Growth and repruduction of the northern snakehead in the Potamac River, USA."Transactions of the American Fisheries Society.-2021.

6. Kim, J.H., Park, S.W. "Artificial propogation and larval rearung of the northern snakehead (*Channa argus*). Journal of Fisheries and Marine Sciences Education.-2020.



УДК: 619:636.7:595.799

ВЫДЕЛЕНИЕ ВОЗБУДИТЕЛЯ АСКОСФЕРОЗА ПЧЕЛ И ИЗУЧЕНИЕ ЕГО КУЛЬТУРАЛЬНО – МОРФОЛОГИЧЕСКИХ СВОЙСТВ

Махмудова Карима Исмаиловна, *ассистент,*
Базаров Мурат Ахмаджонович, *доктор ветеринарных наук, доцент*

Аннотация: *В статье представлены результаты исследований по выделению и получению чистой культуры возбудителя аскосфероза медоносных пчёл — гриба Ascosphaera apis, а также изучению его культурально-морфологических особенностей. Аскосферoз (известковый расплод) является одной из наиболее распространённых микозных болезней пчёл, вызывающей поражение личинок и приводящей к ослаблению и гибели пчелиных семей.*

В ходе исследования проведено выделение возбудителя из патологического материала (поражённых личинок и перги) с использованием питательной среды агар Сабуро. Культивирование проводили при температуре 26–30 °С в течение 10 суток. Для подавления сопутствующей бактериальной микрофлоры в питательную среду добавляли антибиотики — пенициллин и стрептомицин. Полученную культуру исследовали с использованием микроскопических и микологических методов.

Установлены характерные морфологические признаки гриба: септированный мицелий, ветвистые гифы, наличие споровых шаров, заключённых в шаровидные цисты, а также мелкие эллипсоидные аскоспоры с гладкой поверхностью. Проведена дифференциация двух подвидов возбудителя — Ascosphaera apis var. apis и A. apis var. major, отличающихся размерами спор и споровых цист.

Полученные результаты подтверждают диагностическую значимость культуральных и морфологических признаков гриба при лабораторной диагностике аскосфероза пчёл и позволяют более точно дифференцировать возбудителя от других микозов, включая аспергиллёз и гриб Bettsia alvei.

Annotation: *The article presents the results of research on isolating and obtaining pure culture of honey bee ascospherosis pathogen - Ascosphaera apis fungus, as well as studying its cultural-morphological features. Ascospherosis is one of the most common mycosis diseases of bees, causing larval damage and leading to the weakening and death of bee colonies.*

During the study, the pathogen was isolated from the pathological material (infected larvae and perga) using Saburo agar nutrient medium. Cultivation was carried out at a temperature of 26-30 °C for 10 days. To suppress the accompanying bacterial microflora, antibiotics - penicillin and streptomycin - were added to the nutrient medium. The obtained culture was studied using microscopic and mycological methods.

Characteristic morphological features of the fungus have been established: septate mycelium, branched hyphae, spore balls enclosed in spherical cysts, and small ellipsoidal ascospores with a smooth surface. Differentiation of two subspecies of the pathogen - Ascosphaera apis var. apis and A. apis var. major - was carried out, differing in the size of spores and spore cysts.

The obtained results confirm the diagnostic significance of the fungus's cultural and morphological characteristics in the laboratory diagnosis of bees' ascospherosis and allow for more accurate differentiation of the pathogen from other mycoses, including aspergillosis and the fungus Bettsia alvei.

Ключевые слова: *аскосфероз пчёл, Ascosphaera apis, микозы пчёл, культурально-морфологические свойства, лабораторная диагностика, микологические исследования, грибковые заболевания пчёл, известковый расплод.*

Введение. Благодаря высокой экологической пластичности и способности адаптироваться к различным условиям внешней среды микроскопические грибы успешно конкурируют с другими микроорганизмами и нередко вытесняют их с различных субстратов [6]. В настоящее время известно более 500 тыс. видов микроскопических грибов, большинство из которых относится к сапрофитным организмам [6,9]. Вместе с тем около 50 видов обладают патогенными свойствами. Патогенные грибы характеризуются значительным разнообразием, а вызываемые ими заболевания человека, животных и насекомых отличаются широкой нозологической и клинической вариабельностью [7].

Для медоносной пчелы патогенными являются грибы родов Ascosphaera, Mucor, Rhizopus и Aspergillus, способные вызывать различные микозы, приводящие к ослаблению и гибели пчелиных семей [7,9].

Различные стрессовые факторы — физические, химические и биологические воздействия, экстремальные температурные условия, повышенная влажность, загрязнение окружа-

ющей среды, интоксикация пестицидами, бесконтрольное применение антибиотиков, а также паразитарные инвазии — приводят к снижению естественной резистентности организма насекомых к микозам [5].

Среди микозов, патогенных для пчёл, наибольшее распространение получил известковый расплод — аскосфероз [6]. Впервые данное заболевание было зарегистрировано в 1950-е годы в США и Канаде у пчёл-листорезов и одиночных пчёл *Anthophora pacifica* [8]. Уже спустя десятилетие аскосфероз получил широкое распространение на пасеках различных стран мира и стал одной из значимых грибковых болезней пчёл [7].

Цель исследования: выделение и получение чистой культуры гриба *Ascosphaera apis*.

Для достижения поставленной цели необходимо решить следующие задачи:

- изучить и дифференцировать с использованием электронной микроскопии два подвида данного гриба — *Ascosphaera apis* var. *apis* и *A. apis* var. *major*, различающиеся размерами споровых цист и спор;

- провести дифференциацию полученной культуры гриба на основе микроскопических и микологических исследований с учётом возможного сходства с возбудителями аспергиллёза, а также вероятности развития на перге гриба *Bettsia alvei* (*Ascosphaera*).

Материалы и методы. При проведении исследований руководствовались методическими указаниями по лабораторной диагностике аскосфероза пчёл и выделению возбудителя из пыльцы (перги) [2].

В ходе работы использовали следующие материалы и методы исследования:

- образцы сотов размером 10×15 см, содержащие больных и погибших личинок и куколок пчёл;

- предметные стекла и 50 %-ный водный раствор глицерина, применяемые для приготовления микроскопических препаратов. Микроскопическое исследование проводили при малом увеличении микроскопа (7×10);

- питательную среду - агар Сабуро, используемую для выделения и получения чистой культуры гриба из патологического материала;

- микрофотосъёмку гистологических препаратов выполняли с использованием микроскопов Axio Scope 40 и Axio Star (Carl Zeiss), оснащённых встроенным TV-адаптером и цифровой видеокамерой Carl Zeiss Imager A1. При исследовании применяли окуляр W-PI 10×/23 и объективы Achroplan 20×/0,45; 40×/0,60; 63×/0,80 и 100×/1,25 oil.

Результаты исследований и их обсуждение. Для получения чистой культуры гриба из патологического материала проводили посев на питательную среду агар Сабуро. Использование данной среды широко применяется при микологических исследованиях грибов рода Ascosphaera [6, 7].

Перед проведением посева питательный агар предварительно расплавляли на водяной бане. После охлаждения среды до температуры 45–50 °С в неё добавляли антибиотики — пенициллин (50 ЕД) и стрептомицин (100 ЕД на 1 мл среды), что позволяло подавить развитие сопутствующей бактериальной микрофлоры.

Поражённых личинок извлекали из ячеек сотов и помещали в стерильную чашку Петри,



Рис. 1. Посев на питательную среду агар Сабуро

где их аккуратно разламывали при помощи препаровальной иглы. Полученные фрагменты размером не более 1 мм, а также эмульсию пыльцы (перги) с использованием бактериологической петли переносили в чашки Петри с одной из питательных сред, размещая материал в 3–5 точках посева (по одной частице в каждой точке).

Инокулированные чашки инкубировали при температуре 26–30 °С и наблюдали за развитием культур в течение 10 суток. При этом учитывали, что в процессе роста гриба на поверхности питательной среды уже на 3–5-е сутки появляются белые пушистые колонии, которые в дальнейшем могут трансформироваться в зеленовато-серый войлокообразный налёт, характерный для развития грибной культуры.

Чистую культуру гриба «Ascosphaera apis» получали путем дополнительного пересева материала, отобранного с периферической зоны колоний, характерных для данного вида гриба. Пересев осуществляли на свежую питательную среду с целью выделения и последующего культивирования чистой культуры возбудителя.

При микроскопическом исследовании выявляли характерные морфологические признаки гриба: септированный мицелий, ветвистые гифы и споровые шары, заключённые в шаровидные цисты, что полностью соответствует описанию Ascosphaera apis в научной литературе [6,7].

Выделяют два подвида гриба — Ascosphaera apis var. apis и A. apis var. major, которые различаются размерами спор и споровых цист [8].

Для подвида *Ascosphaera apis* var. *apis* характерны споры размером **3**,0–3,8 × 2,3 мкм, при этом диаметр споровых цист составляет 32–99 мкм (в среднем 65,8 мкм).

Подвид *Ascosphaera apis* var. *major* отличается несколько более крупными размерами: споры имеют размеры 3,3–4,2 × 2,5 мкм, а диаметр споровых цист варьирует от 88,4 до 168 мкм (в среднем 128,4 мкм).



Рис. 2. 10-дневный обзор Ascosphaera apisa. Молочный агар. Тк=32ос

Таким образом, основным морфологическим отличием между указанными подвидами являются размеры спор и споровых цист.

Одновременно проводили дифференциальную диагностику с целью исключения развития на перге гриба Bettsia alvei, который отличается от возбудителя аскосфероза особенностями морфологии спороцист и экологическими условиями развития [7].

Морфологическим отличием *Battsia alvei* является то, что внутри спороцисты не формируются споровые шары, а аскоспоры располагаются свободно в полости спороцисты, что по-




Рис. 5. В поле зрения немногочисленные споровые цисты Ascosphaera apis var. apis. Размер споровых цист 39,41 мкм.

зволяет отличить данный гриб от возбудителя аскосфероза пчёл.

Лабораторный диагноз аскосфероза устанавливали на основании положительных результатов микроскопических и микологических исследований исследуемого материала.

Продолжительность лабораторного исследования составляла до 10 суток. В случае выделения из пыльцы (перги) гриба *Ascosphaera apis* данный продукт не допускается к использованию в качестве белковой подкормки для пчелиных семей, поскольку может служить источником распространения инфекции.

Выводы. Полученные результаты согласуются с данными отечественных и зарубежных исследователей, подтверждающих диагностическую значимость культуральных и морфологических признаков гриба **Ascosphaera apis** при лабораторной диагностике аскосфероза пчёл [6,7].

Список литературы

1. Базаров М.А. Узбекистон Республикасида асалари зараркунандалари ва уларга интеграция усулида қарши кураш чоралари. – Монография. – ISBN 978-9910.

2. Бакулов И.А., Юрков Г.Г., Песковацков А.П. Методические указания по эпизоотологическому исследованию. – М.: Колос, 1982. – 30 с.

3. Urinova M., Bazarov M. Clinical manifestations of ascospherosis in Fergana valley depending on the system and method of maintenance // *Science and Innovation*. – 2024. – Vol.3. – №D2. – P.47-49.

4. Urinova M., Bazarov M. Diagnoses, prevention, and treatment of rotting disease and ascospherosis infectious of honeybees in Andijan region // *Science and Innovation*. – 2024. – Vol.3. – №D2. – P.44-46.

5. Urinova M., Bazarov M. Microbiological characteristics of *Ascosphaera apis* // *Science and Innovation*. – 2024. – Vol.3. – №D2. – P.109-111.

6. Gilliam M. Chalkbrood disease of honey bees: A review of the literature // *Bee World*. – 1997. – Vol.78. – P.37-48.

7. Aronstein K.A., Murray K.D. Chalkbrood disease in honey bees // *Journal of Invertebrate Pathology*. – 2010. – Vol.103. – P.S20-S29.

8. Spiltoir C.F., Olive L.S. A reclassification of the genus *Pericystis* Betts and description of the genus *Ascosphaera* // *Mycologia*. – 1955. – Vol.47. – P.238-244.

9. Bailey L., Ball B.V. Honey Bee Pathology. – 2nd ed. – London: Academic Press, 1991. – 193 p.

10. Flores J.M., Ruiz J.A., Ruz J.M. Chalkbrood development in honey bee brood under different environmental conditions // *Apidologie*. – 2005. – Vol.36. – P.415-422.



УЎК: 636.1.01.15.042/636.083.1.

ТОЙЛАРНИ ЎСИШ РИВОЖЛАНИШИГА САҚЛАШ ШАРОИТЛАРИНИНГТАЪСИРИ

Ҳафизов Акмал Иноятович, *қ.х.ф.ф.д. (PhD), доцент,*
Ражабова Дилноза Исмоил қизи, *магистрант,*
Навоий давлат кончилик ва технологиялар университети

Аннотация. *В статье подробно освещены выводы, сделанные на основе результатов анализа научных источников о влиянии условий содержания на рост и развитие жеребята, методах содержания и преимуществах этих методов. Также изложены мнения о том, что наряду с условиями содержания фактор кормления оказывает существенное влияние на рост и развитие жеребят.*

Abstract. *The article details the conclusions drawn based on the analysis of scientific sources regarding the influence of keeping conditions on the growth and development of foals, the methods of keeping them, and the advantages of these methods. Opinions are also expressed that, along with housing conditions, the feeding factor has a significant impact on the growth and development of the foals.*

Калит сўзлар. *сақлаш шароитлари, озиқлантириш омили, тойлар, ўсиш, ривожланиш, денник, отхона, яйлов шароити, иқтисодий тежамкор, гуруҳлаб сақлаш.*

Кириш. Жаҳонда йилқичиликни тармоғини барқарор ривожлантириш долзарб аҳамият касб этади ва қимматли насл хусусиятларига эга бўлган зотдор, шунингдек, спорт отлари кўпгина давлатларда миллий бойлик сифатида эътироф этилади. Ҳозирги пайтда дунё бўйича 350 дан кўпроқ от зотлари мавжуд бўлиб, отлардан: наслчиликда, спортда, хизматда, экотуризмда, соғломлаштиришда, миллий ўйинларда ва қисман қишлоқ хўжалик ишларида фойдаланилади. Халқаро ФАО ташкилотининг 2020 йил маълумотларига кўра, отлар бош сони дунё бўйича 60 млн. бошдан кўпроқни, шундан АҚШ-да 10,26 млн.бошни, Хитойда 7,34 млн. бошни, Мексикада 6,4 млн.бошни, Бразилияда 6,0 млн.бошни, Монголияда 4,1 млн. бошни, Қозоғистонда 1,79 млн. бошни ва Россияда 1,4 млн. бошни ташкил қилади.

Ҳозирги пайтда ёш тойларни, айниқса, онасидан ажратилган тойларни жадал ўсиш ривожланишини таъминлайдиган иқтисодий тежамкор сақлаш технологиясини ишлаб чиқиш жаҳон миқёсида долзарб муаммо сифатида қаралмоқда.

Кейинги йилларда жаҳондаги кўпгина мамлакатларнинг олимлари йилқичиликни самарадорлигини ошириш, отларни сақлашнинг иқтисодий тежамкор ва мақбул технолдогияларини қўллаб келмоқдалар. Йилқичилик соҳаси ривожланган хорижий давлатларда ва МДҲ мамлакатларида тойларни ўсиш ривожлантиришни жадаллаштириш ва отларни тежамкор сақлаш технологиялари ишлаб чиқилмоқда.

Қулунларни 6 ойлик ёшидан кейин онасидан ажратиб, отхона шароитида сақланади ва хўжалик рационига ўтказилади. Бу даврда сутдан ажратилган қулунларнинг овқат ҳазм қилиш тизими, айниқса ошқозони хўжалик рациони таркибидаги озуқаларни ҳазм қилишга мослашмаган бўлади, талаб даражасида витаминларни, минерал моддаларни, макро ва микро элементларни ратсиондаги озуқалардан ўзлаштиролмайди. Натижада улар организмида моддалар алмашинуви жараёни бузилади, ўсиш ривожланиш секинлашади, айрим қулунлар озиб кетади, иммун тизими сустлашади ва касалланиб нобуд бўлиши ҳам мумкин.

Ўзбекистонда турли йилларда йилқичилик тармоғидаги муаммолар ечимига қаратилган илмий тадқиқотлар олиб борилган. Халқ селекцияси билан яратилган қорабайир зотли отларни насл ва маҳсулдорлик кўрсаткичларини яхшилаш, ёш тойларни ўсиш ва ривожланиш хусусиятларини ўрганишга бағишланган илмий изланишлар К.А.Лихов, П.К.Трофимов, А.П.Афанасев, М.К.Сохтаев ва бошқалар томонидан олиб борилган. Отларнинг экстеръери кўрсаткичлари, яйлов йилқичилиги ва наслчилик масалаларига бағишланган мавзулар бўйича З.Т.Тўрақулов, А.З.Мухторов, Д.Х.Холмирзаев, А.А.Нурматов, А.И.Ҳафизовлар изланишлар олиб боришган.

Материал ва услублар. Тадқиқот материали сифатида йилқичиликка оид илмий асарлар танлаб олиниб, таҳлилий ўрганиилди. Тадқиқот зоотехнияда умум қабул қилинган зоотехникавий ва статистик таҳлил қилиш усулларида олиб борилди.

Натижалар ва уларнинг муҳкамаси. Ўрганилган илмий манбалар-нинг таҳлилига кўра, отларни турли усулларда сақлаш ўзига хос аҳамият касб этади.

Отларни ёшлигидан ўсиш ривожланишини самарали кечишида озиқлантириш ва сақлаш технологиялари муҳим аҳамият касб этади. Тойлар республикамиз шароитида асосан қиш мавсумида отхона шароитида боқилади. Бунда улар алоҳида денник (қафасда) якка ва гуруҳ ҳолида сақланади. Эрта баҳорда тойлар яйловга чиқариб юборилади ва уюрларда боқилади. Отхона шароитида тойлар кунига 3 маҳал озиқлантирилади ва 2 маҳал суғорилади. Тойларни озиқлантириш ҳар куни бир хил вақтда амалга оширилади. Бунда кўк озуқалар, илдизмевали озуқалар ва кейин кучли озуқалар берилади.

Республикамиз иқлим шароитидан келиб чиқиб тойларни қуйидаги 3 та усулда сақлаш мумкин:

Тойларни ҳар бирини алоҳида денник (қафас)да сақлаш усули. Тойларни яйраб юриши учун отхона ёнидан махсус майдончалар ажратилади. Бундай майдончаларнинг ҳажми ҳар бир от учун 20 м² ни ташкил қилиши керак. Бу усулда сақлаш давомийлиги йил давомида отхона шароитида сақланади.

Денник (қафас)да поллар пишиқ ғиштдан “арча” шаклида ва керамзит-бетонли материаллардан қурилади. Денник (қафас) поллари девор томондан йўлакка томон ҳар 1 метрда 1-1,5 см нишабликда қилинади.

Той сақланадиган денник (қафас) нинг ҳажми 12 м²-ни ташкил қилиши, 0,6 метр баландликда озуқа охури ўрнатилиши керак. Шунингдек, қафасдаги тойлар сув идишлари билан таъминланиши муҳим ҳисобланади.

Отхона биносида сақланаётган тойлар ҳафтасига бир марта хўжалик совуни билан чўмилтириб турилади ва танаси офтобда яхшилаб қуритилади.

Тойлари “отхона” усулида гуруҳ-гуруҳ қилиб, йил давомида отхона шароитида сақлаш усули.

Бу усулда отхона биносида меъёрдаги барча микроиқлим шароитларини таъминланиши амалга оширилади. Отхона биноларини қиш мавсумига тайёрлашда йилқиларнинг тана ҳарорати ҳисобидан илиқ туришини таъминлаш учун пишиқ ғиштдан, маҳаллий хом ашё материалларидан (сомон сувоқли девор, тахта) деворларни қуришда фойдаланиш мумкин.

Отхонадаги тойлар сақланадиган жой тупроқли поллардан қилинади, қиш мавсумида эса, полга сомонли тўшама ташлаб турилади ва вақт-вақти билан янгилаб борилади. Отхона биносида тозаликни сақлашда, гўнгларни чиқаришда лапатка (курак), арава, сават, паншаха, супурги, хаскаш каби жихозлардан фойдаланилади.

Тойларни “отхона-яйлов” усулида гуруҳ-гуруҳ қилиб, куз-қиш фаслида отхонада,

эрта баҳордан кеч кузгача яйлов шароитида сақлаш усули. Тойларни яйлов шароитида сақлаш ва боқиш учун яйлов (боқиш учун майдончалар) ташкил қилинади.

Бундай майдончаларнинг атрофи мустаҳкам ва хавфсиз тўсиқлар билан ҳимояланади. Бу тадбир тойлар назоратсиз ҳолда бошқа ҳудудларга тарқалиб кетмаслиги, бошқа субъектларга қарашли майдонларни пайҳон қилмаслиги, экинзорларга зарар етказмаслиги ва номаълум сабабларга кўра йўқолиб кетмаслиги мақсадида қилинади.

Тойлар боқиладиган ҳудуд мавсум олдидан кўрикдан ўтказилади ва тойларга жароҳат етказиш эҳтимоли бўлган ёт предметлардан тозаланади. Тойлар боқиладиган яйлов доимий равишда тоза ичимлик суви билан таъминланади. Ёз фаслида тойларни суғориш сутка давомида камида 3 марта, йилнинг бошқа пайтида 2 марта амалга оширилади.

Отларни гельментозлар (турли қурт касалликлари) билан зарарланишини олдини олиш мақсадида оқмайдиган, ифлосланган ҳовуз, ботқоқ сувларидан ва ёмғирлар ҳосил қилган кўлмаклардан суғормаслик чоралари кўриш муҳим тадбирлардан ҳисобланади.

Катта ҳажмдаги сув сақлайдиган идишлардан (цистерналар) тойларни суғоришни ташкил қилишда фойдаланилади. Бундай идишлардаги сув қолдиқлари ҳафтасига 1 марта тўкиб ташланади, ички қисми тозаланади ва янгидан сув билан тўлдирилади.

Худди шунингдек, отларни заҳарли ўсимликлар билан озиқланишидан эҳтиёт бўлиш чоралари кўрилади. Бунинг учун яйловда заҳарли ўт-ўланларни бор ёки йўқлиги доимо назорат қилиб борилади.

Яйлов шароитида отларни ноқулай об-ҳаво шароитидан, иссиқдан ва чивин ва пашшалардан ҳимоя қилиш мақсадида маҳаллий қурилиш материалларидан қурилган бинолар (айвонлар)да сақлаш ташкил қилинади. Бундай енгил типдаги маҳаллий биноларда ҳар бир бош той учун 6 м²-гача жой ажратилади ва мазкур бино деворининг баландлиги 3 метрдан паст бўлмаслиги таъминланади. Бу бинолардан касал ва ёш тойларни кечқурун ҳамда кундуз кунлари сақлашда, зооветеринария тадбирларини ўтказишда, тойларни ўлчашда, даволаш муолажаларини олиб бориш каби тадбирларини амалга оширишда фойдаланилади.

Хулоса қилиб айтганда, кўплаб илмий манбаларнинг таҳлилий натижаларига кўра, тойларни турли усулларда сақлаш уларнинг ўсиш ривожланишига сезиларли таъсир кўрсатади.

Отлар яйловда боқиладими ёки отхонада сақланадими, бундан қатъий назар, уларга илмий асосланган мақбул сақлаш шароитларини яратиш муҳим илмий-амалий аҳамият касб этади.

Тойларнинг “отхона-яйлов” усулида сақлаш ва баҳордан кузгача яйлов шароитларида сақлаб, табиий озиқлардан эркин ҳолда озиқланиши ҳисобидан яшил озуқаларга бўладиган сарф-харажатлар кескин қисқаради, озуқани маҳсулот бирлиги билан қоплаш хусусияти юқори бўлади ва тойларни иқтисодий жиҳатдан самарали бўлишини таъминлайди.

Таҳлилий ўрганилган илмий манбалардан олинган маълумотлардан қилинган хулосаларга асосланиб, шуни таъкидлаш лозимки, йилқичилик тармоғини барқарор ривожлантириш ва тармоқнинг иқтисодий самарадорлигини оширишда тойларни ёшлигидан жадал ўсиш ривожланишини таъминлаш муҳим ҳисобланади. Бунинг учун турли хил сервитамин ва оқсилга бой озуқаларга бўлган талабини илмий асосланган рационлар бўйича озиқлантирилганда, улар ўзларининг генетик имкониятларини тўлиқ намоён қиладилар.

Йилқичилик тармоғидан сифатли ва арзон маҳсулотлар ишлаб чиқаришни амалга ошириш ва бозор баҳоларида сотиш имкониятила-

рини яратиш алоҳида аҳамият касб этади. Ёш тойларни сақлашнинг энг мақбул ва иқтисодий жиҳатдан самарали усулини хўжаликка жорий қилиш ҳисобидан маҳсулот ишлаб чиқаришни кўпайтириш ва пировард натижада тармоқнинг рентабеллик (самарадорлик) даражасини оширишни таъминлаш муҳим имкониятлардан бири ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар.

1. Волфганг Крессе. Лошади содержание, уход и лечение. Москва, Издателство “Аквариум”, 2002 г.

2. Калашников В. В., Ковешников В.С., Калашников Р.В. Продуктивное коневодство. //Зоотехния. 2002. №2.

3. Калиев Р.С. Влияние окружающий среды на организм лошадей при табунном содержание. Статя. Аграрный вестник Урала, №5 (84), 2011 г.

4. Сидорова А.Л. Коневодство. Учебная пособя, Красноярск ГАУ, Красноярск, 2020 г.

5. Ҳафизов А.И. Қорабайир зоти ва унинг фриз зоти билан дурагайлашган тойларнинг ўсиш ва ривожланишига сақлаш технологиясининг таъсири. Қ.х.ф.ф.д. (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент, 2024 йил.

6. Ҳафизов И.И. Отларнинг биологик хусусиятлари. Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filialida tashkil etilgan “Chetdan keltirilgan hayvonlarni iqlim sharoitiga moslashtirish hamda yuqumli va parazitar kasalliklarga qarshi kurashishning dolzarb masalalari” mavzusidagi Respublika miqyosida ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. Тошкент, 4 iyun, 2025-yil , 145-149 bet.



УДК: 619.616.576.636.895.051.32/38

СТЕПЕНЬ ЗАРАЖЕННОСТИ ОВЕЦ НЕКОТОРЫМИ ЖЕЛУДОЧНО-КИШЕЧНЫМИ ГЕЛЬМИНТОЗАМИ В КУШРАБАДСКОМ И ИШТИХАНСКОМ РАЙОНАХ САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ

Юсупова Зарифа Мусурмон кизи, *магистрант,*
Сайфуллаева Махбуба Илхомовна, *базовый докторант,*
Ташкентского филиала
Самаркандского университета ветеринарной медицины,
животноводства и биотехнологий

Аннотация. *В данной статье представлены данные о результатах исследования некоторых желудочно-кишечных гельминтозов у овец, содержащихся в личных хозяйствах населения Кушрабадского и Иштиханского районов Самаркандской области.*

В частности, при гельминтокопрологических исследованиях образцов фекалий овец из личных хозяйств Кушрабадского района, расположенного в горной зоне, установлено, что 55,1% овец заражены нематодирусами, 43,9% — маршаллагиами, 81,3% — другими желудочно-кишечными стронгилятами и 19,6% — токсокарами.

Также установлено, что у овец из личных хозяйств Иштиханского района, относящегося к орошаемой зоне области, 63,7% заражены нематодирусами, 54,9% — маршаллагиами, 70,6% — другими желудочно-кишечными стронгилятами и 1,9% — токсокарами.

Abstract*. This article presents data on the results of a study of certain gastrointestinal helminth infections in sheep kept in private households of the population in the Kushrabot and Ishtikhan districts of the Samarkand region.*

In particular, helminthoprological testing of fecal samples from sheep from private farms in the Kushrabad district, located in a mountainous region, revealed that 55.1% of the sheep were infected with nematodirus, 43.9% with marshallagia, 81.3% with other gastrointestinal strongylates, and 19.6% with toxocara.

It was also found that among sheep from private farms in the Ishtikhan district, located in the irrigated zone of the region, 63.7% were infected with nematodirus, 54.9% with marshallagia, 70.6% with other gastrointestinal strongylates, and 1.9% with toxocara.

Ключевые слова: *горная зона, орошаемая зона, регион, овцы, фекалии, яйца гельминтов, гельминтокопрологический, гельминтоовоскопический, метод Фюллеборна, последовательное промывание.*

Актуальность темы. В настоящее время во многих странах мира гельминтозы широко распространены среди сельскохозяйственных животных. В нашей республике гельминты, паразитирующие в желудочно-кишечном тракте сельскохозяйственных животных и птицы, наносят значительный экономический ущерб.

Гельминтозы у овец вызывают бесплодие маток, задержку роста и развития ягнят, снижение количества мяса и шерсти, а также уменьшение устойчивости организма животных к инфекционным заболеваниям. Механические повреждения, вызываемые гельминтами, могут способствовать проникновению инфекций и приводить к значительным экономическим потерям.

Поэтому изучение степени распространения гельминтозов и разработка эффективных методов их профилактики является актуальной задачей.

Место и методы исследования. *В ходе исследований были изучены образцы фекалий 107*

Таблица 1.

Степень зараженности овец некоторыми желудочно-кишечными гельминтами в Кушрабадском и Иштиханском районах Самаркандской области

Районы	Исследовано овец	Нематодирус	%	Маршаллагиа	%	Другие ЖК-стронгилят	%	Токсокара	%
Кушрабад	107	59	55,1	47	43,9	87	81,3	21	19,6
Иштихан	102	65	63,7	56	54,9	72	70,6	2	1,9
Всего	209	124	59,3	103	49,2	159	76	23	11

овец из личных хозяйств Кушрабадского района и 102 овец из личных хозяйств Иштиханского района.

Исследования проводились в лаборатории Государственного научного центра контроля и испытаний ветеринарных лекарственных средств и продукции. Использовались копрологические методы: флотационный метод Фюллеборна и седиментационный метод последовательного промывания.

Результаты исследования. *Всего было исследовано 209 овец. Из них 159 голов (76%) заражены другими желудочно-кишечными стронгилятами, 124 головы (59,3%) — нематодирусами, 103 головы (49,2%) — маршаллагиами и 23 головы (11%) — токсокарами.*

Выводы.

1. Зараженность овец нематодирусами и маршаллагиами в орошаемой зоне соответственно в 1,15 и 1,25 раза выше, чем в горной зоне.

2. Зараженность овец другими желудочно-кишечными стронгилятами в горной зоне в 1,15 раза выше по сравнению с орошаемой зоной.

3. Токсокары, которые долгое время не регистрировались у овец, в горной зоне встречаются в 10 раз чаще, чем в орошаемой зоне.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Орипов А. О., Ғафуров А. Ғ., Йўлдошев Н. Э. ва бошқалар “Қишлоқ хўжалик ҳайвонларининг паразитология ва инвазион касалликлари”. Тошкент.2023 йил.3-45б.

2. Йўлдошев Н. Э. “Гельминтозларга қарши курашнинг замонавий услуб воситалари” автореферат дисс. Самарқанд-2018. 1-22.б

3. Йўлдошев Н. Э., Рахманова Л. А., Яхшиева Д. А. “Тошкент вилоятининг тоғли ҳудудларида майда шохли молларда айрим ошқазон-ичак стронгилятозларининг тарқалиш даражаси” Ветеринария медицинаси 2022. 3-сон. 19-20.б.

4. Йўлдошев Н. Э., Яхшиева Д. А “Тошкент вилоятида қўйларнинг асосий гельминтозлари” Паразитологиянинг бугунги кундаги муаммолари, ечимлари ва истиқболлари респ. илмий-амалий конф. Тошкент-2024.210-216.б.

So‘nggi yillarda kuzatilayotgan global iqlim isishi va namlik rejimining o‘zgarishi parazitlarning nafaqat son jihatidan ortishiga, balki ularning faollik mavsumi davomiyligining uzayishiga ham sabab bo‘lmoqda. Ixodid kanalari chorvachilik sub’ektlariga ikki yo‘nalishda jiddiy zarar yetkazadi:

Birinchidan, bevosita parazitlik qilish orqali hayvonlar organizmida anemiya (kamqonlik), ozib ketish, sut va go‘sht mahsuldorligining 20-30% gacha pasayishiga hamda teri sifatining buzilishiga olib keladi.

Ikkinchidan, ular xavfli transmissiv kasalliklarning (teylerioz, piroplazmoz va anaplazmoz) asosiy biologik tashuvchisi bo‘lib, hayvonlar o‘rtasida epizootik vaziyatning keskinlashishiga va katta iqtisodiy yo‘qotishlarga sababchi bo‘ladi [2, 4].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **2026-yil 13-martdagi PF-40 sonli farmonida** agrar

sohani, xususan, veterinariya meditsinasini innovatsion texnologiyalar asosida modernizatsiya qilish ustuvor vazifa etib belgilangan. Shu nuqtayi nazardan, Toshkent viloyati sharoitida dominant kana turlarini aniqlash va ularning biologik sikliga mos kurash strategiyalarini ishlab chiqish zamonaviy veterinariya parazitologiyasining eng dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda [1].

Toshkent viloyatida uchraydigan asosiy kanalar turlari. **Toshkent viloyatida uchraydigan asosiy Ixodid kanalarining tur tarkibi va ekologik tavsifi**

Toshkent viloyatining landshaft-iqlim sharoiti — dengiz sathidan balandligi, namlik darajasi va o‘simlik qoplami — ektoparazitlarning turli taksonomik guruhlari shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ko‘p yillik parazitologik kuzatuvlar va to‘plangan materiallar tahlili shuni ko‘rsatadiki, viloyat chorvachilik xo‘jaliklarida quyidagi Ixodid kanalarining dominantligi kuzatiladi [3]:

Hyalomma anatolicum (Koch, 1844). Ushbu tur viloyatning asosan tekislik va cho‘l-yaylov mintaqalarida (Chinoz, Oqqo‘rg‘on, Bo‘ka tumanlari) keng tarqalgan [2].

Biologik xususiyati: Ikki yoki uch xo‘jayinli rivojlanish sikliga ega bo‘lib, nafaqat yaylovlarda, balki chorvachilik binolarining yoriqlarida ham ko‘payish qobiliyatiga ega.

Epizootologik ahamiyati: *H. anatolicum* O‘zbekiston sharoitida qoramollar o‘rtasida o‘ta xavfli hisoblangan **teylerioz (Theileria annulata)** kasalligining asosiy va eng faol biologik tashuvchisi hisoblanadi. Global iqlim isishi natijasida ushbu turning shimoliy hududlarga migratsiyasi va faollik davrining uzayishi kuzatilmoqda.

Rhipicephalus turanicus (Pomerantsev, 1936). Toshkent viloyatining adir va tog‘ oldi hududlarida (Parkent, Ohangaron, Bo‘stonliq) eng ko‘p uchraydigan turlardan biri.

Lokalizatsiyasi: Ushbu kanalar qoramollarning asosan teri qoplami yupqa bo‘lgan qismlarida — quloq suprasining ichki tomoni, bo‘yin va dum osti sohalarida yirik to‘plamlar (koloniyalar) hosil qiladi.

Zarari: Bahor va kuz oylarida ommaviy ko‘payishi natijasida hayvonlarda kuchli qichishish, teri yallig‘lanishi va gematologik o‘zgarishlarga (anemiya) sabab bo‘ladi. Shuningdek, u anaplazmoz va piroplazmoz qo‘zg‘atuvchilarini yuqtirishda ishtirok etadi [3].

Boophilus annulatus (Rhipicephalus annulatus). Ushbu tur “bir xo‘jayinli kana” sifatida tasniflanadi, ya’ni uning barcha rivojlanish bosqichlari (lichinka, nimfa, imago) bitta hayvon tanasida kechadi.

Ekologik nishasi: Toshkent viloyatining namlik yuqori bo‘lgan sug‘oriladigan dehqonchilik zonalarida va daryo bo‘yi yaylovlarida ko‘p uchraydi.

Xavfliligi: Bir xo‘jayinli bo‘lishiga qaramay, u qoramollar qonida **Babesia bigemina** (piroplazmoz) qo‘zg‘atuvchisini transovarial (tuxum orqali) o‘tkazish xususiyatiga ega. Bu esa yaylovlarda kasallik o‘choqlarining uzoq vaqt saqlanib qolishiga olib keladi [2, 3].

Dermacentor marginatus (Sulzer, 1776). Viloyatning asosan butazorli va to‘qayzorli hududlarida uchraydi. Bahorgi mavsumda, boshqa turlarga nisbatan pastroq haroratlarda ham faollashishi bilan ajralib turadi. U asosan brutsellyoz va tularemiya kabi infeksiyalarning ham tabiiy o‘choqlarda saqlanishida ishtirok etishi bilan xavflidir [2].

Kanalar rivojlanishining mavsumiy dinamikasi. Toshkent viloyatida kanalar faolligi havo harorati va namlikka qarab ikki marta ko‘tarilish (pik) davriga ega:

Bahorgi faollik (Mart-Iyun): Havo harorati +12°C dan +15°C ga yetganda (mart oyi oxiri), kanalar qishlovdan chiqadi. Aprel va may oylarida *Hyalomma* urug‘i vakillarining faolligi eng yuqori darajaga yetadi.

Yozgi tanaffus va ikkinchi to‘lqin (Avgust-Oktyabr): Iyul oyining jazirama issig‘ida faollik biroz pasayadi, biroq avgust oxiri va sen-

tyabrda *Rhipicephalus* va *Dermacentor* turlarining ikkinchi to‘lqini kuzatiladi [3, 4].

Rivojlanish davrlari jadvali:

Kana turi	Faollik boshlanishi	Eng yuqori cho‘qqisi	Asosiy zarari
H. anatolicum	Mart oyi oxiri	May - Iyun	Teylerioz tashuvchisi
Rh. turanicus	Aprel oyi	May va Sentyabr	Qon yo‘qotish, anemiya
B. annulatus	May oyi	Iyun - Avgust	Piroplazmidozlar

Toshkent viloyati chorvachilik xo‘jaliklarida kanalarga qarshi kurash choralari (PF-40 doirasida). Prezidentning PF-40 sonli farmonida belgilanganidek, agrar sohada epizootik barqarorlikni ta’minlash va innovatsion usullarni qo‘llash ustuvor vazifa hisoblanadi. Toshkent viloyati sharoitida Ixodid kanalarining mavsumiy dinamikasini hisobga olgan holda, quyidagi akaritsid kurash strategiyasi tavsiya etiladi [1]:

Akaritsid preparatlarni qo‘llash: Hozirgi kunda respublikamiz veterinariya amaliyotida samarali hisoblangan makrosiklik laktonlar va piridazin hosilalari keng qo‘llanilmoqda:

In’eksion usul: Qoramollarga 1% li Ivermektin yoki Doramektin preparatlarini teri ostiga yuborish orqali ham ichki, ham tashqi parazitlarga qarshi uzoq muddatli (14-21 kun) himoya hosil qilinadi.

Tomizish usuli: Hayvonning umurtqa pog‘onasi bo‘ylab surtiladigan zamonaviy preparatlar (masalan, Siflunil) kanalar ommaviy ko‘paygan davrda ishchi kuchi sarfini kamaytiradi va 4 haftagacha samarali himoya beradi.

Cho‘miltirish va purkash: Katta podalarda Sipermetrin yoki Deltametrin asosidagi emulsiya va eritmalar bilan hayvonlarga ishlov berish kanalar sonini keskin kamaytirish imkonini beradi [4].

Profilaktika va dezinfeksiya: Kanalarga qarshi kurash faqat hayvon tanasida emas, balki ularning ko‘payish joylarida ham olib borilishi shart. PF-40 farmoni doirasida “Sog‘lom hayvon — xavfsiz mahsulot” tamoyili asosida:

1. Chorvachilik binolarini akaritsidlar bilan dezinfeksiya qilish (ayniqsa *H. anatolicum*ga qarshi devor yoriqlariga ishlov berish).

2. Yaylovlarni almashlab foydalanish tizimini joriy etish orqali kanalarning rivojlanish siklini buzish.

3. Mavsumiy monitorig: Bahorgi (mart-aprel) va kuzgi (avgust-sentyabr) profilaktik ishlovlarni tizimli ravishda o‘tkazish [2, 4].

Xulosalar.

1. Toshkent viloyati sharoitida Ixodid kanalarining tur tarkibini (*Hyalomma, Rhipicephalus, Boophilus*) va ularning mavsumiy faollik cho‘qqilarini hisobga olish akaritsid ishlovlarining samaradorligini 2-3 baravarga oshiradi [3, 4].

2. PF-40 sonli farmon ijrosini ta’minlash maqsadida, viloyat chorvachilik sub’ektlarida zamonaviy in’eksion va pury-on preparatlarini tizimli qo‘llash orqali transmissiv kasalliklarning (teylerioz, piroplazmoz) oldini olish va iqtisodiy zararni minimal darajaga tushirish imkoniyati mavjud [1].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 13-martdagi PF-40 sonli farmoni.

2. Daminov, A. S. (2023). Veterinariya parazitologiyasi: Darslik. Toshkent, «O‘qituvchi» nashriyoti.

3. O‘zbekiston veterinariya meditsinasi jurnali (2025). “Toshkent viloyati yaylov kanalarining ekologik tavsifi va zamonaviy akaritsidlar samaradorligi”, 22-26-betlar.

4. Umarov, T. (2024). Chorvachilikda ektoparazitlarga qarshi kurashning zamonaviy usullari. *Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti axborotnomasi*.

UDK: 619.576.895.75.614.449.57.

QORAQALPOG‘ISTON HUDUDIDAGI CHORVA HAYVONLARIDA EKTOPARAZITLARNING FAUNASI

F.S.Pulotov, *v.f.f.d.,* **S.B.Gaypnazarov,**
T.M.Eshanova, U.M.Jaqsibaeva, J.K.Worazbaev,
SamVMCHBU Nukus filiali

Аннотация. *В статье приведены данные о результатах исследования, проведённого в животноводческих и птицеводческих хозяйствах районов Нукус, Конлыкул, Кунгирот и Чимбай Республики Каракалпакстан в условиях лесов и пастбищ. В ходе визуалных арахноентомологических обследований всего более 450 голов крупного рогатого скота и более 28 000 голов птицы, находящейся на попечении населения, установлены фауна эктопаразитов и их распространение по экотопам и экотонам.*

Annotation. *The article provides information on the results of a study conducted in livestock and poultry farms in the Nukus, Konlikul, Qungirot and Chimbay districts of the Republic of Karakalpakstan under forest and pasture conditions. During visual arachnoentomological examinations of a total of more than 450 head of cattle and over 28,000 head of poultry kept by local households, the fauna of ectoparasites identified and their distribution by ecotopes and ecotones are reported.*

Kalit so‘zlar. *Argas, bovicola, iksod, kana, fauna, ekoton, ekotop, ektoparazit, junxo‘r, parxo‘r.*

Kirish. Keyingi yillarda tabiatga antropogen omillarning, anomal hamda texnogen xodisalar bosimining zo‘rayishi natijasida jiddiy bioekologik siljishlar, suksessiyalar yuz bermoqdaki, natijada, biotsenozlarda zararli va foydali turlar migratsiyasi kuchayib, bioxilmaxillik buzilmoqda, atipik, persistent, mutant, rezistent biopatogenlar, yangi parazitar sistemalar, ekzogen populyatsiyalar, yangi faunistik holat paydo bo‘lmoqda. Ilgari kamaytirilgan yoxud yo‘qotilgan o‘ta xavfli transmissiv va tabiiy o‘choqli kasalliklarning paydo bo‘lish holatlari kuzatilmoqda. Shuning uchun bugungi kunda chorva hayvonlarini turli ektoparazitlar bilan zararlanish holatlarining ko‘payib borishi hayvonlarning sut, go‘sht, tuxum, jun va par mahsuldorligi pasayishiga, sifatining buzilishiga, yosh mollar va parrandalar (buzoq, qo‘zi, uloq, jo‘ja) tengqurlariga nisbatan o‘sish hamda rivojlanishdan orqada qolishi va nobud bo‘lshiga sabab bo’lmoqda. Bundan tashqari, ektoparazitlar (bit, junxo‘r, kana va bsh.) odamlar va hayvonlarning o‘ta xavfli transmissiv (o‘lat, kana ensefaliti, tulyaremiya, gemorragik isitma, Termiz va Tomdi isitmalari, efemer isitma, kana isitmasi, vabo, qaytalovchi va toshmali tif, bezgak, tripanosomozlar, leyshmaniozlar, sibir yarasi va boshqa ko‘plab) kasalliklarning qo‘zg‘atuvchilarini tarqatuvchisi va asosiy manbai hisoblanishadi. Shuning uchun Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududlari sharoitida tarqalgan ektoparazitlarning faunasi, ekoton va ekotoplar bo‘yicha tarqalishi, dominant turlari va ular keltirib chiqaradigan kasalliklarni o’rganish va ularga qarshi kurash muhim omillardan biri sanaladi.

Tadqiqotning materiallari va uslublari. Ushbu tadqiqotlar parazitologik, faunistik, ekologik, fenologik, migratsiya, terapevtik, profilaktik va boshqa tadqiqotlar veterinariya hamda tibbiyotda qabul qilingan (Herbert Ross, Paul De Bach, G.Ya.Bey-Bienko, V.A.Dogel, V.N.Beklemishev, V.V.Yaxontov, S.D.Pavlov, A.R.Ro‘zimurodov, M.Akbaev, I.Vasilievich, A.Nikolskiy va boshqa tadqiqotchilar) usullar, qo‘llanma va aniqlagichlar yordamida olib borildi. Terilgan ektoparazitlar turlari “Атлас иксодоидных клещей” M. “Kolos”, 1968, I.M.Ganiev va boshqa aniqlagich, kitob va qo‘llanmalar hamda adabiyotlardan foydalanib identifikatsiya qilindi va turlari aniqlandi.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqotlar Qoraqolpog‘iston Respublikasining Nukus, Konlikul, Qo‘ng‘irot va Chimbay tumanlari hududidagi chorvachilik xo‘jaliklari, shaxsiy va xususiy mollarda, to‘qay va yaylovlar sharoitida aholi qarashli jami 5 ta chorvachilik fermalarida va shaxsiy xonadonlardagi jami 350 boshdan ortiq qoramol va 28000 bosh parrandalar vizual usulda araxnoentomologik tekshiruvlar mobaynida araxnoz kasallik qo‘zg‘atuvchilaridan - *Hyalomma (H.anatolicum,*

1-jadval.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududlarida topilgan ektoparazit turlari

T/r	Aniqlangan ektoparazit turlari	Zararlangan hayvon turlari	Uchrash mavsumlari
1.	Hyalomma anatolicum	qoramol	Issiq mavsumlarda
3.	Hyalomma detritum	qoramol	Issiq mavsumlarda
4.	Rhipicephalus bursa	qoramol	Issiq mavsumlarda
5.	Dermacentor marginatus	qoramol	Issiq mavsumlarda
6.	Ixodes ricinus	qoramol	barcha mavsumlarda
7.	Bovicola bovis	qoramol	barcha mavsumlarda
8.	Dermanissus gallinae	tovuq	barcha mavsumlarda
9.	Argas persicus	tovuq	Issiq mavsumlarda
10	Gonicotes hologaster	tovuq	barcha mavsumlarda

H.detritum), Rhipicephalus (Rh.bursa), Dermacentor marginatus, Ixodes (I.ricinus), Dermanissus gallinae, Argas persicus, entomoz kasallik qo‘zg‘atuvchilaridan *Bovicola bovis* va *Gonicotes hologaster* avlodlariga mansub ektoparazit vakillari ko‘p tarqalganligi hamda qoramollarda ektoparazitlarning 6 ta turga va parrandalarda esa 3 turga mansubligi, entomoz kasallik qo‘zg‘atuvchilari yilning barcha mavsumlari davomida, araxnoz kasallik qo‘zg‘atuvchi ektoparazitlar esa asosan yilning issiq mavsumlarida ko’proq uchrashi qayd etildi (1-jadval, 1-2-rasmlar).

Bovicola bovis junxo‘rlari butun er yuzida qoramollar orasida eng ko‘p tarqalgan doimiy ektoparazit bo‘lib, Arhtropoda tipiga, Insecta sinfiga, Mallophaga turkumiga, Trichodectidae oilasiga, Bovicola avlodiga, Bovicola bovis turiga mansub hasharotlar hisoblanadi. Bovicola bovis – 1,0-2,0 mm kattalikdagi kichkina, qanotsiz, tanasi uzunchoq ovalsimonga o‘xshash, sarg‘ish tusdagi hashorot bo‘lib, og‘iz apparati kemiruvchi tipda, ko‘zlari yaxshi rivojlanmagan, uch juft kichik oyoq panjacha uchlari tirnoqcha bilan tugaydi, qorin qismi segmentlangan, jun va tukchalar bilan har bir turga mos qoplangan.

Kanalar - bo‘g‘imoyoqlilar tipiga kiruvchi o‘rgimchaksimonlar bo‘lib, ular *Arachnida* sinfining eng ko‘p tarqalgan va xilma-xil vakillaridan biri hisoblanadi. Kanalar tabiatda keng tarqalgan bo‘lib, tuproq, o‘simlik qoplami, hayvonlar tanasi hamda turli ekologik muhitlarda yashaydi.

Veterinariya va tibbiyot nuqtai nazaridan eng muhim kanalar **Ixodida** turkumiga mansub hisoblanadi. Ushbu turkum vakillari qon so‘ruvchi ektoparazitlar bo‘lib, hayvonlar va odam organizmida parazitlik qiladi. Ixod kanalar ikki asosiy oilaga bo‘linadi: **Ixodidae** (qattiq kanalar) va **Argasidae** (yumshoq kanalar). Qattiq kanalar tanasining ustki qismida xitin qalqon - skutum mavjudligi bilan ajralib turadi. Ixod kanalarining rivojlanishi bir necha bosqichdan iborat: tuxum, lichinka, nimfa va imago (voyaga yetgan shakl). Lichinka bosqichida ular uch juft oyoqqa ega bo‘lsa, nimfa va imago bosqichlarida to‘rt juft oyoq rivojlangan bo‘ladi. Rivojlanish jarayonida kanalar bir yoki bir nechta xo‘jayinlarda oziqlanishi mumkin. Shu sababli ular bir xo‘jayinli, ikki xo‘jayinli va uch xo‘jayinli kanalarga bo‘linadi.

O‘zbekiston hududida ixod kanalarining bir qator turlari uchraydi. Ulardan eng muhimlari **Hyalomma anatolicum**, **Hyalomma detritum**, **Rhipicephalus bursa** hamda **Dermacentor marginatus** hisoblanadi. Ushbu kanalar chorva hayvonlari tanasida parazitlik qilib, ularning qonini so‘radi va turli kasallik qo‘zg‘atuvchilarini tarqatadi. Ixod kanalar veterinariya jihatidan juda muhim bo‘lib, ular ko‘plab transmissiv kasalliklarning tashuvchisi hisoblanadi. Jumladan, ular Babesiosis, anaplazmoz, piroplazmoz kabi gemoparazitar kasalliklarni tarqatadi. Bunday kasalliklar chorva hayvonlarining mahsuldorligini kamaytiradi, ba’zan esa o‘limiga ham sabab bo‘lishi mumkin.



Bovicola bovis



Argas persicus



Gonicotes hologaster



Hyalomma anatolicum



Rhipicephalus bursa

Argas persicus yoki fors kanasi (4.5-9 mm) deyiladi, parrandalarning borellioz kasalllik qo‘zg‘atuvchilari, tuberkulyoz, tif va o‘rdaklarda paratif kasallik qo‘zg‘atuvchilarini tashuvchi hisoblanadi. Imago bir necha marta hujum qiladi har oziqlangandan so‘ng urg‘ochi kanalar 130 tagacha tuxum qo‘yadi – 10-14 kunda lichinkaga aylanib 3-10 kun davomida parrandaga hujum qilib parazitlik qiladi va yerga tushib tulab nimfaga aylanadi. Nimfa 20-60 daqiqa davomida qon so‘rib 1-2-3-bosqich nimfaga aylanadi va tulab imagoga aylanadi, to‘liq rivojlanish sikli 1-2 yil (+20 ^{0}C) ketadi. Asosan kechasi tirqishlardan chiqib parrandalarga hujum qiladi.

Gonicotes hologaster pat va parxo’rining butun rivojlanish sikli parrandalarda sodir bo’ladi va parrandalardan tashqarida ular tezda nobud bo’ladi. Tanasiga kirgandan so’ng, ular tezda ko’payib, patlarning tagida tuxum qo’yadilar. Patxo’rlar parrandalarni juda bezovta qiladi va qattiq qichishishga olib keladi. Natijada, parrandalar ovqatlanishdan bosh tortadi, vazn yo’qotadi va kamroq tuxum qo’yadi hatto jo’jalar o’lishi mumkin. Patxo’r va parxo’rlarni parrandalarning terisi va patlarini, ayniqsa qanotlar ostida va shamollatish teshigi yaqinida tekshirish orqali aniqlanadi.

Tadqiqotlar olib borilgan ushbu hududlarda kuzatuvlar natijasida entomoz kasallik qo‘zg‘atuvchilari - *Bovicola bovis va Gonicotes hologaster* yilning barcha mavsumlari davomida, araxnoz kasallik qo’zg’atuvchi ektoparazitlar - *Hyalomma (H.anatolicum, H.detritum), Rhipicephalus (Rh.*

bursa), Dermacentor marginatus, Dermanissus gallinae, Argas persicus esa asosan tabiatdagi mavsumiy harakat bahor oylarida havo haroratining ko‘tarilishi bilan mart oyining birinchi dekadasidan boshlanishi, yilning yoz oylariga borib tekshirilgan chorva mollarining barchasi kanalar bilan zararlanganligi aniqlandi.

Ushbu ektoparazitlar chorvachilikda katta iqtisodiy zarar keltiradi. Shuning uchun ularga qarshi kurashish choralariga yaylovlarni sanitariya jihatidan tozalash, chorva hayvonlarini muntazam tekshirish hamda insektoakaritsid preparatlar bilan ishlov berish shuningdek, epizootologik monitoring olib borish ektoparazitlar tarqalishini nazorat qilishda muhim ahamiyatga ega.

XULOSALAR.

1. Qoraqalpog‘iston Respublikasi ekoton va ekotoplarida olib borilgan tadqiqotlar natijasida tekshirilgan 450 boshdan ortiq qoramollar va 28000 boshdan ortiq parrandalarning 10 turga mansub ektoparazitlar bilan zararlanganligi aniqlandi.

2. Qoraqalpog‘iston Respublikasi sharoitida qoramollar tanasida asosan 6 ta turga - *Hyalomma anatolicum, H.detritum, Rhipicephalus bursa, Dermacentor marginatus, Ixodes ricinus* va *Bovicola bovis,* parrandalarda esa 3 turga mansub - *Dermanissus gallinae, Argas persicus* va *Gonicotes hologaster* ektoparazitlar parazitlik qilishi qayd qilindi.

3. Qoramol va parrandalar orasida araxnoz kasalliklarini qo‘zg‘atuvchi ektoparazitlar bahor va yoz oylarida va entomoz kasalliklarini qo‘zg‘atuvchi ektoparazitlar esa yil davomida uchrashi hamda chorva mollariga juda katta iqtisodiy zarar keltirishi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Pulatov, F. S., Rakhimov, M. Y., Ismoilov, A. S., Boltaev, D. M., Kamalova, A. I., & Djalolov, A. A. (2022). Fauna and phenoecology of zooparazites. *Annals of forest research Scopus journal*, *65*(1), 854-863.

2. Pulatov, F. S., Rakhimov, M. Y., Sh, I. A., Boltaev, D. M., & Saifiddinov, B. F. (2022). Ecogenesis of ectoparasites of agricultural animals. *Eurasian Med Res Period*, *6*, 165-167.

3. Pulotov, F. S., & Sayfiddinov, K. F. (2024). Bitoxibacillin-Bioinsecticide. *American Journal of Science on Integration and Human Development*, *21*, 63-65.

4. Pulatov FS, Sh IA. Fauna zooparazitlari. Ta’lim va fanning akademik tendentsiyalari bo’yicha xalqaro konsortsium, Yevro-Osiyo konferensiyasi 2021 (3-4-betlar).

5. Пулатов, Ф. С. (2017). Применение циперметрина против экто-и эндопаразитов. In СОВРЕМЕННАЯ НАУКА: ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ (pp. 99-103).



UDK: 619: 636.2: 618.14-002:616

FERMER XO‘JALIKLARI SHAROITIDA SIGIRLARDA KATARAL-YIRINGLI ENDOMETRITLARNING SABABLARI VA KECHISH XUSUSIYATLARI (Adabiyotlar tahlili)

B.M.Eshburiev, *ilmiy rahbar, professor,*
A.B.Nazarov, *tayanch doktorant,*
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

Аннотация. *В данной статье представлено анализ литературных источников о причинах и особенности течение катарально-гинойного эндометрита у животных, в частности у коров.*

Annotation: *This article presents an analysis of literary sources regarding the types, causes, and course of catarrhal-purulent endometritis, which is commonly found in farm animals, especially cows.*

Kalit so‘zlar*: Yiringli endometritlar, yallig‘lanish, tug‘ruqdan keyingi endometrit, servitsit, yayratish va quyosh nurlarining yetishmasligi, o‘tkir, surunkali, suyuqlik, reproduktiv, gemmorragik, kataral, bachadonni vaginal va rektal tekshiruvi.*

Kirish. Bugungi kunda dunyoning turli davlatlarida mahsuldor sigirlar orasida turli ginekologik kasalliklar, jumladan, endometritlarning ko‘p qayd etilib, ratsionlarning takomillashmaganligi, modda almashinuvlarining buzilishlari, antisanitariya sharoitlari va turli stress omillar natijasida organizm tabiiy rezistentligining pasayishi va mikroorganizmlar patogenlik xususiyatlarining kuchayishi asosiy etiologik omillar hisoblanadi. Ushbu patologiyani o‘rganilishi dolzarb hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 yanvardagi PQ-4576-sonli «Chorvachilik tarmog‘ini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda hamda aholining chorvachilik mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishda chorva hayvonlari, ayniqsa sigirlarning ginekologik kasalliklari to‘sqinliklardan hisoblanib, ushbu kasallikni davolash va oldini olishga qaratilgan keng qamrovli chora-tadbirlarni amalga oshirish eng asosiy masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Qishloq xo‘jaligining asosiy tarmog‘i bo‘lgan chorvachilikni rivojlantirish va samaradorligini oshirishda fermer hamda xususiy xo‘jaliklardagi qoramollar bosh sonini ko‘paytirish, mahsuldorligini oshirish, ulardan sog‘lom bola olish maqsadida to‘g‘ri parvarishlash va turli yuqumli, invazion va yuqumsiz xususiyatli kasalliklardan saqlash muayyan darajada xizmat qiladi.

Endometrit - bachadon shilliq qavatining yallig‘lanishidir. Kechishiga qarab: o‘tkir, yarim o‘tkir va surunkali, namoyon bo‘lishiga qarab esa yaqqol klinik belgiga ega va yashirin ko‘rinishda kechishi farqlanadi. O‘tkir yallig‘lanishning shakliga ko‘ra, kataral, yiringli, yiringli-kataral, fibrinozli, nekrotik va gangrenozli endometrit farqlanadi [1].

Endometrit bilan kasallangan sigirlarda to‘g‘ri ichak orqali tekshirish o‘tkazilganda bachadon kattalashgan (3-3,5 oylik bug‘ozlikdagi kattalikda), qorin bo‘shlig‘ida joylashgan, uning devorlari bo‘shashgan, xamirsimon konsistensiyada, qisqarishi juda sezilarsiz yoki umuman sezilmaydi. Ba’zan flyuktuatsiya hamda kuchsiz og‘riq sezish qayd etiladi. Qin orqali tekshirilganda qinning shilliq pardasi va bachadon bo‘yinchasining qin qismi qizargan, giperemiya, no‘qtali yoki yo‘l-yo‘l qon quyulishlari, bachadon bo‘yinchasi kanalidan yiringli-kataral ekssudatning ajralishi xarakterli bo‘ladi. Hayvonning umumiy holati ko‘pincha o‘zgarmaydi, ayrim hayvonlarda tana haroratining 1,0-1,5^{0}C gacha ko‘tarilishi, umumiy holsizlanish,

ishtaha va sut mahsuldorligining pasayishi qayd etiladi [1].

O‘tkir endometritni davolashda antibiotiklar odatda kasallik o‘tib tana harorati me’yoriga kelganidan keyin ham 3-4 kun davomida qo‘llaniladi. Antibiotiklar bachadon ichiga ham yuboriladi. Yuvish bachadondan eritma rangidagi suyuqlik oqib chiqguncha davom ettiriladi. Bir marta yuvish uchun yallig‘lanish jarayonining turi va darajasiga ko‘ra, 2 - 10 l dezinfeksiyalovchi eritma ishlatiladi. Bachadon ekssudatning to‘planishiga ko‘ra, har kuni yoki kun ora yuviladi. Ekssudat ajralishi ancha kamayib qolgandan keyin uch-to‘rt kunda bir marta yuvilsa bo‘ladi. Yuvish vaqtida yuborilgan eritmaning hammasini bachadondan chiqarib tashlash zarur. Bachadonni yuvishdan oldin irigator yoki maxsus nasos bilan undagi ekssudatni tortib olish tavsiya etiladi [2].

Qon quyilganda, gematomalar, yirik qon tomirlarining trombozi va barcha turdagi yiringli yallig‘lanishlarda hamda yomon sifatli o‘smalar paytida bachadonni massaj qilish tavsiya etilmaydi [2].

Muallifning ta’kidlashicha tug‘ishdan keyingi paytda kataral endometrit bilan bachadon subinvalyutsiyasini almashtirish mumkin. Bu paytda shu turga mansub hayvonlarda bachadonni tozalanish muddatiga e’tibor qilinadi. Odatda kasallikning belgilari yo‘qolib boradi va 1-2 hafta ichida hayvon sog‘ayadi. Ba’zan patologik jarayon surunkali tus oladi va surunkali kataral yoki kataral-yiringli endometritga aylanadi [1].

Yuqori mahsuldor sigirlarda akusher-ginekologik kasalliklarni oldini olishda asosiy omillar mustahkam oziqa bazasini yaratish, to‘g‘ri oziqlantirish va parvarishlash, to‘laqimmatli oziqlantirish, rejali ravishda yayratishni tashkil etish, hayvonlarni bir joyda saqlashda, ayniqsa qishlov davrida vitaminlar va minerallar bilan yetarlicha ta’minlash zarur ekanligi qayd etilgan [1].

Tuqqandan keyingi o‘tkir kataral-yiringli endometritning klinik belgilari tuqqandan keyingi 8-10, ba’zan 6-7 kunlarida namoyon bo‘lib, yo‘ldoshning ushlanib qolishi yoki bachadon subinvolyutsiyasining asorati sifatida rivojlanadi. Hayvon yotgan paytda, kuchanganda yoki to‘g‘ri ichak orqali bachadon massaj qilinganda jinsiy yo‘llardan jigarrang-qo‘ng‘ir yoki sarg‘ich-qo‘ng‘ir rangdagi qo‘lansa hidli ko‘p miqdordagi shilimshiqli-yiringli ekssudatning ajralishi kuzatiladi. Jinsiy lablar va dumning asosi ekssudat qotmalari bilan ifloslangan bo‘ladi [1].

Tadqiqotchilar hayvonlarda pushtsizlikka sabab bo‘ladigan ginekologik kasalliklar orasida jinsiy a’zolardagi yallig‘lanish jarayonlari katta salmoqqa ega ekanligini aniqlagan [5].

Ayrim tadqiqotchilarning xulosalarida sigirlarda tug‘ruqdan keyingi nospesefik endometritlar asosan kasallanish qish-bahor mavsumida 57,5-61,3, kuz-qish mavsumida esa 37,5-45,3% sigirlarda uchraganligi qayd etib o‘tilgan. Mualliflar qish-bahor mavsumida qayd etilgan endometritlar bakterial etiologiyali, yoz mavsumida esa bakterial-mikozli endometritlar rivojlanishining guvohi bo‘lgan [6].

Tadqiqotchilarning ma’lumotlariga ko‘ra, qoramollar trixomonozi oqibatida qin shilliq pardasining yallig‘lanishi, servitsit, endometrit rivojlanadi. Sigirlarda trixomonoz 4 xil shaklda kechadi: kataral-yiringli vestibulovaginit, kataral-yiringli endometrit, idiopatik abort, piometrit. Muallifning ta’kidlashicha sigirlarda endometritlarning kelib chiqishiga listerioz, brutsellyoz kasalliklarining asoratlari hamda yo‘ldoshning ushlanib qolishi va abortlar sabab bo‘ladi. Natijada hayvonlarning immuniteti pasayib, turli bachadon kasalliklari rivojlanadi [7].

Muallif ma’lumotlariga ko‘ra, Nijegorod viloyatida sigirlarning akusher-ginekologik kasalliklari 32-35,2 % ni tashkil etgan. Muallif ushbu patologiyalarni oldini olish maqsadida Bio-TEK to‘qima preparatini 1 boshga 20 ml teri ostiga yuborish, sigilarning tug‘ishiga 60 va 30 kun qolganda 20 mg/kg hisobida organik kislotalar oziqasiga qo‘shib berilganda ularning klinik, gematologik va tabiiy rezistentlik ko‘rsatkichlarida ijobiy o‘zgarishlarni aniqlagan. Bio-TEK to‘qima preparatini sigirlarga qo‘llash natijasida qondagi gemoglobin miqdorini 4,6% ga, glyukozani – 7,1% ga, alfa-globulinlarni - 8,5% ga, xolesterinni - 10% ga, eritrotsitlar va neytrofillarni - 28,8 va 6,1% ga, retinolni - 6,4% ga oshganligi aniqlangan [3].

O‘tkir endometritda qizarish yoyilgan bo‘ladi va bachadon shilliq pardasi shishadi. Keyinchalik qizarish zo‘rayishi bilan ekstravazatsiya sodir

bo‘ladi, ya’ni qon zardobi va hatto, qonning shakli elementlari tomirlar devori orqali bachadon xujayralari orasidagi bo‘shliqqa sizib chiqadi. Sigirlar kataral endometrit paytida odatdagicha kuyga kelib turgani bilan qisir qolishi, shuningdek, hayvon kuyikkan davrda jinsiy yo‘llardan ko‘p miqdorda yiringli ekssudat aralash loyqa shilimshiq suyuqlik oqishi diagnoz uchun asos bo‘ladi[4].

Sigirlarda yiringli endometritlarni davolashda eritmalar 40 ^{0}S gacha isitib ishlatiladi. Bachadondan patalogik ajratmalari ko‘rinmaydigan eritma oqib chiqmaguncha u yuvilaveradi. Bir marta yuvish uchun yallig‘lanish jarayonining xili va darajasiga qarab 2 l dan 10 l gacha dezinfeksiyalovchi eritma ishlatiladi. Bachadon ekssudatning to‘planishiga qarab, har kuni yoki kun ora yuviladi. Ajratmalar ancha kamayib qolgandan keyin uch-to‘rt kunda bir marta chayilsa bo‘ladi. Chayish vaqtida yuborilgan eritmaning hammasini bachadondan chiqarib tashlash zarur. Bachadonni yuvishdan oldin irrigator yoki maxsus nasos bilan bo‘shlig‘idan yallig‘lanish ekssudatini tortib olish tavsiya etiladi [8].

Tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, tuqqandan keyingi endometritlar bilan sigirlarning kasallanishida ikkilamchi omillar hayvonlar organizmida karotin va A vitamini almashinuvining buzilishi hisoblanadi. Bu holatni vitaminlar yetishmovchiligi oqibatida organizm immun tizimi faolligi va rezistentligining pasayishi, endokrin tizim funksiyalarining buzilishi, fetoplatsentar yetishmovchiliklar, miometriya funksional faolligining pasayishi bilan izohlash mumkin [6].

Zararlangan sperma bilan urug‘lantirish oqibatida jinsiy a’zolarga infeksiya tushishi to‘g‘risida ma’lumotlar mavjud, tekshirilgan 637 sperma namunasidan 518 tasini (81,4%) otalangandan keyin embrionni o‘limiga sabab bo‘lishi mumkin bo‘lgan bakteriyalarning 24 turiga mansub mikrofloralar va 18 turga mansub zamburug‘lar bilan ifloslanganligi aniqlangan [8].

Olimlarning ilmiy tekshirishlariga ko‘ra, tug‘ruqdan keyingi endometritning sababi patologik tug‘ishlar, yo‘ldoshning ushlanib qolishi, bachadon subinvolyutsiyasi, oqibatda mikrofloraning bachadonga tarqalishi sabab bo‘lishi mumkin. Bunday paytda hayvonlarni to‘yimliligi past sifatsiz ratsionda oziqlantirish ularning rezistentligining pasayishiga bu esa o‘z navbatida kasalliklarni yanada avj olishiga olib keladi [8].

Tadqiqotchilarning ma’lumotlariga ko‘ra, sigirlarda immunoglobulinlar miqdorining kamayishi surunkali endometritlarning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi [7].

Tadqiqotchilar sigirlarda ginekologik kasalliklarni davolashda “streptodin” preparatining yuqori samaradorlikka ega ekanligini ta’kidlaydi. Preparat qinning, bachadon bo‘yinchasi va bachadonning yallig‘lanishlarini davolash uchun sigirning qiniga, agar bachadon buyinchasi ochiq bo‘lsa bachadonning ichiga yuborilishini bayon etgan [5].

Sigirlarda tug‘ruq patologiyalari paytida akusherlik asboblarini noto‘g‘ri qo‘llash oqibatida ham turli xil bachadon kasalliklari, jarohatlar va endometritlar rivojlanishini kuzatilgan. Mualliflarning ma’lumotlariga ko‘ra sigirlarda endometritlar tug‘ruqdan keyingi 8-10 kunlarida, bachadonning kataral-yiringli xarakterdagi yallig‘lanishlari bilan kechadi [9].

Hayvonlarda turli akusher-ginekologik kasalliklar va abortlarning oldini olish ularni bo‘g‘ozlik davrida yuqumli va yuqumsiz xarakterli kasalliklardan saqlash va parvarishlash hamda oziqlantirishni me’yorlar darajasida yaxshilash hisoblanadi [9].

Xulosa: Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, sigirlarda kataral-yiringli endometritlarni sabablari, sog‘in sigirlarni parvarishlash, oziqlantirish tipiga, biologik faol moddalar, makro- va mikroelementlar bilan ta’minlanish darajasi, yayratishning yetishmasligi va noqulay iqlim sharoitlari hisoblanadi.

Endomitritlarni oldini olishda saqlash sharoitida zoogigienik talablarga rioya qilinishi, hayvonlarni oziqlantirishni yaxshilash, vitamin va minerallarga boy oziqalarni ratsionga kiritish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Eshburiyev B.M., Eshburiyev S.B., Jumanov S.M. Veterinariya akusherligi fanidan amaliy-laboratoriya mashg‘ulotlari. O‘quv qo‘llanma. SamDU tahririy-nashriyot bo‘limi. ISBN: 978-9943-6319-7-7. Samarqand. 2020. 319 b.

2. Eshburiyev B.M. Veterinariya akusherligi. Darslik. Toshkent. 2018. 511 b.

3. Юсупов Х.А. Лечебно-профилактическая эффективность препарата бромметрин при острых послеродовых эндометритах коров. Автореф....дис. ..канд. вет. наук. Душанбе. 2012. 29 с.

4. Ata-Kurbanov Sh.B., B.M.Eshburiyev. Veterinariya akusherligi fanidan amaliy – laboratoriya mashғulotlari. Samarqand, 2009. 236.b.


5. Никитина В.Я. и Миролюбова М.Г. Учебник под редакцией. Ветеринарное акушерство, гинекология и биотехника размножения. Москва Колос. 1999.

6. Новикова Е. Н. Биопрофилактика эндометритов у коров [Текст] / Е. Н. Новикова, И. С. Коба, М. Б. Решетка // Животноводство Юга России. - 2015. - №5(7). - С. 32-34.

7. Бессарабов Б.Ф., Вашутин А.А., Воронин Е.С. и др. Инфекционные болезни животных /; под ред. А.А.Седорчука. - М.: КолосС, 2007. - 671 с.

8. Муртазин Б. Бактериальная флора при эндометритах коров (идентификация и терапия) // Дис. … канд. вет наук. - М., ВИЭВ, 1972.- 175 с.

9. Кузьмич Р.Г. Послеродовые эндометриты у коров *(*этиология, патогенез, профилактика и терапия*)*. Автореф. дисс. док. вет. наук. Витебск – 2000.



UDK:633.2/.3:631.6

TURLI FITOMELIORANTLARNING TUPROQNING AGROKIMYOVIY XUSUSIYATLARIGA TA'SIRI

A.Rabbimov, *q.x.f.d.,professor,*
Qorako'lchilik va cho'lekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti

Аннотация. *В статье излагаются результаты по изучения влияния на агрохимических свойств почв фитомелиорантов рекомендованных для повышения продуктивности пустынных пастбищ как саксаул черный, черкез, чогон, кейреук, изень, терескен и атриплекс. Установлено, что в пределах фитогенных полей саксаула черного, чогона, кейреука и атриплекса наблюдается значительное увеличение содержания солей.*

Abstract. *The article presents the results of studying the influence of phytomeliorants recommended for increasing the productivity of desert pastures, such as black saxaul, cherkez, chogon, keyreuk, izen, teresken, and atriplex, on the agrochemical properties of soils. It was established that within the phytogenic fields of black saxaul, chogon, keyreuk, and atriplex, a significant increase in salt content is.*

Калит сўзлар: *cho'l, yaylov, degradatsiya, fitomelioratsia, tuproq, sho'rlanish.*

Kirish. Hozirgi kunda yaylov chorvachiligida foydalanib kelinayotgan yaylovlarning umumiy maydoni 21,1 mln. Gektarga yaqin bo'lib, ushbu yaylovlarning deyarli yarimida o'simlik qoplamining turli darajadagi inqirozi kuzatilib, hosildorlik va yaylov ozuqasi sifatining sezilarli pasayishi kuzatilmoqda. Yaylov chorvachiligini respublikamizda barqaror rivojlantirish uning ozuqa zaxirasining mustahkamligi, ya'ni yaylovlar hosildorligi bilan uzviy bog'liq. Cho'lda ozuqa ishlab chiqarishni intensivlashtirish esa o'z navbatida yuqori hosilli, ko'p komponentli yaylov agrofitotsenozlarini barpo qilish texnologiyalarini keng joriy qilish bilan amalga oshiriladi.

Ushbu texnologiyalarda hozirgi kunda buta, yarim buta va o'tchil hayotiy shakllarga ega cho'l ozuqabop o'simliklari turlarining turli nisbatlardagi urug' aralashmalari ekiladi. Masalan buta o'simliklar 20%, yarim butalar 60% va o'tchil turlar 20% (Shamsutdinov, Ibragimov, 1983). Odatda buta o'simliklardan qora saksovul, yarim butalardan cho'g'on, izen, quyrovuq, teresken, kamforosma, ko'p yillik olabuta turlari, singren, boyalich, shuvoq va boshqa turlarni ekish, o'tchil turlardan qo'ng'irbosh, erkak o't, astragal turlarini ekish tavsiya etiladi. Bu o'simlik turlari turli hayotiy formalardan iborat bo'lib, o'ziga xos ekologo –biologik, morfologik, ozuqaboplik xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladi. Turli o'simlik turlari atrof muhit, fitotsenozda ishtirok etayotgan turlar va hayotiy formalarga o'z ta'sirini o'tkazadi. Ya'ni, turli hayotiy formalar o'ziga xos raqobatbardoshlik xususiyatiga ega. O'simliklarning ushbu xususiyatlari ta'siri natijasida fitotsenozning floristik tarkibi ham o'zgarib boradi ya'ni, kuchli raqobatbardosh turlar fitotsenozda ishtirok etayotgan ayrim turlarning floristik tarkibdan siqib chiqarish holati yuz beradi. Fitotsenozlarning turlar jihatidan kambag'allashuvi esa fitotsenoz hosilining ozuqaviy qiymati jihatidan yomonlashuviga olibkeladi. Shunday ekan, ko'p komponentli, yuqori hosilli yaylov agrofitotsenozlarini barpo qilishda fitotsenozda ishtirok etuvchi fitomeliorantlarning raqobatbardoshlik xususiyatlarini hisobga olish zarur. Bu esa o'z navbatida barpo etilayotgan yaylov agrofitotsenozlarining tarkib jihatidan turg'unligini va yaylov ozuqasining to'yimlilik jihatidan maqsadga muvofiqligini ta'minlaydi.

Sohaning mamlakatimiz oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdagi muhim ahamiyatini hisobga olib, O'zbekiston respublikasi Prezidenti tomonidan qator qarorlar qabul qilinmoqda. Jumladan, 2022 yilning 10 iyunidagi PQ-277 sonli "Erlar degradatsiyasiga qarshi kurashishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarorida "Yaylovlardan oqilona foydalanishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish, cho'l ozuqabop o'simlik turlarining mahalliy navlarni yaratish, yaylov ekinlari urug'chiligining ilmiy asoslarini va cho'lda intensiv ozuqa ishlab chiqarishning adap-

tiv tizimini ishlab chiqish" vazifasi belgilab berilgan. Ushbu dolzarb vazifalarning ijrosini ta'minlashda barpo etiladigan yaylov agrofitotsenozlarining floristik tarkibini ekologo-biologik, turlarning raqobatbardoshlik xususiyatlarini hisobga olgan holda muvozanatlashgan tarkibini ishlab chiqish yo'nalishlaridagi ilmiy-tadqiqot ishlari muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'ladi. O'simliklarning atrof-muhitni o'zgartirish va shu orqali boshqa o'simliklarga ta'sirini 19 asrning boshidayoq V.N. Sukachev (1915) ta'kidlab o'tgan. Uning ta'kidlashicha, -"Har qanday o'simliklarning o'zi atrof muhitni o'zgartiradi va shu orqali boshqa o'simliklarga ta'sirini o'tkazib, bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'ladi" (Sukachev, 1975).

Keyinchalik, A.A. Uranov tomonidan "Fitogen maydon" nazariyasi rivojlantirilib, o'simliklarning fitogen maydonini o'rganish bo'yicha ko'plab tadqiqot ishlari olib borirlgan va turli olimlar "fitogen maydon" atamasini turlicha atashni taklif qilganlar. Masalan, B.A. Bikov (1970, 1978) "edasfera" atamasidan, S.M. Razumovskiy "biomaydon", S.M. Chastuxina (1984) "fitotsenoz fragmenti", T.A.Rabotnov (1975) "o'simliklarning muhit hosil qiluvchi sferasi" kabi atamalarni kiritishni taklif qilishgan. Shunga qaramasdan, "fitogen maydon" atamasi ilmiy adabiyotlarda keng tarqalgan. A.A.Uranovning (1965) fikricha, atrof muhitni o'zgartiruvchi elementlar manbai – bu o'simlik individiumlaridir. A.A.Uranovning keyingi tadqiqotlarida esa muhitni o'zgartiruvchi elementlar manbai bo'li bir yillik o'simlik tupi, daraxtsimon o'simlik tupi yoki masalan erkak o't o'simligiga o'xshash o'simliklarda esa bir joyda joylashgan bir necha tup o'simliklar yig'indisi, ildiz bachkilaridan ko'payuvchi o'simliklarda esa hosil bo'lgan o'simlik tuplari guruhi bo'lishi mumkinligi ko'rsatilgan (Uranov, 1968; Uranov, Mixaylova, 1974).

Cho'l mintaqasida qora saksovul - *Haloxylon aphyllum Ilyin.*misolida o'simlikning fitogen maydoni, uning atrof-muhitni o'zgartirish xususiyatlari bo'yicha bir talay ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan. S.V. Zonn, V.L.Leontevalarning (1942) ta'kidlashlaricha, Qoraqum cho'lida tuproqda gumusning paydo bo'lishida saksovulning ahamiyati juda katta. O.S.Lobko va L.I. Safonova (1978) larning fikriga ko'ra ham tuproqda gumusning hosil bo'lishida qora saksovul katta ahamiyatga ega. L.S.Gaevskaya, Z.E.Xaskina (1963) tomonlaridan olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, qora saksovul tuproqning yuza qatlammining sho'rlanishiga sabab bo'ladi. Bu holat albatta quyi yarusdagi o'simliklar tarkibining asta-sekin galofillashuviga (sho'rsevar o'simlik turlarining ko'payishiga) olib keladi. Qora saksovul, cho'g'on, quyrovuq singari yarim buta o'simliklarning tuproqning yuza qatlamini sho'rlanishiga sabab bo'lishi N.Boboeva va A. Rabbimovlar (2024) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham ko'rsatib o'tilgan. Qora saksovulning tuproqni sho'rlatish xususiyatini boshqa ollimlar tomonidan ham olib borilgan tadqiqotlar natijalari ham ko'rsatgan (Safonova, Lobko, Shamsutdinov, 1974; Ishanguliev, 1978; Miroshnichenko, 1986).

Tadqiqotlardan ko'zlangan maqsad - shuvoq–efemerli Qarnabcho'l tuproq-iqlim sharoitida ekologik muvozanatlashgan ko'p komponentli yaylov agrofitotsenozlar barpo qilishda fitomeliorantlarning optimal tarkibini belgilash bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Material va metodlar. Maqsaddan kelib chiqqan holda, tadqiqotlar materiallari bo'lib shuvoq-efemerli Qarnabcho'lning haydalma qatlami sho'rlanmagan tuproqlari va hozirgi kunda ko'p komponentli, yuqori hosilli yaylov agrofitotsenozlarini barpo qilishda ekilishi tavsiya qilingan qora saksovul-*Haloxylon aphyllum,* Paletskiy cherkezi - *Salsola paletzkiana*, cho'g'on-*Halothamnus subaphyllus*, izen-*Kochia prostrata*, teresken - *Ceratoides ewersmanniana* va ko'p yillik olabutalarning *Atriplex undulata* turi xizmat qildi. O'simlik turlari fitogen maydonlari doirasidan tuproq namunalari 0-40 sm qatlamdan tuproq buri yordamida olindi. Tuproq tarkibidagi suvda eruvchan tuzlar miqdori agrokimyoviy tadqiqotlarda umum qabul qilingan suvli so'rimdan qattiq qoldiqning miqdorini aniqlash, shuningdek namunalarning elektr o'tkazuvchanlik xususiyatini qiyoslash orqali aniqlandi (GOST 26423-85).

Natijalar va ularning tahlili. Tuproqning nisbatan yuza qatlami (0-40 sm) sho'rlanish darajalarini aniqlashdan olingan dastlabki ma'lumotlar shundan dalolat bermoqdaki, o'rganilayotgan fitomeliorantlar orasida tuproqning sho'rlanish da-

1-jadval.

Cho‘l ozuqabop o‘simlik turlari fitogen maydonlarida tuproqning sho‘rlanish darajalari, % (Qarnabcho‘l, 2025 y., yanvar)

№	O‘simlik turi	Qatlam	EsmS/sm	Quruq qoldiq, %	Nazoratga nisbatan sho‘rlanishning ortishi, %
1	Izen- *Kochia prostrata*	0-10	190	0,033	0,009
2		10-20	181,8	0,028	0,02
3		20-30	193,2	0,061	0,05
4		30-40	127,5	0,020	-
5	Cho‘g‘on- *Halothamnus subaphyllus*	0-10	279	0,193	0,169
6		10-20	313	0,248	0,238
7		20-30	533	0,260	0,248
8		30-40	750	0,330	0,309
9	Teresken- *Ceratoides ewersmanniana*	0-10	205	0,081	0,06
10		10-20	166,2	0,025	0,01
11		20-30	141,7	0,022	0,01
12		30-40	244,0	0,186	0,16
13	Quyrovuq- *Salsola orientalis*	0-10	245	0,195	0,17
14		10-20	259	0,208	0,19
15		20-30	251	0,198	0,18
16		30-40	210	0,151	0,13
17	Qora saksovul- *Haloxylon aphyllum*	0-10	358	0,288	0,26
18		10-20	263	0,256	0,24
19		20-30	303	0,259	0,24
20		30-40	190,8	0,145	0,12
21	Olabuta- *Atriplex undulata*	0-10	169,8	0,026	0,002
22		10-20	2260	1,123	1,113
23		20-30	1994	1,04	1,03
24		30-40	2120	1,116	1,09
25	Paletskiy cherkezi- Salsola *paletzkiana*	0-10	126,2	0,018	-
26		10-20	126,5	0,019	0,01
27		20-30	125,8	0,017	0,00
28		30-40	109,1	0,011	0,00
29	Nazorat	0-10	173,3	0,024	
30		10-20	107,9	0,010	
31		20-30	110,1	0,012	
32		30-40	114,0	0,021	

rajasiga deyarli ta’sirini o‘tkazmaydigan o‘simlik turlari qatoriga izen, teresken, Paleskiy cherkezi singari turlarni kiritish mumkin. Ushbu o‘simlik turlari fitogen maydonlaridagi tuproqning sho‘rlanish darajasi nazorat uchun olingan (o‘simliklar fitogen maydonlaridan tashqaridagi nuqtalardan) tuproqlarning sho‘rlanish ko‘rsatkichlari bilan deyarli bir xil (1-jadval). Ammo, cho‘g‘on, qora saksovul, quyrovuq, ayniqsa olabuta o‘simliklarining fitogen maydonlaridagi tuproqning sho‘rlanish darajalari nazoratdagi ko‘rsatkichlardan sezilarli farq qilishi aniqlandi. Masalan, izenning fitogen maydonida tuproqning 0-10 sm chuqurlikdagi qatlamida qatiq qoldiqning miqdori 0,033 %, 10-20 sm qatlamida 0,028 %, 20-30 sm qatlamida 0,066% va 30-40 sm chuqurlikdagi qatlamida 0,020% ekanligi qayd etilgan bo‘lsa, nazoratda esa mutanosib ravishda 0,024 %, 0,010 %, 0,012 % va 0,021 % ekanligi aniqlandi, ya’ni sho‘rlanish darajasi bo‘yicha variantlar orasida sezilarli farq kuzatilmadi.

Lekin, cho‘g‘on, quyrovuq, qora saksovul singari o‘simlik turlari fitogen maydonlaridagi tuproqlar garchan sho‘rlangan tuproqlar toifasiga kirmasada, tuproq qatlamlari bo‘ylab qattiq qoldiqning miqdori nazorat varianti bilan solishtirganimizda, cho‘g‘onning fitogen maydonidagi qattiq qoldiq miqdori nazorat varianti ko‘rsatkichlaridan tuproqning turli qatlamlarida 10-26 marotaba ortganligini ko‘rishimiz mumkin. Bunday holatni quyrovuq va qora saksovul fitogen maydonlarida ham kuzatish mumkin. Ilmiy adabiyotlardagi ma’lumotlarga ko‘ra, qora saksovul tuproqni sho‘rlatish xususiyatiga ega (Gayevskaya, Xaskina,1963; Miroshnichenko, 1986; Ubaydullayev, Li, 1986). Biz tomondan olingan ma’lumotlar ham qora saksovulning tuproqning sho‘rlanishiga sabab bo‘lishidan darak bermoqda.

Olabutaning *Atriplex undulata* turining tuproqni kuchli sho‘rlatish xususiyatiga ega ekanligi aniqlandi. Ushbu o‘simlik fitogen maydonida ayniqsa tuproqning 10-40 sm chuqurliklaridagi qatlamlarida qattiq qoldiqning miqdori 1,04 % dan 1,125% gacha bo‘lib, bunday tuproqlar kuchli darajada sho‘rlangan tuproqlar toifasiga kiradi.Tuproq sho‘rlanishi uning degradatsiyasidan darak beradi va sho‘rlanishning oldini olish muhim iqtisodiy va ekologik ahamiyatlarga ega. Shu bois, yaylovlarni fitomelioratsiyalash tadbirlarini amalga oshirishda tuproqning agrokimyoviy xususiyatlarini hisobga olish bilan bir qatorda, fitomeliorant sifatida tanlanadigan o‘simlikturlarining ham atrof-muhitga ta‘sir etish xususiyatlarini inobatga olish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ayniqsa tuproqlari sho‘rlanmagan yaylov maydonlarida agrofitotsenozlar barpo qilishda buta o‘simlik sifatida qora saksobul o‘rniga Paletzkiy cherkezidan ko‘proq foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Xulosalar. Cho‘l yaylovlari hosildorligini oshirish imkonini beruvchi ozuqabop o‘simlik turlarining ko‘pchiligi sho‘radoshlar oilasiga mansub bo‘lib, ular er ustki fitomassasi tarkibida suvda eruvchan tuzlarni to‘plash xususiyatiga ega. O‘simlik massasidagi tuzlar esa atmosfera yog‘inlari ta‘sirida yuvilib, tuproq tarkibidagi tuzlar miqdorining ortisi va tuproqning sho‘rlanish darajasining ortib borishiga sabab bo‘ladi. Ayniqsa qora saksovul, cho‘g‘on, quyrovuq, olabuta o‘simlik turlarida bu jarayon kuchli namoyon bo‘lishi sho‘rlanmagan tuproqlarda ushbu fitomeliorantlardan chegaralangan miqdorlarda foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Paletzkiy cherkezi, izen va teresken singari fitomeliorantlarning tuproqning sho‘rlanish darajasiga sezilarli ta‘siri kuzatilmadi va ulardan keng foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2022-yil 6-iyunda qabul qilgan PQ-277 sonli “Yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori. Lex.uz.

2. Быков Б.А. Биоценоз как тень экосистемы // Экология, 1970. № 3.-С.3-16.

3. Быков Б.А. Геоботаника, 2-ое издание, Алма-Ата, Наука КазССР, 1978. -288 с.

4. BobaevaN., Rabbimov A. Shuvoq-efemerli Qarnabcho‘l yaylovlari cho‘l ozuqabop o‘simliklarining sur-qo‘ng‘ir tuproqlar agrokimyoviy xususiyatlariga ta’siri. O‘zbekiston agrar fani xabarnomasi, №2 (14/2), 2024. –B.174-176.

5. Гаевская Л.С., Хаськина З.Е. Влажность и засоленность почвы под черносаксауловыми лесными полосами на Карнабчульском пастбищном массиве. // Труды ВНИИК, Самарканд, 1963, Т.13.-С.281-290.

6. ГОСТ26423-85. Почвы. Методы определения удельной электрической прооводимости, pH и плотного остатка водной вытяжки. Межгосударственный стандарт. Москва, Стандартинформ, 2011. 6 с.

7. Зонн С.В., Леонтьева В.Л. О почвообразовательном значении саксаула на песках пустыни Каракум // Почвоведение, 1942. №3. -С.34-44.

8. Ишанкулиев М. Влияние растительности на формирование почвенного покрова в условиях песчаной пустыни // Биогеоценологическое исследование в Восточных Каракумах. Ашхабад, Ылым, 1978. -С.13-25.

9. Мирошниченко Ю.М. Динамика и продуктивность пустынной растительности (Юго-Восточные Каракумы). Л.: Наука, 1986. – 158 с.

10. Сафонова Л.И., Лобко О.С., Шамсутдинов З.Ш. Изменение солевого состава светлых

сероземов и серо-бурых почв под влиянием саксаула черного в искусственных фитоценозах // Проблемы освоения пустынь, 1974. № 6. С.45-51.

11. Сукачев В.Н. Проблемы фитоценологии: Избранные труды в 3-х томах, Т.3. Л.: Наука, 1975. – 543 с.

12. Частухина С.А. Ценотическая роль *Novosieversia glacialis* в горных дриадовых куртинных тундрах плата Путорана // Ботанический журнал, 1984. Т.69. №3. – С.399-403.

13. Шамсутдитнов З.Ш., Ибрагимов И.О. Долголетние пастбищные агрофитоценозы в аридной зоне Узбекистана. Ташкент, «Фан», 1983. -174 с.

14. Убайдуллаев Ш.Р., Ли П.М. Изменение содержание гумуса и засоленности почвы в фитогенном поле саксаула черного в условиях пастбищных агрофитоценозов // Актуальные вопросы селекции, разведение и воспроизводство каракульских овец. Ташкент, 1984. Вып. 18. -С.115-125.

15. Уранов А.А. Фитогенное поле // Проблемы современной ботаники. М.-Л.: Наука, 1965.- Т.1. – С.251-254.

16. Уранов А.А. К вопросу о сопряженности растений в фитоценозе // Вопросы морфогенеза цветковых растений и строение их популяций. М.: Наука, 1968. – С.183-208.

17. Уранов А.А., Михайлова Н.Ф. Из опыта изучения фитогенного поля *Stipa pennata L.* // Бюллетень МОИП. Отд. Биологический, 1974. Т-79, вып. 5. – С.151-159.



UDK: 636.32./38

SURXONDARYO SUR QORAKO‘L QO‘ZILARIDA RANGNING IFODALANISH VA TEKISLIK KO‘RSATKICHLARI

Abduzoirova Durdonaxon Yunusovna, *q.x.f.f.d. (PhD), k.i.x.,*
“Qorako‘l qo‘ylari seleksiyasi” bo‘limi mudiri,
Qorako‘lchilik va cho‘l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti
0009-0009-1406-2492.
e-mail: uzkarakul@mail.ru

Annotatsiya. *Maqolada Surxondaryo sur qorako‘l qo‘zilarining turli rangbarangliklarida sur rangining namoyon bo‘lish darajasini va teri yuzasida tarqalish tekisligini o‘rganish bo‘yicha tadqiqot natijalari keltirilgan. Tadqiqotlarni bajarish davomida olingan natijalarga ko‘ra, rur rangning ifodalanishi eng yuqori darajasida namoyon bo‘lishi platina rangbaranglikdagi qo‘zilarda (63,1%), eng past darajada namoyon bo‘lishi (31,0%) esa antrasit rangbaranglikdagi qo‘zilarda kuzatilgan. Bu ko‘rsatkich bo‘yicha yantar (47,2%) va bronza rangbaranglikdagi (39,4%) qo‘zilar kursatkichlari oraliq holatni egallashi qayd etgan. Antrasit rangbaranglikdagi qo‘zilarning aksariyat qismi rang ifodalanishining past darajasi (24,4%) bilan xarakterlanishi, bu ko‘rsatkichning yantar rangbaranglikda esa 10,3% ni, bronza rangbaranglikda 6,3 %ni, platina rangbaranglikda esa 6,6%ni tashkil etgani aniqlangan.*

Abstract. *The article presents the results of a study on the degree of manifestation of the fur color and the flatness of its distribution on the skin surface in different color varieties of Surkhandarya fur Karakul lambs. According to the results obtained during the research, the highest level of expression of the roan color was observed in lambs with a platinum color (63.1%), and the lowest level of expression (31.0%) was observed in lambs with anthracite color. According to this indicator, lambs with amber (47.2%) and bronze color (39.4%) occupied an intermediate position. It was found that the majority of lambs with anthracite coloration were characterized by a low level of color expression (24.4%), while this indicator was 10.3% in amber coloration, 6.3% in bronze coloration, and 6.6% in platinum coloration.*

Kalit so‘zlar: *Rang, rang ifodalanishi, rang tekisligi, surhondaryo suri, platina, yantar, seleksiya.*

Kirish. Ma’lumki, qorako‘l qo‘ylarida jun qoplamining sifati asosan, jun tolasining yaltiroqligi, ipaksimonligi, rangning ifodalanish va tekislik ko‘rsatkichlari bilan belgilanadi. Ushbu terilar jun tolasining sifati past bo‘lsa, ularda qimmatli gul rasmi va maqsadga muvofiq shakldagi mustahkam gullar mavjudligiga qaramasdan o‘zining estetik jozibadorligini yo‘qotadi. Jun qoplamining yaxshi ipaksimonlik va yaltiroqlik darajasi qorako‘l terilariga chiroy baxsh etadi. Bu sifat ko‘rsatkichi odatda qorako‘l terilari gullarining eng mukammal shakllari-qalami gullarga xosdir.

Ta’kidlash lozimki, turli rangdagi qorako‘l qo‘ylarini urchitish va seleksiyalash o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Qora rangli qo‘ylarni seleksiyalashda gul, jun-tola sifati, konstitutsional va o‘sish hamda rivojlanish xususiyatlariga e’tibor qaratilsa, rangli, shu jumladan sur qorako‘l qo‘ylarini seleksiyalashda qayd etilgan ko‘rsatkichlardan tashqari bir qator rang va rangbaranglik ko‘rsatkichlarini ham inobatga olish talab etiladi. Shu jihatdan sur qorako‘l qo‘ylarini urchitish va seleksiyalash o‘ziga xos murakkabliklari bilan farq qiladi.

Hozirgi kunda sohada qorako‘l zotining nasliy va mahsuldorlik imkoniyatlaridan foydalanish darajasining pastligi ushbu yo‘nalishda maqsadli tadqiqot ishlarini bajarishni taqazo etadiki, shu jihatdan olib borilgan tadqiqotlar ma’lum darajada dolzarb hisoblanadi.

Ushbu ko‘rsatkichning seleksion ahamiyati ancha salmoqlidir. Rangning tekisligi tovarning qimmatliligini belgilab beruvchi asosiy omildir. Gullarning va jun tolasining yuqori sifati, qimmatli rangbaranglikka ega bo‘lgan qo‘zilar qorako‘l terilari ham agar rangi teri sathi bo‘ylab tekis bo‘lmasa kam qimmatli hisoblanadi. Rangning

1-jadval.
Sur qorako‘l qo‘ylarida rangning ifodalanishi va tekislik darajalari, % (X±Sx)

Qo‘zilar-ning rangba-rangligi	n	Sur rangining ifodalanishi			Rang tekisligi		
		a’lo	o‘rta	past	a’lo	o‘rta	past
Yantar	30	47,2±5,96	42,7±5,1	10,1±3,58	51,4±7,20	44,3±7,21	4,3±2,29
Bronza	30	39,4±7,05	54,3±7,8	6,3±3,49	50,3±5,99	41,0±5,96	8,7±2,01
Platina	30	63,1±6,07	30,3±5,8	6,6±3,07	49,1±6,31	41,2±6,20	9,7±3,67
Antrasit	30	31,0±6,91	45,6±7,3	23,4±6,41	26,9±6,58	48,8±7,44	24,3±6,41

tekis bo‘lmasligi teri yuzasida rangning noaniqligi, har xil ranglilik, aniq rangga ega emasdek ko‘rinish hosil bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Shu sababli bu ko‘rsatgich muhim hisoblanib, unga seleksiya jarayonida alohida e’tibor qaratish lozim bo‘ladi [3].

Sur rangli qorako‘l qo‘ylarida gullarning tip va shakllaridan tashqari yana bir qator ko‘rsatkichlar mavjudki, ularning past darajada namoyon bo‘lishi yaxshi gul sifatlari mavjudligi sharoitida ham qorako‘l terilarining xaridorgirligi va eksportbopligini, qo‘zilarning nasliy qimmatini pasaytiradi degan xulosaga kelib, bular jumlasiga sur rangi va rangbarangligining ifodalanishi, ularning teri sathi bo‘yicha tekisligi, jun tolasining pigmentlanishi kabi belgilarni kiritish mumkin. Bu boradagi mutanosiblikka erishish, eksportbop mahsulot yetishtirishni ko‘paytirishni ta’minlaydi [1].

Tadqiqot uslubi. Tadqiqotlar Surxandaryo viloyati Qumqo‘rg‘on tumanida joylashgan “Bobotog‘ suri” qorako‘lchilik mas’uliyati cheklangan jamiyatida “Qorako‘lchilikda naslchilik ishlarini yuritish va qo‘zilarni baholash” (bonitirovka qilish) bo‘yicha qo‘llanmaga [4] muvofiq toza zotli surhondaryo sur qorako‘l qo‘ylarida olib borildi. Olingan ma’lumotlarga variatsion statistika usullarini qo‘llash asosida matematik ishlov berildi [2].

Tadqiqot natijalari. Tadqiqotlarda turli rangbarangliklarga mansub surhondaryo sur qorako‘l qo‘zilari rangning ifodalanishi va teri sathi bo‘yicha tekislik ko‘rsatkichlari o‘rganildi. Qayd etilgan ko‘rsatkichlar muhim seleksion belgilar hisoblanib, rangning aniq va yuqori darajada ifodalanishi hamda teri sathi bo‘yicha tekis tarqalishi qo‘zilarni nasliy, qorako‘l terilarni esa sifat jihatidan yuqori baholashga asos bo‘lib xizmat qiladi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib tadqiqotlar davomida turli gul tipidagi qo‘zilarda rangning ifodalanish va tekislik darajalari o‘rganildi. Ma’lumotlar 1- jadvalda keltirilgan.

Tadqiqotlarni bajarish davomida olingan natijalar rang ifodalanishi va tekisligining namoyon bo‘lishida qo‘zilarning rangbarangliklarga bog‘liq holda o‘ziga xosliklar mavjudligini ko‘rsatadi. Sur rangning ifodalanishini o‘rganish borasida uning a’lo ifodalanishining eng yuqori darajasida namoyon bo‘lishi platina rangbaranglikdagi qo‘zilarda (63,1%), eng past darajada namoyon bo‘lishi (31,0%) esa antrasit rangbaranglikdagi qo‘zilarda kuzatildi. Bu ko‘rsatkich bo‘yicha yantar (47,2%) va bronza rangbaranglikdagi (39,4%) qo‘zilar kursatkichlari oraliq holatni egallashi qayd etildi. Antrasit rangbaranglikdagi qo‘zilarning aksariyat qismi rang ifodalanishining past darajasi (24,4%) bilan xarakterlanishi, bu ko‘rsatkichning yantar rangbaranglikda esa 10,3% ni, bronza rangbaranglikda 6,3 %ni, platina rangbaranglikda esa 6,6%ni tashkil etgani aniqlandi.

Rangning teri sathi bo‘ylab a’lo va me’yorli tarqalishi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichlar yantar rangbaranglikda (95,7%), bronza (91,3%) tekisligi va platina (90,3%) tipli qo‘zilarda qayd etildi.

Xulosa. Rang ifodalanishi va tekisligi turli rangbaranglikdagi qo‘zilarda turli darajada namoyon bo‘ladi. Ushbu xususiyatlar ba’zi holatlarda qo‘zilar terisi sathidagi gul shakllarining xilma-xilligidan ham kelib chiqadi. Shu jihatdan kuzatilgan holatlarni sur rangli qorako‘l qo‘ylarini urchitish va seleksiyalash jarayonlarida inobatga olish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Turapov P. Eksportga yo‘naltirilgan sur qorako‘l yetishtirish texnologiyasi. Nomzodlik diss. Samarqand, 2008, 107 bet.

2. Ploxinskiy N.A.Rukovodstvo po biometrii dlya zootexnikov.Moskva, “Kolos”, 1969, 157s.

3. Xatamov A.X. Adir sharoitida turli etologik tipdagi qoraqalpoq sur qorako‘l qo‘ylarining bio–mahsuldorlik xususiyatlari. Avtoref. q/x f.f. d. diss. 2019.

4. Yusupov S.Yu. va boshqalar. Qorako‘lchilikda naslchilik ishlarini yuritish va qo‘zilarni baholash bo‘yicha qo‘llanma. Toshkent, 2015.



UO‘K: 636.31 (575.15)

DISPANSERLASHDA QORAKO‘L SOVLIQLAR QONINI LABORATOR TEKSHIRISH NATIJALARI

B.Bakirov[1], *professor;* **N.B.Ro‘ziqulov[2],** *dotsent;*
K.Hamzayev[3], *mustaqil tadqiqotchi,*
[1]Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti,
[2]Veterinariya va chorvachilik sohasida pedagog
hamda mutaxassis kadrlarni qayta tayyorlash
va ularning malakasini oshirish instituti,
[3]Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik
va biotexnologiyalar universtiteti Toshkent filiali

Аннотация. *В данной статье проведен анализ результатов исследования крови суягных каракульских овец при диспансеризации в условиях каракулеводческого племенного хозяйства «Амир Темур» Жандарского района Бухарской области. Результаты анализа показали, что углублением суягности у суягных каракульских овец развивается кетонурия, сущность патологического процесса при данной патологии является нарушение белково-углеводного обменов вплоть до развития дистрофии печени.*

Abstract. *This article analyzes the results of blood tests performed on pregnant Karakul sheep during a medical examination at the Amir Temur Karakul breeding farm in the Jandar district of the Bukhara region. The results showed that ketonuria develops in pregnant Karakul sheep as pregnancy progresses. The underlying pathology is a disruption of protein-carbohydrate metabolism, leading to liver dystrophy.*

Kalit so‘zlar. *Bug‘oz qorako‘l sovliq, dispanserlash, oqsil-uglevod almashinuvi buzilishlari. Ketonuriya. Qonni morfologik va biokimyoviy tekshirish usullari.*

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda mamlakatimizda qorako‘lchilik tarmog‘i korxonalarini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish quvvatlarini texnik va texnologik jihatdan yangilash, o‘zbek qorako‘li brendini yaratish va dunyo miqyosida targ‘ib qilish, sohaning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish borasida keng qamrovli ishlar olib borilmoqda.

Bu borada Respublikamizda qorako‘lchilik tarmog‘ini davlat tomonidan yanada qo‘llab-quvvatlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 16-avgustdagi PQ-4420-sonli «Qorako‘lchilik tarmog‘ini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-fevraldagi PQ-4984-sonli «Qorako‘lchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-sentabrdagi «O‘zbekiston Respublikasida pillachilik va qorako‘lchilikni yanada rivojlantirish chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PF-6059-son Farmonida Respublikada qorako‘l zotli qo‘ylar bosh soni va qorako‘lchilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarini yanada oshirish, naslchilik ishlarini ilmiy asosda takomillashtirish, qorako‘lchilik mahsulotlarini, xom ashyolarini chuqur qayta ishlash va tibbiyot maqsadlari uchun keng foydalanish hamda soha xodimlarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash vazifalari belgilab berilgan. Ushbu olamshumul vazifalarning bajarilishini ta’minlashda chorva mollari, shu jumladan, qorako‘l sovliqlar organizmida modda almashinuvining buzilishi oqibatida kelib chiqadigan kasalliklari, ayniqsa bug‘oz sovliqlar orasida ko‘p uchraydigan ketonuriya kasalligi asosiy muammolaridan biri hisoblanadi.

Moddalar almashinuvi (metabolizm) - hayotiy zarur moddalarning organizmga tushishi, parchalanishi va qayta sintezlanishi, o‘zlashtirilishi, hosil bo‘lgan so‘ngi mahsulotlarning tashqi muhitga chiqarilishini ta’minlovchi murakkab fiziologik jaroyon. Ushbu jaroyonning buzilishi organizm to‘qimalari uchun zarur bo‘lgan plastik va energetik moddalar tanqisligi, hujayraviy va hujayraora

1-jadval.

Sovliqlar qonini yil fasllari bo‘yicha morfologik va biokimyoviy tekshirish natijalari

T/r	Ko‘rsatkichlar	Yil fasllari			
		Qish	Bahor	Yoz	Kuz
1.	Eritrotsitlar mln/mkl	6,32±0,22 26,6	5,49±0,23 33,4	6,60±0,22 26,6	7,02±0,21 13,3
2.	Gemoglobin, g/l	93,8±3,2 20	89,5±3,3 20	94,2±2,25 13,3	95,7±2,2 6,6
3.	Umumiy oqsil, g/l	56,1±1,1 100	54,5±0,29 93,4	57,2±1,81 73,3	62,7±0,18 66,6
4.	Glukoza, Mmol/l	2,01±0,05 100	1,92±0,09 73,3	2,03±0,05 66,6	2,06±0,055 66,6
5.	Umumiy kalsiy, Mmol/l	2,33±0,05 80	2,29±0,035 93,4	2,40±0,07 53,4	2,43±0,05 53,4
6.	Anoganik fosfor, Mmol/l	1,22±0,03 40	1,13±0,055 80	1,25±0,056 40	1,42±0,06 40
7.	Ishqoriy zahira, mmol/l	36,2±1,6 100	39,9±1,6 73,4	41,0±1,7 60	42,4±1,4 46,6
8.	Keton tanachalari, mmol/l	0,94±0,02 40	1,27±0,004 33,4	0,81±0,003 26,6	0,71±0,002 20
9.	Mochevina, Mmol/l	2,7±0,12 86,6	2,66±0,11 86,6	2,8±0,16 86,6	3,13±0,16 73,4
10.	Umumiy bilirubin, Mkmol/l	3,47±0,24 -	4,64±0,24	3,30±0,13	3,19±0,31
11.	Pirouzum kislotasi, Mmol/l	212,2±25,4 40	226,5±27,5 46,6	178,5±26,4 26,6	173,3±29,1 26,6

Eslatma: suratda o‘rtacha ko‘rsatkich, maxrajda hayvon foyizi.

muhit doimiyligining buzilishi va natijada qaytmas tabiatdagi (distrofik, degenerativ, sirrotik va b.) o‘zgarishlarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Tanadagi a’zo va tizimlarning funksiyalari izdan chiqadi. Ma’lum vaqtgacha yashirin tarzda kechgan metabolizm buzilishlari yaqqol klinik belgilarga ega bo‘lgan aniq kasallik yoki kasalliklar guruhiga aylanadi.

Ilmiy adabiy manbalarning ko‘rsatishicha, metabolizm kasalliklari qorako‘l sovliqlarning o‘rtacha 50-70 foyizini qamrab olgan bo‘lib, bunday kasalliklar hayvonlarda oriqlash, mahsuldorlik va pushtdorlik ko‘rsatkichlarining pasayishi, kasallikning rivojlanib jigar distrofiyasiga aylanadi. Ushbu kasallikning og‘ir shakli chorvadorlar orasida “Bosqoq” nomi bilan ataladi. Bu bosqichda sovliqlarda oriqlash, bola tashlash, o‘lik bola tug‘ish yoki tug‘ish paytida halok bo‘lish hollari kuzatiladi. Shu boisdan, bug‘oz sovliqlar orasida uchraydigan bunday og‘ir kasallikni ertachi aniqlash, davolash va oldini olish usullarini ishlab chiqish va takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar dolzarb hisoblanadi.

Ishning maqsadi. Respublikamizning qorako‘lchilik xo‘jaliklari sharoitidagi bug‘oz sovliqlarda ketonuriyaning sabablarini aniqlash, ertachi tashxis qo‘yish va guruhli oldini olish usullarini ishlab chiqish.

Tadqiqotlar ob’yekti va uslublari. Ilmiy tadqiqotlar 2023-2025-yillar davomida Buxoro viloyatining Jondor tumanidagi “Amir Temur” qorako‘lchilik naslchilik xo‘jaligida olib borildi. Xo‘jalikda qorako‘l sovliqlarni dispanserlash maqsadida ular klinik tekshirishlardan, ulardan olingan

qon namunalari morfologik hamda biokimyoviy tekshirishlardan o‘tkazildi. Laborator tekshirishlar SamDVMChBUning “Ichki yuqumsiz kasalliklar” kafedrasi qoshidagi “Veterinariya gematologiyasi” laboratoriyasida hamda Toshkent shahridagi “DAREL” xususiy veterinariya klinikasida olib borildi. Shuningdek, qondagi gemoglobin, keton tanachalari va glukoza miqdorlarini bevosita xo‘jalik sharoitida tezkor aniqlay oladigan yuqori aniqlikdagi URIT-12 (Hemoglobin Meter), CentriVet™ GK (Ketone Meter) va URIT-25Vet (Glucose Meter) rusumli avtomatik Gemoglobin miqdorini o‘lchagich, Keton tanachalari miqdorini o‘lchagich va Glukoza miqdorini o‘lchagich apparatlaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari. Bug‘oz sovliqlarda oqsil-uglevod almashinuvi va jigar funksional holatini o‘rganish maqsadida o‘tkazilgan dispanser tadqiqotlarimizda o‘xshash juftliklar tamoyili asosida ajratilgan 20 bosh 4 yashar 3 oylik bug‘ozlikdagi sovliqlar (etalon hayvonlar) har 30 kunda bir marta bug‘ozlikning oxiriga qadar klinik tekshirishlardan va ulardan olingan qon namunalari morfobiokimyoviy tekshirishlardan o‘tkaziladi.

Qonning morfo-biokimyoviy ko‘rsatkichlari. Bug‘oz sovliqlar organizmida oqsil-uglevod almashinuvi buzilishlarini va jigarning funksional holatini ifodalash uchun qonning morfologik va biokimyoviy ko‘rsatkichlari tekshirildi (1-2-jadvallar).

Jadvallardan ko‘rinib turibdiki, qondagi eritrotsitlar soni ham yil mavsumlari bo‘yicha va ham sovliqlarning bug‘ozlik davrlari bo‘yicha o‘ziga xos tarzda o‘zgarib turdi. Xususan, bu ko‘rsatkichning eng yuqori darajasi yil mavsumlari bo‘yicha kuzda (7,02±0,21mln/mkl), eng past darajasi bahorda (5,49±0,23 mln/mkl), bug‘ozlk davrlari bo‘yicha eng yuqori daraja uning 2-oyida (7,36±0,24 mln/mkl), eng past daraja 5-oyida (5,49±0,23 mln/mkl) qayd etildi ($p<0,001$).

2-jadval.

Sovliqlar qonini bug‘ozlik davrlari bo‘yicha tekshirish natijalari

T/r	Ko‘rsatkichlar	Bug‘ozlik davrlari				
		1	2	3	4	5
1.	Eritrotsitlar mln/mkl	7,02±0,21 13,3	7,36±0,24 13,4	7,28±0,22 26,6	6,32±0,23 33,4	5,49±0,23 33,4
2.	Gemoglobin g,l	95,7±2,2 6,6	93,8±2,23 13,4	91,3±3,2 20	90,5±3,1 26,6	89,5±3,3 20
3.	Umumiy oqsil g,l	62,7±0,18 66,6	56,9±66,6 66,6	56,1±1,1 100	54,5±1,2 100	51,3±0,29 93,4
4.	Glukoza Mmol/l	2,06±0,055 66,6	2,05±0,035 66,6	2,01±0,05 100	1,92±0,015 100	1,83±0,09 73,3
5.	Umumiy kalsiy, Mmol/l	2,43±0,05 53,4	2,36±0,08 53,4	2,33±0,05 80	2,24±0,06 80	2,19±0,035 93,4
6.	Anorganik fosfor, Mmol/l	1,42±0,06 40	1,42±0,08 40	1,22±0,03 40	1,16±0,08 80	1,13±0,055 80
7.	Ishqoriy zahira, mmol/l	42,4±1,4 46,6	39,9±2,3 60	38,4±1,6 100	36,2±1,8 100	35,3±1,6 73,4
8.	Keton tanachalari, mmol/l	0,71±0,002 20	0,71±0,003 26,6	0,77±0,02 40	0,94±0,02 33,4	1,27±0,02 60
9.	Mochevina, Mmol/l	3,13±0,16 73,4	2,73±0,14 86,6	2,7±0,12 86,6	2,66±0,14 86,6	2,63±0,11 86,6
10.	Umumiy bilirubin, Mkmol/l	3,19±0,31	3,24±0,29	3,47±0,24 -	4,64±0,42	4,66±0,24
11.	Pirouzum kislotasi, Mmol/l	173,3±29,1 26,6	201,7±23,6 33,4	212,2±25,4 40	215,8±26,5 46,6	226,5±27,5 46,6

Eslatma: suratda o‘rtacha ko‘rsatkich; maxrajda hayvon foyizi.

Qondagi gemoglobin miqdori xuddi eritrotsitlarda bo‘lganidek, ham yil mavsumlari bo‘yicha va ham sovliqlarning bug‘ozlik davrlari bo‘yicha o‘ziga xos tarzda o‘zgarishlarga uchradi. Xususan, bu ko‘rsatkichning eng yuqori darajasi yil mavsumlari bo‘yicha kuzda (95,7±2,2g/l), eng past darajasi bahorda (89,5±3,3g/l), bug‘ozlk davrlari bo‘yicha eng yuqori daraja uning 1-oyida (95,7±2,2), eng past daraja 5-oyida (89,5±3,3 g/l) qayd etildi (p<0,001).

Qonning asosiy biokimyoviy ko‘rsatkichlari hisoblanadigan umumiy oqsil (62,7±0,18 g/l), glukoza (2,06±0,055 mmol/l), mochevina (3,13±0,16 Mmol/l) va ishqoriy zahira (42,4±14,6 mmol/l) miqdorlari bo‘yicha ham eng yuqori ko‘rsatkichlari kuz mavsumida qayd etildi, ayni paytda qondagi keton tanachalari (1,27±0,004 mml/l), umumiy bilirubin (4,64±0,24mmol/l) va pirouzum kislotasi (226,5±27,5 mmol/l) miqdorining eng yuqori darajagacha oshishi bahor mavsumiga to‘g‘ri kelishi (p<0,005) aniqlandi.

Sovliqlar bug‘ozlik davrining oshib, tug‘ish davrining yaqinlashib borishi bilan qondagi umumiy oqsil miqdorining 51,3±0,29 g/l gacha, glukozaning 1,83±0,09 Mmol/l gacha, mochevinaning 2,63±0,11 Mmol/l gacha, ishqoriy zahiraning 35,3±1,6 mmol/l gacha pasayishi, shuningdek, qondagi keton tanachalari miqdorining 1,27±0,002 Mmol/l gacha, umumiy bilirubinning 4,66±0,24 Mkmol/l gacha va pirouzum kislotasi miqdorining 226,5±27,5 Mmol/l gacha oshishi qayd etildi (p<0,005).

Bulardan tashqari, sovliqlar bug‘ozligining chuqurlashishi bilan qondagi umumiy kalsiy va anorganik fosfor miqdorlari ham sezilarli darajada pasayib borishi kuzatildi.

Xulosa qilib aytganda, qorako‘l sovliqlarda bug‘ozlikning chuqurlashishi, ya’ni tug‘ishning yaqinlashishi bilan ketonuriya kasalligi yanada rivojlanib boradi va ushbu kasallikning mohiyati asosan oqsil-uglevod almashinuvi buzilishlaridan ibort bo‘ladi va patologiya oqibatida jigar distrofiyasi rivojlanadi va ayni paytda bir vaqtning o‘zida ham bug‘oz sovliq organizmida ham homilada fiziologik jarayonlarning me’yoriy kechishiga xalaqit beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 16 августдаги «Қоракўлчилик тармоғини комплекс ривожлантириш чора-тадбирлари тўғриида»ги ПҚ-4420-сонли Қарори.

2. Мирзиёев Ш.М. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-fevraldagi PQ-4984-sonli «Qorako‘lchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Qarori.

3. Мирзиёев Ш.М. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-sentyabrdagi «O‘zbekiston Respublikasida pillachilik va qorako‘lchilikni yanada rivojlantirish chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PF-6059-son Farmoni.

4. Ибрагимов Х.З., Норбоев К.Н., Бакиров Б.Б. О профилактике нарушений белкового и минерального обмена при откорме // Овцеводство. – Москва, 1984. - № 9. – С. 17-18.

5. Кондрахин И.П., Курилов Н.В., Малахов А.Г. и др. Клиническая лабораторная диагностика в ветеринарии. – М.: Агропромиздат, 1985. – 287 с.

6. Norboyev Q.N., Bakirov B., Ro‘ziqulov N.B. Ichki yuqumsiz kasalliklar. Darslik. Samarqand. 2025. 416 b.

7. Норбоев Қ.Н., Бакиров Б.Б., Бердияров А.С., Рўзиқулов Н.Б. Буғоз совлиқларда оқсил-углевод алмашинуви бузилишларини аниқлаш, даволаш ва уларнинг олдини олиш бўйича **Тавсиялар.** – Тошкент: ЎзР Давлат Ветеринария Бош бошқармаси, 2010. – 16 б.

8. Бакиров Б. Ҳайвонларда модда алмашинувининг бузилишлари ва жигар дистрофияси. Монография. Самарқанд. 2016. -224 б.

9. Bakirov B., Safarov M.B., Ro’ziqulov N.B. Klinik diagnostika. Ichki yuqumsiz kasalliklar. Darslik. “Fan ziyosi” nashriyoti, Toshkent, 2023. 296 bet.

10. Рўзиқулов Н.Б. Соғин сигирларда жигар дистрофиясини гуруҳли профилактик даволаш чора-тадбирлари. Монография. “Фан зиёси” нашриёти, Тошкент, 2024. 128 бет.

11. Hamzayev K., Bakirov B., Ro‘ziqulov N.B. Buxoro viloyati sharoitidagi qorako‘l sovliqlarni dispanserlash natijalari // Veterinariya meditsinasi. – Toshkent, 2025. - № 12. – 19-21 b.

12. Hamzayev K., Bakirov B., Ro‘ziqulov N.B. Dispanserlash jarayonida qorako‘l sovliqlarni klinik tekshirish natijalari // Chorvachilik va naslchilik ishi. – Toshkent, 2026. - № 1. – 40-41 b.

13. Yunusov, K., Bakirov, B., Ruzikulov, N., Askarov, S., & Hamzaev, K. (2025). Treatment and group prevention of dyspepsia in lambs. In *BIO Web of Conferences* (Vol. 181, p. 01001). EDP Sciences.

14. Bradford P.Smith, David C. Van Metre, Nicola Pusterla. Large Animal Internal Medicine. Sixth Edition. ELSEVIER. Printed in the United States of America, 2020 by. - P. 1874.

UDK: 619:636.5

TOVUQ KOLIBAKTERIOZINI OLDINI OLISHNING SAMARALI CHORA-TADBIRLARINI ISHLAB CHIQISH VA PARRANDACHILIK XO‘JALIKLAIGA JORIY ETISH

Xo‘jaxonov Shoxruzxon Idirisxo‘ja o‘g‘li, *v.f.f.d. (PhD),*
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universtitetining
Toshkent filiali,
Davlatov Ravshan Berdiyevich, *v.f.d, professor,*
Veterinariya va chorvachilik sohasida pedagog
hamda mutaxassis kadrlarni qayta tayyorlash
va ularning malakasini oshirish instituti

Аннотация: *В данной статье описываются профилактические меры, принятые для разработки и внедрения эффективных способов предотвращения колибактериоза у кур на птицефермах, а также эффективность используемых антибиотиков.*

Annotation: *This article describes the preventive measures taken to develop and implement effective methods to prevent colibacillosis in chickens on poultry farms, as well as the effectiveness of the antibiotics used.*

Kalit so‘zlar: *Oflosan, Aliseril, E.coli, zoogigiena, klon, mutant, antigen, fermentativ, virulentlik.*

Mavzuning dolzarbligi. Global miqyosda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda parrandachilik sohasi o‘zining tez yetiluvchanligi va yuqori iqtisodiy samaradorligi bilan strategik ahamiyat kasb etadi. Biroq, intensiv texnologiyalar asosida parrandalarni ko‘p miqdorda bir joyda saqlash ekologik va mikrobiologik muvozanatning buzilishiga, natijada turli yuqumli kasalliklarning keng tarqalishiga sharoit yaratmoqda. Bugungi kunda jahon parrandachiligiga eng katta iqtisodiy zarar keltirayotgan bakterial patologiyalar orasida kolibakterioz (koliseptitsemiya) o‘zining murakkab epidemiologik xususiyatlari va yuqori o‘lim ko‘rsatkichi bilan alohida ajralib turadi. Ushbu kasallik *Escherichia coli* bakteriyasining patogen shtammlari (APEC) tomonidan qo‘zg‘atilib, parrandalarda septitsemiya, turli organlarning yiringli-fibriozli yallig‘lanishi va umumiy intoksikatsiya bilan tavsiflanadi.

Kolibakterioz muammosining dolzarbligi shundaki, u nafaqat mustaqil infeksiya sifatida namoyon bo‘ladi, balki ko‘pincha virusli va boshqa bakterial kasalliklar bilan assotsiatsiyalangan holda kechadi. Ayniqsa, parrandaxonalarda mikroklimat sharoitlarining yomonlashishi, ya’ni havoning changlanishi, ammiak gazining ko‘payishi va saqlash zichligining ortishi patogen tayoqchalarning parrandalar organizmiga kirib borishini osonlashtiradi. Bu esa yosh jo‘jalar o‘rtasida ommaviy o‘limga, katta yoshdagi tovuqlarda esa tuxum berish mahsuldorligining **20-30% gacha** pasayishiga olib keladi. Bundan tashqari, kasallangan parrandalarning o‘sishdan to‘xtashi va ozuqa sarfining keskin oshishi fermer xo‘jaliklarining rentabellik darajasini tushirib yubormoqda.

So‘nggi yillarda mazkur kasallikka qarshi kurashishda an’anaviy antibiotikoterapiya usullarining samaradorligi pasayib borayotganligi kuzatilmoqda. Buning asosiy sababi - mikroorganizmlarda shakllangan ko‘p sonli antibiotiklarga nisbatan chidamlilik (multirezistentlik) xususiyatidir. Bunday holat nafaqat veterinariya sohasida qiyinchiliklar tug‘diradi, balki antibiotik qoldiqlarining mahsulot tarkibida saqlanib qolishi orqali inson salomatligiga ham jiddiy xavf soladi. Shu boisdan, bugungi kunda kolibakteriozni bartaraf etishda faqatgina davolash choralariga tayanmasdan, balki kasallikni tizimli ravishda “oldini olish” (preventiv profilaktika) tamoyillariga o‘tish davr talabidir.

Parrandachilikda kolibakteriozga qarshi kurashish faqatgina dori vositalarini qo'llash bilan cheklanib qolmasdan, balki xo'jalikning umumiy ekotizimini sog'lomlashtirishni talab etadi. Kasallikni oldini olishning birinchi va eng muhim bosqichi - **biosavdolik (biosecurity)** tizimini xalqaro standartlar darajasida tashkil etishdir. Bu jarayon "hamma band - hamma bo'sh" (All-in, All-out) tamoyili asosida amalga oshirilib, har bir partiya almashinuvida binolarni chuqur mexanik tozalash va kimyoviy dezinfeksiya qilishni ko'zda tutadi. Ayniqsa, *E. coli* tayoqchalarining tashqi muhitga, jumladan chang va namlikka chidamliligini hisobga olgan holda, parrandaxona ichidagi havo tarkibini ammiak va vodorod sulfid gazlaridan xoli tutish, ventilyatsiya tizimining uzluksiz ishlashini ta'minlash birlamchi profilaktik chora hisoblanadi.

Tadqiqotning material va metodlari. Tadqiqotlar jarayonidagi profilaktika tadbirlari Farg'ona viloyati Beshariq tumani "BESHARIQ PARRANDA" MChJ fermer xo'jaligida o'stirilayotgan yosh jo'jalar orasida o'tkazildi.

Foydalanilgan antibiotiklar: - Oflosan - tarkibi ofloksatsin, qo'llanilishi-og'iz orqali suv bilan berish uchun. 1ml preparat 1litr suvda eritilib, 3-5 kun davomida beriladi. Rossiya federatsiyasi, OOO" Apitsenna" maxsuloti.

- Aliseril – tarkibi oksitetratsiklin, qo'llanilishi-og'iz orqali suv bilan berish uchun. 1 gr preparat 1 litr suvda eritilib, 5-7 kun davomida beriladi. Gollandiya maxsuloti.

- Flonikol-O – tarkibi florfenicol, qo'llanilishi-og'iz orqali suv bilan ichiriladi. 1 ml preparat 1 litr suvda eritilib, 5 kun davomida beriladi. Biveco mahsuloti.

Xo'jalik sharoitida ushbu mavzuda o'tkaziladigan ilmiy tadqiqot ishlarini bajarish uchun dastlab «LOMANN SENDI» zotiga mansub 5 kunlik 100 bosh jo'jalar tanlab olindi, va 4 guruhga 25 boshdan taqsimlandi. Xar bir guruhdagi jo'jalar ham xo'jalik sharoitida asralib, birinchi tajriba guruhidagi jo'jalarga 5 kun davomida Flonikol-O antibiotigi 1 ml + 1 litr suvga aralashtirilib berildi. Ikkinchi tajriba guruhidagi jo'jalarga 5 kun davomida Oflosan antibiotigi 1ml + 1 litr suvga aralashtirilib berildi. Uchinchi tajriba guruhidagi jo'jalariga esa 7 kun davomida Aliseril antibiotigi 1 gr + 1 litr suvga aralashtirilib berildi. To'rtinchi guruhdagi jo'jalar esa o'zaro taqqoslash uchun nazorat guruhi vazifasini o'tadi.

So'ngra tajriba guruhidagilarning klinik holati va o'sish rivojlanishi nazorat guruhidagi parrandalarga taqqoslab taxlil qilindi. Amaliy sinov tajribasi o'tkazilgan ushbu guruhlardagi jo'jalar 120 kunligigacha muntazam nazorat qilinib, zarurat bo'lganda uchchala tajriba guruxlariga ham yuqoridagi muolaja takrorlandi.

Tadqiqot natijalari: Birinchi tajriba guruhiga Flonikol-O antibiotigi qo'llanilganda jo'jalarning saqlanuvchanlik darajasi 88 % ni, tirik vaznining o'sishi esa 125,8 % ni tashkil qildi. Ikkinchi tajriba guruhiga esa Oflosan antibiotigi qo'llanilganda jo'jalarning saqlanuvchanlik darajasi 100 % ni, tirik vaznining o'sishi esa 127,5 % ni tashkil qildi.

Uchinchi tajriba guruhiga esa Aliseril antibiotigi qo'llanilganda jo'jalarning saqlanuvchanlik darajasi 92 % ni, tirik vaznining o'sishi esa 125,8 % ni tashkil qildi.

To'rtinchi nazorat guruhidagi jo'jalarning saqlanuvchanlik darajasi esa 56 % ni, tirik vaznining o'sishi esa 78,5 % ni tashkil qildi.

1-jadval.

Farg'ona viloyati Beshariq tumani "BESHARIQ PARRANDA" MChJ parrandachilik xo'jaligida kolibakteriozni profilaktikasida qo'llanilgan antibiotiklarning samaradorlik ko'rsatkichlari

T/r	Guruh-lar nomi	Prepa-ratlar nomi	Dozasi va qo'llash uslubi	Jo'jalar bosh soni	Saqlanuv-chanlik (bosh hisobida)	Saqlanuv-chanlik (% hisobida)
1	Tajriba	Flonikol-O	1 ml-1 litr suv bilan og'iz orqali	25	22	88
2	Tajriba	Oflosan	1 ml-1 litr suv bilan og'iz orqali	25	25	100
3	Tajriba	Aliseril	1 gr – 1litr suv bilan og'iz orqali	25	23	92
4	Nazorat	-	-	25	14	56

Shunday qilib, birinchi tajriba guruhi jo‘jalarining saqlanuvchanlik darajasi 88 % ni tashkil qilib, antibiotik olmagan nazorat guruhiga nisbatan 32 % yuqori natijaga erishilgan bo‘lsa, ikkinchi tajriba guruhida bu ko‘rsatikich 100 % ni tashkil etib, antibiotik olmagan nazorat guruhiga nisbatan 44 % yuqori natijaga erishildi. Uchinchi tajriba guruhida esa saqlanuvchanlik ko’rsatkichi 92 % ni tashkil etib, antibiotik olmagan nazorat guruhiga nisbatan 36 % yuqori natijaga erishildi.

Parrandachilik xo‘jaliklarida jo‘jalarni zoogigiyenik talablarga mos keladigan binolarda saqlash, oziqlantirish sifatini yaxshilash va sanitariya talablarini bajarish kolibakterioz kasalligini kelib chiqishini oldini olishda muhim vazifalardan hisoblanadi.

Oflosan antibiotigini ishlab chiqarish sharoitida parrandalarning kolibakterioz kasalligini profilaktikasida qo‘llaganda jo‘jalarning saqlanuvchanlik darajasi 100 % ko‘rsatkichda qayd etildi, shuni takidlash joizki, Oflosan antibiotigi jo‘jalarning saqlanuvchanlik darajasini oshiribgina qolmasdan, ularning tirik vaznini ortishi va meyorda o‘sib rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatganligini inobatga olib, ushbu muolajani parrandachilik xo‘jaliklarida kolibakterioz kasalligini oldini olish va davolash maqsadida qo‘llash tavsiya etiladi.

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tovuq kolibakteriozining oldini olish faqatgina davolash bilan cheklanib qolmay, balki **kompleks zooveterinariya chora-tadbirlarini** talab etadi. Kasallikni jilovlashning asosiy kaliti - jo‘jalarni saqlashda zoogigiyenik normativlarga (optimal harorat, ventilyatsiya va past namlik) qat’iy rioya qilish hamda yuqori sifatli, mikotoksinlardan xoli ozuqa bilan ta’minlashdir.

Xulosa qilib aytganda, tizimli ravishda amalga oshirilgan biosavdolik choralari nafaqat parrandalar o‘limini kamaytiradi, balki xo‘jalikning iqtisodiy barqarorligini va mahsulot xavfsizligini to‘liq kafolatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Bakirov B.B., Ro‘ziqulov N.B. va boshqalar “Hayvonlar kasalliklari” (Ma’lumotnoma), 2015 yil.

2. Bozorov X.K., Xo‘jamshukurov A., Esonov X. Tovuqlar kolibakteriozi va pullorozini davolash hamda oldini olishda yangi antibiotiklarning samaradorligi. J. — Zooveterinariya №4. 2012 yil. 12-13 bet.

3. Bo‘tayeva I.M., Salimov H.S., Davlatov R.B. On The Diagnosis Of Mixed Bacterial Infections Of Birds International Journal of Advanced Science and Technology Vol. 29, No. 9s, (2020), pp. 2308-2315

4. Davlatov R.B., Ibragimov D. Jo‘jalarning eymerioz va kolibakterioz kasalliklarining assotsiativ kechishi va profilaktika chora tadbirlari. Sam MI iqtidorli yoshlarning ilmiy ishlar to‘plami. Samarqand 2006 yil.

5. Davlatov R.B., Salimov X.S., Xo‘djamshukurov A.N. “Parrandalar kasalliklari”, O‘quv qo‘llanma, Samarqand-2018.

6. Davlatov R.B., Nasimov SH.N., Niyozov X.B., Jabborov SH.A., Xo‘djamshukurov SH.A., Safarov X.A. “Parranda kasalliklarini profilaktikasi va davolash bo‘yicha TAVSIYALAR”, Toshkent 2019 yil.



UO‘T: 631.2.22:620.953

ATMOSFERAGA CHIQARILAYOTGAN GAZLARNI KAMAYTIRISH DAVR TALABI

Giyasov Husanjon Abdullayevich, *q.x.f.n., k.i.x.,*
Chorvachilik va parrandachilik ilmiy-tadqiqot instituti

Аннотация: *В стате проанализированы сведения о выбросе в атмосферу парниковых газов в секторе животноводства, Приведены некоторые требования из постановления Президента и правителства Республики Узбекистана в части улучшения екологического состояния. Описаны меры по реализасии совместного проекта НИИ Животноводства и птисеводства с корейским сентром “Кориа” по производству Биогаза от отходов животных и применения низкоуглеродного животноводства. Даны рекомендасии по сокрашению выброса парниковых газов в животноводческих комплексах обектах.*

Abstract: *The article analyzes information on the emission of greenhouse gases into the atmosphere in the livestock sector. Some requirements from the resolution of the President and the Government of the Republic of Uzbekistan regarding improving the environmental condition are presented. Measures are described for the implementation of a joint project of the Research Institute of Animal Husbandry and Poultry Husbandry with the Korean center “Koria” for the production of Biogas from animal waste and the use of low-carbon livestock farming. Recommendations are given for reducing greenhouse gas emissions in livestock farms.*

Kalit so’zlar: *issiq gazlar, metan, uglerod, azot dioksidi, biogaz chorva mahsulotlari ishlab chiqarish, qayta ishlash.*

Kirish. So‘nggi yillarda mamlakatimizda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik xavfsizlikni ta’minlash, ekologik vaziyatni yaxshilash, chiqindilarning insonlar sog‘lig‘iga zararli ta’sirini oldini olish, sanitariya va ekologik holat sifatini oshirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo’yicha kompleks chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. «Yashil makon» umummilliy loyihasi amalga oshirilmoqda, davlat o‘rmon fondiga kirmaydigan daraxtlar qimmatbaho navlarining kesilishiga muddatsiz moratoriy amal qilingan.

Shu bilan birga, respublikada ekologiya va atrof-muhitni asrash borasida jiddiy kamchiliklarga yo‘l qo‘yilmoqda, ayrim hollarda esa tabiatga va jamiyatga tiklab bo‘lmas darajada zarar yetkazilgan. Xususan, daraxtlar va butalarni kesilishiga e’lon qilingan moratoriy davrida 44 mingga yaqin, shundan 9,5 mingga yaqin qimmatbaho navli daraxtlar noqonuniy kesilishi natijasida tabiatga 36 milliard so‘mlik zarar yetkazilgan. Hayvonlarga, shu jumladan, uy hayvonlari va qarovsiz hayvonlarga shafqatsiz munosabatda bo’lish holatlari ko‘payib bormoqda. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda chorva mollari nazoratsiz va tizimsiz boqilishi holatlarining ortib borishi, yer osti suvlaridan ilmiy asoslarsiz foydalanish ekotizimlarning buzilishiga, katta yer maydonlari degradasiyasining ortishiga hamda ularning cho‘llanishiga olib kelmoqda, oqibatda iqlim o’zgarishining ta’siri kuchaymoqda, insonlar hayoti va sog‘lig‘iga xavf tug’ilmoqda.

Ma’lumki, energiya olish maqsadida neft, gaz va ko’mir mahsulotlarini yoqish atrof muhitga parnik, ya’ni issiq bug‘lanuvchi gazlarni chiqarishning asosiy antropogen manbai hisoblanadi. Lekin, keyingi yillarda aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash maqsadida, chorvachilik mahsulotlari (xususan go‘sht-sut) ishlab chiqarishni industrlashtirish natijasida hosil bo’layotgan issiq gazlar xajmi barcha transport turlaridan (samolyotlar, suv usti kemalari, temir yo‘l va avtomobil transporti) havoga chiqarilayotgan gazlar xajmidan oshib ketdi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat tashkiloti - FAO ma’lumotlariga ko‘ra, havoga ko‘p chiqarilayotgan gazlarning asosiy qismini metan, azot dioksidi va karbonat angidrid gazlari tashkil etadi. Jumladan, chorvachilik sektoridan havoga chiqarilayotgan gazlarni 100 foiz desak, uning 44 foizini metan (SN_4), 29 foizini azot dioksidi (N_2O) va 27 foizini karbonat angidrid (CO_2) gazi tashkil etadi. Hususan, qoramollar karbonat angidrid ekvivalentida havoga eng ko‘p – 65 foiz, yoki 4,6 mln. tonna issiq gazlar chiqaradi. Qolgan 2,4 mln. tonnasi esa buyvollar, cho‘chqalar, mayda shoxli

mollar va parrandalar hissasiga to‘g‘ri keladi.

Chorvachilik jami qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishida 44 foiz ulushga ega. Lekin uning atrof muhitga issiq gazlarni chiqarishdagi ulushi 13 foizni tashkil etmoqda. Olimlarning hisob-kitobiga qaraganda bir bosh sigir bir sutkada havoga 500 litr metan gazi chiqaradi. Dunyo bo‘yicha 1,5 mlrd. boshdan ortiq yirik shoxli mollar mavjudligini e’tiborga olsak, sayyoramizdagi qoramollar bir sutkada 750 mlrd litr metan gazini havoga chiqaradi. Bu yer yuzidagi mashina va samolyotlardan ham ko‘p gaz chiqaradi degani.

Chorva ozuqasini ishlab chiqarish jarayonida atmosferaga 45 foiz, hayvonlar tomonidan ozuqalarni xazm qilishda esa 39 foiz issiq gazlar chiqariladi. Gazlarning qolgan qismi chorva mollarining chiqindilari - go‘ng va siydiklarini saqlash va foydalanish jarayonida havoga ko‘tariladi.

Hayvonot dunyosi mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash jarayonida ham katta miqdorda issiq gazlar havoga ko‘tariladi. Hayvon turi va ularning fiziologik holatiga qarab ulardan ammiak, metan, serovodorod, uglerodli is gazi, sianid, nitratlar, og‘ir metallar va turli bakteriyalar (salmonella, streptokoklar) atrof muhitga chiqariladi.

AQSh atrof muhitni muhofaza qilish Agentligi(EPA)ning ma’lumotlariga ko‘ra, 2500 bosh qoramollar boqiladigan chorvachilik kompleksida hosil bo‘ladigan chiqindilar 411 ming aholisi bo‘lgan kichik shahar aholisidan chiqariladigan chiqindilar miqdoriga teng [3].

Dunyoda iqlim o‘zgarishi hodisalarining yuz berishi munosabati bilan ayrim davlatlarda kuchli yog‘ingarchiliklar, suv toshqinlari, to‘fonlar va boshqa tabiiy ofatlar, ayrimlarida esa aksincha, suv tanqisligi va qurg‘oqchiliklar kuzatilmoqda.

Olimlarning e’tirof etishicha O’zbekistonda ham 2050-yilga borib suv tanqisligi kuzatilishi prognoz qilinmoqda. Shuning uchun, biz ham suvni tejab tergab ishlatishimiz kerak. Zero, dono bobolarimizning “Ummon oldida tursang ham suvni isrof qilma” degan naqli bor.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-iyundagi “Atrof-muhitning ifloslanish darajasini baholash tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 343-son qarori bilan tasdiqlangan Dasturga asosan suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi obyektlari monitoringi amalga oshirilmoqda. Dasturda respublikamizdagi atmosfera havosi, suv resurslari va tuproqlarni ifloslantiruvchi manbalarni, yer usti va yer osti suvlari hamda yerlarning ifloslanishini, o‘simlik va hayvonot dunyosi obyektlarini, shuningdek, atrof-muhitning transchegaraviy xavflar monitoringini olib borish, atrof tabiiy muhit davlat monitoringining elektron ma’lumotlar bazasini yagona geoaxborot ma’lumotlar bazasiga integrasiya qilish, tahlil laboratoriyalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va o‘lchov-nazorat asbob-uskunalarini modernizasiya qilish, ilmiy ishlar va innovasion tadbirlarni amalga oshirish vazifalari belgilab berilgan[1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-maydagi “Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risidagi” PF-81-son Farmoniga asosan 2026-yil 1-yanvardan boshlab Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri hududida o‘rnatiladigan avtomatlashgan kichik stansiyalar ma’lumotlari atrof tabiiy muhit davlat monitoringi tizimining yagona geoaxborot ma’lumotlar bazasiga integrasiya qilish orqali vizuallashtirilib, rasmiy veb-saytlarda real vaqt rejimida muntazam yangilab boriladi. Shuningdek, yil yakuniga qadar respublika hududi bo‘yicha atmosfera havosining tabiiy ifloslanishi yuqori bo‘lgan hududlarni prognozlash va aholini barvaqt ogohlantirish tizimi joriy etiladi [2].

Olimlar tomonidan o‘simlik va hayvonot dunyosi obyektlari monitoringini amalga oshirishda dala ekspedisiyalarini hamda o‘simlik va hayvonot indikator turlarining holati bo‘yicha kuzatuvlarni tashkil etish, lokal monitoring o‘tkazish hududlarini hamda hayvonot va o‘simlik dunyosining indikator turlarini batafsil o‘rganib aniqlik kiritish ishlari amalga oshirilmoqda.

Rus olimlarining ta’kidlashicha metan gazining 50% atrofida atmosferaga chiqarilishi antropogayen manbaalar, shu jumladan qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi natijasida yuz beradi. Umumiy global antropogen chiqindilarining miqdori yiliga 320 mln. tonnaga yaqin. Bunda atmosferaga ko‘tarilayotgan metan, azot va uglerod dioksidi kabi issiq gazlarning asosiy qismi hayvonlarni ovqat xazm qilish tizimi chiqindilari hisobiga to‘g‘ri keladi [4]. Jum-

1-jadval.

Qishloq xo‘jalik hayvonlarining 1 s tirik vazni hisobiga atmosfera havosiga gaz va ifloslantiruvchi moddalarni chiqarishdagi ulushi (mkg)

№	Gazlar va havoni ifloslantiruvchi moddalar nomi	Qishloq xo‘jalik hayvonlari turlari:			
		Qo‘ylar	Echkilar	Qoramollar	Otlar
1	Ammiak	12,8	11,2	6,6	6,0
2	Digidrosulfid	0,21	0,185	0,108	0,10
3	Metan	58,5	51,8	31,8	32,5
4	Metanol	0,58	0,50	0,245	0,28
5	Gidroksimetilbenzol	0,06	0,05	0,025	0,0275
6	Etilformiat	0,78	0,68	0,38	0,48
7	Propanal	0,25	0,22	0,125	0,12
8	Geksan kislotasi	0,35	0,32	0,148	0,28
9	Dimetilsul’fid	0,85	0,78	0,192	0,40
10	Etantiol	0,00085	0,00075	0,00049	0,0004
11	Metilamin	0,165	0,145	0,10	0,078
12	Uglerod dioksidi	3506	3105	1908	1950
13	Mikroorganizmlar	560	424	260	264
14	Jun changi	8,0	5,5	3,0	2,8

ladan, I. V. Petrunina va N.A.Gorbunovalarning ta’kidlashicha, chorva mollaridan atmosferaga ajralib chiqadigan issiq gaz chiqindilarining asosiy qismi 62% qoramollar ulushiga to‘g‘ri keladi va SO_2 ekvivalentida 5 mln. tonnani tashkil etadi. Bu miqdor sut va go‘sht qoramolchiligida tahminan 50 % dan to‘g‘ri keladi. Chorvachilik sektoridan havoga chiqariladigan issiq gazlarning qolgan 11 % qismi boshqa turdagi chorva hayvonlari ulushiga va chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash, hamda ozuqa yetishtirish sohalariga teng keladi[5].

1-jadvalda turli chorva hayvonlarining har 1 sentner tirik vazni hisobiga atmosfera havosiga turli gazlar va ifloslantiruvchi moddalarni chiqarishdagi ulushi keltirilgan.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, har bir sentner tirik vazni hisobiga atmosferaga ammiak, metan va uglerod dioksidi kabi zararli issiq gazlarni chiqarishda qoramollar yetakchilik qilmoqda. Chunki 500 kg yoki 5 s tirik vaznga ega bir bosh sigir bir kunda 33 mkg (5sx6,6=33) ammiak, 159 mkg metan va 0,54 mkg Digidrosulfid va 9540 mkg uglerod dioksidini havoga chiqaradi.

Material va metodlar. Hayvonlardan ajralib chiqadigan issiq gazlarni aniqlashda to‘rt kanalli “Elan plyus” va boshqa zamonaviy gazanalizatorlardan foydalaniladi. Uning yordamida ammiak, metan va is gazining konsentrasiyasi aniqlanadi. Hayvon chiqindilarining kimyoviy tarkibi kimyoviy laboratoriyada tekshiriladi.

Natijalar va ularning tahlili. Chorvachilik va parrandachilik ilmiy-tadqiqot institutida ham bu borada amaliy ishlar boshlandi. Institut xalqaro grantlar asosida chorvachilikda parnik gazlarni kamaytirish bo‘yicha amalga oshiriladigan loyihaga qo‘shildi.

Institut olimlari tomonidan chorvachilik fermalarida atmosfera havosiga chiqarilayotgan issiq gazlarni kamaytirish, past uglerodli chorvachilikni yo‘lga qo‘yish maqsadida Koreyaning “Kopia” Markazi bilan hamkorlikda 2026 yildan Sirdaryo va Toshkent viloyatlari xo’jaliklarida Biogaz uskunasini qurib ishga tushirish va mol boqishda past uglerodli ilg‘or texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha ilmiy-amaliy loyihani amalga oshirishga kirishildi. Mazkur loyiha doirasida chorvachilik komplekslarida havoga chiqariladigan gazlar miqdorini sezilarli darajada kamaytirishga va qoramollar chiqindilaridan biogaz va elektr energiyasi ishlab chiqarish kutilmoqda. Jumladan, Sirdaryo tumanidagi “Sulton” fermer xo‘jaligida 100 bosh sigir oshqozoniga Koreya texnologiyasi asosida biosensorlar o‘rnatildi. Ushbu biosensorlar sigir organizmida kechayotgan ozuqalarni xazm bo‘lishi, tana harorati, yurak urishi, nafas olishi kabi turli fiziologik jarayonlarni monitoring qilib tura-

di. Shuningdek, biosensorlar hayvonni kuyga kelishini, xatto kasalliklarning dastlabki siptomlarini aniqlab mutaxassislarning telefoniga xabar yuborib turadi.



Yangiyo‘l tumanidagi “Promeat agro” MChJ qoramolchilik xo‘jaligida esa go‘ngni quritib undan qoramollarga to‘shama sifatida foydalanish texnologiyasi yo‘lga qo‘yilgan. Natijada atmosferaga issiq gazlarning chiqarilishi “Sulton” fermer xo‘jaligida yiliga 20-25 % ga, Yangiyo‘l tumanidagi xo’jalikda esa 15-20 % ga kamayishiga erishildi.

Xulosa. Yakuniy xulosalar loyiha yakunida qilinadi. Dastlabk xulosalar shuki, chorvachilik soxasida issiq gazlarni kamaytirish uchun chorvadorlar, soha mutasaddilari, Ekologik partiya va mahalliy organlar faollari bilan birgalikda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:

1. Avvalo hayvonlarni zooveterinariya va sanitariya qoidalari asosida parvarishlash, chorva mollari va parrandalar asraladigan har bir binoda havoni tozalovchi ventillyasiya va chiqindilarni chiqarish tizimlarini soz holda muntazam ishlashini ta’minlash;
2. Hayvonlarning go‘ng va siydik chiqindilarini tozalab chiqarishda ularni suv bilan yuvib maxsus beton go‘ng saqlagichlarda saqlash choralarini ko‘rish;
3. Kasal hayvonlarni o‘z vaqtida davolash, profilaktika tadbirlarini o‘tkazish, chiqindilarni chiqarib tuproqqa ko‘mib konservasiya qilish;
4. Chorva mollarining boqishda ozuqalarni hazmlanishini yaxshilash maqsadida ularga ozuqa qo‘shimchalarini berish va ulardan havoga ajralib chiqadigan issiq gazlarni kamaytirish;
5. Chorvachilik obyektlarida dizel yonilg‘isida ishlovchi texnikalar sonini kamaytirish, ularning o‘rniga qayta tiklanuvchi energiya manbaalaridan masalan, quyosh batareyalaridan quvvat oluvchi elektrokarlardan va boshqa zamonaviy elektr texnikalaridan foydalanishni yo’lga qo‘yish;
6. Fermalarda chorva hayvonlari chiqindilaridan (go‘ng va siydigidan) biogaz ishlab chiqarish innovasion texnologiyasini joriy etish;
7. Chorvachilik sohasi rahbar va mutaxassislarini innovasion ishlanmalarni qo‘llash orqali issiq gazlarning salbiy ta’sirini kamaytirish borasidagi bilim va malakalarini oshirib borish zarur.

Demak, oldimizda atrof muhitni asrab avaylash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, veterinariya-sanitariya holatni yaxshilash va ekologik madaniyatni oshirish va kelajak avlodlarga ekologik toza zaminni qoldirishdek ulug‘ maqsad turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-maydagi “Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” PF-81-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-iyundagi “Atrof-muhitning ifloslanish darajasini baholash tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 343-son qarori.
3. Ijtimoiy tarmoqdagi «SMART4AGRO» sayti materiallari: “Chorvachilikda havoga chiqariladigan issiq gazlarni kamaytirish chora-tadbirlari”. 2020 y.
4. Пять практических действий в направлении низкого эргобенного животного. Материалы FAO, (2019 g.). Rim. ISBN: 978-92-5-131985-http://www.fao.org/publications/card/en/c/CA7089EN/.
5. Петрунина И.В., Горбунова Н.А. Системные меры по снижению выбросов парниковых газов в животноводческих хозяйствах. Обзор. Федеральный научный Центр пищевых систем им. В.М.Горбатова, Москва 2020 г.
6. Xaskell M.Dj., Dyuxerst R.Dj., Terner S.P. «Выбросы парниковых газов в системах животноводства: перспектива благополучия», Журнал «ANIMAL», 2017, февраль, 11 (2), С. 274-284.

UDK: 32

VETERINARIYA VA CHORVACHILIK SOHASIDA PEDAGOG HAMDA MUTAXASSIS KADRLAR MALAKASINI OSHIRISHDA DAVLATNING STRATEGIK DASTURLARINI O‘QITISHNING AHAMIYATI

Haydarov Obid Erkinovich, *katta o‘qituvchi,*
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

Аннотация. *В данной статье рассматривается актуальность и значение преподавания государственных стратегических программ в системе переподготовки и повышения квалификации педагогических и специализированных кадров в сфере ветеринарии и животноводства. Проанализированы содержание и сущность учебного модуля «Стратегия развития Нового Узбекистана и духовные основы общества», а также его роль в повышении профессиональной компетентности и духовного уровня педагогов. Раскрыты приоритетные направления подготовки специалистов на основе государственных стратегических документов.*

Abstract. *This article examines the relevance and importance of teaching state strategic programs in the system of retraining and professional development of pedagogical and specialist personnel in the field of veterinary medicine and animal husbandry. It analyzes the content and significance of the educational module "Development Strategy of New Uzbekistan and the Spiritual Foundations of Society," as well as its role in improving professional competence and moral awareness of educators. The study highlights key priorities in training qualified specialists based on national strategic documents.*

Kalit so‘zlar: *Yangi O‘zbekiston, strategiya, Harakatlar strategiyasi, Taraqqiyot strategiyasi, O‘zbekiston – 2030 strategiyasi, ma’naviyat, jamiyatning ma’naviy asoslari, davlat dasturlari, ustuvor yo‘nalishlar, inson qadri.*

Ma’lumki, ta’lim tizimida pedagog xodimlarni, shu jumladan oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilarining malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimining mavjud bo‘lishi doimo o‘zining ijobiy samarasini ko‘rsatib kelgan. Malaka oshirish tizimini tashkil etish ta’lim sifatini oshirishning eng muhim omillaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Ushbu tizimning ahamiyati bir necha yo‘nalishda ko‘rinadi:

1. Ta’lim sifatini oshiradi. O‘qituvchi bilim va ko‘nikmalarini muntazam yangilab borsa, darslar zamonaviy usullarda o‘tiladi, talabalarning tushunishi va qiziqishi ortadi. Natijada umumiy ta’lim sifati yaxshilanadi.

2. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etadi. Malaka oshirish orqali o‘qituvchilar interaktiv metodlar, raqamli texnologiyalar, yangi baholash tizimlarini o‘rganadi. Bu esa ta’limni bugungi talabga mos qiladi.

3. Kasbiy rivojlanishni ta’minlaydi. Pedagog doimiy o‘rganishda bo‘lsa kasbiy mahorati oshadi, o‘z ustida ishlashga motivatsiya kuchayadi, ijodkorlik rivojlanadi.

4. Ta’limdagi islohotlarni amalga oshirishga yordam beradi. Davlat tomonidan joriy qilinayotgan yangi dastur va standartlar malaka oshirish tizimi orqali o‘qituvchilarga yetkaziladi, ularning amaliyotga joriy etilishi osonlashadi va boshq.

Professor-o‘qituvchining o‘z sohasini yaxshi bilgan tajribali mutaxassis bo‘lishi lozimligi bilan birga u ma’nan yetuk, yuksak axloqli, keng dunyoqarashli, vatanparvar, o‘z yurtida amalga oshirilayotgan strategik islohotlardan yaxshi xabardorligi ham muhim ahamiyatga ega. Mana shularni hisobga olib 2023-yildan boshlab respublikadagi barcha oliy ta’lim hududiy va tarmoq malaka oshirish markazlarida “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma’naviy asoslari” o‘quv moduli o‘qitilishi yo‘lga qo‘yildi. Ushbu modul Samarqand shahrida joylashgan Veterinariya va chorvachilik sohasida pedagog hamda mutaxassis kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutida ham “Veterinariya meditsinasi va farmatsevtikasi” hamda “Zooinjeneriya” yo‘nalishlarida malaka oshirayotgan

professor-o‘qituvchilarga 12 soatlik (4 soat ma’ruza, 6 soat amaliy (seminar) mashg‘ulot, 2 soat xalqimizning boy tarixi, ilmiy-madaniy merosi, milliy-diniy qadriyatlarni o‘rgatish (sayyor dars) shaklida o‘qitib kelinmoqda. Ushbu modul kasbiy mutaxassis kadrlarga esa 4 soat ma’ruza shaklida o‘tiladi.

“Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma’naviy asoslari” o‘quv modulini o‘qitishdan maqsad oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining ta’lim-tarbiya jarayonlarida ma’naviy-ma’rifiy muhit barqarorligini ta’minlash, davlat va jamiyat hayotida amalga oshirilayotgan islohotlardan xabardorligini va daxldorlik tuyg‘ularini oshirish, Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi, O‘zbekiston-2030 strategik dasturi va jamiyatning ma’naviy asoslarini o‘zlashtirish, aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta’lim tizimini tashkil qilish, aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish va xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish, “Yashil” va inklyuziv iqtisodiy o‘sish tamoyillariga asoslangan yuqori iqtisodiy o‘sish dasturlarini amaliyotga tadbiq etish, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mazmun-mohiyatini o‘rganish, undagi asosiy o‘zgarishlarni tahlil etish va baholash bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini yanada rivojlantirishdir.

Veterinariya va chorvachilik sohasida pedagog hamda mutaxassis kadrlar malakasini oshirish yo‘nalishlarida “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma’naviy asoslari” o‘quv modulini o‘qitishning ahamiyati va dolzarbligi nimada?

Avvalambor shuni aytish kerakki, davlatni yuqori marralar sari yetaklovchi, jamiyatni umumiy maqsad va manfaatlarini o‘zida mujassamlashtirgan alohida strategiyasining mavjud bo‘lishi o‘sha davlat va jamiyat uchun rivojlanish sari qo‘yiladigan dastlabki qadam bo‘lib hisoblanadi. Jahonning rivojlangan mamlakatlari qatoriga kirish, milliy manfaatlarni ro‘yobga chiqarish kabi umummilliy maqsadlar birinchi navbatda davlatning aniq strategiya (yunon tilidan στρατηγία – sarkardaning san’ati iborasidan olingan bo‘lib, dastlab harbiy ibora sifatida keng qo‘llanilgan) va dasturlari orqali amalga oshadi.

O‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgach, taraqqiyotning beqiyos katta imkoniyatlari ochildi. Zero, milliy resurslarni mushtarak maqsadlar yo‘lida safarbar etish, o‘zining rivojlanish yo‘lini o‘zi mustaqil belgilashi kabi imkoniyatlar istiqlolning dastlabki davrlaridan boshlab paydo bo‘ldi. Davlat suvereniteti natijasida jamiyatimizni isloh etish va zamonaviy siyosiy taraqqiyot jarayonlarini amalga oshirish uchun mustahkam zamin va siyosiy, ijtimoiy, ma’naviy hamda huquqiy asoslarni bosqichma-bosqich barpo qilish uchun keng imkoniyatlar paydo bo‘ldi. O‘zbekiston istiqlol tufayli o‘z taraqqiyotining mutlaqo yangi bo‘lgan tarixiy davriga qadam qo‘ydi. Mana shu davrning eng muhim xususiyatlaridan biri shunda ediki, endilikda xalqimiz o‘zining tub manfaatlari va ehtiyojlaridan kelib chiqib, rivojlanish strategiyasini belgilab olish va uni mustaqil amalga oshirishdek tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan shart-sharoitlarga erishdi.

Tarixiy taraqqiyot shundan dalolat beradiki, qabul qilingan milliy dasturlar, loyihalar, strategiya va modullarni muayyan davr o‘tgandan so‘ng yangi davr ehtiyojlaridan kelib chiqib modernizatsiya qilish, takomillashtirish yoki yangi strtagegiyani yaratish ehtiyoji paydo bo‘ladi. Ana shu ehtiyojdan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yilning 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni bilan 2017- 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi qabul qilindi.

Harakatlar strategiyasida O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi belgilab berilgan bo‘lib, ularning har birida mamlakatda yangi bosqichdagi demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va samaradorligini ta’minlashga oid aniq chora-tadbirlar o‘z aksini topdi. Ular quyidagilar:

1. Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish

2. Qonun ustuvorligini ta’minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish

3. Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish

4. Ijtimoiy sohani rivojlantirish

5. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash, chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish

So‘nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar natijasida mamlakatimizda Yangi O‘zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma’rifiy asoslari yaratildi. Jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o‘tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda “Inson qadri uchun” tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so‘zsiz ta’minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash ehtiyojlaridan kelib chiqib 2022-yil 28-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60-son Farmoni qabul qilindi. 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi 7 ta yo‘nalish va 100 ta maqsaddan tashkil topgan. Taraqqiyot strategiyasi quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga olgan:

1. Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish.

2. O‘zbekistonda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish.

3. Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlash.

4. Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish.

5.Ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish.

6. Milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish.

7. O‘zbekiston xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib boorish.

Strategiyada yaqin va o‘rta istiqbolda mamlakatimizning rivojlanish tendensiyalari qanday bo‘lishi, bu boradagi ustuvor vazifalar belgilangan. “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” degan tamoyil asosida islohotlarning uzviyligi va davomiyligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratilgan.

Bugungi hayot juda tezkorlik bilan kechmoqda. Qabul qilingan har qanday qonun, qaror va boshqa me’yoriy hujjatlar vaqt o‘tib o‘z ta’sirchanligini kamaytirishi, davrning yangi chaqiriqlariga mos kelmasligi mumkin. Shuningdek, 2023-yil 30 apreldagi referendumda O‘zbekiston Respublikasining Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining qabul qilinishi, 2023-yil 9-iyuldagi muddatidan oldin bo‘lib o‘tgan Prezidentlik saylovlari kabi siyosiy tadbirlarning o‘tkazilganligi ham muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Shu jihatdan olib qaraganda, 2023-yil 11-sentabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston - 2030» strategiyasi to‘g‘risida»gi 158-son Farmonini bugungi davr chaqiriqlaridan kelib chiqib, hamda kelajak rejalarni belgilash uchun yangi huquqiy vosita sifatida e’tirof etish va qabul qilish mumkin. Farmon bilan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqilgan «O‘zbekiston – 2030» strategiyasi tasdiqlandi. Hujjatda quyidagi asosiy g‘oyalar aks ettirilgan:

• barqaror iqtisodiy o‘sish orqali daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoridan o‘rin olish;

• aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta’lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish;

• aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish;

• xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish;

• mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta’minlash.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan barcha maqsadlarga erishish, shuningdek, Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish ta’minlanadi. Ushbu strategik dastur 5 ta ustuvor yo‘nalish va 100 ta maqsaddan iborat. Ular quyidagilar:

1. Har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish.

2. Barqaror iqtisodiy o‘sish orqali aholi farovonligini ta’minlash.

3. Suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish.

4. Qonun ustuvorligini ta’minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish.

5. Mamlakatni xavfsiz va tinchliksevar davlatga aylantirish ishlarini davom ettirish.

Dasturda ushbu ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish uchun 100 ta maqsad keltirilgan.

Islohotlarning jadal sur’atlarda amalga oshayotganligi, belgilab olgan bir qancha asosiy marralarimizga muddatidan oldin yetib olayotganligimiz natijasida “O‘zbekiston-2030” strategiyasini yangilashga ehtiyoj paydo bo‘ldi. Bu haqda Prezident Sh.Mirziyoyev o‘zining 2025-yil 26-dekabrda Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan Murojaatnomasida aytib o‘tdi. Xalqimizdan olingan takliflar natijasida “O‘zbekiston – 2030” strategiyasiga bir qancha o‘zratirishlar kiritildi. 5 ta ustuvor yo‘nalish va 100 ta maqsad saqlab qolingan holda amalga oshiriladigan vazifalarga o‘zratirishlar qilindi. Ushbu o‘zgarishlar 2026-yil 16-fevralda qabul qilingan “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish” yilida ustuvor yonalishlar bo‘yicha islohotlar dasturlari va “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha davlat dasturi to‘g‘isida” gi PF-22 sonli Prezident Farmonida o‘z aksini topgan.

Xulosa qilib aytganda, veterinariya va chorvachilik sohasida pedagog hamda mutaxassis kadrlar malakasini oshirish jarayonida davlatning strategik dasturlarini o‘qitish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy ta’lim tizimi nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirishni, balki pedagog va mutaxassislarning ijtimoiy-siyosiy ongini, ma’naviy dunyoqarashini ham yuksaltirishni talab etadi. “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma’naviy asoslari” o‘quv modulining joriy etilishi pedagog kadrlarning davlat siyosati, amalga oshirilayotgan islohotlar hamda strategik rivojlanish yo‘nalishlari haqidagi bilimlarini tizimli ravishda mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuningdek, davlatning uzoq muddatli strategik dasturlari asosida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, ularning kasbiy kompetensiyasi bilan bir qatorda fuqarolik pozitsiyasi va daxldorlik hissini kuchaytirishga xizmat qiladi. Natijada jamiyatda faol, mas’uliyatli, keng dunyoqarashli va yuqori malakali mutaxassislar shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi, T.- O‘zbekiston, 2023

2. Ш.Мирзиёев. “Янги Ўзбекистон стратегияси”. Т. “Ўзбекистон” 2021

3. Tilavov O‘. va boshq. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot satrategiyasi va jamiyatning ma’naviy asoslari moduli bo‘yicha o‘uv-uslubiy majmua. T. 2026.



UDK: 619.3:616.98:636.7(075.8)

HARBIY XIZMAT ITLARINING SISTADOZI: PATOGENEZI, TASHXISLASH USULLARI VA ZAMONAVIY TERAPIYA TAMOYILLARI

Jurayev Javlon Karshiboyevich, *assistent,*
Axmedov Saidmirzaxo‘ja To‘lqin o‘g‘li, *assistent,*
Maxkamov Sarvar Robert o‘g‘li, *assistent,*
SamDVMCHBU Toshkent filiali,
Yevgeniy Aleksandrovich Ximich, *vet.vrach-onkolog,*
OOO “DAREL” veterinariya klinikasi

Аннотация. *В данной статье подробно рассматриваются этиология, патогенез, клинические признаки, методы диагностики и современные принципы терапии цистадоза у служебных собак. Высокая физическая активность и выполнение специальных задач делают служебных собак особенно уязвимыми к паразитарным заболеваниям, в том числе к цистадозу, что существенно влияет на их функциональное состояние. В работе проанализирован жизненный цикл паразитов, образующих цисты, факторы риска заражения в условиях воинских подразделений, а также механизмы проникновения возбудителя в организм. Представлено описание патологических изменений, возникающих при развитии цист в различных органах и тканях, включая мышцы, нервную систему и органы зрения. Особое внимание уделено значению лабораторных, инструментальных и молекулярных методов диагностики, а также эффективным схемам лечения, применяемым к служебным собакам, включающим использование антигельминтных препаратов и, при необходимости, хирургическое вмешательство. В разделе профилактики представлены практические рекомендации по предотвращению паразитарных инвазий в условиях военных частей, с учетом деятельности кинологических служб и других организаций, участвующих в реализации мер по санитарной безопасности и охране здоровья служебных собак. В целом статья обеспечивает всесторонний научный анализ влияния цистадоза на здоровье служебных собак и их оперативную готовность, предлагая комплексные подходы к эффективному контролю данного заболевания.*

Abstract. *This article provides a detailed examination of the etiology, pathogenesis, clinical signs, diagnostic methods, and current treatment principles for cystidosis in service dogs. High physical activity and the performance of specialized tasks make service dogs particularly vulnerable to parasitic diseases, including cystidosis, which significantly impacts their functional status. This paper analyzes the life cycle of cyst-forming parasites, risk factors for infection in military settings, and the mechanisms by which the pathogen enters the body. A description of the pathological changes that occur during cyst development in various organs and tissues, including muscles, the nervous system, and the visual system, is presented. Particular attention is paid to the importance of laboratory, instrumental, and molecular diagnostic methods, as well as effective treatment regimens for service dogs, including the use of anthelmintic drugs and, when necessary, surgical intervention. The prevention section presents practical recommendations for preventing parasitic infestations in military units, taking into account the activities of canine services and other organizations involved in implementing sanitary safety and health protection measures for service dogs. Overall, the article provides a comprehensive scientific analysis of the impact of cystidosis on the health of service dogs and their operational readiness, proposing integrated approaches to effectively control this disease.*

Kalit so‘zlar: *harbiy xizmat itlari, sistadoz, parazitar kasallik, Cysticercus, patogenez, klinik belgilari, tashxislash usullari, PZR diagnostikasi, instrumental tekshiruvlar, zamonaviy terapiya, antiparazitar preparatlar, profilaktika choralar, mushak sistadozi, nevrologik belgilar, veterinariya amaliyoti*

Kirish. Harbiy xizmat itlari zamonaviy xavfsizlik tizimining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, ular portlovchi moddalarni aniqlash, izquvarlik, qo‘riqlash, qutqaruv amaliyotlari va boshqa maxsus operatsiyalarni bajarishda yuqori samaradorlik ko‘rsatadi. Ushbu vazifalarning muvaffaqiyatli bajarilishi bevosita itlarning jismoniy holati, sog‘lig‘i va funksional tayyorgarligiga bog‘liq. Shu sababli, harbiy xizmat itlarining parazitar kasalliklari, xususan sistadoz, ularning ishchanligiga sezilarli darajada salbiy ta’sir ko‘rsatishi bilan alohida e’tibor talab etadi.

Sistadoz - Cysticercus turiga mansub lichinkalarning it organizmida rivojlanishi natijasida hosil bo‘ladigan parazitar kasallik bo‘lib, mushaklar, asab tizimi, ko‘z va ichki organlarga shikast yetkazishi mumkin. Parazitning hayot aylanishida itlar oraliq yoki transport xo‘jayin sifatida ishtirok etishi natijasida invaziya harbiy bo‘linmalar sharoitida ham uchrab turadi. Yuqori jismoniy yuklama, o‘quv-mashg‘ulotlar jarayonida turli tashqi muhit omillariga duch kelish va oziqlanishdagi nazoratning yetarli bo‘lmasligi sistadozning rivojlanish xavfini oshiradi.

Kasallikning klinik belgilarining xilma-xilligi, sistalarning turli organlarda joylashishi va ayrim hollarda yashirin kechishi uning tashxisini murakkablashtiradi. Shuning uchun zamonaviy laboratoriya, instrumental va molekulyar usullarni qo‘llash xizmat itlarida sistadozni erta aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Davolash jarayonida antiparazitar preparatlar, simptomatik terapiya hamda zarur hollarda jarrohlik aralashuvlar qo‘llaniladi. Bularning barchasi kasallikni kompleks yondashuv asosida boshqarishni talab qiladi.

Sistadoz kasalligini umumiy tavsifi. Sistadoz - Cysticercus turiga mansub gelmintlarning lichinka bosqichi bilan yuzaga keladigan parazitar kasallik bo‘lib, it organizmida mushaklar, ichki organlar, asab tizimi va ko‘z to‘qimalarida sistalar hosil qilishi bilan tavsiflanadi. Parazitning hayot aylanishida itlar ko‘pincha oraliq yoki tasodifiy xo‘jayin sifatida ishtirok etadi. Kasallikning rivojlanishi, klinik belgilarining darajasi va patogenezning og‘irligi sistalarning soni, lokalizatsiyasi hamda organizmning immun javobiga bog‘liq bo‘ladi.

Sistadozga sabab bo‘luvchi lichinkalar odatda ta’miri yetarli darajada tekshirilmagan go‘sht mahsulotlari, ifloslangan suv va tashqi muhit omillari orqali organizmga kiradi. Harbiy xizmat itlari turli topshiriqlarni bajarish jarayonida keng hududlarda harakatlanishi, noma’lum joylarda iz qidirishi va turli ob’ektlar bilan bevosita aloqada bo‘lishi sababli invaziya xavfi yuqoriroq bo‘lishi mumkin. Bunday hollarda parazitlarning tanaga tushish ehtimoli ortadi va kasallikning rivojlanishiga sharoit yaratiladi.

Parazit organizmga tushgandan so‘ng, u qon va limfa oqimi orqali turli to‘qima va organlarga tarqaladi. Lichinkalarning sistaga aylanish jarayoni o‘rtacha 1–3 oy davom etadi va bu davrda ular mushaklar, miya, orqa miya, jigar, yurak va ko‘z sinchlarida joylashib, o‘smonga o‘xshash pufaksimon tuzilmalar hosil qiladi. Shunday qilib, sistalar o‘sib borgani sari atrof to‘qimalarda mexanik bosim, yallig‘lanish va funksional buzilishlar yuzaga keladi.

Sistadozning epidemiologik xarakteristikasi hududning ekologik holati, sanitariya-gigiyena sharoitlari, oziqlantirish madaniyati va harbiy bo‘linmalarda parazitar monitoringning yo‘lga qo‘yilgan darajasiga bog‘liq. Bu kasallik ko‘proq tashlandiq yoki nazoratsiz bo‘lgan joylar yaqinida xizmat qiluvchi itlarda uchrashi bilan ajralib turadi.

Patogenez. Parazitning organizmga kirish mexanizmi - Sistadozga sabab bo‘luvchi Cysticercus turiga mansub lichinkalar odatda it organizmiga og‘iz orqali kiradi. Infeksiya manbalari sifatida zararlangan go‘sht mahsulotlari, ifloslangan suv, tashqi muhitda mavjud bo‘lgan parazit tuxumlari hamda invaziya bilan ifloslangan ozuqa qoldiqlari xizmat qilishi mumkin. Lichinkalar me’da-ichak traktiga tushgach, oshqozon shirasi va fermentlar ta’sirida faol holga o‘tadi va ichak devoridan qon tomirlari orqali so‘riladi. Shundan so‘ng ular qon va limfa aylanish tizimi orqali organizmning turli to‘qimalariga tarqaladi. Harbiy xizmat itlari ko‘p holatlarda tashqi muhitning turli omillariga duch kelganligi sababli infeksiya tushish xavfi oddiy uy sharoitidagi itlarga nisbatan ancha yuqori bo‘ladi.

Sistaning organ va to‘qimalarda rivojlanishi- Lichinkalar organizm bo‘ylab tarqalib, mushaklar, asab tizimi, jigar, yurak, o‘pka, ko‘z sohalari va boshqa hayotiy muhim organlarda joylashadi. Bu jarayon odatda 1–3 oy davom etadi. Rivojlanish jarayoni davomida lichinka atrof to‘qimalarda pufaksimon, suyuqlik bilan to‘lgan kapsula - sista hosil qiladi. Sistaning kattaligi, miqdori va joylashuviga ko‘ra organizmda turlicha patologik jarayonlar yuzaga keladi. Ayrim hollarda sistalar yillar davomida o‘zgarmas holatda turishi mumkin, biroq ko‘pchilik holatlarda ular asta-sekin kattalashib, atrof to‘qimalarga mexanik bosim o‘tkazadi, yallig‘lanish jarayonini kuchaytiradi va organning funksional faolligini buzadi.

Tana tizimlarida yuzaga keladigan o‘zgarishlar:

Mushak tizimi - Mushak to‘qimalaridagi sistalar ko‘pincha og‘riq, muskullarning shishishi, harakatning cheklanishi va jismoniy faollikning kamayishi bilan namoyon bo‘ladi. Sizib turuvchi og‘riqlar, palpatsiyada noqulaylik va mushaklarning kuchsizlanishi xizmat itlarining bajarishi kerak bo‘lgan vazifalarni sezilarli darajada qiyinlashtiradi.

Asab tizimi - Miya yoki orqa miya to‘qimalarida joylashgan sistalar nevrologik buzilishlarga olib kelishi mumkin. Bunday holatlarda talvasa tutqisi, muvozanatning buzilishi, koordinatsiya yetishmovchiligi, reflekslarning o‘zgarishi yoki yutish muammolari kuzatiladi. Ushbu belgilar harbiy itlarning buyruqlarni bajarish qobiliyatiga bevosita salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ko‘z sohalari - Ko‘z sinchlarida joylashgan sistalar ko‘rish qobiliyatining pasayishi, ko‘z shishi, yallig‘lanish va og‘riqli reaksiyalar bilan kechadi. Ba’zan sista to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘z ichki tuzilmalarini shikastlab, ko‘r bo‘lib qolishga ham sabab bo‘lishi mumkin.

Ichki organlar - Jigar, yurak, o‘pka va boshqa organlarda joylashgan sistalar ularning fiziologik faoliyatini buzadi. Jigar sisadozida detoksikatsiya jarayonlari sekinlashadi, yurakda joylashganda yurak ritmi o‘zgaradi, o‘pkada esa nafas olish qiyinlashadi. Bunday o‘zgarishlar umumiy intoksikatsiya alomatlari, holsizlik va kuchli charchoqni keltirib chiqaradi.

Harbiy xizmat itlarida jismoniy yuklama bilan patogenezning og‘irlashishi - Harbiy xizmat itlari doimiy jismoniy mashqlar, tungi navbatchilik, murakkab vazifalarni bajarish va turli hududlarda harakatlanish jarayonida yuqori yuklamaga duch keladi. Ushbu holatlar sistalarning atrof to‘qimalarga bosimini kuchaytirib, og‘riq sindromini kuchaytiradi va kasallikning klinik belgilari yanada aniqroq namoyon bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

Jismoniy yuklamaning ko‘payishi mushaklarda mikroshikastlanishlarni yuzaga keltiradi, bu esa sistalarning kengayishi va yallig‘lanish jarayoning kuchayishiga olib keladi. Nevrologik lokalizatsiyadagi sistalarda yuklama bosh aylanishi, muvozanatning buzilishi, reflekslarning sustlashishi kabi belgilarni kuchaytiradi. Ichki organlar shikastlanganda esa yuklama nafas olish va yurak faoliyatining izdan chiqishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Klinik belgilari. Umumiy klinik simptomlar - Sistadoz bilan kasallangan itlarda dastlabki belgilar ko‘pincha umumiy holsizlik, charchoq, ishtahaning pasayishi va vazn yo‘qotish bilan namoyon bo‘ladi. Shuningdek, haroratning biroz ko‘tarilishi, mushaklarda noqulaylik va ba’zida og‘riq sezilishi mumkin. Kasallik rivojlanishi bilan tananing turli qismlarida yallig‘lanish jarayonlari kuchayib, intoksikatsiya alomatlari, masalan, qusish, ich ketishi va apatiya paydo bo‘lishi mumkin. Bu umumiy belgilar xizmat itlarining harakat va ishchanligini sezilarli darajada pasaytiradi.

Lokalizatsiyaga qarab belgilar:

Mushak sistadozi - Mushak to‘qimalaridagi sistalar og‘riq, shish, palpatsiyada noqulaylik va mushaklarning kuchsizlanishi bilan namoyon bo‘ladi. Itlar harakatlanishda qiynaladi, yugurish va sakrashda muammolar yuzaga keladi, bu esa harbiy topshiriqlarni bajarishga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Miya (nevrologik) sistadozi - Miya yoki orqa miya to‘qimalarida joylashgan sistalar nevrologik buzilishlar keltirib chiqaradi. Belgilar orasida muvozanatning buzilishi, bosh aylanishi, reflekslarning sustlashishi, talvasa tutqisi va koordinatsiya yetishmovchiligi kuzatiladi. Bunday holatlar itlarning tezkor qaror qabul qilish va komandalarni bajarish qobiliyatini pasaytiradi.

Ko‘z sistadozi - Ko‘z sohalarida joylashgan sistalar ko‘rish qobiliyatining pasayishi, ko‘z shishi va yallig‘lanish bilan kechadi. Ba’zan ko‘z ichki tuzilmalarining shikastlanishi natijasida qisqa muddatli yoki doimiy ko‘rish pasayishi kuzatiladi.

Ichki organlar (jigar, yurak, o‘pka) - Ichki organlarda joylashgan sistalar ularning faoliyatini buzadi. Jigar sisadozida detoksikatsiya jarayoni sekinlashadi, yurakda ritm o‘zgaradi, o‘pkada esa nafas olish qiyinlashadi. Bu holatlar umumiy intoksikatsiya va kuchli charchoqni keltirib chiqaradi.

Harbiy xizmat itlarida kuzatiladigan maxsus simptomlar - Xizmat itlarida sistadozning klinik belgilariga qo‘shimcha ravishda ularning ishchanligi va operativ qobiliyatida o‘zgarishlar kuzatiladi. Bularga quyidagilar kiradi:

• Ishchanlik pasayishi - topshiriqlarni bajarishda sustlik, tez charchash, harakatda sustkashlik.

• Komandalarni bajarishda qiyinchilik - buyruqlarni kechikib bajarish, noto‘g‘ri harakat qilish yoki topshiriqni umuman bajarmaslik.

• Diqqat buzilishi - tashqi muhitga javobning sekinlashishi, xavf va signal belgilarini noto‘g‘ri qabul qilish.

Bu maxsus simptomlar harbiy xizmat itlarining vazifalarni samarali bajarishini sezilarli darajada cheklaydi, shuning uchun sistadozni erta aniqlash va davolash harbiy bo‘linmalarda muhim ahamiyatga ega.

Tashxislash usullari. Klinik tekshiruvlar - Sistadozning dastlabki aniqlanishi ko‘pincha klinik tekshiruv orqali amalga oshiriladi. Veterinar mutaxassis itning umumiy holatini, mushak va to‘qimalarni palpatsiya qilish orqali mushak shishi, og‘riq belgilarini, refleks va koordinatsiyani baholaydi. Nevrologik va ko‘z tekshiruvlari itning muvozanati, ko‘rish qobiliyati va boshqaruv signaliga javobini aniqlashga yordam beradi. Klinik tekshiruv natijalari boshqa tashxislash usullari bilan birgalikda kasallikning lokalizatsiyasi va og‘irligini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Laboratoriya usullari: gematologiya, serologiya, PZR - ***Laboratoriya tekshiruvlari sistadozni aniqlash va kasallikning rivojlanish bosqichini baholashda asosiy vosita hisoblanadi:***

• **Gematologiya**: umumiy qon tahlili orqali leykotsitoz, eosinofiliya va boshqa yallig‘lanish alomatlarini aniqlash.

• **Serologiya**: ELISA yoki immunofluoresensiya metodlari yordamida parazitga qarshi antitanachalarni aniqlash. Bu itning oldingi yoki joriy infeksiyasini baholash imkonini beradi.

• **Polimeraza zanjir reaktsiyasi (PZR)**: parazit DNKsi mavjudligini yuqori aniqlik bilan aniqlash. PZR tashxislash usuli itlarda sistadozning dastlabki bosqichlarida ham samarali hisoblanadi.

Instrumental usullar: UZI, rentgen, KT/MRT - ***Organ va to‘qimalarda sistalarni aniqlashda instrumental tekshiruvlar juda muhim:***

• **UZI (ultratovush tekshiruvi)**: mushaklar, jigar va boshqa yumshoq to‘qimalardagi sistalarni aniqlash uchun ishlatiladi.

• **Rentgen tekshiruvi**: kalsifikatsiyalangan sistalarni aniqlashda qo‘llaniladi.

• **KT (kompyuter tomografiyasi) va MRT (magnit-rezonans tomografiya)**: miya, orqa miya va ko‘z sohalaridagi sistalarni aniqlash va ularning anatomik joylashuvini aniqlash uchun ishlatiladi. Ushbu metodlar murakkab holatlarda tashxisni aniqlik bilan qo‘llash imkonini beradi.

Harbiy itlar uchun tezkor tashxislash protokoli- ***Harbiy xizmat itlarida tizimli monitoring va tezkor tashxislash juda muhim. Protokol quyidagilarni o‘z ichiga oladi:***

• **Klinik tekshiruv** - umumiy holat, mushak va ko‘z tekshiruvlari, nevrologik baholash.

• **Tezkor laboratoriya testlari** - gematologiya va serologiya orqali invaziya alomatlarini aniqlash.

• **Instrumental tekshiruvlar** - UZI va rentgen yordamida mushak va organlarda sistalarni aniqlash.

• **Maxsus protokol** - agar klinik va laboratoriya natijalari xavfli bo‘lsa, PZR va KT/MRT qo‘llaniladi.

• **Natijalarni baholash va reabilitatsiya tavsiyalari** - tashxis tasdiqlangach, jismoniy yuklamani cheklash, davolash va profilaktika choralarini aniqlash.

Zamonaviy terapiya tamoyillari. Sistadozni davolashda asosiy o‘rin antiparazitar preparatlarga tegishlidir. Albendazol keng spektrli vosita sifatida lichinkalarning rivojlanishini to‘xtatadi va parazitlarni yo‘q qiladi, prazikvantel esa parazitlarning qobig‘ini shikastlab, ularni nobud qiladi. Ba’zi hollarda ivermektin kabi makrosiklik glikozidlar qo‘shimcha davolash sifatida ishlatiladi. Preparat tanlovi sistalarning joylashuvi, miqdori va itning individual xususiyatlariga qarab belgilanadi, doza va davolash kursi esa veterinar mutaxassis nazorati ostida aniqlanadi.

Mushak va asab tizimida joylashgan sistalar alohida yondashuvni talab qiladi. Mushak sisadozida antiparazitar preparatlar bilan birga fizik terapiya va mushaklarni reabilitatsiya qilish ishlari tavsiya etiladi. Nevrologik lokalizatsiyadagi sistalarni davolashda preparatlar ehtiyotkorlik bilan tanlanadi, chunki asab tizimiga zarar yetkazmaslik muhim hisoblanadi. Shu maqsadda nevroprotektorlar qo‘llanilib, asab hujayralarini himoya qilish va tiklanish jarayonini tezlashtirish mumkin.

Sistadozning klinik alomatlarini yengillasht-

irish uchun simptomatik va qo‘shimcha davolash ishlatiladi. Yallig‘lanishga qarshi preparatlar og‘riq va shishni kamaytiradi, antihistaminlar allergik reaksiyalarni bartaraf qiladi, nevroprotektorlar esa asab tizimi funksiyasini saqlash va tiklashga yordam beradi. Vitamin va mineral komplekslar umumiy salomatlikni mustahkamlash va tiklanish jarayonini tezlashtirishga xizmat qiladi.

Harbiy xizmat itlarida davolash vaqtida jismoniy yuklamani vaqtincha cheklash zarur. Mashg‘ulotlar va topshiriqlar kamaytiriladi yoki vaqtincha to‘xtatiladi, jismoniy faollik darajasi bosqichma-bosqich oshiriladi va itning holati doimiy kuzatiladi. Bu chora kasallikning murakkablashishini oldini oladi va organizmning davolanishga tayyorligini oshiradi.

Ba’zi hollarda mushak, ichki organlar yoki ko‘zdagi kattalashgan sistalarni jarrohlik yo‘li bilan olib tashlash talab etiladi. Jarrohlik ko‘rsatmalari sistalarning o‘lchami va soni, organ va to‘qimalarning funksional ahvoli hamda oldingi davolash natijalari asosida belgilanadi. Jarrohlikdan so‘ng hayvon reabilitatsiya va kuzatuv protokollariga rioya qilishi zarur, bu xizmat itining ishchanligini tiklash va kasallikning qaytalanishini oldini olishga yordam beradi.

Profilaktika va nazorat choralar. Sistadozning oldini olish va kasallikni nazorat qilish harbiy xizmat itlarining salomatligini saqlash va ularning operativ tayyorgarligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Xizmat itlarida invaziyani oldini olish bo‘yicha choralar doimiy profilaktik tekshiruvlar, veterinar nazorati va parazitar monitoringni o‘z ichiga oladi. Itlar muntazam ravishda veterinar ko‘rigidan o‘tkazilib, infektsiya alomatlari mavjudligi tekshiriladi, shuningdek, harbiy bo‘linmalarda maxsus monitoring protokollari joriy etiladi.

Oziqlantirish gigiyenasi va xavfsiz go‘sht mahsulotlaridan foydalanish ham muhim profilaktik choradir. Go‘sht mahsulotlari to‘liq pishirilgan yoki veterinariya nazoratidan o‘tgan bo‘lishi, suv toza va ifloslanmagan bo‘lishi kerak. Ushbu choralar itlarning parazit tuxumlari bilan infektsiyalanish ehtimolini sezilarli darajada kamaytiradi va umumiy sog‘liqni mustahkamlaydi.

Harbiy bo‘linmalarda parazitlarga qarshi monitoring tizimi ham alohida ahamiyatga ega. Bu tizim itlarning parazitar kasalliklarga duchor bo‘lish ehtimolini baholash, invaziya manbalarini aniqlash va kasallikning tarqalishini oldini olish imkonini beradi. Monitoring doimiy ravishda yuritilib, natijalar veterinar mutaxassislar va harbiy rahbarlar tomonidan baholanadi.

Shuningdek, xodimlar uchun sanitariya-ma’rifiy tadbirlar o‘tkazish zarur. Bu tadbirlar orqali itlarga tegishli gigiyena qoidalari, oziqlantirish va parazitar kasalliklar xavfi haqida xodimlar xabardor qilinadi, ularning profilaktik choralarni to‘g‘ri qo‘llash malakasi oshiriladi. Bunday yondashuv xizmat itlari va ularning atrofidagi insonlar salomatligini bir vaqtning o‘zida himoya qilishga xizmat qiladi.

Xulosa:

Sistadoz harbiy xizmat itlari uchun jiddiy xavf tug‘diruvchi parazitar kasallik hisoblanadi. Ushbu kasallik itlarning mushak, asab tizimi, ko‘z va ichki organlariga ta’sir qilishi, ularning ishchanligini pasaytirishi va topshiriqlarni bajarish qobiliyatini cheklashi bilan ajralib turadi. Kasallikning patogenezi, klinik belgilarining xilma-xilligi va yashirin kechishi tashxisni murakkablashtiradi, shuning uchun zamonaviy laboratoriya, instrumental va molekulyar usullarni qo‘llash juda muhimdir.

Sistadozning samarali davolash tamoyillari antiparazitar preparatlar, simptomatik va qo‘shimcha terapiya, nevroprotektorlar, jarrohlik aralashuvlari va jismoniy yuklamani cheklashni o‘z ichiga oladi. Harbiy xizmat itlari uchun maxsus tezkor tashxislash protokoli va monitoring tizimi kasallikning dastlabki bosqichida aniqlanishini ta’minlaydi.

Profilaktika va nazorat choralarining tizimli amalga oshirilishi — oziqlantirish gigiyenasi, xavfsiz go‘sht mahsulotlari, parazitar monitoring va xodimlar uchun sanitariya-ma’rifiy tadbirlar — kasallikning tarqalishini sezilarli darajada kamaytiradi va xizmat itlarining optimal ishchanligini saqlashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, sistadozning oldini olish, tashxislash va davolashga kompleks yondashuv xizmat itlarining sog‘lig‘i, jismoniy tayyorgarligi va harbiy vazifalarni samarali bajarish qobiliyatini ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Soulsby, E.J.L. *Helminths, Arthropods and Protozoa of Domesticated Animals*. 7th Edition. London: Baillière Tindall, 1982.

2. Bowman, D.D. *Georgis' Parasitology for Veterinarians*. 11th Edition. St. Louis: Elsevier, 2020.

3. Taylor, M.A., Coop, R.L., Wall, R.L. *Veterinary Parasitology*. 5th Edition. Oxford: Wiley-Blackwell, 2015.

4. Zajac, A.M., Conboy, G.A. *Veterinary Clinical Parasitology*. 9th Edition. Hoboken: Wiley, 2012.

5. Dubey, J.P., Lindsay, D.S. *Toxoplasmosis of Animals and Humans*. Boca Raton: CRC Press, 2020.

6. Eckert, J., Deplazes, P. *Zoonotic Cestode Infections: Echinococcosis and Cysticercosis*. Berlin: Springer, 2021.

7. OIE (World Organisation for Animal Health). *Manual of Diagnostic Tests and Vaccines for Terrestrial Animals*. Paris: OIE, 2023.

8. Garcia, L.S. *Diagnostic Medical Parasitology*. 7th Edition. Washington D.C.: ASM Press, 2020.

9. Craig, P.S., Pawlowski, Z.S. *Cysticercosis and Hydatidosis in Humans and Animals*. Boca Raton: CRC Press, 2019.

10. Pavlov, D.P., et al. *Veterinary Parasitology in Military Dogs*. Moscow: Meditsina, 2018.

11. Radostits, O.M., Gay, C.C., Hinchcliff, K.W., Constable, P.D. *Veterinary Medicine: A Textbook of the Diseases of Cattle, Sheep, Pigs, Goats and Horses*. 11th Edition. London: Elsevier, 2020.

12. Jenkins, D.J., et al. *Advances in the Diagnosis and Treatment of Cysticercosis in Dogs*. *Parasitology International*, 2021; 80: 102-115.

13. Smith, H.J., et al. *Clinical Manifestations and Management of Canine Cysticercosis in Working Dogs*. *Journal of Veterinary Science*, 2022; 23(4): 450–462.



UDK: 619:636.082.11

SIMMENTAL ZOTLI SIGIRLAR VA ULAR AVLODLARINI SELEKSIYALASHNING ILMIY ASOSLARI

N.R.Ro‘ziboyev, *derektor, q.x.f.d., professor,*
Chorvachilik va parrandachilik ilmiy tadqiqot instituti
Ohongoron filiali,
S.O.Kazakova,
Toshkent davlat agrar universiteti doktorant, q.x.f.f.d. (PhD)

Анатация: *В статье представлена информация о текущем состоянии скотоводства, количестве голов крупного рогатого скота в нашей Республике и научной работе, проводимой с целью повышения продуктивности симментальской породы крупного рогатого скота. В Республике проводятся научные исследования по сохранению и разведению, направлениям продуктивности, типам конституции, продуктивным показателям потомства симментальской породы крупного рогатого скота. Приведены цель, задачи, объект, предмет, место и методы проведения научной работы, а также научная новизна.*

Anatation: *The article provides information on the current state of cattle breeding, the number of cattle in our Republic, and the scientific work being conducted to increase the productivity of the Simmental cattle breed. Scientific research is being conducted in the Republic on the preservation and breeding, productivity directions, constitution types, and productivity indicators of offspring of the Simmental cattle breed. The purpose, objectives, object, subject, place, and methods of scientific work, as well as the scientific novelty, are presented.*

Kalit so’zlar: *Nasl, simmental, sut, go’sht, sut-go’sht, so’sht-sut, pushtdorlik, irsiyat, genofond, getrozis, sut yog’I, oqsil chiqimi, qon, kilinik o’rsatkichlar, mahsuldorlik.*

Mavzuning dolzarbligi. Qoramolchilik chorvachilikning muhim tarmog‘i hisoblanib, qoramollar yuqori darajadagi rezistentlik va moslashuvchanlik xususiyatiga ko‘ra jahonning juda ko‘plab mamlakatlarida keng tarqalgan. Qoramol 8 ming yil ilgari Xindistonda, so‘ng G‘arbiy Osiyo, O‘rta dengiz, O‘rta Yevropada xonakilashtirilgan. Kraniologik belgilariga qarab, Qoramol to‘rt asosiy kenja turga bo‘linadi: dasht va tekis zona yevropa Qoramoli - uzun shoxli; tog‘ va o‘rmon zonasi Qoramoli - kalta shoxli; Markaziy Osiyo Qoramoli; Janubiy Osiyo va Shimoliy Afrika Qoramoli - zebu. Mahsuldorlik turlariga qarab sut, sut-go‘sht va go‘sht-sut yo‘nalishidagi zotlarga ajratiladi.

Birlashgan millatlar tashkilotining (BMT) FAO tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra jahonning barcha mamlakatlarida qotamollarning 250 dan ortiq zoti urchitilib ularning bosh soni 1,33 mlrd. ni tashkil etadi.

O‘zbekistonda yetishtirilayotgan sutning 98-99% va go‘shtning 63-65% qoramollar hisobiga to‘g‘ri keladi. Barcha toifadagi xo‘jaliklarda urchitilayotgan qoramollar soni 5873,9 ming boshni, shu jumladan, sigirlar 2556,7 ming boshni tashkil qildi. Mamlakatimizda urchitiladigan ixtisoslashmagan zotlar tarkibiga kiruvchi mahalliy zotli qolamollar ham juda qimmatli biologik (rezistentlik, serpushtlik, tez yetiluvchanlik va h.k.) xususiyatlarga ega bo‘lib, ulardan go‘sht, sut, charmbop teri va boshqa mahsulotlar olinadi.

N.B.Alibayev, O.V.Gorelik Ye.I.Anisimova, Ye.R.Gostevalarning ta’kidlashlaricha, simmental zotli qoramollarning boshqa zotlardan asosiy ustunliklaridan biri bu yuqori darajada moslashuvchanlik sifatlari va sut va go‘sht mahsuldorligi bo‘yicha genetik imkoniyatlarining yuqoriligidir. Har qanday favqulodda ob-havo va tabiatning ekstremal sharoitlarida ham aholini nafaqat sut mahsuloti bilan, balki go‘sht mahsuloti bilan ham ta’minlash imkoniyatiga egadir, shuning alohida ta’kidlash kerakki, zot uchta ishlab chiqarish tiplariga ega: sut, sut-go‘sht va go‘sht-sut mahsuldorlik yo‘nalishlari mavjud.

Sh.N.Madraximov, N.R. Ro‘ziboyevlarning xulosalariga qaraganda, sut-go‘sht yo‘nalishidagi simmental zotli sigirlarning xo‘jalik foydali belgilaridan foydalanib, ularni go‘sht yo‘nalishidagi jahon genofondiga xos bo‘lgan naslli buqalardan foydalanib, ularni go‘sht yo‘nalishidagi naslli buqalar urug‘i bilan sanoat asosida chatishtirish, olingan F1 duragay avlodlarning yuqori “geterozis” samarasidan go‘sht yetishtirishda foydalanish, bo‘rdoqilashning jadal texnologiyasini ishlab chiqish va ularni jadallashtirish, respublikamizda go‘sht yetishtirish imkoniyatlarini yanada oshiradi deb ta’kidlaganlar.

Shunday qilib, o‘tkazilgan ko‘plab tadqiqotlar natijalarini tahlil etish shuni ko‘rsatadiki, yuqori mahsuldor podalar yaratishda seleksiya-naslchilik ishlarini maqsadli olib borish, bunda yaxshilovchi nasl toifasiga ega nasldor buqalardan keng foydalanish, jahon genofondiga xos qaromol zotlarining irsiy imkoniyatlaridan ham unumli foydalanish, asosiy seleksiya belgilari o‘rtasida mavjud korrelyasiya koyeffisiyentlari bo‘yicha seleksiya ishlarini olib borish, sigirlardan xo‘jalikda foydalanish muddatlarini uzaytirish, rekordchi sigirlar yetishtirish, bunda sigirlarni oziqlantirish va asrash sharoitini yaxshilash, buqachalarni o‘sish, rivojlanish ko‘rsatkichlari, ularning bo‘rdoqilanish xususiyati, so‘yim ko‘rsatkichlari, go‘sht mahsuldorligi va uning sifati kabi selesion-texnologik belgilarini to‘liq yuzaga chiqarishda hayvonlarni genetik kelib chiqishi, genotipi bilan bir qatorda, paratipik omillari ham o‘z ta’sirini o‘tkazar ekan.

Bularni o‘rganish mahsuldorlikni oshirishda va unga oid bo‘lgan xususiyatlarni takomillashtirishda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etib, ulardan olingan natijalarni ishlab chiqarishga keng joriy etish tarmoqni yanada rivojlantirishda katta ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

Tadqiqotning maqsadi: Simmental zotli qoramollar va ular avlodlarining mahsuldorligini oshirishda ularning genetik imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish orqali seleksiya belgilarini takomilashtirishning ilmiy asoslarini yaratish.

Tadqiqotning vazifalari:

Tadqiqotning vazifalari quydagilardan iborat:

- tajriba guruhlaridagi sigirlarni oziqlantirish sharoitlari;
- sigirlarning ekstereri, tana indekslarini o‘rganish va konstitutsiya tiplariga ajratish;
- turli ishlab chiqarish va konstitutsiya tipilaridagi sigirlarning tirik vazni va laktatsiya davomidagi sut mahsuldorligini aniqlash;
- sigirlar yelinining morfologik va funsional xususiyatlarini o‘rganish va turli yelin shakllariga bog‘liqlikda sigirlarning sut mahsuldorligini aniqlash;
- turli ishlab chiqarish va konstitutsiya tipidagi sigirlarning yil fasllari bo‘yicha klinik, gemotologik hamda pushtdorlik ko‘rsatkichlari aniqlash;
- turli konstitutsiyadagi simmental zotli sigirlardan tug‘ilgan buzoqlarining tirik vazni, biologik xususiyatlarini tahlil etish;
- turli nasldor buqalar avlodlarining xo‘jalikda foydalanish muddatlari va sut mahsuldorligi;
- servis – davri davomiyligining sigirlarning sut mahsuldorligi bilan o‘zaro bog‘liqligini aniqlash;
- sigirlarning asosiy seleksiya belgilari o‘rtasidagi korrelyasiya va regressiya koyeffisiyentlarini hamda irsiyatlilikni aniqlash va tahlil qilish;
- tadqiqotlarning iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

Tadqiqotning ob’yekti: sifatida simmental zotli sigirlar va ularning avlodlari.

Tadqiqotning predmeti: simmental zotli sigirlar va ularning avlodlarining ekstereri, sut mahsuldorligi, pushtdorligi, yelinining morfofunsional xususiyatlari, biologik, klinik va gemotologik ko‘rsatkichlari hisoblanadi.

Tadqiqotlarni o‘tkazish joyi va usullari. Ilmiy-tadqiqotlar 2026-2028 yillarda Buxoro viloyati Romiton tumanidagi qoramolchilikka ixtisoslashgan “Xamro to‘xta” naslchilik fermer xo‘jaligida o‘tkazilmoqda.

Birinchi tajriba uchun turli tana tuzilish va konstitutsiya tipiga ega bo‘lgan va o‘xshashlik belgilari bo‘yicha kelib chiqishi, zotdorligi, yoshi, tirik vaznini hisobga olgan xolda har birida 15 boshdan iborat 3 guruh III va undan yuqori laktatsiyalardagi simmental zotli sigirlar tanlab olindi.

Ikkinchi tajriba guruhiga yoshi, tirik vazni, onalarining sut mahsuldorligi, otalarining seleksiyasini hisobga olgan xolda har birida 12 boshdan iborat 3 guruh simmental zotli sigirlardan tug‘ilgan avlodlar tanlab olindi.

Tajriba guruhidagi buzoqlarning tirik vazni tug‘ilganida, 1; 2; 3; 4; 6; 12 va 18 oyligida tarozida aniqlanadi.

Tadqiqotlarda sigirlarning sut mahsuldorligi har 10 kunda nazorat sog‘imini o‘tkazish, sut tarkibidagi yog‘ har oyda bir marta, oqsil ham har oyda bir marta Laktan 4-M milkotesterida aniqlanadi.

Sut yog‘i va oqsili chiqimi, 4%-li sut miqdori, sutdorlik koyeffisiyenti zootexniyada umumiy qabul qilingn usullarda aniqlanadi.

Sutdagi quruq modda va yog‘sizlantirilgan quruq sut qoldig‘ini, sut qandini aniqlash N.V.Barabanshikov (1986) usulida amalga oshiriladi.

Sigirlarning ekster’eri laktatsiyasining 3-oyda 8 ta tana o‘lchamini: yag‘rin va sag‘ri balandligi, ko‘krak chuqurligi, eni va aylanasi, tananing qiya uzunligi, orqa do‘ng suyak eni va poycha aylanasini o‘lchash orqali va ular asosida hisoblab chiqilgan tana indekslarini tahlil etish asosida o‘rganiladi.

Sigirlarning tirik vazni ular laktatsiyasining uchinchi oyida tarozida yakkama-yakka tortish orqali aniqlanadi.

Tajriba guruhlaridagi sigirlar yelinining morfologik va funsional xususiyatlari ular laktatsiyasining 3-oyida “Osenka vымeni i molokootdachi korov molochnыx i molochno-myasnыx porod” (M., 1970) uslubiy yo‘riqnomasiga asosan o‘rganiladi.

Sigirlarning klinik ko‘rsatkichlari Ye.A.Arzumanyan (1957) uslubida har guruhdan 5 boshdan sigirlarning tana harorati, bir daqiqada yurak urishi va nafas olish tezligini yil fasllari bo‘yicha o‘rganib baxolanadi.

Sigirlarning pushtdorlik xususiyatlarini baxolash ularning bo‘g‘ozlik va servis-davrlari dovomiyligini, sutdan chiqqandan tuqqangacha bo‘lgan davrini, tug‘ishlar oralig‘idagi davrini, birinchi qochirishdan otalanish darajasini, qochirish indekisini o‘rganish orqali amalga oshiriladi.

Sigirlar va buzoqlarning asosiy seleksiya belgilari o‘rtasidagi korrelyasiya va regressiya koyeffisiyentlari R.Shiller, Ya.Vaxal, Ya.Vinsh. (1970) uslubida hisoblanadi.

Olingan ma’lumotlarga Ye.K. Merkur’yeva (1970) bo‘yicha biometrik kichik tanlanmalar usulida qayta ishlov beriladi.

Ilmiy yangiligi: Ilk bor simmental zotli sigirlar va ular avlodlarining selesion-genetik (korrelyasiya, regressiya va irsiyatlilik) parametrlardan foydalanib, va boshqa omillar ta’sirida seleksiya belgilarini takomillashtirishning ilmiy asoslari ishlab chiqiladi.

Ish bosqichlari:

I - bosqich (2026 yil). Yakka tartibdagi ishchi rejani tayyorlash va tasdiqlatish. Mavzuni tanlash va tasdiqlatish. Mavzu bo‘yicha adabiyotlarni to‘plash va adabiyotlar sharhini shakillantirish. Tajriba o‘tkaziladigan xo‘jaliklarni tanlash. Mavzuga mos ravishda xo‘jaliklardagi qoramollarni guruhlarga tanlab olish. Mavzu bo‘yicha tajribalarni qo‘yish. Tadqiqot uslublarini to‘g‘ri qo‘yish. Chet elda va Respublikadagi jurnallarda 3 ta maqola, ilmiy konferensiyalarda 2 ta tezis, konferensiya yig‘ilishlarda qilingan ishlar bo‘yicha maruzalar bilan chiqish qilish. Har chorakda qilingan ishlar bo‘yicha kafedra kengashiga hisobotlar tayyorlab topshirish.

II - bosqich (2027 yil). Bu bosqichda tanlab olingan guruxlarda nazoratlar olib boorish, sigirlarning tirik vazin, kilinik, gemotologik va tana tuzilishi indekslari bo‘yicha olingan ma’lumotlarni qayta ishlash va biometrik taxlildan o‘tkazish. Olin-

gan tatijalar bo‘yicha chet elda va Respublikadagi jurnallarda 4 ta maqola, ilmiy konferensiyalarda 2 ta tezis, konferensiya yig‘ilishlarda qilingan ishlar bo‘yicha maruzalar bilan chiqish qilish. Har chorakda qilingan ishlar bo‘yicha kafedra kengashiga hisobotlar tayyorlab topshirish.

III - bosqich (2028 yil). Tajribaga ajratilgan sigirlardan olingan avlodlarning o‘sish ko‘rsatkichlarini, ozuqa sarfini, tana tuzilish indekslarini, kilinik, gemotologik va biologik ko‘rsatkichalrini o‘rganish. Olingan ma’lumotlarni qayta ishlash va biometrik taxlildan o‘tkazish. Olingan tatijalar bo‘yicha 1 ta monagrafiya, chet elda va Respublikadagi jurnallarda 4 ta maqola, ilmiy konferensiyalarda 2 ta tezis, konferensiya yig‘ilishlarda qilingan ishlar bo‘yicha maruzalar bilan chiqish qilish. Har chorakda qilingan ishlar bo‘yicha kafedra kengashiga hisobotlar tayyorlab topshirish. Natijalarga asoslanib dissertatsiyani shakillantirish va aftoreferat chop qilish.

Kutiladigan natijalar. Simmental zotli sigirlarning sut mahsuldorligiga ishlab chiqarish va konstitutsiya tiplarining ta’sir darajasi aniqlash usullari ishlab chiqiladi. Syermahsul podalarni shakllantirishda, turli seleksiya mansub nasldor buqalar avlodlarining xo‘jalikda foydalanish muddatlari aniqlanadi. Syeleksiya-genetik parametrlardan foydalanib, simmental zotli sigirlar avlodlarini seleksiyalashning ilmiy asoslari ishlab chiqiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Рўзибоев Н.Р. Зависимост молочной продуктивности коров от их живой массы. Ж.// Молочное и мясное скотоводства, №4, 2014, с. 32-33.

2. Ro‘ziboev N., Madraximov Sh. turli genotipga mansub monbelyard zotli buzoqlarning eksterer ko‘rsatkichlari. Chorvachilik va naslchilik ishi. J., №05, 2022. 7-9 b.

3. Kazaqova S.O., Ro‘ziboev N.R. Turli konstitutsiya tipidagi sigirlarning sut mahsuldorlik ko‘rsatkichlari . Chorvachilik va naslchilik ishi.J. №5. 2022 yil. b 10-12.

4. Kazaqova S.O 2022 avtoreferat,

5. Kazaqova S.O “Турли конституциядаги симментал зотли сигирлар елинининг морфофункционал хусусиятлари” IDEA (Innovative Development in Educational Activities) January, 2023/2, 134–139.



UDK: 636.01.

ITLARNING BABEZIOZI KASALLIGI EPIZOOTOLOGIYASI, DAVOLASH VA OLDINI OLISH (Adabiyot tahlili)

S.A.Ashurov, M.E.G‘oyipova, S.S.Meyliyev,
F.B.Kamolov, S.T.Axmedov,
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining
Toshkent filiali

Аннотация. *В статье анализируются данные литературы по бабезиозу собак (Babesiosis canis) – протозойному заболеванию, вызываемому кровепаразитом Babesia canis, передающемуся преимущественно иксодовыми клещами и характеризующемуся инвазией и гемолизом эритроцитов у больных собак, повышением температуры тела, анемией, желтухой, нарушениями со стороны сердечно-сосудистой и пищеварительной систем, а также клинические проявления, лечение и профилактика заболевания.*

Abstract. *This article analyzes the literature on canine babesiosis (Babesiosis canis), a protozoan disease caused by the blood parasite Babesia canis, transmitted mainly by Ixodes ticks, and characterized by invasion and hemolysis of erythrocytes in sick dogs, increased body temperature, anemia, jaundice, disorders of the cardiovascular and digestive systems, and clinical signs, treatment, and prevention of the disease.*

Kalit so‘zlar. *Babesia, gemoglobinuriya, gepatomegaliya, Dermacentor pictus, Rhipicephalus turanicus, Ixodes, canis.*

Laboratory Studies: To determine the etiology of the disease, fecal samples underwent bacteriological and coprological examination. Opportunistic and pathogenic microorganisms were identified using culture media, microscopy, and identification methods. When necessary, antibiotic susceptibility of microorganisms was determined by the disk diffusion method. Blood samples were examined for hematological (erythrocytes, leukocytes, hemoglobin) and biochemical (total protein, glucose, electrolytes — Na^+, K^+, Cl^-) parameters to assess ongoing pathophysiological changes.

Improvement of Preventive Methods: To enhance prevention, a system was developed that included proper feeding (timely and adequate colostrum administration), improved zoohygienic conditions, individual housing, regular disinfection, and the use of probiotic and vitamin-mineral supplements. The proposed preventive complex was applied to the experimental group and compared with a control group. The methods used allowed for an in-depth study of gastroenteritis etiopathogenesis and scientific improvement of preventive measures in calves.

Results and Analysis: The study revealed that gastroenteritis in calves occurred mainly during the first 10–30 days of life. The disease was more common in farms with insufficient zoohygienic





conditions and inadequate colostrum administration. Epizootiological analysis showed that feeding errors, non-compliance with sanitation requirements, and activation of opportunistic pathogenic microorganisms were significant factors in disease development.

Clinical Results: Affected calves exhibited reduced appetite, changes in body temperature (usually subfebrile or febrile), watery and malodorous feces, dehydration, and general weakness. With increasing dehydration, sunken eyes, decreased skin elasticity, and dryness of mucous membranes were observed. Severe cases demonstrated marked intoxication.

Laboratory Findings: Hematological tests showed, in some cases, hemoconcentration (relative increase in erythrocytes and hemoglobin) and leukocytosis, indicating ongoing inflammation. Biochemical tests revealed decreased total protein and glucose, as well as electrolyte imbalance (hyponatremia, hypokalemia), highlighting the importance of dehydration and metabolic acidosis in gastroenteritis pathogenesis.

Bacteriological examination of feces identified primarily opportunistic pathogens (E. coli and other enterobacteria), with varying antibiotic sensitivity, emphasizing the need for rational selection of therapeutic agents (2-photo).

Effectiveness of Preventive Measures: In farms applying improved preventive measures, disease incidence was significantly reduced. Timely colostrum administration, individual housing, regular disinfection, and balanced feeding enhanced overall calf resistance. Consequently, severe disease forms and mortality were reduced.

Overall Analysis: The results confirmed that feeding and housing conditions, immune status, and microbiological factors interact to influence gastroenteritis development. Comprehensive evaluation of etiopathogenic factors and systematic implementation of preventive measures are critical for reducing morbidity and ensuring healthy growth of young animals.

Conclusion.

1. Gastroenteritis in calves occurs primarily during the first 10–30 days of life. Its development is influenced by improper feeding, inadequate colostrum intake, poor zoohygienic conditions, and opportunistic pathogenic microorganisms.

2. The pathogenesis involves intestinal mucosal inflammation, water-electrolyte imbalance, dehydration, and intoxication. Changes in hematologi-

cal and biochemical parameters (electrolyte imbalance, decreased total protein and glucose) confirm the progression of pathophysiological processes.

3. Prevention requires timely and adequate colostrum feeding, balanced nutrition, individual housing, strict adherence to sanitation and hygiene, and regular disinfection.

4. Improved preventive measures reduce morbidity and mortality while increasing overall calf resistance and survival.

5. Studying the etiopathogenesis of gastroenteritis and implementing scientifically-based preventive systems enhances economic efficiency and promotes healthy offspring production in livestock farms.

References

1. Bakirov B.B. Internal Non-Contagious Diseases of Animals. Textbook. Samarkand: Optima Print Plus, 2015. – 414 p.

2. Bakirov B., Ruzikulov N.B. Methodological Guide for Laboratory Exercises in Internal Non-Contagious Diseases of Animals. Samarkand, 2015.

3. Norboev K., Bakirov B., Ruzikulov N. Internal Non-Contagious Diseases of Animals. – Samarkand, 2025. – 416 p.

4. Radostits O.M., Gay C.C., Hinchcliff K.W., Constable P.D. Veterinary Medicine: A Textbook of the Diseases of Cattle, Horses, Sheep, Pigs and Goats. – 10th ed. – London: Saunders Elsevier, 2007. – 2156 p.



UO‘K: 619:591.433:616.33:617

SIGIRLAR KATTA QORNIGA FISTULA O‘RNATISHNING BIR VA IKKI BOSQICHLI USULLARI

Mamatqulov Asadulla Shukurullo o‘g‘li, *tayanch doktarant,*
SamDVMCHBU Toshkent filiali

Аннотация. *В статье сформирован анализ исследований, направленных на изучении пищеварительного процесса, проведения трансфаунации содержимого рубца (пересадки рубцовой жидкости от здорового животного к больному) и других исследовательских целей. Эта процедура может быть выполнена одноэтапным или двухэтапным методом, о чем представлены их сравнительные преимущества и недостатки.*

Abstract. *Surgically creating a rumen fistula in cows is used for digestive studies, transfaunation (i.e., transferring rumen fluid from a healthy animal to a sick animal), and other research purposes. This procedure can be performed in a single-stage or two-stage method. This article presents their comparative advantages and disadvantages.*

Kalit so‘zlar. *Katta qorin fistulasi, yirik shoxli hayvonlar, transfaunatsiya, choklov materiallari, jarrohlik, fiksatsiya, jarrohlik asbob-uskunalari.*

Kirish. Sigirlarda katta qoringa jarrohlik yo‘li bilan fistula o‘rnatish - bu veterinariya amaliyotida muhim diagnostik va ilmiy ahamiyatga molik bo‘lib, hayvonning ovqat hazm qilish tizimini o‘rganish, kasalliklarni aniqlash va davolashda katta ahamiyatga ega. Bu jarayonni **bir bosqichli** yoki **ikki bosqichli** usulda bajarish mumkin va ularning har birining o‘ziga xos afzalliklari va cheklovlari mavjud. Fistula orqali **katta qorin mikroflorasini o‘rganish**, **transfaunatsiya qilish** (sog‘lom hayvondan suyuqlik olib kasal hayvonga berish) mumkin, shuningdek, o‘rnatilgan fistula orqali **hazm qilish buzilishlarini aniqlash**, **dori vositalarining ta’sirini baholash**, va **ilmiy tadqiqotlar** o‘tkazish imkoniyati yaratiladi.

Tadqiqotlar ob’yekti va uslublari. Ilmiy tadqiqotlar 2023-2025-yillar davomida Jizzax viloyatining Zomin tumanidagi “Afrosiyob yo‘llari” chorvachilik fermer xo‘jaligida hamda Toshkent davlat agrar universiteti tajriba xo‘jaligida olib borildi. Bunda 2 bosh ovqat hazm qilish tizimi old bo‘limida ozuqaviy shikastlanishlarga gumon qilingan sut yo‘nalishidagi qoramollar tanlab olindi va ularda mos ravishda katta qorin fistulasini o‘rnatishning bir bosqichli va ikki bosqichli usullarini qo‘llagan holda jarrohlik amaliyotlari o‘tkazildi.

Yirik shoxli hayvonlarda jarrohlik yo‘li bilan katta qorin fistulasini o‘rnatishning bir bosqichli usuli quyidagi jarayonlarni o‘z ichiga oladi: d**astlab, hayvon operatsiyaga tayyorlanadi va bunda**



1-rasm. Katta qorin fistulasi o‘rnatish uchun oldindan tayyorlangan operatsiya joyi



2-rasm. Katta qorin fistulasini o‘rnatish jarayoni



3-rasm. Katta qorin fistulasi bir bosqichli usulda o‘rnatilgan sigir

operatsiya uchun tanlangan sigir sog‘lom bo‘lishi kerak, operatsiyadan 12-24 soat oldin ochlikda saqlanab boshlanadi. Operatsiya jarayonini o‘tkazish uchun zarur jarrohlik asboblari steril holatga keltiriladi.

Anesteziya uchun mahalliy yoki umumiy og‘riqsizlantirish usullaridan foydalaniladi.

Operatsiya joyi. Kesim o‘tkazish uchun qulay nuqta chap yonbosh hisoblanadi va kesish ushbu sohaning terisida aylana shaklda va qorin devorida gorizontal holda navbat bilan o‘tkaziladi. Shundan so‘ng k**atta qorin** devori ehtiyotkorlik bilan kesiladi va teri hamda katta qorinni birlashtiruvchi chok qo‘yiladi. Hosil bo‘lgan tuynukka katta qorin fistulasi joylashtiriladi.

Fistulani o‘rnatish. Fistulani o‘rnatish jarayonida maxsus plastik yoki rezina fistuladan foydalaniladi. Fistula qorin devoriga birlashtirib tikiladi.

Operatsiyadan keyingi jarayon. Operatsiyadan keyingi parvarish davrida antiseptiklar bilan ishlov beriladi, antibiotiklar bilan davolash o’tkaziladi. Har kuni fistula atrofini tozalash tadbirlari o‘tkaziladi.

Yirik shoxli hayvonlarda jarrohlik yo‘li bilan katta qorin fistulasini o‘rnatishning ikki bosqichli usuli quyidagi ketma-ketliklarni o‘z ichiga oladi.

1-bosqich: Katta qorin devorini tayyorlash. Bu bosqichda hayvon operatsiyaga tayyorlanadi, bunda sigir operatsiyaga 24 soat qolgandan boshlab och holda saqlanadi. Jarrohlik maydoni steril holatga keltiriladi. Teri aylana shaklda kesiladi, qorin devori muskullari ajratiladi va katta qorin devori ochiladi.

Hali fistula o‘rnatilmasdan katta qorin devori teri bilan birlashtirilib tikiladi va shu holatda jarohat bitkaziladi. jarohat joyini 5-7 kun davomida parvarish qilinadi va bunda yiringlashdan va infeksiyadan saqlash choralari ko‘riladi.

2-bosqich: Fistulani o‘rnatish. Bunda fistula joyi oldingi tikilgan joydan ochiladi. Ushbu ochilgan joyga ehtiyotkorlik bilan fistula joylashtiriladi va teriga birlashtirib tikiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatdiki, katta qorin fistulasini o‘rnatishning bir bosqichli usuli-



4-rasm. Katta qorin fistulasini o‘rnatish uchun oldindan tayyorlab olingan operatsiya joyi



5-rasm. 5-7 kun o‘gazib fistulani o‘rnatish



6-rasm. Katta qorin fistulasi ikki bosqichli usulda o‘rnatilgan sigir

ni qo‘llash quyidagi afzalliklarga ega: mazkur usul boshqasiga qaraganda tezroq bajariladi, yani jarrohlik amaliyoti bir marotaba amalga oshiriladi, natijada ham vaqt ham resurslarni tejash imkoniyati yaratiladi. Ikkinchidan, hayvonga kuchsiz darajadagi stress beriladi, chunki hayvon faqat bir marta og‘riq va stressni boshdan kechiradi. Uchinchidan, jarayondan tezroq foydalanish imkoniyati mavjud bo’ladi va fistula o‘rnatilgach, darhol katta qorin suyuqligini olish yoki kiritish mumkin bo‘ladi.

Ushbu usulning ayrim kamchiliklari ham mavjudligi aniqlandi. Xususan, yuqumli kasalliklarning yuqish xavfi yuqoriligi, jarrohlik amaliyotidan so‘ng darhol ochiq muhitga moslashishning qiyinligi, fistulaning organizm tomonidan yot jism sifatida rad etilishi mumkinligi, jarohatning sekin bitishi va ayrim hollarda jarrohlik amaliyotidan keyin tiklanish jarayonining murakkab kechishi shunday kamchiliklar qatoriga kiradi.

Katta qorin fistulasini o‘rnatishning ikki bosqichli usulini qo‘llash quyidagi afzalliklarga ega: fistulaning organizmga va hayvonning fistulaga yaxshi moslashuvi tez amalga oshadi. Ushbu usulning birinchi bosqichida tayyorlov ishlari amalga oshiriladi. Ikkinchi bosqichida fistula o‘rnatiladi va bu ayni paytda organizmga moslashish imkonini beradi. Jarayonning bosqichma-boshqich tarzda amalga oshirilishi fistulaning organizmdan nisbatan kamroq rad etilish holati kuzatiladi. Jarohatlarng yaxshi bitishi, ya’ni Har bir bosqichda o‘ziga xos alohida parvarish qilinishi tiklanishning tezlashishiga olib keladi.

Ushbu usulning ayrim kamchiliklari ham mavjudligi aniqlandi. Xususan, jarayon ikki bosqichda bo‘lgani uchun ushbu usul boshqa usulga qaraganda ko‘proq vaqt talab qiladi va natijada hayvonga stress nisbatan kuchliroq beriladi, chunki hayvon jarrohlik stressini ikki marta boshidan kechiradi. Uning ustiga, ikki bosqichli usulda dori-darmon, parvarish va vaqtning ko‘p sarflanishi evaziga qo‘shimcha xarajatlar miqdori ham oshishi mumkin.

Xulosa.

1. Sigirlarning katta qorniga fistula o‘rnatishning bir va ikki bosqichli usullarining har ikki usul ham aniq bir maqsadga yo‘naltirilgan bo’lib, ularning har birining avzalliklari va o‘ziga xos kamchiliklari mavjud. Usulni tanlashda sigirning umumiy ahvoli, tadqiqotning maqsadi va mavjud resurslar hisobga olinishi lozim.

2. Sigirlarga katta qorin fistulasini o‘rnatish usulining zarurligi shundan iboratki, ushbu usuldan transfaunatsiyani amalga oshirish yoki ovqat hazm qilish tizimini mikrobiota, fermentatsiya va bevosita ozuqani hazm qilish fiziologiyasini o‘rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish maqsadlarida foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Norboyev Q.N., Bakirov B., Ro‘ziqulov N.B. “Ichki yuqumsiz kasalliklar”. Darslik. Samarqand, 2025.

2. Narziyev B.D., Yulchiyev J.B. “Operativ xirurgiya va topografik anatomiya”. O‘quv qo‘llanma, Samarqand, 2016.

3. O‘lmasov B.F., Mamatqulov A.Sh., Sobirov A.B. Qoramollar katta qorin qismiga fistula qo‘yish // “Veterinariya meditsinasi” jurnali, 2019. 5-son.

4. Mamatqulov A.Sh., O‘lmasov B.F., Ro‘ziqulov N.B. Katta qorin fistulasi: katta qorin suyuqligini transfunatsiya qilish va ovqat hazm qilish tizimini tadqiq qilish uchun muhim vosita // O‘zbekiston agrar fani xabarnomasi & The role of agriculture and medicine in science. Maxsus son, 1/1(19). 2025.

5. Mamatqulov A.Sh., O‘lmasov B.F. Sog‘in sigirlarning hazm qilish buzilishini katta qorin suyuqligi transfaunatsiyasi bilan davolash / “Smart texnologiyalarni qishloq xo’jaligiga tadbiq etish va rivojlantirish” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. 2024-yil, 30-may.

6. DePeters EJ, George LW.Immunol Lett. Rumen transfaunation. 2014 Dec;162(2 Pt A):69-76. doi: 10.1016/j.imlet.2014.05.009. Epub 2014 Sep 26. PMID: 25262872 Review. Evaluation of rumen transfaunation after surgical correction of left-sided displacement of the abomasum in cows.

7. Rager KD, George LW, House JK, DePeters EJ.J Am Vet Med Assoc. 2004 Sep 15;225(6):915-20. doi: 10.2460/javma.2004. 225.915.PMID: 15485053 Free article.

UDK: 636.5.033.

BROYLER JO‘JALARINI O‘SISH VA RIVOJLANISHIGA OZIQLANTIRISHNING TA’SIRI

E.E.Alijonov, *magistrant,*
O.S.Boymatov, *q.x.f.f.d. (PhD), katta o‘qituvchi,*
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

Аннотация. *На всех фазах выращивания цыплят наблюдаются интенсивный рост и откорм, а также активный обмен веществ в организме с физиологической точки зрения. В составе кормов необходимо учитывать наличие витаминов, макро- и микроэлементов, а также аминокислот, не синтезируемых в организме. Поскольку недостаток различных веществ в организме может привести к возникновению Авитаминозов и различных заболеваний. В связи с этим целесообразно дополнительно включать в состав рациона премиксы.*

Annotation. *At all stages of chick rearing, chicks experience rapid growth and fattening, with an intense metabolic process occurring in their bodies. The composition of feed must take into account vitamins, macro- and microelements, as well as essential amino acids that cannot be synthesized by the body. A deficiency of various substances can lead to different forms of avitaminosis and diseases. Therefore, it is advisable to include premixes in the diet as a supplement.*

Kalit so‘zlar. *Broyler, Ross-308, oson hazm bo‘ladigan, oziqlantirish, organizmda sintezlanmaydigan aminokislotalar, o‘sish va bo‘rdoqilanish.*

Mavzuning dolzarbligi Parrandachilik mamlakatimiz qishloq xo‘jaligining ajralmas bir qismi hisoblanadi. Parrandachilikdan insonlar uchun zarur bo‘lgan parranda go‘shti, tuxum va qo‘shimcha mahsulotlar olinadi. Bundan tashqari, aholi bandligini ta’minlashda parrandachilik sanoati o‘rta va kichik biznes, nodavlat xo‘jaliklardagi kichik texnologiyalarni faol yuritishda alohida o‘rin egallaydi. Keyingi yillarda mamlakatimizda sohani rivojlantirishga alohida e’tibor berilmoqda. Nafaqat tadbirkorlar, balki ko‘pchilik aholi ham parranda boqishni yo‘lga qo‘yib, yaxshigina daromad olmoqda.

Mamlakatimizda parranda go‘shti mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondirishda broyler tovuqlarini yetishtirish istiqbolli yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Tovuq go‘shti yuqori biologik va ta’m sifatlariga ega. Broyler tovuqlarini sanoat asosida yetishtirish iqtisodiy jihatdan foydali hisoblanadi.

Broyler jo‘jalarini maxsus parrandaxonalarga joylashtirilganidan keyin birinchi kunlarda jo‘jalarni oziqlantirish va sug‘orishga alohida e’tibor berilishi kerak. Avvalo, jo‘jalarga 29-30 daraja iliq suv ichirish, keyin esa ovqatlantirish lozim. Birinchi 24 soat ichida 8-10 % glyukoza eritmasi yoki 6% shakar eritmasi va C vitamini (2 g/1 l suvga) qo‘shib berilganda yaxshi natijalarga erishishga yordam beradi.

Tadqiqot manbai va uslubiyati. Tadqiqot ishlari Samarqand viloyati Toyloq tumanida joylashgan “Agrokompleks” fermer xo‘jaligida olib borildi. Tajribadagi Ross-308 broyler tovuq krosslari jo‘jalariga me’yorlashtirilgan omuxta yem retseptlari tuzish hamda ushbu retsept asosida tajriba ishlari amalga oshirildi.

Boshqa turdagi qishloq xo‘jaligi hayvonlari bilan solishtirganda, parrandalar hayotiy jarayonlarning yuqori intensivligi bilan ajralib turishi, tana haroratining baland (40–42) °C bo‘lishi, tirik vazn birligiga ko‘proq kislorod iste’mol qilishi hamda nafas olish va yurak urishining tez bo‘lishi bilan ajralib turadi. Shuningdek parrandalarda moddalar almashinuvi jarayonlarining yuqori intensivligi ularning tez yetilishi va yuqori mahsuldorligi hisobiga hayotiy jarayonlarni saqlab qolish va mahsulot ishlab chiqarish uchun parrandalar yetarli miqdorda energiya va zarur ozuqa moddalari kompleksini o‘zlashtirishi kerak bo‘ladi.

Parrandalarda litsin, fenilalanin va glutamin kislotasining so‘rilishida raqobatli tormozlanish kuzatiladi. Metioninning so‘rilishi fenilalanin va litsinning ta’sirida sekinlashadi, ammo glutamin kislotasining mavjudligi bu jarayonga ta’sir

1-jadval.
Broyler jo‘jalari uchun ozuqa retsepti (kunlar bo‘yicha)

Oziqa turi	Start 0-10 310 kkal	Rost 11-20 315 kkal	Finish 21-…. 320 kkal
Makkajo‘xori	15	15	20
Bug‘doy	44,82	45,11	45,5
Soya shroti 45%	28,4	24,4	18
Kungaboqar shroti 33%	4,5	7,5	9
Izvestnyak 36%	1,68	1,43	1,11
Kungaboqar yog‘i	2,4	3,35	3,62
Tuz	0,2	0,21	0,27
Start 3%	3		
Grower 3%		3	
Fin 2,5 %			2,5

ko‘rsatmaydi. Fruktoza va galaktoza glyukozaga qaraganda 1,5–2 marta sekinroq so‘riladi.

To‘yingan yog‘ kislotalarining so‘rilishi to‘yinmagan yog‘ kislotalari mavjudligida oshadi. Shu sababli, parranda yog‘lardan foydalanish samaradorligini oshirish uchun ratsionga to‘yingan va to‘yinmagan yog‘ kislotalari nisbati 3:1 bo‘lgan ozuqa yog‘ini kiritish tavsiya etiladi.

Kalsiyning so‘rilish intensivligi ratsiondagi kalsiy birikmalari, shuningdek, o‘t va D3 vitaminining mavjudligiga bog‘liq. Tovuq organizmi kalsiyni 50–60% dan oshiq ishlata olmaydi. Fosforning so‘rilishi va utilizatsiyasi esa ratsiondagi kalsiy va fosforning o‘zaro nisbati bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalari. Dastlabki kunlarda jo‘jalarga yuqori oqsil kerak bo‘lsa, so‘ngi bosqichda (finish) tana vaznini tez yig‘ish va yog‘ qatlamini shakllantirish uchun energiya ulushini oshirilishi talab etiladi. Bu maqsadga kungaboqar yog‘i miqdorini 2,4% dan 3,62% gacha oshirish orqali erishilgan.

Ratsionning asosi soya shroti (45% protein) va kungaboqar shrotiga yo‘naltirilgan.

Soya shroti start davrida 28,4% bo‘lsa, finish davrida 18% gacha kamaytirilgan. Bu fiziologik jihatdan to‘g‘ri usul hisoblanib kichik jo‘jalarning mushak to‘qimalari shakllanishi uchun aminokislotalarga bo‘lgan ehtiyoji yuqori bo‘lishiga olib keladi.

Kungaboqar shroti esa aksincha, 4,5% dan 9% gacha oshirilgan. Bu esa kletchatka manbai hisoblanib, hazm qilish tizimining barqaror ishlashiga yordam beradi.

Makkajo‘xori hamda bug‘doy yormalari esa ratsionning qarib 60-65% qismini tashkil etadi. Bug‘doy miqdori o‘zgarmas (45% atrofida) saqlangan holda, makkajo‘xori miqdori 15% dan yakuniy bosqichda 20% gacha oshirilishi natijasida uglevod manbaiga aylanib ozuqaning to‘yimligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Xulosa Ushbu retsept asosida oziqlantirish “Faza bo‘yicha oziqlantirish” tamoyiliga asoslangan holda to‘liq javob berib soya shrotining kamayishi va energiya (yog‘) miqdorining oshishi natijasida parrandalarning go‘sht yo‘nalishidagi genetik salohiyati va patensialini maksimal darajada yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5046 sonli qarori “Parrandachilikni rivojlantirish va tarmoq oziqa bazasini mustahkamlashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi” 2021 yil 14 iyun.

2. Yu.A.Ermatov Fermer, dehqon va oila xo‘jaliklarida broyler go‘shti ishlab chiqarish. 2007-y.

3. R.Xamraqulov va boshqalar. “Broyler jo‘jalarni mikro iqlim sharoiti” Agroilm-O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi jurnali. 2013-yil №3

4. Н.Л.Лопаева Краткий курс лекций по птицеводству. Екатеринбург, 2012

5. А.Л.Сидорова. Технология производства яиц и мяса птицы на промышленной основе. Красноярск 2009

6. S.G.Azimov, D.Azimov, X.Alimov, B.Hoshimov Технология выращивания ремонтного молодняка мясного кросса «Ross-308». Zooveterinariya 2011y 33-34c

UDK: 619.636.2:618.19-002

MAHSULDOR SIGIRLARDA YASHRIN MASTITLARNING SABABLARI VA DIAGNOSTIKASI

S.M.Djumanov, *dotsent v.b.,*
Sam DVMCHBU

Аннотация: *В этой статье описаны причины и современные методы диагностики латентного мастита, который в настоящее время часто встречается у продуктивных дойных коров, а также приведены исследования, направленные на разработку и совершенствование методов диагностики и профилактики мастита у продуктивных коров.*

Abstract: *This article describes the causes and modern diagnostic methods of latent mastitis, which is currently common in productive dairy cows, and provides research aimed at developing and improving diagnostic methods, effective treatment and prevention of types of mastitis in productive cows.*

Kalit so‘zlar: *stafilakokk, streptakokk, ichak tayoqchasi va boshqa mikro-organizmlar mastit, mastidin, dimastin, somatik xujayralar, masion.*

Mavzuning dolzarbligi. Respublikamizda xalq xo‘jaligining boshqa sohalari kabi chorvachilik sohasi ham kundan kuga rivojlanib chorva mahsulotlari ko‘payib bormoqda buning sabablaridan biri bu xususiylashtirish yo‘li bilan yanada rivojlantirishda, ammo bazi kamchiliklardan xoli imas masalan hayvonlarning turli kasalliklari qatori, sog‘in sigirlar orasiidagi mastit kaslliklarini kop‘lab uchrashi asosiy to‘sqinliklardan biri hisoblanadi. Ular sog‘in sigirlarda ko‘p uchraydigan yelin kasalliklari mastitlar bo‘lib, ko‘pincha yashirin va klinik tarzda kechadi. Yshirin (subklinik) mastit oqibatida sigirlar sut mahsuldorligi o‘rtacha 15-20% ga, sutning yog‘lilik darajasini 0,8-1% ga kamayishi, sigirlarning xo‘jalikda foydalanish muddatlarining esa 2-3 yilga qisqarishi, kasallangan sigirlarning qisir qolaishi, majburiy so‘yilishi, veterinariya tadbirlari va mahsulot yetishtirish uchun xarajatlarning ortishi hisobiga mahsulotlar tannarxining ortishi xo‘jaliklarga katta iqtisodiy zarar yetkaziladi. Yashirin mastit bilan kasallangan sigirlardan olingan sut va sut mahsulotlari sanitariya sifatining pastligi insonlarda turli kasalliklarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun sog‘in sigirlarning yashirin mastit kasalligi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy ahamiyatga ega. Ayrim olimlar mastitlarning barcha shaklini stafilakokk, streptakokk, ichak tayoqchasi va boshqa mikroorganizmlar keltirib chiqaradi deb ta’kidlashadi. Bu ta’limotning asoschilari kasallangan yelin bo‘lagidan sog‘ib olingan sut tarkibida mikroorganizmlar mavjud bo‘lishiga tayanadi [3, 4]. Ayrim olimlar esa, sigirlarning mastitlar bilan kasallanishida: sog‘ish stakanlarining zararsizlantirilmasligi oqibatida infeksiyaning so‘rg‘ich kanali orqali yelin parenximasiga tushishi; sut tarkibida antibakterial xususiyatga ega bo‘lgan lizosimning kamayishi; oziqlantirish qoidalari va rejimining buzilishi, bir turdagi rasiondan ikkinchi rasionga tez o‘tish hayvonlarga mog‘orlagan va chirigan oziqalarning berilishi; g‘unojinlarni sog‘ishga kech o‘rgatish, sovuq va yomg‘irli kunlarda zoogigiyenik talablarga javob bermaydigan molxonalarda boqish, to‘shamalarning bo‘lmasligi; yelinning mexanik ta’sirlanishi va yelin terisida yaralarning paydo bo‘lishi asosiy etiologik omillar hisoblanadi [1, 2].

Adabiyot a’lumotlariga ko‘ra, sigirlarda yelinning yallig‘lanishi ko‘pincha subklinik mastit shaklida rivojlanib, sog‘im davrida 21,4%, sutdan chiqarishga yaqin 24,6%, sutdan chiqarilgan davrda 28,9% va yangi tuqqan davrda 23,4% sigirlarda uchraydi. Klinik namoyon bo‘ladigan mastit esa 4,6-6,2% sigirlarda uchragan [4]. Sut bezining kasalliklari sigirlarning sog‘ligiga katta zarar yetka-

zib, ulardan olinadigan sutning miqdori va sifatini pasayib ketishiga hamda xujalikga katta iqtisodiy zarar keltiradi.Sutdagi somatik xujayralar va ularning mastitlarning diagnostikasidagi roli**.** Somatik xujayralar (SX) – bu turli organ va to‘qimalarning xujayralari bo‘lib, asosan leykositlar, eritrositlar, silindrsimon xujayralar, sut bezining yassi va kubiksimon epiteliysidan import bo‘ladi. Somatik xujayralarining 96 % oq qon tanachalari (leykositlar) hisoblanadi. Sutdagi somatik xujayralarni aniqlash uning sifatini belgilaydi. Sutdagi somatik xujayralarning miqdori hayvonning individual xususiyatlari va uning fiziologik holatiga bog‘liq bo‘ladi.

Tug‘ish paytida va sutdan chiqarilgan sog‘lom sigirlarda somatik xujayralarning konsentrasiyasi ko‘tariladi, laktasiyaning eng yuqori bosqichida aksincha, eng past darajani tashkil etadi. Tadqiqotlardan birining natijasi shuni ko‘rsatadiki laktasiyaning 35 va 265- kunlari oralig‘ida sog‘lom yelin bo‘lagidan sog‘ib olingan 1 ml sut tarkibidagi somatik xujayralar miqdori 80 ming donani tashkil etadi, bundan sut mahsuldorligining kamayib borishi bilan somatik xujayralar konsentrasiyasining ortib borishi ma’lum bo‘ladi.Sutdagi somatik xujayralar miqdori hayvonning yoshi ham bog‘liq bo‘ladi. Ma’lumki, har laktasiyada somatik xujayralarning soni ortib boradi. Qarri hayvonlarda immun tizimning zaiflashib borishi somatik xujayralarning ko‘payishiga sabab bo‘ladi. Sutdagi somatik xujayralarning konsentrasiyasi yoz oylarida (iyul-avgust) sezilarli darajada ortadi va o‘rtacha yillik ko‘rsatkich 1 ml sutda 83,0 mingtagacha yetadi. Sut mahsuldorligining ortishi bilan undagi somatik xujayralar soni ham ortib boradi. Sut mahsuldorligi 8 001–8 500 kg bo‘lgan sigirlar sutidagi somatik xujayralar mahsuldorligi 6 000 ming kg bo‘lgan sigirlar sutidagiga nisbatan 33,9 ming./ml ga ko‘p bo‘lgan. Sigirlar sutida somatik xujayralar sonini ko‘payishining sabablaridan biri mastit hisoblanadi. Subklinik mastit paytida hyech qanday yallig‘lanish belgilari kuzatilmasada sutdagi somatik xujayralar soni ko‘payadi. Subklinik mastit uzoq muddat davom etib, sigirning sog‘ligiga va xo‘jalikning iqtisodiga (mahsuldorlikning kamayishi va sut narxining pasayishi hisobiga) yomon ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shuning uchun sutdagi somatik xujayralar miqdorini doimiy ravishda aniqlab borish talab etiladi. Sutda somatik xujayralar konsentrasiyasining ortishiga yelinda to‘qimasida mikroorganizmlarning rivojlanishi, parazitar kasalliklar, ovqat hazm qilish, ayirish tizimlarining kasalliklari, modda almashinuvi buzilishlari, vitaminlar va mikroelementlarning yetishmasligi oqibatida organizm rezistentligining pasayishi, turli gormonal preparatlarni noto‘g‘ri ishlatish, sut bezi va so‘rg‘ichlarining har xil jarohatlanishlari va turli stresslar sabab bo‘ladi [5]. Yelinning har bir choragidan sog‘ib olingan sut tarkibidagi somatik xujayralar konsentrasiyasini aniqlash bilan sigirning mastit bilan kasallaganligini va uning turini aniqlash mumkin bo‘ladi. Sut tarkibidagi somatik xujayralar 1 ml sutda 50 ming. dan 200 ming. gacha bo‘lganda sigir sog‘lom (bu ko‘rsatkich sigirning yoshi va oziqlantirish turiga ko‘ra, 1 ml sutda 50 ming. dan 200 ming. gacha bo‘lishi mumkin), 201 mingdan 400 ming/1 ml konsentrasiyada bo‘lishi sut bezida yallig‘lanish borligidan dalolat beradi. Somatik xujayralar konsentrasiyasi 401 mingdan 800 ming/1 ml bo‘lishi subklinik mastit, 800 ming/1 ml. dan yuqori bo‘lishi klinik mastit rivojlanganligini ko‘rsatadi [5]. Sut tarkibidagi somatik xujayralar 1 ml sutda 400 ming bo‘lganda sigirning sut mahsuldorligi 5 % va undan ko‘p miqdorda, 700 ming bo‘lganda 12 % va undan ko‘p miqdorda kamayishi tajribalarda o‘z isbotini topgan. Shuning uchun sutdagi somatik xujayralar konsentrasiyasini kamaytirish maqsadida sigirlarni saqlash sharoitlari va oziqlantirilishi doimiy ravishda nazorat qilinishi, somatik xujayralar me’yorlardan ko‘pligi aniqlangan sigirlarni asosiy podadan chiqarish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Tadqiqot obyekti va uslublari: Samarqand tumaning Chorva sut-serviz fermer xo‘jaligiga

qarashli sog‘in sigirlarda mastitlarning tarqalishi, asosiy turlari (zardobli, kataral, kataral-yiringli va fibrinli), klinikasi va rivojlanish xususiyatlarini o‘rganish maqsadida dispanser tadqiqotlar o‘tkazilib, hayvonlarni parvarishlanishi va oziqlantirilishi, sigirlarni sog‘ish texnologiyasiga rioya qilinishi tahlil qilindi. Sog‘in sigirlarning mastit bilan kasallanish darajasini o‘rganish maqsadida ularda umumiy qabul qilingan usullar yordamida klinik tekshirishlar o‘tkazildi, shuningdek, yelin terisi, sut bezi parenximasi va yelin surg‘ichlarining holati o‘rganildi. 12 bosh sog‘in sigirlardan sut namunalari olinib, MKP-1 sut plastinkasi yordamida 5%-li dimastin bilan sinama o‘tkazilib, sigirlarning yashirin mastit bilan kasallanish darajasi aniqlandi. Mastit bilan kasallangan sog‘in sigirlarda gemotologik ko‘rsatkichlarni o‘rganish maqsadida qondagi eritrositlar va leykositlar soni (Goryayev sanoq turida), gemoglobin (Sali gemometrida), glyukoza (Orto-toluidin bilan rangli reaksiya), qon zardobida umumiy oqsil (Refraktometrik usuli), ishqoriy zahira (I.P. Kondraxin usuli), leykoformula aniqlandi.

Olingan natijalar tahlili. Xo‘jalikda sog‘in sigirlar guruh usulida (har guruhda 60-40 bosh) bog‘lamasdan parvarishlanadi. Oziqlantirish bir kunda uch marta, sug‘orish suv oxirlari yordamida amalga oshiriladi. Sigirlar asosan bir joyda saqlanib, ular uchun faol yayratish maydonchalarini va oziqalar tarkibida turli vitamin, minerallarni yetishmasligi beriladigan oziqalarni talab darajada bo‘lmasligi ekologik omillardan biri hisoblanadi. Sigirlar rasioni silos-konsentrat tipida bo‘lib, tarkibi 30 kg silos (56,6%), 10 kg senaj (17,2%), 2 kg beda pichani (3,4%), 4 kg konservalash qoldiqlari (6,9%), 4 kg bug‘doy yormasi (6,9%), 5 kg makka yormasi (8,6%), 2 kg kungaboqar shroti (3,4%), 1 kg soya shroti (1,7%), 100 g o‘simlik moyi, 150 g bo‘r, 150 g osh tuzi, 200 g primeksdan iborat. Rasionning umumiy tuyimligi o‘rtacha 24,0 oziqa birligini tashkil etadi. Fosforning kalsiyga nisbati 0,38 ni (me’yor - 2,0:1) tashkil etdi.



1-rasm. MKP-1 sut plastinkasi yordamida 5%-li dimastin sinamasi o‘tkazilib, sigirlarning yashirin mastit bilan kasallanish darajasi aniqlandi

Birinchi tajriba guruhdagi jami; 80 bosh sigirlarda yashirin mastitlarni aniqlash bo‘yicha o‘tkazilgan tajribadagi 12 bosh mastit bilan kasallanganligi gumon qilingan sigirlarning 7 boshidan olingan sut namunalarida sutning konsistensiyasi o‘zgarmadi (sinama salbiy), 3 bosh sigirda qisman o‘zgarish kuzatildi (sinama noaniq) va 2 bosh sigirlardan olingan sut namunalarida sut quyqalari borligi (sinama ijobiy), ya’ni 16,7% sigirlarda subklinik mastit kasalligi qayd etildi. Ikkinchi guruhdagi jami 120 bosh sog‘in sigirlardan 13 bosh sigirlarda mastit aniqlanib. shundan 56% (7 bosh) ni zardobli mastit, 25% (3 bosh) ni kataral mastit, 17% (2 bosh) ni kataral-yiringli mastit, 8% (1 bosh) ni fibrinli mastit bilan kasallangan sigirlar tashkil etdi. MKP-1 sut plastinkasi yordamida 5%-li dimastin sinamasi o‘tkazilib, sigirlarning yashirin mastit bilan kasallanish darajasi aniqlandi.

Tajribadagi sigirlar qonining ko‘rsatkichlari tekshirishlarning boshlanishida fiziologik ko‘rsatkichlarning pastki chegarasida bo‘lsa, bu ko‘rsatkichlarning tekshirishlar oxirigacha yomonlashib borishi qayd etilib, qondagi gemoglobin kosentrasiyasining o‘rtacha 5 g/l ga, eritrositlarni - 5,24±0,36 mln/mkl ga, umumiy oqsilni - 60,8±0,8 ming/mkl, leykositlarni - 5,76±0,12 ming/mkl ga kamayishi, leykoformulada limfositlar, eozinofillar foizining ortishi va tayoqchayadroli, segmentyadroli neytrofillar va yosh neytrofillar foizining kamayishi hi-

sobiga yadroni chapga siljishi bilan xarakterlandi.

Xulosalar.

1. Sigirlarning yashirin mastit bilan kasallanishida ularni saqlash sharoitlari va sut sog‘ish qoidalariga rioya etilmasligi, rasionda oqsilli va shirali oziqalarning ortiqchaligi va yengil hazmlanuvchi uglevodlar hamda kletchatkaning yetishmasligi, sigirlar uchun faol yayratish maydonchalari yetishmasligi ham etiologik omillar hisoblanadi.

2. Sigirlarning yashirin mastit bilan kasallanishini oldini olish uchun har oyda bir marta yashirin mastitga qarshi tekshirib turish tavsiya qilinadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Аленичкина Г.Е. Иммунобиологическая зашита организма коров при субклиническом мастите. Актуальные проблемы вет. науки: Тезисы докладов МБА М., 1999. - С. 41 – 42.

2. Коба И.С. Усовершенствование комплексной фармакотерапии при остром послеродовом мастите бактериально-микозной этиологии. Авторефф. дисс ..... докт. вет. наук. 2009. С-28-33.

3. Лимаренко А.А. Усовершенствование этиотропной терапии животных при мастите у коров. Ставрополь 1999.

4. Рубцов В.И. Лечение коров при серозном и катаральном мастите. Ветеринария, 1999. №1. - С.36-37.13.

5. Eshburiev B.M. Veterinariya akusherligi. Darslik. - Toshkent.: “Fan va texnologiya”, 2018 yil.

6. Eshburiev B.M., Eshburiev S.B., Djumanov S.M. Veterinariya akusherligi fanidan amaliy-laboratoriya mashg‘ulotlari. O‘quv qo‘llanma. - Samarqand.: “SamDU tahririy-nashiriyot”, 2020 yil.

7. Eshburiev B.M., Djumanov S.M. Alimov B.S., Hayvonlar ko‘payish biotexnikasi. Darslik. - Samarqand.: “SamDU tahririy-nashiriyot”, 2023 yil

8. 8.Djumanov, S. M., Karimov, M. G., & Raxmonov, L. (2023). Kataral-yiringli mastitlarni davolash va oldini olishni takomillashtirish. *Scientific Impulse*, *1*(9), 1856-1860.

9. SM, D. (2023). Sigirlarda mastit kasalliklarini kelib chiqish sabablari va diagnostikasi. *Новости образования: исследование в XXI веке*, *2*(13), 21-27.



UDK: 636.2:619:618.14-008.6

SIGIRLARDA BACHADON SUBINVALYUTSIYASI KASALLIGINING RIVOJLANISHI VA MAHSULDORLIGIGA TASIRI

J. E.Rejepbayev, *v.f.f.d. (PhD), katta o'qituvchi,*
D.B.Taxirbekova, *magistirant,*
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining
Nukus filiali

Аннатация. *В данной статье представлена информация о причинах возникновения, механизме развития, клинических признаках и влиянии на продуктивность субинволюции матки у коров. В результате замедления или нарушения процесса физиологической инволюции матки в послеродовом периоде у коров выявлено нарушение репродуктивной функции, задержка полового цикла, снижение уровня оплодотворения, а также удлинение периода бесплодия. Основными этиологическими факторами в развитии заболевания являются атония мышц матки, неправильное питание, задержка плаценты при тяжелых родах, инфекционно-воспалительные процессы и нарушения обмена веществ. Показано отрицательное влияние субинволюции матки с такими осложнениями, как эндометрит и метрит, на показатели молочной продуктивности и плодовитости.*

Annotation. *This article presents information on the causes of uterine subinvolution in cows, its developmental mechanism, clinical signs, and its impact on productivity. As a result of the slowing down or disruption of the process of physiological involvement of the uterus in the postpartum period in cows, a violation of reproductive function, delayed sexual cycle, a decrease in the level of fertilization, as well as a prolongation of the infertility period were revealed. The main etiological factors in the development of the disease are uterine muscle atony, improper nutrition, delayed placental delivery with severe labor, infectious-inflammatory processes, and metabolic disorders. It has been shown that subinvolution of the uterus with complications such as endometritis and metritis negatively affects milk productivity and fertility.*

Kalit so'zlar: S*igirlar, bachadon subinvolyutsiyasi, involyutsiya jarayoni, reproduktiv ko'rsatkichlar, bachadon atoniyasi, servis-davr, qisirlik, endometrit, metrit, sut mahsuldorligi, profilaktika, davolash.*

Kirish. Hayvonlar sag'ligini himoya qilish, epizootik osoyishtalikni ta'minlash va chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirishda zamonaviy, yuqori malakali va iqtisodiy jihatdan samarali veterinariya xizmatini tashkil etish muhim omillardan biri deb xisoblaymiz. Ayniqsa, qoramolchilik tarmog'ida sog'lom nasl olish, reproduktiv ko'rsatkichlarni yaxshilash hamda mahsuldorlikni oshirish uchun mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini himoya qilshda asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Shu sababli chorva hayvonlarida uchraydigan akusherlik-ginekologik kasalliklarni erta aniqlash, oldini olish va davolash uchun veterinariya amaliyotida yangi ishlab chiqarilayotgan preparatlardan foydalanish va kasalliklarni oldini olishga etibor qaratilishi kerek deb xisoblaymiz.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida chorvachilik sohasida yangi mulkchilik shakllariga asoslangan chorva fermer va dehqon xo'jaliklari keng rivojlanib bormoqda. Ushbu xo'jaliklarning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash maqsadida, aholining sifatli chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish va chorva hayvonlarni sog'lig'ini saqlash muhim omil bulib hisoblanadi. Bunda ayniqsa sigirlarning reproduktiv sog'ligini taminlash, tug'ruqdan keyingi davr fiziologik jarayonlarining

me’yorida kechishi va tez tiklanishiga katta ahamiyat qaratish kerek.

Sigirlarda bachadon subinvolyutsiyasi xozirgi vaxtda chorvachilikda keng tarqalgan akusherlik-ginekologik kasaliklardan biri bo‘lib, tug‘ruqdan keyin bachadonning fiziologik involyutsiya jarayonlarini sekinlashishi yoki buzilishi bilan tavsiflanadi. Bu kasallik oqibatida bachadonning to‘liq tiklanmasligi, yallig‘lanish jarayonlarining rivojlanishi va jinsiy siklning kechikishi hamda urug‘lanish qobiliyatining pasayishi kuzatiladi. Natijada sigirlarning mahsuldorligi keskin kamayadi qisirlik holatlari ortadi va chorva fermer xo‘jaliklariga sezilarli zarar ko‘radi. Bundan tashqari, subinvolyutsiya boshqa ginekologik kasalliklar jumladan endometrit hamda metrit rivojlanishi uchun ham predispozitsion omil hisoblanadi. Shu munosabat bilan sigirlarda bachadon subinvolyutsiyasining rivojlanish mexanizmlarini o‘rganishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘ydik, kasalikning mahsuldorlikka ta’sirini baholash hamda profilaktika va davolash usullarini ishlab chiqish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishda olib borilayotgan tadqiqotlar chorvachilikda reproduktiv ko‘rsatkichlarni yaxshilash va iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun xizmat qiladi.

Mavzuning dolzarbligi. Hozirgi kunda chorvachilik tarmog‘ini intensiv rivojlantirish uchun, qoramollarning genetik salohiyatidan to‘liq foydalanish hamda yuqori mahsuldorlikka erishish maqsatida veterinariya va zootexniya sohalari oldida turgan muhim vazifalardan biri deb hisoblaymiz. Sigirlarning reproduktiv sag‘ligi chorvachilik xo‘jaliklarining iqtisodiy samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri bo‘lib, tug‘ruqdan keyingi davrda uchraydigan kasalliklar ushbu ko‘rsatkichlarga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shular qatorida bachadon subinvolyutsiyasi eng ko‘p uchraydigan kasaliklardan biri bo‘lib, u bachadonning fiziologik tiklanish jarayonini sekinlashishi yoki buzilishi bilan xarakterlanadi.

Sigrlarda bachadon subinvolyutsiyasi natijasida, jinsiy siklning kechikishi, urug‘lanish ko‘rsatkichlarining pasayishi, qisirlik davrining uzayishi va qisirlik holatlarining ortishi kuzatiladi. Bu esa nafaqat nasl olish ko‘rsatkichlarining yomonlashishiga, balki sut mahsuldorligining kamayib ketishiga ham olib keladi. Natijada chorva fermer xo‘jaliklari sezilarli darajada iqtisodiy zarar ko‘radi. Bundan tashqari, bachadon subinvolyutsiyasi kasaligi ko‘pincha endometrit, metrit kabi yallig‘lanish kasalliklari bilan birgalikda uchrab turadi. Shu sababli kasallikning etiologiyasi, patogenezi, rivojlanish omillari va mahsuldorlikka ta’sirini chuqur o‘rganish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga egadeb xisoblaymiz. Sigirlarda bachadon subinvolyutsiyasini erta aniqlash uchun, samarali davolash hamda oldini olish choralarini takomillashtirish chorvachilikda reproduktiv ko‘rsatkichlarni yaxshilash, sog‘lom nasl olish va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan mazkur mavzu bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish muhim hisoblanadi.

Sigirlarda bachadon subinvolyutsiyasi kasalligining **asosiy sabablaridan biri bachadon muskullarining yetarlicha qisqarmasligi (atoniyasi)** hisoblanadi. Tug‘ruqdan keyin bachadon normal holatga qaytishi uchun uning mushaklari faol qisqarishi kerak. Agar bu jarayon sustlashsa, bachadon bo‘shlig‘ida lohiya (tug‘ruqdan keyingi ajralmalar) to‘planib qoladi, mikroorganizmlar rivojlanishi uchun sharoit yaratiladi va involyutsiya jarayoni sekinlashadi. Bundan tashqari, kasallik rivojlanishiga quyidagi omillar ham muhim ta’sir ko‘rsatadi.

1. Noto‘g‘ri oziqlantirish. Ratsionda yog‘da eruvchi vitaminlar (A, D, E) va mineral moddalar (kalsiy, fosfor, selen) yetishmasligi.

2. Harakat yetishmovchiligi (gipodinamiya). Ayniqsa bahor va qishki davrida sigirlarni kam harakatlanishi bachadon tonusini pasaytiradi.

3. Og‘ir tug‘ruq va akusherlik patologiyalari. Buzoqning katta tug‘ilishi, egizaklik, tug‘ruqning

cho‘zilishi, yo‘ldoshning ushlanib qolishiga sabab bo‘ladi.

4. Infeksion va yallig‘lanish jarayonlari. Metrit, endometrit kabi kasalliklarning subinvolyutsiyani kuchaytiradi.

5. Umumiy organizm zaifligi. Yuqori mahsuldor sigirlarda modda almashinuvining buzilishi, ketoz, gipokalsemiya kabi kasalliklar ruvojlanadi.

6. Gigiyena va saqlash sharoitlarining yomonligi. Sanitariya va gigenik talablariga rioya qilinmasligi infeksiya xavfini oshiradi.

Klinik belgilari. Jinsiy yo‘llardan loxiy ajralishining to‘xtashi va ayniqsa hayvon yotganda ko‘p miqdorda ajralishi, tuqqandan keyingi birinchi kunda bachadondan ko‘p miqdorda suyuq qonsimon, keyinchalik, to‘q-jigarrang loxiy suyuqligi ajraladi. Ba’zan qon aralash loxiy suyuqligi 2 haftagacha oqib turadi. Bu paytda o‘rta bachadon arteriyasining vibratsiyasi saqlanib turishi mumkin.

Hayvonning umumiy holatida jiddiy o‘zgarish kuzatilmasada, umumiy holsizlanish, ishtahaning pasayishi, vaqti-vaqti bilan tana haroratining ko‘tarilib turishi kuzatiladi. Qin shilliq pardasi shishgan, bachadon buyinchasi kanali ochiq bo‘lib, tuqqandan keyingi 10 kunda ham qo‘l ketishi mumkin. Bachadon kattalashgan, uning devori bo‘shashgan, ko‘pincha bola rivojlangan shoxining flyuktuatsiyasi seziladi. Ba’zan sigirlarda korunkulalarni ham paypaslash mumkin. Massaj qilinganda bachadon deyarli qisqarmaydi (atoniya) tuxumdonlardan birida, asosan homila rivojlangan tomondagi tuxumdonda sariq tana borligi anqlanadi.

Kasallik surunkali kechganda bachadondan loxiy ajralishi butunlay to‘xtaydi va hayvonda hech qanday klinik o‘zgarishlar kuzatilmaydi. Faqatgina ginekologik tekshirishlar o‘tkazish orqali bachadonni kattalashganligi, devorining qalinlashishi va paypaslanganda qisqarmasligini aniqlash mumkin. Kasal hayvonda jinsiy siklni to‘liqsiz bo‘lishi, anofrodiziya yoki bir necha marta urug‘lantirilishga qaramasdan bepusht bo‘lishi kuzatiladi.

Xulosa. Sigirlarda bachadon subinvolyutsiyasi tug‘ruqdan keyingi davrda bachadonning fiziologik involyutsiya jarayonlari buzilishi yoki sekinlashishi bilan kechadigan keng tarqalgan akusherlik-ginekologik kasalliklardan biri hisoblanadi. Ushbu patologiya asosan bachadon muskullarining atoniyasi, noto‘g‘ri oziqlantirish, gipodinamiya, og‘ir tug‘ruq, yo‘ldoshning ushlanib qolishi, infeksion jarayonlar hamda organizmning umumiy rezistentligi pasayishi kabi omillar ta’sirida rivojlanadi. Kasallik natijasida bachadonning tiklanish jarayoni kechikadi, jinsiy sikl buziladi, urug‘lanish ko‘rsatkichlari pasayadi, qisirlik davri uzayadi. Bu esa sigirlarning sut mahsuldorligining kamayishiga, nasl olish ko‘rsatkichlarining pasayishiga va chorva fermer xo‘jaliklarida sezilarli iqtisodiy zarar yuzaga kelishiga olib keladi. Bundan tashqari, bachadon subinvolyutsiyasi ko‘pincha endometrit va metrit kabi yallig‘lanish kasalliklarining rivojlanishiga ham zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. B.M. Eshburiyev, SH.D. Avezimbetov, A.T. Esimbetov, O.R. Raximov, N. P. Douletbaev, S.F. Erimov “Veterinariya akusherligi” Darslik. Nukus-2025 y.

2. Гончаров В.П. Ветеринарное акушерство, гинекология и биотехника размножения. – Санкт-Петербург: Лань, 2008. – 576 с.

3. Абдуллаев А.А. Қорамоллар репродуктив патологиялари ва уларни даволаш усуллари. – Тошкент: Фан, 2016. – 256 б.

4. Шипилов В.С., Никитин В.Я. Акушерство и гинекология сельскохозяйственных животных. – Москва: Колос, 2004. – 495 с.

5. Қодиров А.К., Тўйчиев Н.Т. Қишлоқ хўжалик ҳайвонлари акушерлиги ва гинекологияси. – Тошкент: Меҳнат, 2012. – 420 б.

6. Veterinary Reproduction and Obstetrics / G.C.W. Noakes, T.J. Parkinson, G.C. England. – 10th ed. – London: Saunders Elsevier, 2018. – 950 p.

UDK: 619:636.54:636.087.7

BROYLER JO‘JALARNI OZIQLANTIRISH UCHUN TO‘LIQ RATSIONLI OMIXTA YEM RETSEPTLARINI ISHLAB CHIQISH VA ILMIY ASOSLASH

Akramov Dilmurod, *magistrant,*
Suyunova Zulfiya Baxtiyarovna, *q.x.f.f.d., dotsent v.b.,*
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnolagiyalari universiteti,
Yaxyayev Baxtiyor Sadullayevich, *q.x.f.d., dotsent,*
Qorako‘lchilik va cho‘l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti

Аннотация. *В статье разработаны полнорационные комбикорма для цыплят-бройлеров по фазам выращивания (старт, рост, финиш). При составлении рецептур использован принцип фазового кормления и концепция сбалансированного протеина, обеспечивающие оптимальное соотношение энергии и аминокислот в зависимости от возраста птицы. Научно обоснованы изменения энергетической плотности, уровня протеина и липидов в рационах с учётом физиологии роста и эффективности использования питательных веществ.*

Abstract. *The article presents the development of complete compound feeds for broiler chickens according to the growth phases (starter, grower, finisher). The feed formulations were developed based on the principle of phase feeding and the concept of balanced protein, ensuring an optimal ratio of energy and amino acids depending on the age of the chikens. The changes in energy density, protein level, and lipid content in the diets are scientifically substantiated with consideration of growth physiology and the efficiency of nutrient utilization.*

Kalit so‘zlar: *broyler jo‘jalari, to‘liq ratsionli omixta yem, yemlar, yem qo‘shimchalari, retseptura, almashinuv energiyasi, protein.*

Kirish. Bugungi kunda parrandachilik oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etib, insonlar oziqlanishida oqsil tanqisligini bartaraf etishda muhim vazifa bajaradi. Qishloq xo‘jalik parrandalarining tez yetiluvchanligi, o‘sish va rivojlanishi, konversiya va mahsulotni ozuqa bilan yuqori qoplash darajasi, mahsulotlarning nisbatan arzonligi ushbu sohani agrosanoat kompleksining strategik muhim sohasiga aylantiradi. Global aholining o‘sishi va tabiiy resurslarning cheklanganligi sharoitida parrandachilikning jadal rivojlanishi nafaqat ichki bozorlarni barqarorlashtiradi, balki mamlakatning iqtisodiy barqarorligini ham mustahkamlaydi. Shuning uchun, barqaror rivojlanish va oziq-ovqat xavfsizligining global maqsadlariga erishish uchun ushbu sohani texnologik modernizatsiya qilish va qo‘llab-quvvatlash juda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Parrandalarni oziqlantirishda, boshqa qishloq xo‘jalik hayvonlariga qaraganda o‘z xususiyatiga ega bo‘lib, ularning yoshi, fiziologik holati va mahsuldorligiga qarab to‘liq ratsionli omixta yem retseptlardan foydalaniladi. Shu jumladan, broyler jo‘jalari uchun ham, “start”, “rost” va “finish” omixta yemlar retseptlarini tuzish uchun jo‘jalarning turli yoshda ratsion tarkibidagi energetik, biologik va mineral moddalarga bo‘lgan talabining o‘zgarishlari hisobga olinadi. Shuning uchun omixta yem tarkibiga kiruvchi turli ozuqa va ozuqaviy qo‘shimchalardan to‘g‘ri foydalanish uchun, jo‘jalarning modda almashinuv qonuniyatlarini inobatga olib ilmiy asoslangan omuxta yem retseplarini tuzish amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot maqsadi. Broyler jo‘jalarining turli boqish bosqichlarida energetik, biologik va mineral moddalarga bo‘lgan talablarini hisobga olgan

1-jadval.

Broyler jo‘jalari uchun to‘liq ratsionli omixta yem retseptlari

Ozuqa va qo‘shimchalar turi	O’l. bir.	Omixta yem turi		
		Start	Rost	Finish
Makkajo‘xori doni	%	46	48	50
Bug‘doy doni	%	14	11	15
Soya shroti	%	28	22	12
Kungaboqar shroti	%	-	2	6
O‘simlik yog‘i	%	2	5,8	6,5
Baliq uni	%	7	8	8
Monokalsiy fosfat	%	1,4	1,5	1
DL Metionin	%	0,35	0,25	0,2
L-lizin	%	1	1,15	1
Osh tuzi	%	0,1	0,1	0,1
Premiks	%	0,15	0,2	0,2
Jami	%	100	100	100

holda turli ozuqa va ozuqaviy qo‘shimchalaridan foydalanib to‘liq ratsionli “start”, “rost” va “finish” omixta yemlar retseptlarini tuzush.

Tadqiqot usullari. Broyler jo‘jalari uchun to‘liq ratsionli omixta yem retseptlarini tuzish uchun, ularning turli yoshida energetik, biologik va mineral moddalarga bo‘lgan talabi [1, 12 b.], [2, 40 b.], [3, 50-55 b.] asosida aniqlangan. Bunda, 100 g yem tarkibining to‘yimliligi almashinuv energiyada baholanib (MDj, kkal), yem tarkibida saqlanadigan (% hisobida) xom protein, xom yog‘, xom kletchatka, Ca, P, Na, lizin, metionin+-sistin miqdorlari hisoblangan. Ozuqa va ozuqaviy qo‘shimchalar tarkibi [4, 321-322 b.], [5, 251-253 b.] ma’lumotnomasida ko‘rsatilgan “Qishloq xo‘jalik hayvonlarini oziqlantirish uchun ozuqalar tarkibida saqlanadigan to‘yimli moddalar miqdori” jadvalidan foydalanildi. Retseptlarni tuzushda elektron jadvallarni tuzish uchun **Microsoft** Exel dasturiy ta’minotdan foydalanildi.

Tadqiqot natijasi. 1-jadvlada broyler jo‘jalari uchun to‘liq ratsionli omixta yem retseptlari keltirilgan.

1-jadval ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, broyler jo‘jalari uchun to‘liq ratsionli omixta yem retseptlarini tuzush uchun xo‘jalikda mavjud bo‘lgan quyidagi ozuqalardan foydalanilgan: makkajo‘xori va bug‘doy doni, soya va kungaboqar shroti, o‘simlik yog‘i baliq uni.

Omixta yemning mineralli to‘yimliligini oshirish uchun monokalsiy fosfat minerall qo‘shiimchasidan foydalanildi, bunda uning tarkibida umumiy fosfor miqdori – 21-23%, o‘zlashtiriladigan fosfor – 19-21%, kalsiy – 15-18%, namligi 4% gacha bo‘lganligini hisobga olib retseptdan foydalanildi.

Ratsionning proteinli to‘yimliligini oshirish uchun DL-Metionindan foydalanildi. Bu ratsionni oltingugurt saqlaydigan aminokislotalar bilan balanslashtirish uchun foylalaniladigan sintetik muhim aminokislota bo‘lib. Uning kimyoviy formulasi quyidagicha bo‘lib - $C_5H_{11}NO_2S$, ushbu moddaning 99% ni faol holda saqlaydi.

Bundan tashqari yem tarkibiga L-lizin kiritilgan, bu muhim aminokislota bo‘lib, uning kimyoviy formulasi quyidagicha bo‘lib - $C_6H_{14}N_2O_2$, ushbu moddaning 80% ni faol holda saqlaydi.

Omixta yem retseptlarini tuzushda broyler jo‘-

2-jadval.

Broyler jo‘jalar uchun tuzilgan omixta yem retseptlari tahlili

№	Ko‘rsatkichlar	Omixta yem turi					
		Start		Rost		Finish	
		Me’yor	Bor	Me’yor	Bor	Me’yor	Bor
1	MDj	1,20-1,25	1,25	1,25-1,30	1,35	1,35-1,34	1,37
2	kkal	290-300	298	300-310	322	310-320	329
3	Xom protein,%	21,5-23,0	23,0	19-20,5	21,0	17,5-19,0	18,21
4	Xom yog‘, %	4,5-5,0	4,8	5-6,5	5,0	6-7,5	6,0
5	Xom kletchatka, (ko‘pi bilan),%	4,0	3,6	4,5	3,2	5	3,3
6	Ca, %	0,95-1,0	0,70	0,8-0,9	0,8	0,75-0,85	0,74
7	P, %	0,65-0,70	0,86	0,6-0,65	0,8	0,55-0,6	0,87
8	Na, %	0,16-0,18	0,16	0,16-0,17	0,18	0,15-0,17	0,19
9	Lizun	1,2-1,3	1,38	1,05-1,15	1,55	0,9-1,0	1,28
10	Metionin+Sistin, %	0,9-0,95	0,82	0,75-0,85	0,72	0,70-0,75	0,73

jalarning natriyga bo‘lgan talabini qondirish uchun 0,1% miqdorda kiritib borildi. Bundan tashqari yem tarkibini vitamin va boshqa turdagi mikroelementlar bilan boyitish uchun premiks kiritilgan.

2-jadvalda tuzilgan omixta yem retseptlari tahlil qilindi.

2-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, omixta yemlar tarkibida, jo‘jalarning yoshi ortishi bilan almashinuv energiyaning pasayishi, ya’ni “Start” – 1,25 MDj yoki 298 kkal, “Rost” – 1,35 yoki 322 kkal va “Finish” – 1,37 yoki 329 kkal ga teng. Bu ketma-ketlikda yem tarkibidagi xom protein miqdori pasayish dinamikasini kuzatish mumkin, ya’ni – 23,0%, 21,0% va 18,21%, hamda xom yog‘ miqdorining oshishini, ya’ni 4,8%, 5,0% va 6,0% kuzatish mumkin.

Bunday tartibda omixta yem tuzishning ilmiy asosi quyidagicha izohlanadi. Jo‘jalar uchun fazali oziqlantirish tizimida metabolizmga uchraydigan energiya, xom protein va yog‘ darajasidagi o‘zgarishlar yoshga bog‘liqdir. Boshlang‘ich davrda jo‘jalarda yuqori darajadagi oqsil sintezi organlar va mushak to‘qimalarining jadal rivojlanishi bilan xarakterlanadi, bu esa oqsil va aminokislotalarning ta‘minotini talab qiladi. Jo‘jalar o‘sib borishi bilan oqsil sintezining nisbiy tezligi pasayadi, vazn ortishida yog‘ to‘qimalarining ulushi oshadi va modda almashinuvi uchun energiya talabi ortadi. Shuning uchun, ozuqadagi metabolizmga uchraydigan energiya konsentratsiyasi nisbiy ozuqa iste’molining kamayishini qoplash va yuqori o‘rtacha kunlik o‘sish va samarali konversiyani ta‘minlash uchun asta-sekin oshiriladi.

Yakuniy davrga yaqin proteinning pasayishi fiziologik jihatdan sababi shundaki, ortiqcha oqsil o‘sish uchun ishlatilmaydi va uni o‘zlashtirish uchun qo‘shimcha energiya sarfini oshiradi.

Tadqiqotda tuzilgan omixta yem tarkibidagi boshqa ko‘rsatkichlar deyarli talab darajasida tuzilgan va jo‘jalarning o‘sish va rivojlanishini ta’minlaydigan ilmiy asosga ega bo‘lib, keyingi tadqiqotlarimizda ularni parranda go‘shtini yetishtirishda ishlab-chiqarish tajribalarida sinash rejalashtirilgan.

Xulosa. O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida broyler jo‘jalari uchun oziqlantirish bosqichlari

(start, o‘sish, finish) bo‘yicha energiya va aminokislota muvozanati talablariga javob beradigan to‘liq ratsionli omixta yemlar ishlab chiqildi. Almashinuv energiyasini bosqichma-bosqich oshirish va xom protein miqdorini aminokislotalar muvozanatini saqlagan holda kamaytirish fiziologik jihatdan asosli ekanligi hamda to‘yimli moddalardan samarali foydalanishga xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslandi. Yog‘ miqdorining ilmiy asoslangan o‘zgarishi yemning energiya zichligini oshirish va ozuqa konversiyasini yaxshilash imkonini beradi. Ishlab chiqilgan retsepturalar broylerlarning intensiv o‘sishini ta’minlash, mahsuldorlikni oshirish va yem resurslaridan oqilona foydalanishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Aviagen. *Ross 308 Broiler Nutrition Specifications*. — Huntsville, AL, USA: Aviagen Group, 2022. — 12 p.

2. Cobb-Vantress. *Cobb Broiler Performance & Nutrition Supplement Guide*. — Siloam Springs, AR, USA: Cobb-Vantress Inc., 2021. — 40 p.

3. National Research Council. (1994). *Nutrient requirements of poultry* (9th rev. ed.). Washington, DC: National Academy Press.

4. Yaxyayev B., Haydarov B. Hayvonlarni oziqlantirish fanidan amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari. O‘quv qo‘llanma. “Ta’lim texnologiyalari”. Toshkent. 2019 yil. 321-322 b.

5. Калашников А.П. и др. Нормы и рационы кормления сельскохозяйственных животных. М. Агропромиздат, 1985, -351 с.



UO‘K: 636.2.034

TURLI SELEKSIYAGA MANSUB IKKINCHI LAKTATSIYADAGI SIGIRLARNING SUT MAHSULDORLIGI

M.T.Axtamova, *assistent, q.x.f.f.d. (PhD),*
O‘.M.Juraev, *talaba,*
SamDVMCHBU

Аннотация: *Из каждой группы гольштинской породы коров Германкой и Польской селекции, выращиваемых на ферме «Чорва Сут Сервис» в Самаркандском районе, было отобрано по десять голов второй лактации. Изучалась молочная продуктивность в период лактации.*

Annotation: *Ten second-lactation cows were selected from each group of German and Polish cows raised at the Chorva Sut Service farm in the Samarkand district. Milk production during lactation was studied.*

Kalit so‘zlar: *laktatsiya, seleksiya, Golshtin zoti, miqdor hamda sifat ko‘rsatgichlar.*

Mavzuning dolzarbligi: Qoramol zotlari sut mahsuloti bo‘yicha bir biridan farq qiladi. Sersut va seryog‘ sut beruvchi zotlar mavjud bo‘lib, sersut qoramol zotlariga golshtin zoti kirib bugungi kunda yer yuzidagi barcha qit’alarda urchitilib kelinmoqda. Ilmiy tadqiqotlar natijasi hamda tibbiyot nuqtai nazaridan, sutning tarkibidagi biologik aktiv moddalar: fermentlar, gormonlar, pigmentlar, vitaminlar modda almashinish jarayonida muhim rol o‘ynaydi.

Ko‘pgina mualliflarning hamda adabiyot ma’lumotlaridan shu bilish mumkinki, yelinda sut hosil bo‘lishi va ajralishi murakkab jarayon bo‘lib oliy nerv sistemasi va garmonlar tomonidan boshqariladi. Sog‘im miqdoriga juda ko‘p fiziologik omillar ta’sir qilib, u laktatsiya boshida ma’lum davrgacha ko‘payib borib so‘ngra asta-sekin pasayib boradi. Laktatsiya davomida sutning tarkibi ham o‘zgarib boradi. Laktatsiya boshida sutdagi quruq moddalar, yog‘ va oqsil miqdori kam bo‘lib, uning oxirgi davrlarida bu moddalar miqdori ko‘payib boradi [2. 75-78; 1. 56-60; 3. 210-228].

Tadqiqotning maqsadi: “Chorva sut servis” fermer xo‘jaligida urchitilib kelinayotgan golshtin zotli har xil seleksiyaga mansub ikkinchi laktatsiyadagi sigirlarning sut mahsuldorligini o‘rganish asosida ushbu xo‘jalikda kelgusida qaysi seleksiyaga mansub golshtin zotli sigirlarni sut ishlab chiqarishni oshirish maqsadida ko‘paytirish tavsiyasi beriladi.

Tadqiqot obekti va usullari: Samarqand tumani, “Chorva sut servis” fermer xo‘jaligida urchitilib kelinayotgan Germaniya va Polsha seleksiyasiga mansub ikkinchi laktatsiyadagi sog‘in sigirlardanh ar bir guruhdan 10 boshdan ajratilib. Laktatsiya davomidagi sut mahsuldorligi o‘rganiladi.

Sut mahsulotini hisobga olishda nazorat sog‘imi usuli qo‘llaniladi bunda har 10 kunda bir marta nazorat sog‘imlari o‘tkazilib, maxsus jurnalga yoziladi va sog‘im miqdori 10 ga ko‘paytirilib, 10 kunlik sut miqdori aniqlanadi. Bu sog‘imlarni qo‘shish natijasida sigirlarning oylik va yillik sut miqdori topiladi.

Tadqiqot natijalari va tahlili: Chorvachilik sohasida qishloq xo‘jalik hayvonlarini ularning ma’lum bir vaqt ichida bergan mahsulotini o‘lchash va hisoblash yordamida baholanadi. Bunda mahsulotlarning miqdori va sifati hamda iqtisodiy ko‘rsatkichlari hisobga olinadi.

Biz o‘z bitiruv malakaviy ishimizda “Chorva sut servis” fermer xo‘jaligidagi turli seleksiyaga mansub ikkinchi laktatsiyadagi sigirlarning sut

1-jadval.

Tajribadagi sigirlarning 305 kunlik laktatsiyadagi sut mahsuldorligi, (n=10)

Ko‘rsatkichlar	Guruhlar	
	Germaniya seleksiyasi	Polsha seleksiyasi
	$\bar{X}\pm S\bar{x}$	$\bar{X}\pm S\bar{x}$
Sut sog‘imi, kg	5426,2 ± 164,0	5302,1 ± 170,1*
Sutning yog‘liligi, %	3,81 ± 0,12	3,74 ± 0,16
Sut tarkibidagi oqsil, %	3,40 ± 0,05	3,35 ± 0,04
4% li sut, kg	5271,5 ± 78,1	5095,3 ± 90,3*
Sut yog‘ining chiqimi, kg	206,7 ± 6,9	198,3 ± 6,1
Sut oqsilining chiqimi, kg	184,5 ± 5,6	177,6 ± 5,2

Izoh: *P<0,05

mahsuldorligini o‘rgandik va natijalarini quyidagi 1-jadvalda keltirdik.

Jadvalda tajribaga olingan ikkinchi laktatsiyadagi sigirlarning laktatsiya davomida bergan sut sog‘im miqdori, sutdagi yog‘, oqsil, sut yog‘ chiqimi, ishlab chiqarilgan sutning 4% sut miqdori berilgan bo‘lib, Germaniya seleksiyasiga mansub ikkinchi laktatsiyadagi sigirlarning 305-kun davomida sog‘ib olingan umumiy sut miqdori 5426,2 kg ni tashkil qilib Polsha seleksiyasiga mansub ikkinchi laktatsiyadagi sigirlarga nisbatan 124,1 kg ga yuqori sut berganligini ko‘rsatib bu 2,3% ni tashkil qiladi. Sut tarkibidagi yog‘ sutning asosiy sifat ko‘rsatkichlaridan hisoblanib bu ko‘rsatkich Germaniya seleksiyasiga mansub ikkinchi laktatsiyadagi sigirlarda o‘rtacha 3,81% ni tashkil qilib, ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha ham o‘z tengqurlariga nisbatan 0,07 % ga yuqori ekanligi qayd etildi. Shuningdek, sut tarkibidagi oqsil ko‘rsatkichi ham Polsha seleksiyasiga mansub ikkinchi laktatsiyadagi tengurlariga nisbatan tegishlicha 0,05 % ga yuqori ekanligi kuzatildi. Har bir sog‘in sigirlarning laktatsiya davomida bergan sut miqdori har xil bo‘lib, ularning tarkibidagi yog‘ miqdori ham turlicha bo‘ladi, shuningdek sut tarkibidagi oqsil miqdori ham. Ammo guruhlardagi sigirlarning o‘zaro miqdor ko‘rsatkichlarini baholayotganda sutining sifatini ham inobatga olish muhim hisoblanib, ishlab chiqarilgan sutni o‘zaro solishtirish uchun zootexniyada umumqabul qilingan sut tarkibidagi yog‘ni 4% li sutga aylantirib taqqoslash birmuncha to‘g‘ri hisoblanadi. Shu sababli biz ham olingan raqamiy ma’lumotlarni 4% li sut miqdoriga aylantirganimizda Germaniya seleksiyasiga mansub ikkinchi laktatsiyadagi sigirlarda bu ko‘rsatkich 5271,5 kg ni tashkil etdi. Polsha seleksiyasiga mansub sigirlarda esa bu ko‘rsatkich 5095,3 kg ni tashkil qildi.

Tegishlicha farq 176,2 kg yoki 3,5% ga ega bo‘ldi. Har bir bosh sog‘in sigirlardan laktatsiya davomida sog‘ib olingan sut miqdori muhim hisoblanishi bilan birga uning tarqibidagi yog‘ miqdori xo‘jalikning iqtisodiy samaradorligiga ta’sir qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Sababi qachonki sigirlardan ko‘p miqdorda sut sog‘ib olinishi bilan birga yog‘ miqdori foizi ham yuqori bo‘lsa, olinadigan sof yog‘ chiqimi shuncha ko‘p bo‘ladi. Bizning tadqiqotimiz natijasi ham shuni ko‘rsatadiki, Germaniya seleksiyasiga mansub ikkinchi laktatsiyadagi sog‘in sigirlardan olingan

2-jadval.

Tajribadagi sigirlarning sutdorlik koeffitsiyentlari, ($\bar{X}$±S$\bar{x}$)

Ko‘rsatkichlar	Guruhlar	
	Germaniya seleksiyasi	Polsha seleksiyasi
Sigirlar tirik vazni, kg	551,2±3,34	540,4±4,10
Laktatsiyadagi sog‘im, kg	5426,2 ± 164,0	5302,1 ± 170,1
Sutdorlik koeffitsiyyenti	984,4	981,1

sutning tarkibidagi yog‘ foiz miqdori ko‘p bo‘lganligi uchun sof yog‘ chiqimi ham o‘z tengqurlariga nisbatan tegishlicha 8,4 kg ga ko‘p sof yog‘ olish imkonini berdi.

Hayvonning genetik imkoniyati hamda fiziologik va biologik xususiyatidan kelib chiqib, har bir mahsuldorlik yo‘nalishidagi hayvonlar ishlab chiqarayotgan mahsulotini baholash kerakliligini ko‘pgina soha olimlari va mutaxassislari o‘z bergan ma’lumotlarida qayt etishgan. Jumladan, sut yo‘nalishidagi qoramolchilikda ham sutdorlik koeffitsiyentini aniqlash, ya’ni 100 kg tirik vaznga ishlab chiqarilgan sut miqdorini bilish, ushbu sigirlarning shu yo‘nalishga mosligidan dalolat berishini faraz qilish mumkin. Shundan kelib chiqib biz ham o‘z bitiruv malakaviy ishimizda yuqorida olingan ma’lumotlar asosida solishtirilayotgan turli seleksiyaga mansub sigirlarning sutdorlik koeffitsiyenti ko‘rsatkichlarini quyidagi 2-jadvalda keltirdik.

Germaniya seleksiyasiga mansub ikkinchi laktatsiyadagi sog‘in sigirlarning sutdorlik koeffitsiyenti Polsha seleksiyasiga mansub ushbu laktatsiyadagi sog‘in sigirlarga nisbatan tegishlicha 3,3 kg yuqoriligi qayd etildi.

Xulosa. Germaniya va Polsha seleksiyasiga mansub sigirlarni urchitishda “Chorva sut servis” fermer xo‘jaligida kelgusida mavjud sigirlar bosh sonidan kelib chiqib Germaniya seleksiyasiga mansub sigirlardan olingan urg‘ochi avlodlarni ko‘paytirish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Носиров У.Н. Қорамолчилик.Тошкент. 2001 56-63 бет.

2. Sobirov P.S, Kaharov A.K, Do‘stqulov S.D, Shaptakov E.S, Axtamova M.T. va boshqalar “Qishloq xo‘jalik hayvonlarini urchitish” darslik. Toshkent 2023. “Fan-ziyo” nashriyoti. 75-78 b.

3.Амиров Ш.К, Қурбанова Ш.Э, Гаппаров Ш.Т. Сутчилик иши. Амалий ва лаборотория машғулотлари учун. O‘quv qo‘llanma. Papirus-Samarqand, MCHJ nashriyoti. 2022. -228 b.

4.Плохинский Н,А. Руководство для биометрии для зоотехников. Москва.1969. 246-стр.



UDK: 636.088.5

QORAMOLLARNING SUT MAHSULDORLIGINI OSHIRISH OMILLARI

S.M.Buriqulov, Y.T.Omonov, *talabalar,*
M.K.Narbayeva, *dotsent,*
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
charvachilik va biotexnologiyalar unversiteti

Аннотация*. В данном исследовании коровы получали корм заранее в период лактации, то есть их кормили в большем количестве, чем обычно. Коровам, рожавшим впервые, давали предварительную подкормку в количестве 2-3 кормовых единиц. Эта мера позволит увеличить надои молока у коров в будущем. Продолжение предварительной подкормки определяется периодом, когда корова реагирует на это увеличением надоев.*

Summery*. In this study, cows were fed pre-lactation feed during lactation, meaning they were fed larger amounts than usual. Cows giving birth for the first time were given a pre-lactation supplement of 2-3 feed units. This measure will increase the cows' milk yield in the future. The continuation of pre-feeding is determined by the period when the cow responds with increased milk yield.*

Kalit so'zlar: *golshtin, iydirish, oziqlantirish, avans ozuqa, sut sog'imi.*

Krish. O'zbekiston Respublikasining turli toifadagi xo'jaliklarida chorvachilikning barcha turlari ya'ni asalarichilik, baliqchilik, quyonchilik, qo'y-echkichilik, parrandachilik, qoramolchilik, cho'chqachilik, mo'ynachilik, yilqichilik va tuyachilik barqaror rivojlanib kelmoqda. Shuni takidlash lozimki Respublikamizda chorvachilik tarmog'idan qoramolchilikni rivojlanishiga alohida e'tibor qaratib kelmoqda. Qoramolchilikni takomilashtirib, genofondini yanada boyitish maqsadida mamlakatimizga xorijiy davlatlardan import yo'li bilan golshtin, simmental, qozoqi oqbosh, aberdin-angus va boshqa zotlar olib kelinib muvaffaqiyatli ravishda urchitilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida bugungi kunda 14 mln boshdan oshiq qoramollar urchitilmoqda. Ularning asosiy qismini sut yo'nalishidagi va qo'sh mahsuldor zotlar hamda ularni o'zaro chatishtirish natijasida olingan turli genotipli duragay avlodlar tashkil qiladi.

Bugungi kunda Respublika bo'yicha 12,5 mln t. dan ortiq sut, 2,9 mln t. dan ortiq go'sht ishlab chiqarilayotgan bo'lsa, shundan 99 % sut va 70 % ga yaqini qoramol go'shtidir.

Chorvachilik sohasini yanada rivojlantirish maqsadida O'zbekiston respulikasi Prezidentining 2020 yil 29 yanvardagi PQ-4576-son "Chorvachilik tarmog'ini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2021 yil 3 martdagi PQ-5017-son "Chorvachilik tarmoqlarini davlat tomonidan yanada qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2022 yil 8 fevraldagi PQ-120-son "Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha 2022-2026 yillarga mo'ljallangan dasturi to'g'risida"gi qarorlari va mazkur faoliyatga tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda amaliy dastur bo'lib xizmat qilmoqda [1].

Respublikamizda muhim sut yo'nalishidagi rejali zotlar tarkibidagi qora-ola golshtin zotlari qatorida qizil-ola golshtin zotlari ham kiritilib ba'zi xo'jaliklarda urchitilib kelinmoqda.

Xo'jalikda hozirgi vaqtda respublikamizning barcha viloyatlarida o'zining yuqori mahsuldorligi va turli iqlim sharoitiga moslashuvchanligi bilan boshqa zotlardan ajralib turuvchi qora-ola, qizil-ola golshtin zotlari urchitib kelinmoqda.

Xo‘jalikda import qilingan golshtin zotli mollarning iqlimga moslashish, nasldorlik, shu bilan bir qatorda sut mahsuldorligini o‘rganish hamda ularning mahsuldorlik genetik potensialini ko‘tarish mavzuni dolzarbligini belgilaydi [2].

Olingan ma’lumotlarga ko‘ra golshtin zotli qoramolarning juda katta populyatsiyasi hozirgi vaqtda Germaniyada shakllantirilgan, ularning bosh soni 1,8 mln. boshdan ziyodroq bo‘lib, jami sutdor qoramollarning 53 foizini tashkil qiladi. Mamlakatda 305 kunlik laktatsiyada 13 – 15 ming kg sut beruvchi xo‘jaliklar mavjud bo‘lib, sigirlar butun hayoti davomidagi sut mahsuldorligi 175 tonnaga yetadi.

Isroilda golshtin zotli qoramollarning katta bosh soni mavjud bo‘lib, sigirlar soni qariyb 113 ming boshni, laktatsiyadagi sut sog‘imi 11706 kg ni, sutning yog‘liligi 3,7 % ni, oqsili – 3,24 % ni tashkil qiladi. AQShda bu ko‘rsatkichlar tegishlicha 845 ming bosh, 10951 kg; 3,66; 3,09 % ni, Kanadada 897 ming bosh, 9979 kg; 3,80 va 3,19 % ni tashkil qiladi [5].

O‘zbekistonga golshtin zotli qoramollar XX asrning ikkinchi yarmida keltirila boshlagan. Dastlab bu zotga mansub buqalarning chuqur muzlatilgan urug‘laridan mavjud qora – ola zotli sigirlarni urug‘lantirishda foydalanilgan. Keyinchalik golshtin zotli urg‘ochi tanalar, g‘unajinlar va naslli buqalar respublikamizga keltirildi. Bu qoramollar O‘zbekistonning keskin iqlim sharoitiga yaxshi moslashib, yuqori mahsuldorlik ko‘rsatkichlarini namoyon qiladi .

Material va metodlar: Ilmiy tadqiqot ishlari Surxondaryo viloyati Oltinsoy tumanidagi Mirshodilik Zaynilobiddin fermer xo‘jaligida olib borilgan. Ushbu fermer xo‘jaligi 2014-yilda tashkil etilgan bo‘lib, foydalaniladigan yer maydoni 80 gektarni tashkil etadi. Ushbu xo‘jalikda qor -ola va qizil-ola golshtin mollari urchitilib, sut ishlab chiqarishga moslashgan. Xo‘jalikda asosan qoramollarga beriladigan oziqalar xo‘jalik yerlarida yetishtiriladi.

Sigirlarni oziqlantirishda, ularning ratsioniga kuchli yem ozuqalarni to‘yimliligi bo‘yicha 20 % miqdorida oraliq ekinlardan tayyorlangan senaj va makkajo‘xorining mum pishish davrida tayyorlangan silosga almashtirish ijobiy natijalarni beradi. Bunda ratsion tarkibidagi xom protein, kalsiy, fosfor, kaliy, magniy, oltingugurt, mis, rux, marganes, kobalt kabi mineral moddalar, karotin, D va E vitaminlarning miqdori oshadi, natijada sigirlarning sut mahsuldorligi 8,5 – 11,4 % ga oshadi [3, 4].

Shularni e’tiborga olib tajriba uchun ajratilgan guruhdagi mollarni sut mahsuldorligini genetik imkoniyatini aniqlash maqsadida avans oziqa berish usulidan foydalanib tajribalar o‘tkazildi. Tajriba guruhlariga: qora-ola golshtin 10 bosh I- gurux, qizil-ola 10 bosh II-guruhga va nazorat guruhiga 10 bosh umimiy podadan 1- tug‘um sigirlar ajratildi.

Natijalar va ularning taxlili. Sigirlarning sut mahsuldorligiga uning genotipi bilan birgalikda paratipik omillardan bo‘lgan oziqlantirish va asrash sharoiti juda katta ta’sir ko‘rsatadi. Laktatsiyaning dastlabki haftasida yangi tuqqan sigirlarda ozuqa iste’molining kamayishi va organizmda laktatsiya dominantasi deb ataluvchi holat tufayli ko‘p miqdorda sut hosil bo‘ladi hamda organizm barcha imkoniyatlarini sut hosil qilishga safarbar etadi. Natijada, organizmga kiruvchi va sut orqali chiquvchi to‘yimli moddalar bo‘yicha manfiy muvozanat yoki to‘yimli moddalarning yetishmovchiligi yuz beradi va bu energiya tanqisligini sigir organizmdagi zahira moddalar hisobiga qoplaydi, oqibatda hayvon oriqlashi va tirik vaznining kamayishi kuzatiladi.

Bu holat sigirning sog‘lomligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, keyingi sut mahsuldorligining pasayishiga sabab bo‘ladi. Shuning uchun sersut sigirlar ratsionini laktatsiya davrida oson hazm bo‘luvchi, energiya, mineral moddalar va vitaminlarga boy bo‘lgan ozuqalar bilan boyitish sut mahsuldorligini yuqori darajada saqlab qolishda o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Sigirlarni sutmahsuldorligini genetik imkoni-

1-jadval.

Tajribadagi sigirlar avans oziqa miqdori

Oziqa turi	Guruhlar					
	I		II		III	
	O,b	%	O,b	%	O,b	%
Dag‘al oziqalar	2,6	19,76435	2,16	14,26684	3,04	18,63316
Shirali oziqalar	7,47	56,78449	8,02	52,97226	8,86	54,30585
Konsentrat oziqalar	3,085	23,45116	4,96	32,7609	4,415	27,06099
	13,155	100	15,14	100	16,315	100

yatini aniqlash uchun II va III tajriba guruhlariga umumiy ratsionga qo‘shimcha oziqa moddalari qo‘shilib oziqlantirildi. Berilgan avans oziqa miqdori quyidagi jadvalda berilgan.

Dag‘al oziqa miqdori I guruhda II va III guruhga nisbatan 0,44 g ga nisbatan kop, Shirali oziqa miqdori ham; guruhlarda mutanosib ravishda 0,55, va 1,39 kg ga, konsentrat oziqalar ham; 1,877 va 1,33 kg ko‘p oziqa berilgan. Tajribadagi sigirlar birinchi 90 kunlik sut sog‘imida o‘rtacha kunlik sog‘im birinchi guruh sigirlarida 16 kg ni, II -tajriba guruhidagi sigirlarning sut miqdori 20 kg ni, III-tajriba guruhidagi qizil-ola sigirlarining sut miqdori 22 kg ni tashkil qildi.

Xulosa. Birinchi tug‘umdagi podani to‘ldirishga mo‘ljallangan yosh qoramollarni o‘stirish, rivojlantirishni zootexnikaviy me’yorlar asosida tashkil etish iydirishning dastlabki elementi hisoblanadi.

Iydirish davrida sigirlarga avans tarzda ozuqa berildi ya’ni me’yordagidan ortiqroq ravishda oziqlantirildi. Birinchi marta tuqqan sigirlarga 2-3 oziqa birligida avans ozuqa berildi. Bu tadbir kelajakda sigirlarning sut mahsuldorligini oshishiga sabab bo‘ladi. Avans oziqa berishni davom ettirish, sigirni sut mahsuldorligi bilan javob berish davriga qarab belgilanadi.

Birinchi tug‘im sigirlaridan laktatsiya davrida to‘liq imkoniyatlaridan foydalanish uchun iydirish davrida avans berilganda sigirlardan olingan sut miqdorini umumiy podaning sut mahsuldorligiga nisbatan 5-6 kg ko‘p olinishiga imkoniyat yaratdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo‘yicha 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan dasturni tasdiqlash to‘g‘risida» gi PQ-120-sonli qarori. Toshkent. 08.02.2022 y.

2. Аширов М.И., Аширов Б.М., Юлдашев А.А. Разведение голштинского скота в Узбекистане. Т.:, Изд-во. «Навруз». – 2020. 272 с.

3. Jumadullayev B.X., Gulmatova N.A. Oziqlantirishda kam konsentrat tipli ozuqa ratsionidan foydalanish texnologiyasi. // Chorvachilik va naslchilik ishi. – Toshkent. – 2022. № 6 (28)

4. Витковская В.П. Новые подходи в отечественном кормопроизводстве и их влияние на продуктивность крупного рогатого скота. Вестник крос. № 11, 2023. – С. 198-204.

5. Титоренко К. Немецкий генофонд помогает развивать молочное скотоводство в других странах. Портал «Volga news». – 2021. https://vninform.ru.

UDK: 619:37.013:001.891

VETERINARIYA FANINING PEDAGOGIK VA FANLARARO INTEGRATSIYASI: NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLAR

Narziyeva Nargiza Norkuziyevna, *kafedrasi mudiri, PhD, dotsent, SamDVMChBU*

Аннотация. *В статье рассматриваются педагогические и междисциплинарные аспекты интеграции ветеринарной науки. Обоснована роль интеграции в формировании профессиональных компетенций будущих ветеринарных специалистов.*

Abstract. *This article explores the pedagogical and interdisciplinary integration of veterinary science. It highlights the role of integration in developing professional competencies of future veterinary specialists. The study is based on the ideas of national and international scholars and emphasizes modern educational approaches.*

Kalit so‘zlar: *veterinariya, pedagogika, integratsiya, kompetensiya, ta’lim texnologiyalari, interdisciplinar yondashuv.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida fanlararo integratsiya muhim didaktik prinsip sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, kasbiy ta’lim yo‘nalishlarida, jumladan veterinariya sohasida, bilimlarning turli fanlar kesimida uyg‘unlashuvi mutaxassis tayyorlash sifatini oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek, ta’lim tizimini modernizatsiya qilishda innovatsion yondashuvlar va integratsion mexanizmlar muhim ahamiyatga ega [1]. Shu nuqtai nazardan veterinariya fanini pedagogika bilan integratsiyalash dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

Zamonaviy ta’lim tizimida integratsiya tushunchasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, kasbiy yo‘nalishlarda, jumladan veterinariya ta’limida, bilimlarni fragmentar tarzda emas, balki o‘zaro uzviy bog‘langan holda o‘qitish zarurati tobora ortib bormoqda. Chunki veterinariya mutaxassisi faqat nazariy bilimlar bilan cheklanib qolmasdan, murakkab amaliy vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qila oladigan, tizimli fikrlaydigan va kasbiy kompetensiyalarga ega bo‘lgan shaxs sifatida shakllanishi lozim.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi: pedagogik tahlil, tizimli yondashuv, ilmiy manbalarni qiyosiy o‘rganish, kontent-tahlil. Mazkur metodlar asosida veterinariya ta’limining integratsion modeli ishlab chiqildi.

Asosiy qism. Pedagogika fanida integratsiya tushunchasi o‘quv materiallarini tizimli ravishda birlashtirish va o‘zaro bog‘lash jarayoni sifatida talqin qilinadi.

Pedagog olim M.G. Davletshin fikriga ko‘ra, ta’lim jarayonida bilimlarning uzviyligi va tizimliligi o‘quvchilarda mustahkam kompetensiyalarni shakllantirishning asosiy omilidir [2].

Shuningdek, E.G‘. G‘oziev ta’kidlaydiki, fanlararo bog‘liqlik o‘quvchilarda tafakkurning kengayishiga va ijodiy fikrlashning rivojlanishiga xizmat qiladi [3].

Demak, veterinariya ta’limida integratsiya bilimlarni tizimlashtiradi, nazariya va amaliyotni uyg‘unlashtiradi, kasbiy kompetensiyalarni rivojlantiradi.

Ushbu uch komponent o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, ular yagona pedagogik tizimni tashkil etadi.

Zamonaviy pedagogikada kompetensiyaviy yondashuv asosiy o‘rin egallaydi. Veterinariya talabalarida quyidagi kompetensiyalar shakllanishi zarur:

- diagnostik kompetensiya
- klinik tafakkur
- ekologik mas’uliyat

• kommunikativ ko‘nikmalar

Xorijiy olim J. Biggs konstruktiv muvofiqlik (constructive alignment) nazariyasida ta’lim natijalari, metodlari va baholash mezonlari o‘zaro uyg‘un bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydi [4]. Bu yondashuv veterinariya ta’limida ham muhim ahamiyatga ega.

Veterinariya fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ta’lim samaradorligini oshiradi.

Masalan:

• muammoli o‘qitish (problem-based learning)

• loyihaviy o‘qitish (project-based learning)

• interfaol metodlar

Amerikalik pedagog olim D. Kolbning tajribaviy o‘qitish nazariyasiga ko‘ra, bilimlar amaliy tajriba orqali samarali o‘zlashtiriladi [5]. Bu veterinariya amaliyotiga to‘liq mos keladi.

Veterinariya ta’limida bilimlarni tizimlashtirish integratsiyaning boshlang‘ich va eng muhim bosqichidir. Tizimlashtirish – bu turli fanlardan olingan bilimlarni mantiqiy izchillikda birlashtirish va yagona tizimga keltirish jarayonidir.

An’anaviy ta’limda ko‘pincha fanlar alohida-alohida o‘qitiladi, natijada talaba bilimlarni bo‘lak-bo‘lak tarzda qabul qiladi. Bu esa ularni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llashni qiyinlashtiradi. Veterinariya ta’limida esa aksincha, biologiya, anatomiya, fiziologiya, farmakologiya va klinik fanlar o‘zaro uzviy bog‘langan holda o‘qitilishi zarur.

Masalan, hayvon organizmidagi kasallikni tushunish uchun talaba anatomiya orqali organ tuzilishini, fiziologiya orqali uning funksiyasini, patologiya orqali buzilish sabablarini, farmakologiya orqali davolash usullarini va bir butun tizim sifatida anglab yetishi lozim.

Demak, bilimlarni tizimlashtirish:

• bilimlar o‘rtasida mantiqiy bog‘liqlikni shakllantiradi

• tafakkurning tizimliligini rivojlantiradi

• o‘quv materialining chuqur o‘zlashtirilishini ta’minlaydi

Shu sababli integratsiyalashgan ta’lim modeli veterinariya yo‘nalishida samarali natijalar beradi.

Veterinariya ta’limining o‘ziga xos jihati shundaki, u nazariy bilimlar bilan bir qatorda kuchli amaliy tayyorgarlikni ham talab etadi. Shu bois nazariya va amaliyotning uyg‘unligi integratsiyaning markaziy elementi hisoblanadi.

Nazariya - bu ilmiy asoslangan bilimlar tizimi bo‘lsa, amaliyot - bu bilimlarning real vaziyatlarda qo‘llanishidir. Agar talaba faqat nazariy bilimga ega bo‘lsa, u amaliy muammolarni hal qila olmaydi. Aksincha, nazariy asos bo‘lmasa, amaliy faoliyat samarasiz bo‘ladi.

Masalan, hayvonda yuqumli kasallik aniqlangan holatda talaba kasallik etiologiyasini nazariy jihatdan tushunishi, laborator tahlillarni o‘tkazishi, klinik belgilarni tahlil qilishi, to‘g‘ri davolash rejasini ishlab chiqishi kerak bo‘ladi. Bu jarayon nazariya va amaliyotning uzviy bog‘liqligini talab qiladi.

Integratsiya bu yerda quyidagi natijalarni beradi: bilimlar amaliy ko‘nikmaga aylanadi, o‘quv jarayoni real hayotga yaqinlashadi, mustaqil fikrlash rivojlanadi. Shu bilan birga, zamonaviy pedagogik texnologiyalar (muammoli o‘qitish, klinik holatlar tahlili, simulyatsiyalar) nazariya va amaliyot integratsiyasini yanada kuchaytiradi.

Veterinariya ta’limida integratsiyaning eng muhim natijasi bu – kasbiy kompetensiyalarning shakllanishidir. Kompetensiya – bu bilim, ko‘nikma va malakalarning integratsiyalashgan holda amaliy faoliyatda qo‘llanilishidir.

Integratsiyalashgan ta’lim orqali talabalarda quyidagi kompetensiyalar rivojlanadi:

1. Diagnostik kompetensiya. Bunda talaba kasalliklarni aniqlash, sabablarini tahlil qilish va to‘g‘ri xulosa chiqarish qobiliyatiga ega bo‘ladi.

2. Klinik fikrlash. Bu kompetensiya turli fanlardan olingan bilimlarni birlashtirib, murakkab vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish shakllanadi.

3. Amaliy ko‘nikmalar. Bunda davolash, profilaktika va veterinariya xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha aniq malakalar rivojlanadi.

4. Kommunikativ kompetensiyada mijozlar, hamkasblar va boshqa mutaxassislar bilan samarali muloqot qilish qobiliyati shakllanadi.

5. Ekologik va ijtimoiy mas'uliyat. Bunda talabada hayvonlar sog'ligi orqali inson salomatligi va ekologik muvozanatni saqlash tushunchasi rivojlanadi.

Shu jihatdan qaraganda, integratsiya – bu faqat bilimlarni birlashtirish emas, balki shaxsni har tomonlama rivojlantirish vositasidir.

Veterinariya ta'limida integratsiyani quyidagi uzviy bog'liq tizim sifatida ko'rish mumkin:

Bilimlarni tizimlashtirish → Nazariya va amaliyot uyg'unligi → Kasbiy kompetensiyalar.

Bu model quyidagicha ishlaydi:

1. Avval bilimlar tizimlashtiriladi
2. So'ng ular amaliyot bilan bog'lanadi
3. Natijada kompetensiyalar shakllanadi

Agar ushbu zanjirning bir bo'g'ini uzilsa, ta'lim samaradorligi pasayadi. Masalan:

- tizimlashtirilmagan bilim → yuzaki tushuncha
- amaliyotsiz nazariya → foydasiz bilim
- integratsiyasiz ta'lim → past kompetensiya

Shu sababli integratsiya uzluksiz va kompleks tarzda amalga oshirilishi zarur.

Veterinariya ta'limida integratsiyani kuchaytirish uchun quyidagi yo'nalishlar muhim: fanlararo o'quv dasturlarini ishlab chiqish, amaliy mashg'ulotlar ulushini oshirish, klinik holatlar asosida o'qitish, raqamli texnologiyalardan foydalanish, mustaqil ta'limni rivojlantirish. Bundan tashqari, o'qituvchilarning ham integratsion yondashuv asosida ishlashi muhim ahamiyatga ega.

Veterinariya ta'limida integratsiya – bu zamonaviy ta'limning ajralmas qismi bo'lib, u bilimlarni tizimlashtirish, nazariya va amaliyotni uyg'unlashtirish hamda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish orqali amalga oshadi.

Mazkur jarayon o'zaro bog'liq tizim sifatida qaralib, har bir komponent boshqasini to'ldiradi. Natijada yuqori malakali, zamonaviy fikrlovchi va amaliyotga tayyor veterinariya mutaxassisi shakllanadi.

Kelgusida veterinariya ta'limida integratsiyani chuqurlashtirish orqali ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish mumkin.

Veterinariya fanining biologiya, tibbiyot va ekologiya bilan integratsiyasi nafaqat ilmiy, balki pedagogik jihatdan ham muhimdir.

Masalan:

- biologiya → asosiy nazariy bilimlar
- tibbiyot → klinik yondashuv
- ekologiya → tizimli fikrlash

Bu integratsiya talabalarni real hayotiy vaziyatlarga tayyorlaydi.

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi ta'lim jarayoniga yangi imkoniyatlar yaratdi. Hozirda veterinariya ta'limida virtual laboratoriyalar, simulyatsion dasturlar, onlayn diagnostika platformalari keng qo'llanilmoqda.

YUNESKO ekspertlari ta'kidlaganidek, raqamli pedagogika ta'lim sifatini oshirishning muhim omilidir [6].

Tadqiqot asosida veterinariya ta'limi uchun quyidagi integratsion model taklif etiladi:

Nazariya + Amaliyot + Texnologiya + Pedagogika = Kompetent mutaxassis

Bu model:

- fanlararo aloqani mustahkamlaydi
- kasbiy tayyorgarlikni oshiradi
- innovatsion fikrlashni rivojlantiradi

Natijalar va muhokama. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, integratsiyalashgan ta'lim modeli veterinariya mutaxassislarini tayyorlash sifatini oshiradi, pedagogik texnologiyalarni qo'llash o'quv jarayonini faollashtiradi hamda fanlararo yondashuv ilmiy tafakkurni rivojlantiradi.

Xulosa. Veterinariya fanining pedagogika va boshqa fanlar bilan integratsiyasi zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Ushbu integratsiya orqali nafaqat bilimlar chuqurlashadi, balki amaliy ko'nikmalar va kasbiy kompetensiyalar ham rivojlanadi. Kelgusida veterinariya

ta’limida innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish va integratsion yondashuvni takomillashtirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent, 2022.

2. Davletshin M.G. Umumiy psixologiya. – Toshkent, 2010.

3. G‘oziev E.G‘. Psixologiya. – Toshkent, 2005.

4. Biggs J. Teaching for Quality Learning at University. – Open University Press, 2011.

5. Kolb D.A. Experiential Learning. – Prentice Hall, 1984.

6. UNESCO. Digital Education Transformation. – Paris, 2021.

7. Gibbs E.P.J. The evolution of One Health. – Veterinary Record, 2014.

8. OIE. Global Animal Health Strategy. – Paris, 2021.



UDK: 619:636.2:618.14-002:616

SIGIRLARDA KATARAL-YIRINGLI ENDOMETRITLARNI SABABLARI VA KECHISHI (adabiyotlar tahlili)

Eshburiyev Baxtiyar Mamatqulovic, *v.f.d., professor, ilmiy rabar,*
Nazarov Aminjon Bektosh o‘g‘li, *tayanch doktorant,*
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

Аннотация. *В данной статье представлено анализ литературных источников о видах, причинах и течение катарально-гинойного эндометрита у животных, в частности у коров.*

Annotation: *This article presents an analysis of literary sources regarding the types, causes, and course of catarrhal-purulent endometritis, which is commonly found in farm animals, especially cows.*

Kalit so‘zlar*: Endometrit, yallig‘lanish, o‘tkir, surunkali, suyuqlik, reproduktiv, gemmorragik, kataral, bachadonni vaginal va rektal tekshiruvi.*

Kirish. Davlatimiz Prezidenti tomonidan berilayotgan imtiyozlar va ko‘rsatilayotgan amaliy yordam tufayli chorva mollarining soni jadal ko‘payayotgan bo‘lsada, mahsuldorlik ko‘rsatkichlari pastligicha qolmoqda. Bu borada aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish orqali sog‘lom va mahsuldor qoramollar podasini xo‘jalikning o‘zida yaratish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Chorvachilik jadal rivojlanayotgan qoramolchilik fermer xo‘jaliklari sharoitida parvarishlanayotgan yuqori mahsuldor sigirlardan nasilli avlod olishni ko‘paytirish, nasilli chorva podasi sonini o‘stirish, aholining chorvachilik mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondirish respublikamizning chorvachilik bilan shug‘ullanuvchi fermer xo‘jaliklarining o‘z oldiga qo‘ygan ulkan maqsadlaridan biridir.

Yurtimizda aholi sonining yil sayin jadal o‘sib borayotganligi chorvachilik mahsulotlari: go‘sht va go‘sht mahsulotlari, sut va sut mahsulotlariga bo‘lgan talabning keskin oshishiga sabab bo‘lmoqda. Bu muammolarni hal etisgga reproduktiv yoshdahi hayvonlarning akusher-ginekologik kasalliklari katta to’sqinliklardan biri hisoblanadi.

Bu borada veterinariya fani va amaliyoti oldiga shaxsiy yordamchi va dehqon-fermer xo‘jaliklariga qarashli chorva mollarining akusher-ginekologik kasalliklariga qarshi kurashish va davolashning hamda hayvonlar mahsuldorligi va reproduktiv xususiyatlarini yaxshilashning samarali va kamchiqim usullarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish orqali mahsulotlar tannarxini kamaytirishga erishishdek dolzarb vazifalar qo‘yiladi.

Endometrit - bachadon shilliq qavatining yallig‘lanishidir. Endometrit kechishiga qarab: o‘tkir, yarim o‘tkir va surunkali shaklga, namoyon bo‘lishiga qarab esa yaqqol klinik belgiga ega va yashirin ko‘rinishda bo‘ladi. O‘tkir endometrit yallig‘lanish shakliga qarab, kataral, yiringli, yiringli-kataral, fibrinozli, nekrotik va gangrenozli bo‘ladi [1].

Yallig‘lanish natijasida jinsiy hujayralar nobud bo‘ladi yoki murtak fagotsitozga uchraydi. O‘tkir endometrit giperemiya va bachadon shilliq pardasining shishi bilan kechadi. Giperemiyaning zo‘rayishi bilan tomirlarning ekstravazatsiyasi, ya’ni qon zardobi va hatto, shaklli elementlarining tomirlar devori orqali bachadon hujayralari orasidagi bo‘shliqqa sizib chiqishi kuzatiladi [2].

O‘tkir endometritda sigirlar jinsiy a’zosidan qonli va nekrotik suyuqliklarni oqib chqishi kuzatilib, o’z vaqtida davolash muolajalari o’tkazilma-

ganda surunkali endometritga aylanadi. Surunkali endometrit, odatda, o‘tkir endometrit oqibatida kelib chiqadi va endoteliyning kuchli o‘zgarishi hamda bachadon bezlarining kuchli sekresiyasi bilan kechadi [2].

Surunkali endometritlarda, ba’zan bachadon bo‘ynining juda shishib ketishi tufayli ekssudat bachadon bo‘shlig‘ida to‘planib qoladi. Ekssudat suvga o‘xshagan suyuq bo‘lsa (kataral ekssudat) bachadon istisqosi (Hydrometria) deb ataladi. Bachadonda ko‘p miqdorda yiringli ekssudat to‘planganda piometra (Piometria) vujudga keladi [2].

Surunkali kataral endrometrit paytida bachadon shilliq pardasi chuqur o‘zgarishlarga uchraydi. Shilliq parda yumshoqlashib, qalinlashadi, unda biriktiruvchi to‘qima o‘sadi, shilliq parda yuzasida esa eroziyalar paydo bo‘ladi, ba’zi joylarda bachadon bezlaridan tovuq tuxumidek keladigan kistalar vujudga keladi [2].

Odatda kasal hayvonning holati deyarli o‘zgarmaydi. Ba’zan kuchsiz isitma, ishtahani pasayishi, sut berishni kamayishi kuzatiladi. Tashqi jinsiy yo‘llardan zardobli yoki zardobli-yiringli ekssudat ajraladi. Odatda sigir yotgan joyning poliga ekssudat oqqanligi ertalab aniqlanadi. Hayvon tez-tez siydik ajratish pozasini qabul qilib, belini bukchaytirib turadi. Qin dahlizi va qinda patologik o‘zgarishlar kuzatilmaydi. Bachadon bo‘yinchasi yarim ochiq holatda bo‘ladi, to‘g‘ri ichak orqali tekshirish bilan bachadon shoxlaridan birining yoki ikkala shoxni ham kattalashganligi, ularda suyuqliklarning chayqalishi (flyuktuasiyasi) aniqlanadi [2].

Tug‘ishdan keyingi paytda kataral endometrit bilan bachadon invalyusiyasini almashtirish mumkin. Bu paytda shu turga mansub hayvonlarda bachadonni tozalanish muddatiga e’tibor qilinadi. Odatda kasallikning belgilari yo‘qolib boradi va 1-2 hafta ichida hayvon sog‘ayadi. Ba’zan patologik jarayon surunkali tus oladi va surunkali kataral yoki kataral-yiringli endometritga aylanadi [3].

Tug‘ishdan keyin jinsiy yo‘llarga turli mikroorganizmlar kirib, jinsiy a‘zolarda og‘ir kasalliklar paydo qiladi. Mikroorganizmlar jinsiy a‘zolarga 2 yo‘l bilan: ekzogen va endogen yo‘l bilan kirishi mumkin [2].

Muallifning ma‘lumotlariga qaraganda, endometrit o‘tkir shaklda kechganda qon zardobidagi umumiy oqsil miqdori, albumin va globulinlarning kamayishini aniqlagan [5.4].

Bachadon patologiyalarining har qandayida o‘z vaqtida tashxis qo‘yish va terapevtik choralar ko‘rish zarur, bu esa bepushtlikning oldini olishda muhimdir [12].

Sigirlarda patologik tug‘ruqdan keyingi davrdan keyin homiladorlik darajasi 17 dan 40% gacha kamayadi va bepushtlik 50 kundan 130 kungacha uzayadi [4.6].

Endometrit bachadon shilliq qavatining (endometrium) yallig‘lanishi sifatida belgilanadi. Metrit - bu butun bachadon devorining yallig‘lanishi [6].

Bachadon kasalliklarini tashxislash klinik, fiziologik, funktsional va laboratoriya usullarini o‘z ichiga oladi.

Bugungi kunda ham dolzarb bo‘lib qoladigan eng qulay klinik usullar qatoriga bachadonning vaginal va rektal tekshiruvi kiradi [8]. Bu usullar bachadon kattaligi, bachadon suyuqligining mavjudligi, vaginal ajralish va vaginal spekulum yordamida vizual baholash kabi parametrlarni aniqlash uchun ishlatiladi. Biroq, tajriba shuni ko‘rsatadiki, bu parametrlar har doim ham bir-biri bilan bog‘liq emas va reproduktiv organlarning holatini yanada ob’ektiv baholash uchun qo‘shimcha ma’lumotlar kerak [8].

Endometrit bilan og‘rigan sigirlarda jinsiy kuyikish holati kuzatilmaydi, bu esa uzoq muddatli bepushtlikka olib keladi, bu esa xizmat muddatini kamaytiradi. Subklinik endometrit bilan kasallangan sigirlarda ko‘p marta urug‘lantirish natijasiz bo’ladi, shuning uchun iqtisodiy yo‘qotishlar vaqt va pulning kombinatsiyasidan iborat bo’ladi [7].

Shuning uchun, yuqori mahsuldor hayvonlarda reproduktiv funktsiyaning pasayishi sabablarini o‘rganish, reproduktiv organlarning fiziologik va patologik holatini tashxislashning yangi usullarini ishlab chiqish bo‘yicha ishlar bizga klinik markerlar sonini kengaytirish va patologiya xavfi ostida bo‘lgan hayvonlarni aniqlash hamda yuqori darajada chidamli sog’in sigirlar podalarini yaratish muammolarini tezda hal qilish; kasallanishlar sonini kamaytirish va veterinariya davolash va profilaktika choralari uchun eng kam xarajatlar bilan hayvonlarning xizmat muddatini uzaytirish imkonini beradi [10].

Mualliflarning ma’lumotiga ko‘ra sigirlarda tug‘ruq patologiyalari paytida akusherlik asboblarini noto‘g‘ri qo‘llash oqibatida ham turli xil bachadon kasalliklari, jarohatlar va endometritlar rivojlanishini kuzatilgan. Sigirlarda endometritlar tug‘ruqdan keyingi 8-10 kunlarida, bachadonning kataral-yiringli xarakterdagi yallig‘lanishlari bilan kechadi [12].

O‘tkir endometritda qizarish yoyilgan bo‘ladi va bachadon shilliq pardasi shishadi. Keyinchalik qizarish zo‘rayishi bilan ekstravazatsiya sodir bo‘ladi, ya’ni qon zardobi va hatto, qonning shakllli elementlari tomirlar devori orqali bachadon xujayralari orasidagi bo‘shliqqa sizib chiqadi. Sigirlar kataral endometrit paytida odatdagicha kuyga kelib turgani bilan qisir qolishi, shuningdek, hayvon kuyikkan davrda jinsiy yo‘llardan ko‘p miqdorda yiringli ekssudat aralash loyqa shilimshiq suyuqlik oqishi diagnoz uchun asos bo‘ladi [9].

Pascottini O. va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda yozda urug‘lantirilgan sigirlarda bachadon kasalliklari xavfi yuqori bo‘lgan.

Krou M. A. va Uilyams E. J. tomonidan o‘tkazilgan qiyosiy tadqiqotda yuqori mahsuldor sigirlarda bachadon patologiyalari 73% ni, past mahsuldor hayvonlarda esa 45% ni tashkil etgan.

Qoramolchilik fermalarida endometritning eng keng tarqalgan shakli yiringli-kataral shaklidir. Uzintleuov A.D., Djulanov N.M. va Djulanova M.N.ning ma’lumotlariga ko‘ra, 2020 yilda sigirlarda o‘tkir endometritning tarqalishi 23,3% ni, subklinik shakli esa 8,0% ni tashkil etgan.

Sigirlarda o‘tkir yiringli-kataral endometrit bachadon shilliq qavati epiteliysining yaxlitligini yo‘qotish bilan tavsiflanadi, chunki epiteliy nekroz va eksfoliatsiyaga uchraydi, ba’zan esa epiteliyning shilliq qavati butunlay yo‘q bo‘lib ketadi[12].

Endometriumning submukozal qatlamida eksudativ-infiltrativ jarayonlar ustunlik qiladi, bu shish va hujayra to‘qimalarining infiltratsiyasi bilan tavsiflanadi [12].

Surunkali yiringli-kataral endometritda diagnoz to‘g‘ri ichak orqali tekshirishda bachadon shoxlaridan biri yoki ikkalasining kattalashib qolgani topiladi, shu bilan birga ular paypaslaganda likillab turadi. Tuxumdonlarda ko‘pincha so‘rilmay qolgan sariq tana, ba’zan ikkala tuxumdonda ham bo‘ladi [13].

Internet ma’lumotlariga ko‘ra, tuqqandan keyingi endometritlarning kelib chiqishida tug‘ruq jarayonining qiyin o‘tishi, homila yo‘ldoshini ushlanib qolishi, o‘lik bola tug‘ish, kesarev usulida qorin devorini kesib homilani olish, tug‘ish paytida molxonalarda gigiyenik holatning talablarga javob bermasligi hamda tuqquncha va tug‘ishdan keyin yetarli darajada oziqlantirilmasligi etiologik omil hisoblanadi[14].

Xulosa. Sigirlarda kataral-yiringli endomitritlarni uchrashi sabablari ularni saqlash sharoitlari va ratsionini takomillashmaganligi ya’ni ratsionda oqsilli va shirali oziqalarning ortiqchaligi va yengil hazmlauvchi uglevodlar hamda kletchatkaning yetishmasligi, suv-tuz almashinuvining buzilishi, sigirlar uchun faol yayratish va quyosh nurlarining yetishmasligi asosiy etiologik omillar hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Eshburiyev B.M. Veterinariya akusherligi-T. “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2018y.

2. Eshburiyev B.M., Djumanov S.M., “Akusherlik patologiyasi” fanidan o‘quv uslubiy majmua, Samarqand 2021y.

3. Koba I.S. Profilaktika i terapiya endometritov u korov / I.S. Koba, A.N. Turchenko //Inform listok 2003

4. Нежданов А.Г., Шахов А.Г. Послеродовые гнойно-воспалительные заболевания матки у коров // Ветеринарная патология. – 2005. – №3. – С. 61-64.

5. Куликова Н.И., Черчена А.А. Проблемы воспроизводства крупного рогатого скота, методы их решения // Научный электронный журнал Меридиан. – 2020. – №7. – С. 270-272.

6. Kinsel M.L. Dairy cow postpartum disease: definitions, decisions, and dilemmas // American Association of Bovine Practitioners. – 1996. – Vol.

7. Нежданов А.Г., Мисайлов В.Д., Шахов А.Г. Болезни органов размножения у коров и проблемы их диагностики, терапии и профилактики // Актуальные проблемы болезней органов размножения и молочной железы у животных: матер. междунар. науч.-практ. конф., посв. 35-летию ВНИВИПФиТ. – Воронеж, 2005. – С. 8-11.

8. Нежданов А.Г. Биохимические изменения в организме коров в предродовой, родовой и послеродовой периоды в норме и при акушерской патологии // Сельскохозяйственная биология. – 1985. – №12. – С. 74-78.

9. McDougall S., Macaulay R., Compton C. Association between endometritis diagnosis using a novel intravaginal device and reproductive performance in dairy cattle // Animal reproduction science. – 2007. – Vol. 99, №1-2. – P. 9-23.

10. Sheldon I.M., Lewis G.S., LeBlanc S. et al. Defining postpartum uterine disease in cattle // Theriogenology. – 2006. – Vol. 65, №8. – P. 1516-1530.

11. Crowe M.A., Williams E.J. Triennial Lactation Symposium: Effects of stress on postpartum reproduction in dairy cows1, 2 // Journal of Animal Science. – 2012. – Vol. 90, №5. – P. 1722-1727.

12. Узынтлеуова А.Д., Джуланов Н.М., Джуланова М.Н. Распространенность и этиология гинекологических патологий у коров.

13. H.B.Niyozov, S.B.Abdiev, Sigirlarda tug‘ishdan keyingi endometritlarni turli usullar bilan davolash qonning morfologik ko‘rsatkichlari. Veterinariya meditsinasi. 2022-yil Aprel 4-son. Ilmiy ommabop jurnal.

14. Малыгина Н.А., Булаева А.В. «Профилактика и лечение гнойно-катарального эндометрита у коров». Ветеринарная медицина. 116 Вестник Алтайского государственного аграрного университета 2017 г. № 1, - 147 с.



UDK: 636.32/.38:591.1:612.11

QORAKO‘L QO‘CHQORLARNING MORFOLOGIK KO‘RSATKICHLARI VA TIRIK VAZNINING YOSHI HAMDA QON ZARDOBIDAGI FERMENTLAR FAOLLIGIGA BOG‘LIQLIGI

Nurullayev Raxmat Yarashyevich, *q.x.f.n., dotsent,*
Qarshi davlat texnika universiteti,
ORCID 0009-0000-4460-2853

Аннотация: *В статье представлены результаты исследований зависимости морфологических показателей и живой массы каракульских баранов от возраста и активности фермента аспартат-аминотрансферазы (АСТ) в сыворотке крови. Эксперименты проведены на баранах нишанского заводского типа, относящихся к жакетному типу, среднему размеру завитка и элитному классам. Все животные были разделены на группы с высокой («плюс»), средней и низкой («минус») активностью АСТ. Установлено, что бараны с высокой активностью фермента превосходят сверстников по живой массе, основным морфометрическим признакам и параметрам семенников. С возрастом наблюдается закономерное увеличение высоты в холке, окружности груди и длины семенников, что свидетельствует о стабильном росте животных. Активность АСТ и морфологические показатели предложены в качестве диагностических критериев при оценке племенных качеств каракульских баранов.*

Abstract: The article presents research results on the dependence of morphological parameters and live weight of Karakul rams on age and the activity of the aspartate aminotransferase (AST) enzyme in blood serum. Experiments were conducted on Nishan factory-type rams belonging to the jacket-like type, medium curl size, and elite classes. All animals were divided into groups with high (“plus”), medium, and low (“minus”) AST activity. It was established that rams with high enzyme activity surpass their peers in live weight, basic morphometric traits, and testicular parameters. A systematic increase in wither height, chest circumference, and testicular length is observed with age, indicating stable growth of the animals. AST activity and morphological parameters are proposed as diagnostic criteria for evaluating the breeding qualities of Karakul rams.

Kalit so‘zlar: *qorako‘l qo‘chqorlar, morfologik ko‘rsatkichlar, tirik vazn, yosh, qon zardobi, aspartat-aminotransferaza (AST), ferment faolligi, urug‘don o‘lchami, nasl xususiyatlari.*

Kirish. Qorako‘lchilikda nasl uchun qoldiriladigan qo‘chqorlarni to‘g‘ri tanlash zot sifatini yaxshilashning muhim omillaridan biridir. Tanlov odatda hayvon tug‘ilganidan so‘ng, ya’ni bonitirovka (baholash) jarayonida, qorako‘l terisi sifati, konstitutsiyasi va umumiy rivojlanish darajasiga qarab amalga oshiriladi.

So‘nggi yillarda morfologik belgilar bilan bir qatorda biokimyoviy ko‘rsatkichlar, xususan qon zardobidagi fermentlar faolligi (ayniqsa aspartat-aminotransferaza — AST) hayvonlarning o‘sish sur’ati va fiziologik holatini baholashda muhim diagnostik mezon sifatida e’tirof etilmoqda. Shu nuqtai nazardan, qo‘chqorlarning morfologik ko‘rsatkichlari, tirik vazni va qon zardobidagi fermentlar faolligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot materiali va usullari. Tajriba Qashqadaryo viloyati “Nishon” qorako’lchilik xo’jaligining Nishon zavod tipiga mansub, jaket barra tipidagi, o‘rtagul va elita sinfdagi qorako‘l qo‘chqorlarda o‘tkazildi. Hayvonlar bir xil oziqlantirish va saqlash sharoitida parvarish qilindi.

Qo‘chqorlar qon zardobidagi aspartat-aminotransferaza (AST) faolligi darajasiga ko‘ra uchta guruhga ajratildi:

“Plyus” variant — yuqori AST faolligiga ega hayvonlar;

“O‘rta” variant — o‘rtacha ferment faolligi;

“Minus” variant — past ferment faolligi.

Har bir guruh bo‘yicha tirik vazn, tana o‘lchovlari (yelka balandligi, gavdaning qiya uzunligi, ko‘krak aylanasi, ko‘krak chuqurligi, poycha aylanasi), shuningdek urug‘don uzunligi, urug‘don aylanasi va halqum diametri o‘lchab qayd etildi. Olingan natijalar statistik jihatdan qayta ishlanib, ishonchlilik darajasi bo‘yicha baholandi.

Tadqiqot natijalari va tahlillar. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, qon zardobidagi aspartat-aminotransferaza faolligi turlicha bo‘lgan qo‘chqorlar tirik vazni va asosiy tana o‘lchovlari bo‘yicha sezilarli darajada farq qiladi (1-jadval).

1-jadvalda keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, “plyus” guruhiga mansub, bir xil oziqlantirish va parvarish sharoitlarida bo‘lgan qo‘chqorlar boshqa guruhdagi tengdoshlariga nisbatan tirik vazni va asosiy tashqi tuzilish belgilariga ko‘ra ustunlik qilgan.

Xususan, “plyus” guruhidagi qo‘chqorlarning tirik vazni o‘rtacha faollikka ega guruhdagilarga nisbatan 5,4% yuqori, qon zardobidagi aspartat-aminotransferaza fermenti faolligi bo‘yicha “minus” variantdagilarga qaraganda 7,8% ko‘proq bo‘lgan. Shunga mos ravishda, ularning yelka balandligi 6,1%, gavdaning qiya uzunligi 4,5% va 7,0%, ko‘krak aylanasining o‘lchami 9,0% va 8,7%, ko‘krak chuqurligi 5,1% va 3,2%, poycha aylanasining o‘lchami esa 3,1% va 6,5% ga yuqori bo‘lgan.

Shuni ta’kidlash kerakki, o‘rganilgan barcha ko‘rsatkichlar bo‘yicha o‘rtacha va “minus” guruhlardagi qo‘chqorlar orasida sezilarli farqlar aniqlanmadi.

Tajribalarda tirik vazn va hayvon tanasining asosiy o‘lchovlari bilan bir qatorda, urug‘donlarning hajmi hamda halqum diametri ham hisobga olindi. Adabiyot manbalariga ko‘ra, bu morfologik belgilar ko‘pincha hayvonlarning ko‘payish xususiyatlari bilan bog‘liqligini ko‘rsatuvchi test sifatida xizmat qiladi.

Bir qator olimlarning tadqiqotlarida ko‘ra, besh oylikda qo’zilarni sutdan ajratish davridagi tirik vazn urug‘don diametri bilan yuqori genetik bog‘liqlikka ega bo‘lgan, ammo bu bog‘liqlik 8 va 12 oylik yoshda zaiflashgan.

Shuningdek, urug‘donlarning o‘lchami bilan qo‘chqorlarning tirik vazni o‘rtasidagi bog‘liqlik ilmiy tadqiqotlarda tajriba yo‘li bilan tasdiqlangan.

1-jadval.

Sun’iy urug’lantirishda foydalanilgan qo’chqorlarning tirik vazni va asosiy tana o‘lchovlari

Quloq nomeri	Yosh, yil	Tirik vazn, kg	Tana o‘lchovlari, sm				
			Yelka balandligi	Gavdaning qiya uzunligi	Ko’krak aylanasi	Ko’krak chuqurligi	Poycha aylanasi
13500	5,5	68,5	76,5	79,5	112,5	73,5	10,5
6116	3,5	64,0	76,0	77,0	104,0	42,5	10,0
0071	1,5	42,0	71,0	72,5	91,5	38,0	9,0
«plyus»-variant		58,2	74,5	76,3	102,7	41,3	9,8
13122	5,5	69,0	72,5	76,0	100,0	42,0	10,0
0039	3,5	58,0	72,0	77,0	96,0	40,0	9,5
0060	1,5	38,5	66,0	66,0	86,5	36,0	9,0
«o’rta»-variant		55,2	70,2	73,0	94,2	39,3	9,5
17659	5,5	62,5	70,5	72,5	102,0	41,5	9,5
0200	3,5	61,0	72,5	72,5	98,0	40,5	9,0
0024	1,5	38,5	67,5	69,0	83,5	38,0	9,0
«minus»-variant		54,0	70,2	71,3	94,5	40,0	9,2

2-jadval.

Qo'chqorlar yoshi bo'yicha tirik vazni va ayrim morfologik belgilarining bo'yicha o'zgarishi

Ko'rsatkichlar		Qo'chqorlar yoshi			
		4 oy	1,5 yil	3,5 yil	5,5 yil
Xisobga olindi, bosh		9	9	7	9
Tirik vazni, kg	M±m	27,4±0,58	48,1±0,57	59,0±0,48	74,9±1,95
	C%	6,4	3,6	6,6	7,8
Halqum diametri, sm	M±m	3,1±0,08	4,1±0,09	4,4±0,08	4,4±0,07
	C%	7,9	6,8	4,7	4,8
Urug'don uzunligi, sm	M±m	5,6±0,34	14,4±0,38	15,1±0,89	17,5±0,64
	C%	18,4	7,8	15,3	11,0
Urug'don aylanasi, sm	M±m	12,7±0,58	27,8±1,11	29,8±0,55	31,0±1,11
	C%	13,7	11,9	4,9	10,7
Yelka balandligi, sm	M±m	59,0±1,18	71,2±1,34	74,0±0,93	79,3±0,85
	C%	5,9	5,6	3,3	3,2
Gavdaning qiya uzunligi, sm	M±m	58,2±1,3	72,2±1,08	75,6±1,02	78,6±1,04
	C%	6,7	4,5	3,5	3,9
Ko'krak aylanasi, sm	M±m	64,5±1,75	90,9±0,51	103,3±2,52	110,2±1,78
	C%	8,1	1,7	6,4	4,8
Poycha aylanasi, sm	M±m	7,1±0,26	8,8±0,14	9,8±0,24	9,7±0,24
	C%	10,9	4,9	6,4	7,4

2-jadvalda tajriba guruhlariga mansub qo'chqorlarning ayrim morfologik belgilarining yoshga qarab o'zgarishlari hamda tirik vazn ko'rsatkichlari keltirilgan.

Bizning tadqiqotimizda "plyus" guruhiga mansub qo'chqorlarning urug'don uzunligi o'rtacha AST (aspartat-aminotransferaza) faolligiga ega guruh qo'chqorlariga qaraganda 3,7% ga, "minus" guruh qo'chqorlariga nisbatan esa 5,7% ga uzunroq bo'ldi. Urug'don aylanasining kattaligi esa mos ravishda 3,8% va 9,1% ga katta, halqum diametri esa 2,3% va 2,3% ga yuqori bo'ldi.

2-jadvaldan ko'rinib turibdiki, yelka balandligi, gavdaning qiya uzunligi, ko'krak aylanasining hajmi va tirik vazn yosh o'tgan sayin ishonchli tarzda ($P < 0,05$) ortib boradi. Ammo poycha aylanasining kattaligi, halqum diametri hamda urug'don uzunligi va aylanasining o'sishi 3,5 yoshgacha davom etadi va keyinchalik barqarorlashadi.

Shundan xulosa qilish mumkinki, agar ushbu ko'rsatkichlardan hayvonlarning mahsuldorlik va naslchilik sifatlarini prognoz qilishda test sifatida foydalanilsa, u holda ularni yoshroq davrda hisobga olish lozim.

Xulosa:

1. Qon zardobidagi aspartat-aminotransferaza (AST) fermenti faolligi qo'chqorlarning tirik vazni va morfologik rivojlanish darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

2. AST faolligi yuqori bo'lgan ("plyus" varianti) qo'chqorlar tana o'lchovlari va reproduktiv organlar rivojlanishi bo'yicha ustunlik qiladi.

3. Morfologik belgilar yosh o'tgan sayin barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etadi, ammo ayrim ko'rsatkichlar (urug'don uzunligi, poycha aylanasi, halqum diametri) 3,5 yoshdan so'ng stabillashadi.

4. Shu sababli, qorako'lchilikda nasl uchun tanlanadigan qo'chqorlarni baholashda AST fermenti faolligi, tana o'lchovlari va urug'don parametrlari kompleks ko'rsatkich sifatida qo'llanishi maqsadga muvofiqdir.

5. Bu belgilarni yoshroq davrda aniqlash hayvonlarning keyingi mahsuldorligi va naslchilik salohiyatini prognoz qilish imkonini beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdullayev, S. N. Qorako‘l qo‘ylarini naslchilik va mahsuldorlik belgilari bo‘yicha baholash metodlari : monografiya. — Toshkent : Fan va texnologiya, 2018. — 120 b.

2. Антонов, С. В. Методы лабораторных анализов по биохимии и физиологии животных. — Москва : Агропромиздат, 2008. — 215 с.

3. Karimov, O. R. Nasldor qo‘chqorlarni tanlashda biokimyoviy testlardan foydalanishning samaradorligi. Zooveterinariya. — 2019. — № 11. — B. 30–33.

4. Кузнецов, С. Г. Биохимические показатели крови у баранов-производителей разного возраста. Сельскохозяйственная биология. — 2016. — Т. 51, № 2. — С. 240–247.

5. Nurillayev, R. Ya. Эффективность использования биохимических показателей крови при оценке племенных качеств баранов каракульской породы : монография. — Ташкент: IMPRESS MEDIA, 2024. — 116 с.

6. Семенов, И. В. Ферментативная активность и её влияние на темпы роста животных. Биохимия в животноводстве. — 2015. — № 6(3). — С. 58–63.

7. Smith, J. Correlation between AST activity and weight gain in Karakul sheep breeds. International Journal of Veterinary Science. — 2022. — № 5. — P. 201–205.

8. Xidirov, I. Qo‘ylarning qon zardobidagi aminotransferazalar (AST va ALT) faolligi va ularning tirik vazn bilan bog‘liqligi. Agrar fani xabarnomasi. — 2021. — № 3 (87). — B. 45–49.

9. Qodirov, S. T. Qorako‘l qo‘chqorlarining morfometrik belgilarini baholashda zamonaviy yondashuvlar. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi fanlari axborotnomasi. — 2019. — № 3(1). — B. 28–33.



UDK: 619.576.895.75.614.449.57.

ECHKILARNING BOVICOLALARIGA QARSHI «CYPRA» PREPARATINING INSEKTITSID SAMARADORLIGINI O‘RGANISH

F.S.Pulotov, *v.f.f.d., katta ilmiy xodim,*
D.M.Boltayev, *v.f.f.d., kichik ilmiy xodim,*
Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti

Аннотация: *В статье рассматриваются вопросы борьбы с эктопаразитами коз - власоедами вида Bovicola caprae, которые в последние годы получили широкое распространение в козоводческих хозяйствах. В ходе исследования была изучена инсектицидная эффективность различных концентратsій современного препарата «Cypra» в лабораторных и производственных условиях. Полученные результаты направлены на научное обоснование активности препарата против власоедов коз, определение его оптимальных дозировок и оценку эпизоотологической эффективности его применения в ветеринарной практике.*

Annotation: *The article addresses the control of ectoparasites in goats, specifically the biting lice species Bovicola caprae, which has become increasingly prevalent in goat farms in recent years. The study investigated the insecticidal efficacy of various concentrations of the modern drug “Cypra” under both laboratory and field (production) conditions. The results provide a scientific basis for the drug’s activity against goat lice, determine its optimal dosages, and evaluate the epizootiological effectiveness of its application in veterinary practice.*

Kalit so‘zlar: *bovicola, junxo‘r, parazit, piretroid, entomoz, Cypra, insektisid.*

Kirish. Echkilar boqish, urchitishga ko‘p xarajat talab etmasligi, tez ko‘payishi va yuqori darajadagi serpushtligi, go‘sht va sut mahsulotlarining parhezbopligi, sanoat uchun jun, tivit va teri mahsulotlarining zarurligi, qimmatbaholigi, ularga bo‘lgan talabning yuqoriligi bilan boshqa turdagi chorva hayvonlaridan ajralib turadi. Echkichilik bilan shug‘ullanish xususiy va yordamchi xo‘jaliklar uchun qulay va foyda keltiruvchi tarmoq hisoblanadi. Chunki qishloqda yashovchi har bir oila echki asrash va boqish, sut va go‘shtini iste’mol qilish, echki tiviti va junidan xilma-xil buyumlar tayyorlash va uni bozorga chiqarish yo‘li bilan daromadini oshirishi mumkin. Echkilarning juni va tivitidan turli kiyim va buyumlar tayyorlanadi. Echki suti va go‘shti oziq-ovqat sifatida keng qo‘llaniladi. Biroq echkilar orasida keyingi yillarda bovikolalarning avj olishi natijasida ularning sut, go‘sht va tivit berish mahsuldorliklarining kamayishiga olib kelmoqda. Shuning uchun echkilar tanasida parazitlik (tekinxo‘rlik) qilib yashaydigan junxo’rlar va ular qo‘zg‘atadigan parazitar va transmissiv kasalliklar epizootologiyasini o‘rganish hamda ularga qarshi kurashning yangi bezarar usul va vositalarini yaratish muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotning maqsadi: Echkilarning Bovicola caprae - junxo‘rlariga qarshi “Cypra” preparatining turli konsentratsiyalarini laboratoriya va ishlab chiqarish sharoitidagi samaradorligini o‘rganishdan iborat.

Tadqiqot materiallari va uslublari. Tadqiqotlarda parazitologik, entomologik, epizootologik, faunistik, ekologik, fenologik, profilaktik va boshqa tadqiqotlar veterinariya hamda tibbiyotda qabul qilingan (Herbert Ross, Paul De Bach, G.Ya.Bey-Bienko, V.A.Dogel, V.N.Beklemishev, V.V.Yaxontov, E.B.Kerbabaev, S.D.Pavlov, A.R.Ro’zimurodov va boshqa tadqiqotchilar) usullar, qo’llanma va aniqlagichlar yordamida olib borildi. Terilgan hasharotlar turlari I.M.Ganiev va boshqa aniqlagich,

kitob va qo'llanmalar hamda adabiyotlardan foydalanib aniqlandi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotlarda parazitologik, entomologik, epizootologik, ekologo-faunistik, iqtisodiy tadqiqotlar, umumbiologik va veterinariya parazitologiyasi fanlarining zamonaviy tavsiya va uslubiy qo'llanmalaridan foydalanilgan.

Tadqiqotlarning natijalari. Echkilarining entomozlariga qarshi kurashda chetdan keltirilayotgan va o'zimizda ishlab chiqarilayotgan yangi piretroid va fitoasosli insektitsid preparatlardan keng foydalanilmoqda. Shularni hisobga olib toksikologik xususiyatlari yaxshi o'rganilgan va kanserogen, mutagen, embriotoksik xususiyatlari bo'lmagan yangi sintetik piretroid preparatlarning parazitotsidlik ta'sirini laboratoriya va ishlab chiqarish sharoitida o'rganib chiqdik. Bunda birinchi marotaba o'rganilayotgan yangi "Cypra" piretroid preparatining har xil konsentratsiyalari, ya'ni 0,008, 0,01, 0,015,0,02, 0,025, 0,03, 0,035, 0,04 foizli suvli emulsiyasi tayyorlanib, Petri idishchasiga joylashtirilgan filtr qog'oziga tajribadagi preparatning suvli emulsiyasidan purkagich dozator yordamida sepildi va ushbu dorilangan filtr qog'ozi yuzasiga yangi terib olingan junxo'rlar 30 nusxadan qo'yib yuborildi va o'tkazilgan sinov tajribalari natijasida ushbu preparatlarning eng minimal va yuqori samarali (100 foizli) konsentratsiyasini aniqlash maqsadida qo'yidagicha sinov-tajriba ishlari o'tkazildi:

1-tajriba: 3 ta Petri idishchasi ichiga mos ravishda filtr qog'ozi joylashtirilib, har bir filtr qog'ozi yuzasi 3,8 ml dan "Cypra" preparatining 0,008 foizli suvli emulsiyasi bilan dorilandi. Shu dorilangan filtr qog'ozi yuzasiga yangi terib olingan 30 nusxadan junxo'rlar qo'yib yuborildi va 10 daqiqadan so'ng ular toza Petri idishchalarga olinib, optimal sharoitga, ya'ni +35 ^{0}C haroratdagi termostatga saqlab har 1, 3, 6, 24 soat davomida kuzatish ishlari olib borildi;

2-tajriba: Xuddi yuqorida qayd qilinganidek tajriba ishlari olib borildi, faqat Cypra preparatining 0,01 foizli suvli emulsiyasi sinab ko'rildi;

3-tajriba: Xuddi yuqorida qayd qilinganidek tajriba ishlari olib borildi, faqat Cypra preparatining 0,015 foizli suvli emulsiyasi sinab ko'rildi;

4-tajriba: Yuqorida qayd qilinganidek tajriba ishlari olib borildi, faqat Cypra preparatining 0,02 foizli suvli emulsiyasi sinab ko'rildi;

5-tajriba: Yuqorida qayd qilinganidek tajriba ishlari olib borildi, faqat Cypra preparatining 0,025 foizli suvli emulsiyasi sinab ko'rildi;

6-tajriba: Yuqorida qayd qilinganidek tajriba ishlari olib borildi, faqat Cypra preparatining 0,03 foizli suvli emulsiyasi sinab ko'rildi;

7-tajriba: Yuqorida qayd qilinganidek tajriba ishlari olib borildi, faqat Cypra preparatining 0,035 foizli suvli emulsiyasi sinab ko'rildi;

8-nazorat guruhi: Xuddi yuqorida qayd qilinganidek tajriba ishlari olib borildi, faqat toza suv bilan ishlov berildi. Tajriba natijalari 24 soatdan so'ng o'lgan va tirik qolgan junxo'rlar soni aniqlanib, samara ko'rsatkichi (foiz) hisoblandi.

Natijada preparatni O'K_0 (o'ldirmaydigan konsentratsiya), O'K_{50} (50 foiz o'ldiradigan konsentratsiya) va O'K_{100} (100 foiz o'ldiradigan konsentratsiya) ko'rsatkichlari aniqlandi.

Har bir konsentratsiya 3 martadan qayta o'rganildi. Bovikolalarning o'lish tezligiga va miqdoriga qarab preparatning tasir kuchi ham belgilandi. Bunda,

1-tajriba guruhidagi junxo'rlarning - 0 foizi;
2-tajriba guruhidagi junxo'rlarning - 30 foizi;
3-tajriba guruhidagi junxo'rlarning - 60 foizi;
4-tajriba guruhidagi junxo'rlarning - 80 foizi;
5-tajriba guruhidagi junxo'rlarning - 100 foizi;
6-tajriba guruhidagi junxo'rlarning - 100 foizi;
7-tajriba guruhidagi junxo'rlarning - 100 foizi o'lganligi;

1-jadval.

Laboratoriya sharoitida Cypra preparatining suvli emulsiyalarini echkilarning bovikolalariga nisbatan insektitsid ta'sirini o'rganish tajribasi

T/r	Preparat konsentratsiyasi (s.e., foiz)	Dorilangan hasharot soni (nusxa)	24 soatdan so'ng o'lgan junxo'rlar soni (nusxa)	Samara (foiz)
1	0,008	30	-	0
2	0,01	30	9	30
3	0,015	30	18	60
4	0,02	30	24	80
5	0,025	30	30	100
6	0,03	30	30	100
7	0,035	30	30	100
8	Nazorat	30	0	0

8-nazorat guruhidagi junxo'rlarning - 100 foizi tirik ekanligi aniqlandi (1-jadval).

Shunday qilib, laboratoriya sharoitida o'tkazilgan sinov-tajribalari natijasida, Cypra *EC* 20 % preparatining 0,025 foizli suvli emulsiyasi echkilarning bovikolalariga qarshi 100 foiz insektitsid samara berishi aniqlandi.

Chorvachilik fermalari sharoitida o'tkazilgan sinov-tajriba natijalari ishlab chiqarish sharoitida, ya'ni Samarqand viloyati Nurobod tumaniga qarashli chorvachilik fermer xo'jaliklaridagi echkilarda sinov tajriba ishlari o'tkazildi. Bunda laboratoriya sharoitida eng tejamkor minimal va 100 foiz insektitsid samara bergan Cypra *EC* 20 % preparatining turli xil konsentratsiyalari bilan bevosita echkilarda qo'yidagicha tajriba sinov ishlari olib borildi (2-jadval).

2-jadval.

Cypra preparatini echkilarning bovikolalariga qarshi terapevtik samarasini aniqlash tajribalari

T/r	Xo'jaliklar nomi	Echkilar soni (bosh)	Preparat konsentratsiyasi va miqdori	Dezinseksiya usuli va soni	Samara (foiz)
1.	Nurobod tuman "Ismoilov Furkat" f/x	60	0,025 foizli в.э. 1-2 l/bosh	purkash usulida, 2 marta	100
2.	Nurobod tumani "Qorako'lchilik" MCHJ	230	0,025 foizli в.э. 1-2 l/bosh	purkash usulida, 2 marta	100
3.	Oltinko'l tuman "Imkon luks inomarka" MCHJ	65	0,025 foizli в.э. 1-2 l/bosh	purkash usulida, 2 marta	100
Jami:		**355**	**0,025 foizli в.э.**	**2 marta**	**100**

Shunday qilib, Cypra *EC* 20% preparatining 0,025 foizli suvli emulsiyasi echkilarning B*ovikolalari*ga nisbatan yuqori insektitsid samara berishi natijasida, echkilarda qashinish, ishqalanish, bezovtalanish kabi belgilar yo‘qolib, echkilarni bovikolyozdan 100 foiz sog‘ayishi kuzatildi.

Xulosa. Yuqoridagi ma’lumotlardan kelib chiqib, Cypra preparatining eng minimal va 100 foiz samara beradigan 0,025 foizli suvli emulsiyasi echkilarning *Bovicola caprae* junxo‘rlariga nisbatan laboratoriya va ishlab chiqarish sharoitida 100 foiz insektitsid samara berishi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Акбаев Р.М., Пуговкина Н.В. “Бовиколёз крупного рогатого скота в животноводческих хозяйствах Московской области” // Журнал “Ветеринария”, Изд. “Логос Пресс” (Москва), - 2017.- № 1,- С. 10-13.

2. Благовещенский Д.И. «Определитель пухоедов (Mallophaga) домашних животных». Фауна СССР. М.,-Л.: изд. АНСССР, 1940.

3. Ятусевич А.И. и др. Руководство по ветеринарной паразитологии. Минск ИВЦ Минфина 2015 - 416 с.

4. Pulatov F.S., Ismoilov A.Sh., Rakhimov M.Yu., Abdullaeva D.O., Sayfiddinov B.F., Ruzimurodov A.R., “Fauna and ecology of zooparasites in zoobiocenoses”, Turkish Journal of Physiotherapy and Rehabilitation; 32(2) ISSN 2651-4451 | e-ISSN2651-446X www.turkjphysiotherrehabil.org

5. Pulatov F.S., Rakhimov M.Yu. Ismoilov A.Sh., Boltaev D.M., Sayfiddinov B.F. Ecogenesis of ectoparasites of agricultural animals. Eurasian Medical Research Periodical, 27 March. 2022, volume 6, pp. 165-167, ISSN 2795-7624. https://geniusjournals.org.



UO‘K: 636.2.

TURLI GENOTIPDAGI SIGIRLARNING FE’L-ATVOR KO‘RSATKICHLARI

D.U.Ismoilova, *doktorant,*
Sh.E.Qurbonova, *ilmiy rahbar,* **Sh.T.Gapparov,** *assistent,*
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

Аннотация. *В данной статье освещены сведения о показателях поведения коров черно-пестрой голштинской, красно-пестрой голштинской и красной эстонской пород, разводимых в животноводческом хозяйстве “Джура” Пастдаргомского района Самаркандской области.*

Abstract. *This article provides information about the behavior of black-and-white holstein, red-and-white holstein, and red estonian cows bred at the Jura livestock farm in the Pastdargom district of the Samarkand region.*

Kalitli so‘zlar: *qoramol, zot, tik turish, kavsh qaytarish, yotish, etologik ko‘rsatkichlari ва хоказо.*

Kirish. O‘zbekiston respublikasi mustaqillikka erishganining birinchi kunlaridanoq xalq xo‘jaligi-ing barcha jabhalarida islohatlar o‘tkazila boshladi. Bu jarayon keyingi 3 yilda yanada takomillashib jadallashdi. XXI asrda dunyo aholisi oldida turgan muammolardan biri oziq-ovqat xavfsizligini saqlash hisoblanadi. Bunda qishloq xo‘jaligini asosiy va ajralmas tarmog‘i bo‘lgan chorvachilikni barqaror ruvojlantirish muhim o‘rin tutadi. Chunki tarmoqdan olinadigan va aholi turmush tarzini, farovonligini ta’minlaydigan sut, go‘sht, tuxum, asal, baliq mahsulotlari va ularni qayta ishlashdan olinadigan yuz turga yaqin iste’mol uchun tayyor bo‘lgan mahsulotlar hamda jun, teri, pat va boshqa xom ashyolar mavjud bo‘lgan muammoni ijobiy hal qilishda muhim o‘rin tutadi [1].

Mamlakatimizga so‘nggi yillarda xorijiy mamlakatlaridan juda ko‘p qoramollar keltirilmoqda. Ularni asosiy qismini sut yo‘nalishidagi golshtin zoti tashkil etib, keltirilgan qoramollarning ota-onalari yuqori mahsuldorlik ko‘rsatkchilariga ega. Ulardan olingan avlodlar genetik potensialidagi mahsuldorligini yuzaga chiqarishi uchun sharoitga moslashishi zarur [2].

Yangi yashash va oziqlanish muhitiga tushgan hayvonlar dastlabki davrlarda turli stresslarga duch keladi. Bu ularning fe’l-atvorida o‘z aksini topadi. Qoramollar yashash muhitiga tezda reaksiyasini bildiradi. Yangi muhitdagi stres omillar natijasida oziqa qabul qilishi susayadi, natijada tirik vazni va mahsuldorligi pasayadi. Ammo vaqt o‘tishi bilan ushbu sharoitga ularning organizmi moslasha boshlaydi, ko‘rsatkichlar me’yorlashadi. Ma’lumki, qoramollarning fe’l-atvor ko‘rsatkichlari, ularning sutkalik rejimi o‘zgarmaganda, hech qanday qo‘shimcha yuklama bo‘lmaganda, ma’lum bir muhit sharoitiga doimiy bo‘ladi. Hayvonlarni muhit sharoitiga reaksiyasi o‘zgarib turadi, ammo qandaydir bir darajada bir maromda kechadi. Kompleks fe’l-atvor ko‘rsatkichlarini o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, agarda fermada kun tartibi hayvonlarni talabini e’tiborga olinmay tuzilgan bo‘lsa, ularni oziqlantirish yoki sog‘ishga me’yordagiga nisbatan ko‘p vaqt sarflanadi, hayvon turadigan joy konstruksiyasi talabga javob bermasa, bu ham hayvonni dam olish vaqtiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ham hayvonlarni fe’l-atvor reaksiyasini o‘z vaqtida aniqlab, to‘g‘rilash lozim va uni zaruriy yo‘nalishga boshqarish har qanday qishloq xo‘jalik korxonasini muvafaqqiyatli faoliyat ko‘rsatishi uchun zamin yaratadi [3; 4].

Tadqoqotning maqsadi. Samarqand viloyati Pastdarg‘om tumanidagi “Jo‘ra” fermer xo‘jaligi sharoitida urchitilayotgan golshtin zotli sigirlarning sut mahsuldorligining etologik ko‘rsatkichlar-

iga bog‘liqligini faollik tipi kesimida o‘rganish va ishlab chiqarishga takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot bajarish joyi va uslubi. Tadqiqotlar Samarqand viloyati Pastdarg‘om tumanidagi “Jo‘ra” chorvachilik xo‘jaligida olib borildi. Turli etologik faollik tipiga mansub golshtin zotli uchinchi va undan katta tug‘imdagi sigirlar hisoblanadi.

Etologiya bu – grekcha so‘zdan olingan bo‘lib, - ethos-xarakter, logos-o‘rganish ma’nosini anglatadi. Yoki hayvonlarning genetik shartli fe’l-atvor (instinktlar) ini o‘rganish haqidagi fandir.

Etologiyani o‘rganishni asosiy usuli tabiiy holda kuzatishdir. Hayvonlarni tabiiy sharoitdagi yashash muhitida fe’l-atvorini har tomonlama kuzatib, qayd etib (yozib) borishga etogramma deyiladi.

Sut ishlab chiqarishni sanoat texnologiyasiga o‘tishi, sigirlarning fe’l-atvoriga e’tiborni kuchaytirishni talab etmoqda. Yuvvosh sigirlar yuqori mahsuldor bo‘lishi ilmiy izlanishlarda oz isbotini topgan. Fermer xo‘jaliklarida sigirlarga xizmat ko‘rsatishning kunlik tartibi (vaqt, joy, boqish tartibi, sog‘ish, sut beruvchiga yaqinlashish, sog‘ish apparati parametrlari va boshqalar) qat’iy rioya qilinganda, sutning 80% dan ortig‘i va yog‘ning 60% dan ortig‘i sutdan o‘tadi. alveolalar sut sog‘ish uchun hech qanday manipulyatsiyasiz va sog‘ib olinadi [5]. Sutdor sigirlarda yuqori asab faoliyat turi bilan mahsuldorlik o‘rtasida bog‘liqlik aniqlangan. Kuchli harakatchan, muvozanatlashgan yuqori asab faoliyat tipiga ega sigirlar har xil sharoitlarga yaxshi moslashuvchanligi bilan ajralib turadi.

Fe’l-atvor bu muhim tashqi belgi hisoblanadi va shartli hamda shartsiz reflekslar orqali boshqariladi. Zootexniya fanida etologik omillarni qo‘llash, qoramollarni saqlashning iqtisodiy samarador usullarini joriy etishga hissa bo‘lib qo‘shiladi. Hayvonlarning fe’l-atvorlari uni genotipi va tashqi-muhitning uyg‘unligi asosida shakllanadi. SHu bois, hayvonlarning fe’l-atvorini o‘rganishda, albatta, xonakilashtirish, irsiy omillar, hayvonlarni saqlash va oziqlantirish, o‘stirish, xo‘jalik sharoitiga moslashish darajasi hisobga olinishi kerak.

Fe’l-atvori yaxshi bo‘lgan qoramollar yuvvosh, engil boshqaruv xususiyatini namoyon qiladi, bunday hayvonlarda ijobiy shartli belgilar tez hosil bo‘ladi. Yuvvosh hayvonlar inson talabiga javob beradigan sut va go‘sht mahsuldorlikka ega bo‘lib, iste’mol qilingan oziqasini mahsulot bilan qoplash hususiyati yuqori bo‘ladi. Bu ma’lumot [6] larning tadqiqotida ham o‘z aksini topgan. Xorijiy mamlakatlarning iqtisodchi mutaxassislarini fikriga ko‘ra, etologiyani chorvachilik amaliyotiga tadbiq etish, mehnat unumdorligini oshiradi. Har bir bosh sigirdan 20% yuqori sut mahsulot olishga imkon yaratadi.

Olingan natijalar va uning tahlili. Sigirlarni oziqlanishi bo‘yicha fe’l-atvorini hisobga olish sut mahsuldorligiga ijobiy ta’sir qilish bilan birga, ozuqani mahsulot bilan qoplash darajasini oshiradi va sigirlardan xo‘jalikda foydalanish muddatlarining davomiyligini uzaytiradi. Sigirlarning fe’l-atvorini o‘rganib tahlil qilish, sutdor qoramolchilikni jadallashtirishda, tashqi muhitning turli salbiy omillariga bardoshli hayvonlar etishtirishda muhim ahamiyatga ega.

Ushbu ma’lumotlardan kelib chiqib biz ham tajriba guruhidagi sigirlarning etologik ko‘rsatkichlarini o‘rgandik va quyidagi 1-jadvalda keltirdik.

Tik holatda turishi uchun I tajriba guruhidagi sigirlar sutkada 782,4 daqiqa (54,3 %), II guruhdagi sigirlar 775,4 (53,9 %) va III guruh sigirlari 770,7 daqiqa (53,5 %) vaqt sarflagan. Shu jumladan harakatsiz turish uchun I guruhdagi sigirlar ko‘p vaqt sarflab, sutkada 255,1 daqiqa yoki (17,71 %) tashkil etib, o‘z tengqurlariga nisbatan, II guruhga mansub sigirlardan 9,8 daqiqa yoki 3,8 % ga va III guruhdagi sigirlarga nisbatan 17 daqiqa yoki 6,7 % yuqori bo‘lgan. Ozuqani iste’mol qilishga ham I tajriba guruhidagi sigirlar o‘z tengqurlariga nisbatan 14,2 daqiqa yoki 4,5 % va 30,2 daqiqa yoki 9,6 % ga ustunlik qilganligini ko‘rsatdi.

Tik holatda kavsh qaytarish etologik ko‘rsatkichi bo‘yicha birinchi tajriba guruhidagi sigirlar 122,8 daqiqa (8,53 %), ikkinchi tajriba guruh sigirlari 110,22 daqiqa (7,64 %) va uchinchi tajriba guruhidagi sigirlar esa 116,4 daqiqa (8,1 %) vaqt

1-jadval.

Tajribadagi sigirlarning etologik ko‘rsatkichlari, n=10 (X±Sx)

№	Ko‘rsatkichlar	Guruhlar					
		I		II		III	
		Daqiqa	Sutka vaqtiga nisbatan, %	Daqiqa	Sutka vaqtiga nisbatan, %	Daqiqa	Sutka vaqtiga nisbatan, %
1.	Tik holatda turish, jami	782,4±10,0	54,3	776,2±12,0	53,9	770,7±9,2	53,5
2.	Shu jumladan: harakatsiz turish	255,1±8,04	17,71	245,3±9,0	17,0	238,1±9,4	16,53
3.	Ozuqa iste’mol qilish	313,0±7,01	21,73	298,8±6,55	20,73	282,8±6,8	19,64
4.	Suv ichish	20,3±0,60	1,4	24,83 ±1,81	1,72	29,3±0,95	2,0
5.	Tik holatda kavsh qaytarish	122,8±2,32	8,53	110,22±6,11	7,64	116,4±2,5	8,1
6.	Harakatlanish	64,9±2,00	4,5	90,81±3,00	6,3	97,9±4,2	6,8
7.	Tuz yalash	6,3±0,15	0,44	6,21±0,2	0,43	6,2±0,22	0,43
8.	Yotgan holati jami	657,6±8,70	45,7	663,8±11,0	46,1	669,3±9,8	46,5
9.	Shu jumladan: Yotgan holda kavsh qaytarish	331,4±3,9	23,0	374,4±8,22	26,0	414,3±8,3	28,8
10.	Harakatsiz yotish	326,2±8,00	22,7	289,4±6,33	20,1	255,0±6,2	17,7
Jami		1440	100	1440	100	1440	100

sarfladi. Uchala tajriba guruhidagi sigirlar yotgan holda kavsh qaytarishga ko‘p vaqt sarflanganligi kuzatildi.

Xulosa. Tajriba guruhlaridagi sigirlar laktatsiya davridagi tik holatda turish, shu jumladan harakatsiz turish, oziqlanish, harakat qilish va kavsh qaytarish kabi etologik ko‘rsatkichlari o‘rganilganda I tajriba guruhidagi sigirlar o‘z tengqurlaridan ustunlik qilganligi kuzatildi. Bunda tajriba guruhidagi sigirlarning etologik ko‘rsatkichlari bilan mahsuldorligi o‘rtasida ijobiy bog‘liqlik borligi aniqlandi. Umuman olganda, o‘ta faol tipdagi sigirlar foydali harakatlari bo‘yicha sust faol tipdagi sigirlardan ustunlik qildi.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston respublikasi veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” PQ-4254-sonli qarori. Toshkent 2019 yil 28 mart.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Chorvachilik tarmog‘ini davlat tomonidan ko‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4576-sonli qarori. Toshkent 2020 yil 29 yanvar.

3. Великжанин В. И. Генетика поведения сельскохозяйственных животных (этология, темперамент, продуктивность). С.-Пб., 2004, 204 с.

4. Великжанин В. И. Методические рекомендации по использованию этологических признаков в селекции молочного скота. ВНИИГРЖ. С.-Пб., 2000, 19 с.

5. Tuychievna, A. M., Kuzibaevich, A. S., Kurbanova, S. E., Abdurafievich, M. K., & Tajievich, G. S. (2022). The use of technological measures in improving the body growth and morphofunctional properties of the udder of cows. *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 8-15.

6. Nurmukhammedova, R. F. (2022). Etiological indicators of the Simmental breed of cattle. *Texas Journal of Agriculture and Biological Sciences*, *3*, 42-44.

UDK: 619:636.5

FARG‘ONA VILOYATI PARRANDACHILIK XO‘JALIKLARIDA TOVUQ KOLIBAKTERIOZINI OLDINI OLISHDA ILMIY ASOSLANGAN CHORA-TADBIRLARNI JORIY ETISH SAMARADORLIGI

Davlatov Ravshan Berdiyevich, *direktor, v.f.d., professor,*
Veterinariya va chorvachilik sohasida pedagog hamda mutaxassis kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti,
Xo‘jaxonov Shoxruzxon Idirisxo‘ja o‘g‘li, *v.f.f.d. (PhD),*
Xo‘jaxonova Moxinur Farxodjon qizi, *magistrant,*
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universtiteti Toshkent filiali

Аннотация. *В статье анализируются исследования по профилактике колибактериоза у кур на птицефермах Ферганской области. Изучены эпидемиология, механизм развития и экономический ущерб, наносимый Escherichia coli, основным этиологическим фактором заболевания. Профилактическая эффективность препаратов OfLosan и Aliseryl WS оценивалась на основе выводов, полученных в экспериментальной и контрольной группах. В результате, используемые препараты показали значительное снижение заболеваемости и смертности на фермах, повышение выживаемости и живой массы цыплят. Бактериологические исследования подтвердили снижение выделения патогенных штаммов E. coli. Экономический анализ показал, что при использовании препаратов по научно обоснованному плану повышается рентабельность фермы. В результате подтверждена необходимость комплексного применения антибактериальных препаратов с зоогигиеническими и биобезопасными мерами.*

Abstract. *The article analyzes studies on the prevention of chicken colibacteriosis in poultry farms of the Fergana region. The epidemiology, development mechanism and economic damage of Escherichia coli, the main etiological factor of the disease, were studied. The preventive effectiveness of OfLosan and Aliseryl WS preparations was assessed based on the conclusions obtained in the experimental and control groups. As a result, the used preparations showed a significant reduction in morbidity and mortality in farms, increased the survival and live weight of chicks. Bacteriological examinations confirmed a decrease in the isolation of pathogenic E. coli strains. Economic analysis showed that when using the preparations according to a scientifically based plan, it increases the profitability of the farm. As a result, the need for complex use of antibacterial preparations with zoohygienic and biosecurity measures was confirmed.*

Kalit so‘zlar. *Kolibakterioz, Escherichia coli, parrandachilik, profilaktika, OfLosan, Aliseryl WS, antibakterial preparatlar, epizootologiya, bioxavfsizlik, iqtisodiy samaradorlik.*

Kirish. Parrandachilik - uy parrandalarini yetishtirish, chorvachilikning kichik ammo muhum bir tarmog‘i. Parrandachilikning asosiy mahsuloti, oziq-ovqatga ishlatiladigan tuxum va go‘sht hisoblanadi. Qo‘shimcha mahsuloti, parranda pati va pari. Parrandalarni so‘yish va uni qayta ishlash chiqindilaridan qishloq xo’jalik hayvonlari uchun ozuqa uni ishlab chiqariladi. Bulardan tashqari parranda go‘ngi qimmatli organik o‘g‘iti hisoblanadi. Parrandachilikda asosan tuxum yo‘nalishidagi, qisman go‘sht-tuxum va go‘sht yo‘nalishidagi tovuq zotlari boqiladi. Go‘sht yetishtirish uchun go‘sht beradigan tovuq, o‘rdak, kurka, g‘oz, sesarka, kaptarlar ko‘paytiriladi. Parranda go‘shti yetishtirishning asosiy manbai - broylerlarni boqishdir. Shuningdek, bedanadan ham parhez tuxum va go‘sht olinadi.

Parrandachilik bundan 4 ming yil muqaddam dastlab tovuqlar xonakilashtirilgan Hindistoda paydo bo‘lgan va keyinchalik boshqa mamlakatlarga asta-sekin tarqalgan. So’ngra parrandalarning boshqa turlari ham xonakilashtirilgan. XVIII - XIX asrlarda Yevropa, Osiyo va Amerikada uy parrandalarining ko‘pdan-ko‘p zotlari yaratildi. Ushbu daromadli soha bilan shug’ullanadigan tadbirkorlar ularning yuqumli kasalliklari haqida bilishi lozim bo’ladi va bu kasalliklardan biri Kolibakterioz hisoblanadi.

Mavzuning dolzarbligi. Kolibakterioz - bu parrandachilikda juda keng tarqalgan bakterial kasallik bo‘lib, uning etiologik sababi *Escherichia coli* bakteriyasidir. Bu bakteriya normal sharoitda ichak mikroflorasiga kiradi, ammo immunitet pasayganda, stress sharoitlarida, sanitariya qoidalari buzilganda yoki mikroiqlim yomonlashganda patogen xususiyat kasb etadi va parrandalarda og‘ir klinik belgilar bilan namoyon bo‘ladi. Kolibakterioz o‘smayotgan yosh jo‘jalarda o‘limning yuqori bo‘lishi, o‘sish sur’ati pasayishi, sog‘lom parrandalarga nisbatan mahsuldorlikning sezilarli kamayishiga olib keladi, natijada xo‘jaliklar uchun katta iqtisodiy zarar keltiradi.

Farg‘ona viloyati parrandachilik sharoitida olib borilgan monitoring ko‘rsatkichlari kasallanish darajasi 10–18 % atrofida bo‘lib, ba’zi xo‘jaliklarda bu ko‘rsatkich 20 % va undan yuqoriga yetgan. O‘lim darajasi o‘rtacha 5–12 % bo‘lib, preparatsiz sharoitda bu ko‘rsatkich sezilarli darajada yuqori bo‘lgan. Shu sababli kolibakteriozni profilaktika qilish uchun ilmiy asoslangan, xavfsiz va samarali profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish muhimdir.

Kasallik tarqalishi va patogenez. Kolibakteriozning asosiy tarqalish yo‘li fekal-orali yo‘l bo‘lib, toza bo‘lmagan ishchi sharoitlar, chirigan ozuqa, iflos suv, to‘planib qolgan fekal moddalar bakteriyaning keng tarqalishiga sabab bo‘ladi. Patologik jarayon ichak shilliq qavatini zararlaydi, natijada enterit, disbioz, suyuq najas, suvsizlanish va toksik semptomlar rivojlanadi. Immun tizimi zaif bo‘lgan yosh parrandalarda esa bu holat tez og‘irlashadi va yuqori o‘lim ko‘rsatkichiga olib keladi.

Odatda kasallik 7–21 kunlik yoshda ko‘proq rivojlanadi va u vaqtida aniqlanmasa, klinik belgilari kuchayadi: energiya pasayishi, boshni burish, past ovqat iste’moli, suyuq najas yoki ko‘p miqdorda scaabb (fekal moddalarning yakkalanmagan shakli), parrandaning umuman holsizlanishi. Bakteriologik tekshiruvlar orqali *E. coli* ning yuqori kontsentratsiyasini aniqlash kasallikni tasdiqlaydi.

Tadqiqotning maqsadi. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi Farg‘ona viloyati parrandachilik xo‘jaliklarida tovuq kolibakteriozining oldini olishda Oflosan va Aliseryl WS preparatlarini ilmiy asoslangan sxema bo‘yicha qo‘llash samaradorligini aniqlashdir.

Shu maqsad doirasida tadqiqot quyidagi vazifalarni bajarishga qaratilgan:

1. Kolibakteriozning epizootologik xususiyatlarini va patogenezini aniqlash.
2. Preparatlarni profilaktik tarzda qo‘llash orqali kasallanish va o‘lim darajasini kamaytirish samaradorligini baholash.
3. Preparatlar ta’sirida jo‘jalarning tirik qolish ko‘rsatkichlari, o‘sish sur’ati va ozuqa samaradorligini tahlil qilish.
4. Preparatlarni kompleks profilaktika tizimi bilan uyg‘un qo‘llash orqali xo‘jaliklarning iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlash.
5. Kolibakteriozning oldini olish bo‘yicha xavfsiz va samarali amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot joyi: Tadqiqot Farg‘ona viloyati parrandachilik xo‘jaliklarida olib borildi. Xo‘jaliklar turli hajm va intensivlikda faoliyat yuritib, kasallik tarqalish darajasi, xo‘jalik sharoiti va parrandachilik mahsuldorligi ko‘rsatkichlari bo‘yicha kuzatuvlarga mos tanlandi. Tadqiqot joylari bioxavfsizlik va sanitariya sharoitlarini tahlil qilish, kasallik epizootologiyasini aniqlash hamda preparatlarni amaliyotga joriy etish uchun qulay imkoniyat yaratdi.

Tadqiqot usullari:

1. Klinik kuzatuvlar – kasallanish, o‘lim, tirik qolish ko‘rsatkichlari, o‘sish sur’ati va ozuqa samaradorligi monitoring qilindi.

2. Gematologik tahlillar – gemoglobin, eritrotsit va leykotsitlar darajasi o‘lchandi.

3. Bakteriologik tekshiruvlar – ichak va fekal moddalardan E. coli mavjudligi va patogen shtammlar aniqlandi.

4. Iqtisodiy tahlil – preparat qo‘llanilishi natijasida yo‘qotishlar, sof foyda va resurslardan foydalanish baholandi.

5. Statistik tahlil – olingan ma’lumotlar solishtirilib, preparatlarning samaradorligi aniqlandi.

Ushbu usullar preparatlarning kasallikni oldini olish va parrandalar mahsuldorligiga ta’sirini aniq baholash imkonini berdi.

Profilaktika tamoyillari

Profilaktika choralarining samaradorligi yuqori bo‘lishi uchun kompleks yondashuv zarur bo‘lib, u quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi:

1. Zoogigiyenik sharoitlarni yaxshilash - binolarni muntazam dezinfeksiya qilish, toza qurilish materiallari va yoritish tizimini ta’minlash.

2. Mikroiqlim nazorati – harorat va namlik darajalarini me’yorlashtirish, havo aylanishini ta’minlash.

3. Toza ichimlik suvi va sifatli ozuqa berish – ozuqalarni mikrobiologik tekshiruvdan o‘tkazish, suv manbaini zararsizlantirish.

4. Bioxavfsizlik choralari – kirish-chiqish nazorati, aloqa vositalarini dezinfeksiya qilish, kross-kontaminatsiyani oldini olish.

5. Immunizatsiya va farmakologik profilaktika – veterinariya ko‘rsatmasi asosida preparatlarni qo‘llash.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, faqat sanitariya choralariga tayanib kasallikning oldini to‘liq olish mumkin emas, chunki mikroorganizmlar ko‘pincha makro sharoitga moslashib, resurslarni zararsizlantirishdan qochadi. Shu sababli antibakterial preparatlar bilan profilaktika chuqur tahlil etilishi va ilmiy asoslangan sxema bilan qo‘llanishi lozim.

Oflosan va Aliseryl WS preparatlari: tavsifi va ta’sir mexanizmi.

Oflosan - bu keng spektrli antibakterial preparat bo‘lib, gram-manfiy bakteriyalarga, shu jumladan *E. coli* ga yuqori ta’sir ko‘rsatadi. Preparat tarkibida ftorxinolon guruhiga mansub faol modda mavjud bo‘lib, bu modda bakterial DNK girazni inhibe qilib, bakteriyalarning ko‘payishini to‘xtatadi va ularni yo‘q qiladi.

Aliseryl WS - yuqori eruvchanlikka ega bo‘lgan antibakterial preparat bo‘lib, u ichimlik suvi orqali parrandaga oson yuboriladi. Preparat tarkibida bir nechta faol antibiotik komponentlar mavjud bo‘lib, ular sinergetik ta’sir ko‘rsatadi va *E. coli* ga qarshi faollikni oshiradi. Preparatning suvda tez eriydigan shakli profilaktika uchun qulay hisoblanadi, ayniqsa katta miqdordagi jo‘jalar bilan ishlaganda.

Preparatlarni qo‘llash shuni ta’minlaydiki, ichak mikroflorasi patogen bakteriyalarga to‘lib ketmaydi, shu bilan birga o‘sish uchun foydali mikroorganizmlar saqlanadi. Biroq antibiotik preparatlarini qo‘llashda rezistent shtammlar shakllanishi mumkinligi sababli ularni faqat ilmiy asoslangan sxema bo‘yicha qo‘llash muhimdir.

Tadqiqot natijalari. Jo‘jalarning kasallanish va o‘lim ko‘rsatkichlari 1-jadvalda berilgan.

1-jadval.

Kasallanish va o‘lim ko‘rsatkichlari

Guruh	Jo‘jalar soni	Kasallanish %	O‘lim %	Saqlanib qolish %
Nazorat	200	50	45	65
Oflosan	200	0	2,5	97,5
Aliseryl WS	200	0	4,5	96,5

Jadvaldagi natijalar nazorat va tajriba guruhlarida kasallanish, o‘lim va saqlanib qolish ko‘rsatkichlarini taqqoslaydi. Nazorat guruhida, ya’ni profilaktik preparatsiz sharoitda, 200 bosh jo‘jadan 50 % kasallanish va 45 % o‘lim kuzatildi, natijada saqlanib qolish ko‘rsatkichi faqat 65 % ni tashkil qildi. Bu yuqori kasallanish va o‘lim darajasi ko-

libakteriozning parrandachilik xo‘jaliklariga keltiradigan jiddiy xavfini va iqtisodiy zararini aniq ko‘rsatadi.

Tajribada Oflosan preparati qo‘llangan guruhda kasallanish darajasi 0 % ga tushdi, o‘lim esa 2,5 % ga kamaydi, natijada saqlanib qolish 97,5 % ga yetdi. Bu natija preparatning patogen *Escherichia coli* ga qarshi yuqori profilaktik samaradorligini va parrandalarning tirik qolishini maksimal darajada ta’minlashdagi rolini tasdiqlaydi.

Aliseryl WS preparati qo‘llangan guruhda ham kasallanish 0 % bo‘lib, o‘lim 4,5 % ga tushdi, saqlanib qolish esa 96,5 % ni tashkil qildi. Ushbu natijalar Aliseryl WS preparatining ham kolibakterioz profilaktikasida yuqori samaradorligini ko‘rsatadi, biroq Oflosan bilan solishtirganda o‘lim darajasi biroz yuqoriroq bo‘ldi.

Jadvaldagi umumiy natijalar preparatlarni ilmiy asoslangan sxema bo‘yicha qo‘llash orqali kasallanish va o‘limni keskin kamaytirish, tirik vaznni oshirish va xo‘jalikning iqtisodiy samaradorligini sezilarli darajada yaxshilash mumkinligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, preparatlarning xavfsizligi va samaradorligi parrandachilikda profilaktik strategiyaning asosiy komponenti sifatida ularni qo‘llashni asoslaydi.

2-jadval.

O‘sish ko‘rsatkichlari va mahsuldorlik

Guruh	O‘rtacha tirik vazn (g)	Kunlik o‘sish (g)	Ozuqa konversiyasi
Nazorat	1500	48	1,85
Oflosan	1650	53	1,70
Aliseryl WS	1600	51	1,75

Oflosan qo‘llanilgan tajriba guruhida jo‘jalar o‘rtacha tirik vazni 10 % ga oshganini ko‘rsatdi, bu esa preparatning kasallanishni kamaytirish va parrandalarning sog‘lom o‘sishini rag‘batlantirishdagi samaradorligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, ozuqa konversiyasi yaxshilanishi ham qayd etildi, ya’ni bir kilogramm qo‘shimcha vazn olish uchun sarflangan ozuqa miqdori kamaydi. Bu esa oziqlantirish samaradorligini oshirish, xo‘jalikdagi resurslardan oqilona foydalanish va parrandalarning umumiy mahsuldorligini yaxshilash imkonini beradi. Tajriba davomida kuzatilgan o‘sish sur’ati va sog‘lom tirik vaznning oshishi preparatning ichak mikroflorasini barqarorlashtirish va patogen bakteriyalar faolligini kamaytirish orqali parrandalarning metabolik faoliyatini optimallashtirganligini ko‘rsatadi. Shu sababli Oflosan preparatining qo‘llanilishi nafaqat kasallikning oldini olish, balki parrandachilik mahsuldorligini kompleks oshirishga ham xizmat qiladi.

3-jadval.

Gematologik ko‘rsatkichlar

Ko‘rsatkich	Nazorat	Oflosan	Aliseryl WS	Me’yor
Gemoglobin (g/l)	85	108	103	90–120
Eritrotsit (10^{12}/l)	2,3	3,2	3,0	2,5–3,5
Leykotsit (10^{9}/l)	35	25	27	20–30

Jadvaldagi gematologik ko‘rsatkichlar nazorat va tajriba guruhlaridagi parrandalarning qon holatini taqqoslash imkonini beradi. Nazorat guruhida gemoglobin darajasi 85 g/l, eritrotsitlar soni $2,3 \cdot 10^{12}$/l va leykotsitlar $35 \cdot 10^{9}$/l ni tashkil etgan, bu esa yallig‘lanish jarayoni va kasallik belgilarining yuqoriligi bilan izohlanadi.

Oflosan preparati qo‘llangan guruhda gemoglobin 108 g/l, eritrotsitlar $3,2 \cdot 10^{12}$/l va leykotsitlar $25 \cdot 10^{9}$/l ga yetgan. Bu ko‘rsatkichlar preparatning patogen mikrofloraga qarshi samarali ta’siri natijasida organizmda yallig‘lanish jarayonlarini kamaytirgani va qon tarkibini normallashtirgani, shuningdek parrandalarning umumiy sog‘ligini yaxshilagani ko‘rsatadi.

Aliseryl WS preparati qo‘llangan guruhda gemoglobin 103 g/l, eritrotsitlar $3,0 \cdot 10^{12}$/l va leykotsitlar $27 \cdot 10^{9}$/l bo‘lib, bu ham sog‘lom me’yorga yaqinlashgan ko‘rsatkichlarni ifodalaydi. Barcha tajriba guruhlaridagi natijalar preparatlarning toksik ta’siri minimal ekanini va ularni profilaktik maqsadlarda xavfsiz qo‘llash mumkinligini tasdiqlaydi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, Oflosan va Aliseryl WS preparatlari parrandalarda yallig‘lanish belgilarini kamaytirib, qon ko‘rsatkichlarini normaga yaqinlashtirish orqali kasallikka qarshi immun javobni qo‘llab-quvvatlaydi va sog‘lom o‘sish sharoitini ta’minlaydi.

4-jadval.

Bakteriologik tahlillar

Ko‘rsatkich	Nazorat	Oflosan	Aliseryl WS
E. coli aniqlash %	45	14	19
Patogen shtammlar %	32	9	12

Oflosan preparati bakteriyalarni ajratib olish ko‘rsatkichini sezilarli darajada kamaytirdi, bu esa uning patogen mikrofloraga, xususan *Escherichia coli* ga bo‘lgan samarali bakterisid ta’sirini tasdiqlaydi. Bakteriologik tekshiruvlar natijasida tajriba guruhlarida patogen shtammlarning ajratib olinishi nazorat guruhiga nisbatan ancha past bo‘lib, preparatning ichak mikroflorasidagi patogen faollikni bostirish va yallig‘lanish jarayonlarini kamaytirishdagi rolini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, Oflosan preparati foydali mikroorganizmlarga minimal ta’sir ko‘rsatib, parrandaning sog‘lom o‘sishi va ozuqa samaradorligini ta’minlashga imkon berdi. Bu natijalar preparatning nafaqat profilaktik, balki parrandachilik mahsuldorligini oshirishdagi kompleks ijobiy ta’sirini ham isbotlaydi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, antibiotik preparatlarni qo‘llash kasallanishni kamaytiradi va saqlanib qolish ko‘rsatkichini oshiradi. Biroq bu chora yagona yetarli vosita emas. Kompleks profilaktika yondashuvi - sanitariya choralaridan tortib bioxavfsizlik, mikroiqlim nazorati va veterinariya ko‘rsatmalariga qat’iy rioya qilish, immunitetni qo‘llab-quvvatlovchi oziqlantirish strategiyalarini o‘z ichiga oladi.

Preparatlarni nazoratsiz qo‘llash rezistent shtammlar paydo bo‘lishiga olib keladi, shuning uchun ularni qat’iy dozada, veterinariya mutaxassisi nazorati ostida va ilmiy asoslangan sxema bo‘yicha qo‘llash lozim.

Xulosa. Farg‘ona viloyati parrandachilik xo‘jaliklarida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, Oflosan va Aliseryl WS preparatlarini ilmiy asoslangan sxema bo‘yicha qo‘llash kolibakterioz kasalligining oldini olishda yuqori samaradorlikka ega. Preparatlar kasallanish va o‘lim darajasini sezilarli kamaytirib, tirik qolish ko‘rsatkichini oshiradi, jo‘jalarning o‘sish sur’atini yaxshilaydi va ozuqa samaradorligini oshiradi.

Preparatlarni kompleks profilaktika tizimi - bioxavfsizlik, sanitariya choralarini kuchaytirish, sifatli ozuqa va toza suv bilan birga - bilan qo‘llash kasallik tarqalishini sezilarli darajada kamaytiradi va parrandachilik mahsuldorligini barqarorlashtiradi. Iqtisodiy tahlillar preparatlar xo‘jalikning sof foydasini oshirish va resurslardan samarali foydalanishni ta’minlashini ko‘rsatdi.

Shu bilan, Oflosan va Aliseryl WS preparatlarini amaliyotga joriy etish nafaqat kasallikni oldini olish, balki parrandachilik mahsuldorligini oshirish va xo‘jaliklarning iqtisodiy samaradorligini mustahkamlashga xizmat qiladigan samarali ilmiy-amaliy yondashuv hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Bakirov B.B., Ro‘ziqulov N.B. va boshqalar “Hayvonlar kasalliklari” (Ma’lumotnoma), 2015 yil.

2. Bozorov X.K., Xo‘jamshukurov A., Esonov X. Tovuqlar kolibakteriozi va pullorozini davolash hamda oldini olishda yangi antibiotiklarning samaradorligi. J. - Zooveterinariya №4. 2012 yil. 12-13 bet.

3. Bo‘tayeva I.M., Salimov H.S., Davlatov R.B. On The Diagnosis Of Mixed Bacterial Infections Of Birds International Journal of Advanced Science and Technology Vol. 29, No. 9s, (2020), pp. 2308-2315

4. Davlatov R.B., Ibragimov D. Jo‘jalarning eymerioz va kolibakterioz kasalliklarining assotsiativ kechishi va profilaktika chora tadbirlari. Sam MI iqtidorli yoshlarning ilmiy ishlar to‘plami. Samarqand 2006 yil.

5. Davlatov R.B., Salimov X.S., Xo‘djamshukurov A.N. “Parrandalar kasalliklari”, O‘quv qo‘llanma, Samarqand-2018.

6. Davlatov R.B., Nasimov SH.N., Niyozov X.B., Jabborov SH.A., Xo‘djamshukurov SH.A., Safarov X.A. “Parranda kasalliklarini profilaktikasi va davolash bo‘yicha TAVSIYALAR”, Toshkent 2019 yil.

UDK: 619:636.31:636.82.42

DORPER ZOTLI NASLLI QO‘CHQORLAR BILAN BAYAD ZOTLI SOVLIQLARNI SUN’IY URUG‘LANTIRISH

N.R.Ro‘ziboyev, *q.x f.d., professor,*
R.K.Raxmatov, *tayanch doktorant,*
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

Анатация: *В следующей статье рассматривается текущее состояние овцеводства в нашей Республике и мире, перспективы развития овцеводства, необходимость создания новых типов и пород, и в результате растущего спроса на племенные мясные породы и повышенного спроса на баранину и мясные продукты на рынке возникает необходимость обновления существующих пород и создания ржавых пород. Поэтому мы проводим научные исследования потомства, полученного путем искусственного осеменения баранов породы Доплер и овцематок породы Баят.*

Anatation: *The following article discusses the current state of sheep farming in our Republic and worldwide, the prospects for developing sheep farming, the need to create new types and breeds, and as a result of growing demand for pedigree meat breeds and increased demand for lamb and meat products in the market, there is a need to update existing breeds and create rusty breeds. Therefore, we are conducting scientific research on the offspring obtained by artificial insemination of Doppler and Bayat sheep.*

Kalit so‘zlar: *Dorpler, bayad, seleksiya , naslchilik, genofond, go‘sht, go‘sht mahsulotlari, pushtdorlik, nasl, zot, zotdorlik, duragay va boshqalar.*

Mavzuning dolzarbligi. Dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida qo‘ychilik asosiy tarmoqlardan biri bo‘lib hisoblanadi. Qo‘ylarning bosh soni «… jumladan Avstraliyada 70,0 mln, Angliyada 33,0 mln, Yangi Zelandiyada 25,0 mln, Yevropa davlatlarida Ispaniyada 14,0 mln, Germaniyada 1,5 mln, Gollandiyada 732 ming, Fransiyada 6,5 mln, Italiyada 6,5 mln, Amerika qo‘shma shtatlarida 5 mln boshdan» ko‘proqni tashkil qilib, qo‘ychilik jadal rivojlangan davlatlar qatoriga kiradi. Bu davlatlarda qo‘ylarni yaylov va yirik qo‘ychilik komplekslarida yuqori asrash va oziqlantirish sharoitlarida to‘la qiymatli oziqlantirishni ta’minlash, mahsuldorlik va pushtdorlik xususiyatlarini takomillashtirish, jahon genofondiga xos naslli qo‘chqorlarning irsiy imkoniyatlaridan foydalanib, mavjud zotlarni sun’iy urug‘lantirish, seleksiya-naslchilik ishlarini yanada yaxshilab, maqbul mahsuldorlik tipi talablariga javob beradigan qo‘ylarning naslli suruvlardan iqlim sharoitlariga chidamli, konstantligi yuqori qo‘ylarni muttaasil tanlash ishlari olib borish natijasida sermahsul qo‘ylarning yangi tip va zotlarini yaratish, jahon miqyosida dolzarb muammo sifatida qaralmoqda.

So‘ngi yillarda mustaqil hamdo‘stlik davlatlaridan Rossiyada eng ko‘p mayin, yarim mayin jun yo‘nalishida hamda go‘sht yo‘nalishidagi qo‘y zotlari yaratilgan. Belorussiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston va ayniqsa Tojikistonda dag‘al junli qo‘ylardan go‘sht ishlab chiqarish hajmini oshirish muhim vazifa qilib belgilangan. Bu davlatlarda xalqaro bozor talabiga ega yuqori sifatli yosh qo‘y go‘shti ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan. Shularni hisobga olib, go‘sht yo‘nalishidagi qo‘y zotlarining irsiy imkoniyatlaridan foydalanish va shu asosda yuqori go‘sht mahsuldorligiga ega sermahsul suruvlarni yaratish, qimmatli biologik xususiyatlaridan foydalanib, qo‘ylarning go‘sht mahsuldorligini oshirish kabi yo‘nalishlardagi ilmiy izlanishlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimiz aholisini qo‘y go‘shti va qo‘y go‘shti mahsulotlari bilan ta’minlashda qo‘ychilik

tarmog‘ining ahamiyati kattadir. Buning uchun maqbul yaylov oziqlantirish sharoitlarida mavjud go‘sht mahsuldorlik yo‘nalishidagi qo‘ylarning nasldorlik va mahsuldorlik xususiyatlarini yaxshilash, zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish borasida bir qator muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. «...Qishloq xo‘jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 barobar oshirish qishloq xo‘jaligining yillik o‘sishini kamida 5 foizga yetkazish shuningdek, chorvachilik ozuqa bazasini kengaytirish va ishlab chiqarish hajmini 1,5-2 barobar ko‘paytirish» kabi dolzarb vazifalar belgilab berilgan. Qo‘ychilik yo‘naltirilgan ilmiy–tadqiqot ishlarini kuchaytirish, seleksiya-naslchilik ishlarini yaxshilash, zotlarning nasl, mahsuldorlik, pushtdorlik xususiyatlarini takomillashtirish, ularning sermahsul tip va zotlarini yaratish maqsadida jahon genofondiga xos naslli qo‘chqorlardan foydalanib, qo‘ylarni chatishtirish orqali sermahsul genotiplarini yaratishga qaratilgan tadqiqotlar muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Dorper zotli qo‘chqorlar bilan bayad zotli sovliqlarni chatishtirishdan olingan birinchi bo‘g‘in duragaylarning mahsuldorlik xususiyatlarini oshirishda, ularning o‘sish va rivojlanishini, eksteryer xususiyatlarini hamda go‘sht mahsuldorlik ko‘rsatkichlarini aniqlash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi va dolzarb hisoblanadi.

Respublikamizning Qizilqum cho‘l sharoitida go‘sht yo‘nalishidagi qo‘ylarni yetishtirishda, dorper zotli naslli qo‘chqorlar bilan bayad zotli sovliqlarni chatishtirishdan olingan birinchi bo‘g‘in duragay avlodlarning bosh sonini ko‘paytirish, ularning go‘sht mahsuldorligini turli omillardan foydalanib oshirish, bu o‘z navbatida yuqori mahsuldor naslli suruvlarni yaratish hamda qo‘ylarning mahsuldorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning maqsadi – Navoiy viloyati Qizilqum cho‘l sharoitida dorper va bayad zotlarini chatishtirish orqali, olingan F_1 duragay avlodlarning xo‘jalik foydali belgilarini aniqlash asosida, ularning go‘sht mahsuldorligini oshirish tadqiqotning maqsadi hisoblanadi.

Tadqiqotni o‘tkazish joyi va usullari. Ilmiy tadqiqot ishlari 2026-2028 yillarda Navoiy viloyati Konimex tumani “Ibodillo ota yagona chorva” fermer xo‘jaligida o‘tkaziladi. Ilmiy-tadqiqotlarni olib borishda zootexnikaviy: tirik vazni, serpushtligi (ВИЖ metodikasi, 1978); biologik: o‘sish, rivojlanish, eksterer, tana tuzilish indekslari, klinik va gematologik ko‘rsatkichlari umum qabul qilingan usullarda, jun mahsuldorligi V.V. Kalinin “Методика изучения качества шерсти” (ВИЖ 1970) uslubida, seleksion-genetik ko‘rsatkichlar R.Shiller., Ya.Vaxal., Ya. Vinsh “Математика в животноводстве” (1970), statistik: o‘rtacha arifmetik va uning xatosi, guruhlararo farqning ishonchlilik darajasi Ye.K.Merkuryeva “Биометрия в селекции и генетике сельскохозяйственных животных” (1970) uslubidan foydalaniladi.

Tadqiqot natijalari. Ilk bor Qizilqum sahrosi sharoitida dorper zotli qo‘chqorlar bilan bayad zotli sovliqlarni chatishtirishdan olingan birinchi bo‘g‘in duragaylarning o‘sish va rivojlanishini, eksteryer xususiyatlarini hamda go‘sht mahsuldorlik ko‘rsatkichlarini aniqlash asosida, ularning mahsuldorlik xususiyatlarini oshirish usullari ishlab chiqiladi.

Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi tomonidan tasdiqlangan “Chorvachilik sohasida ilmiy yangiliklarni fermer xo‘jaliklari hamda aholi xonadonlariga joriy etish va sohani rivojlantirishdagi muammolar, yechimi va istiqboldagi rejalarga asosan sayyor ilmiy-amaliy seminarlar grafigi” ishlab chiqildi.

Shularni hisobga olib, Navoiy viloyati Konimex tumani “Ibodillo ota yagona chorva” fermer xo‘jaligida “Qo‘ychilikda sun’iy urug‘lantirishni joriy etish-naslli qo‘ylarning bosh sonini ko‘paytirish va yangi qo‘y zotlarini yaratish omilidir” mavzusida ilmiy-amaliy seminar o‘tkazildi.

“Ibodillo ota yagona chorva” fermer xo‘jaligida qo‘ylarni sun’iy urug‘lantirish ko‘rgazmasi - fermer xo‘jaligi rahbari Lazizbek Hakimov fermer xo‘jaligi tashkil etilishida olib kelingan qo‘y zoti va ularni boshqa go‘sht yo‘nalishidagi zotlar bilan chatishtirish, ushbu qo‘ylarni naslli qo‘chqorlarning urug‘lari bilan sun’iy urug‘lantirish ishlari va uning afzalliklari to‘g‘risida seminar ishtirokchilarini tanishtirdi.

Seminar ishtirokchilari Mongoliya davlatidan bayad zotli qo‘ylarni olib kelganligi, bugungi kunda ham bu ishlar davom ettirilayotganligi, bu esa tumanda chorvachilikni rivojlantirishda muxim va dolzarb ahamiyatga ega ekanligi to‘g‘risida tegishli ko‘nikmaga ega bo‘ldilar. Shuning bilan birga, seminar o‘tkazilayotgan “Ibodillo ota yagona chorva” fermer xo‘jaligi negizida “Seleksion-genetik markaz” tashkil etish taklif etildi.

Xulosa. Fermer xo‘jaligi cho‘l-sahro hududi sharoitida bayad zotli sovliqlarni dorper zotli naslli qo‘chqorlarning urug‘lari bilan sun’iy urug‘lantirish muhim amaliy ahamiyatga ega bo‘lib hisoblanadi. Qo‘ychilikda sun’iy urug‘lantirishni joriy etish seleksiya-naslchilik ishining eng oliy darajasi ya’ni zamonaviy innovasion intensiv texnologiyalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ro‘zibaev N.R., Shayusupov B.B. “Biological Properties And Breeding Of Meat And Wool Sheep The” American Journal of Agriculture and Boimedical Engineering 2020-yil https://doi.org/10.37547/tajabe/Volume02Issue09-12 (ISSN – 2689-1018).

2. Ro‘zibaev N.R., Mamadaliyeva X.N. “Эффективность использования потомства овец разных генотипов” international scientific and practical conference 2025-yil https://doi.org/10.5281/zenodo.14932937.

3. Ro‘zibaev N.R., To‘htaev O. B. “Lambs of different breeds and breeds meat production”, Multidisciplinary and Multidimensional Journal, ISSN: 2775-5118, Vol.4 No.4 (2025) I.F. 9.1

4. Ro‘zibaev N.R., Shayusupov B.B., O‘ralov N.N., Xasanova S.G‘. “Ўзбекистонда қўйларни парваришлаш, озиқлантириш ва наслчилик ишлари бўйича ўқув-услубий қўлланма” Toshkent 2019 18 б.



UDK: 636.081

TAJRIBADAGI SIGIRLARNING EKSTERER KO‘RSATKICHLARI

Safarova Nargiza Tashmuratovna, *mustaqil izlanuvchi,*
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

Annotation: *This article presents data on the external characteristics and body composition indicators of Simmental cows. The average height at the withers of beef Simmental cows in experimental group III was 138.5 cm, which is 4.1-1.6 cm higher than that of their dairy and dairy-beef counterparts in experimental groups I and II, the height of the sacrum was 3.9-1.7 cm higher, the width of the chest was 1.3-2.3 cm higher, the chest circumference was 4.1-8.4 cm higher, the chest depth was 1.3-3.9 cm higher, the oblique body length was 0.9-2.8 cm higher, the width of the iliac crests was 0.9-2.5 cm higher, and the hip circumference was 1.4-2.1 cm higher.*

Аннотация. *В данной статье представлены данные о внешних характеристиках и показателях состава тела коров симментальской породы. Средняя высота в холке у коров симментальской породы мясного типа в экспериментальной группе III составила 138,5 см, что на 4,1-1,6 см выше, чем у их аналогов, молочных и молочно-мясных типов в экспериментальных группах I и II, высота крестца на 3,9-1,7 см, ширина грудной клетки на 1,3-2,3 см, окружность грудной клетки на 4,1-8,4 см, глубина грудной клетки на 1,3-3,9 см, косая длина тела на 0,9-2,8 см, ширина подвздошных гребней на 0,9-2,5 см, и окружность бедер на 1,4-2,1 см.*

Kalit so‘zlar: *Eksterer, tana tuzilish indeksi, yag‘rin balandligi, dumg‘aza balandligi, ko‘krak kengligi, ko‘krak aylanasi, ko‘krak chuqurligi, gavdaning qiya uzunligi,* yonbosh cho‘qqilar kengligi *poycha aylanasi.*

Mavzuning dolzarbligi. Eksterer ko‘rsatkichlarini o‘rganishdagi eng muhim vazifa hayvonning u yoki bu mahsuldorlikka bo‘lgan qobiliyatini aniqlashdir. Eksterерni o‘lchovlar olish yordamida baholashdan asosiy maqsad ko‘z bilan qarab baholashni aniq obyektiv qilishdir. O‘lchovlar olish uchun maxsus asboblar, o‘lchov tayog‘i, o‘lchov lentasi, sirkul, uglomer qo‘llaniladi. Hayvonni o‘lchash oldidan hamma o‘lchov asboblarining aniqligi tekshirilib ko‘riladi. Ayrim o‘lchovlar yordamida faqatgina ayrim tana qismlarining rivojlanganligini bilish mumkin. Hayvonlarni ertalab oziqlantirish oldidan yoki oziqlantirishdan 3 soat keyin o‘lchash lozim. Ular tekis maydonchada tinch holda turishlari lozim. Oyoqlar to‘g‘ri qo‘yilgan, bosh to‘g‘ri turgan bo‘lishi kerak.

Eksterерni o‘rganish va baholash muhim zootexnikaviy tadbir bo‘lib, nazariy bilim va amaliy tajribani talab qiladi. Dastlab hayvon tanasining umumiy tuzilishi, tana qismlarining o‘zaro mutanosibligi, zot tipining ko‘rinishi, mahsuldorlik yo‘nalishi aniqlanadi. Shundan so‘ng ayrim tana qismlari baholanadi. Eksterерni xarakterlovchi muhim tana qismlariga bosh, bo‘yin, yag‘rin, ko‘krak, yelka, bel, sag‘rin, oyoqlar, sut bezlari, jinsiy organlar, teri, muskul, suyak to‘qimalarini rivojlanishi kabilar kiradi. Sersut sigirlarning oziqlantirish organlari, yuragi, o‘pkasi, sut bezlari kuchli rivojlangan bo‘lib, suyaklari yengil va muskul qismlari nisbatan yetarli rivojlanmagan bo‘ladi. [3; 20-21 b].

Qoramollar tanasining mutanosib rivojlanganligini baholashda tana indekslari, ya’ni bir tana o‘lchamining ikkinchi tana o‘lchamiga nisbatining foizda ifodalanishi muhim ahamiyatga ega. Tana indekslari mollarning tana tuzilishi xilini, shuningdek ular konstitutsiyasining xususiyatlarini baholashda muhim usul hioblanadi. [1; 32-33 b].

Sermahsul sigirlarning ko‘krak qafasi eniga, bo‘yiga va chuqurligiga yaxshi rivojlangan bo‘ladi. Sersut qoramollarda ko‘kragi uzunroq bo‘lishligi, go‘shtdor zotlarda esa ko‘kragi keng va chuqur

bo‘lishi ma’qul. Ko‘krak chuqurligini qanchalik rivojlanganligini molning balandligiga solishtirish bilan chamalash mumkin. [2; 31 b].

Ma’lumki, hayvonlarni rivojlanishi to‘g‘risida fikr yuritilganda ularning eksterer ko‘rsatkichlari ko‘z oldimizda gavdalanadi. Chunki, hayvonlarni konstitutsiyasiga qarab baho berilganda eksterer ko‘rsatkichlari muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlarda turli ishlab chiqarish tipidagi sigirlarning ekstererini o‘rganish ularning mahsuldorlik yo‘nalishini, tanasining mutanosib rivojlanganligini baholashda alohida ahamiyatga ega. [4; 55 b].

Tadqiqotni o‘tkazish joyi va ish uslubi. Tadqiqotlar 2023-2025 yillar davomida Qashqadaryo viloyati Qamashi tumani hududida joylashgan, “Murodov Rahmatulla Mavlonovich” MCHJ nomli naslchilik fermer xo‘jaligida bajarilgan. Tajriba uchun o‘xshashlik belgilari talablari asosida zoti, zotdorligi, yoshi e’tiborga olingan holda turli ishlab chiqarish tipidagi simmental zotli sigirlar uchta guruhga ajratilib I guruhga sut tipiga mansub, II guruhga sut-go‘sht tipiga mansub, III guruhga esa go‘sht tipiga mansub sigirlar har bir guruhga 15 boshdan olindi. Sigirlarning eksterer ko‘rsatkichlari laktatsiyaning 3-oyida 8 ta tana o‘lchamlari zootexniyada umumiy qabul qilingan uslublarda o‘rganildi hamda ushbu olingan tana o‘lchamlari asosida tana tuzilish indekslari aniqlandi.

Tadqiqot natijalari. Eksterer ko‘rsatkichlarini aniqlashning eng asosiy usullaridan biri bu hayvonlarning tanasidan o‘lchamlar olish usuli hisoblanadi. Tadqiqotlarimizda turli ishlab chiqarish tipiga mansub simmental zotli sigirlardan muhim bo‘lgan asosiy 8 ta tana o‘lchamlarini o‘rganib olingan natijalarni quyidagi 1-jadvalda keltirdik.

1-jadval ma’lumotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, III tajriba guruhidagi go‘sht tipiga mansub sigirlarning yag‘rin balandligi o‘rtacha 138,5 sm ni tashkil etib o‘z tengqurlari, I va II tajriba guruhlaridagi sut va sut-go‘sht tipiga mansub sigirlardan tegishlicha: 4,1-1,6 sm, dumg‘aza balandligi 3,9-1,7 sm, ko‘krak kengligi 1,3-2,3 sm, ko‘krak aylanasi 4,1-8,4 sm, ko‘krak chuqurligi 1,3-3,9 sm, gavdaning qiya uzunligi 0,9-2,8 sm, yonbosh cho‘qqilar kengligi 0,9-2,5 sm va pocha aylanasi 1,4-2,1 sm ga yuqoriroq ko‘rsatkichlarni qayd etgan.

1-jadval.

Tajribadagi sigirlarning eksterer ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar	Guruhlar					
	I		II		III	
	n=15					
	$\overline{X} \pm Sx$	Cv, %	$\overline{X} \pm Sx$	Cv, %	$\overline{X} \pm Sx$	Cv, %
Yag‘rin balandligi	134,4±1,38	3,85	136,9±1,19	3,26	138,5±1,22*	3,31
Dumg‘aza balandligi	137,3±1,25	3,40	139,5±1,28	3,43	141,2±1,29*	3,42
Ko‘krak kengligi	51,8±0,68	4,93	53,3±0,86	6,09	54,1±0,80*	5,55
Ko‘krak aylanasi	208,6±2,23	4,01	212,5±3,972	6,55	216,6±2,94*	5,08
Ko‘krak chuqurligi	71,9±1,14	5,95	74,5±1,22	6,13	75,8 ±1,25*	6,18
Gavdaning qiya uzunligi	159,3±0,82	1,93	161,2±0,78	1,81	162,1±0,92*	2,12
Yonbosh cho‘qqilar kengligi	52,3±0,78	5,59	53,9±0,87	6,06	54,8±0,85*	5,81
Poycha aylanasi	21,1±0,33	5,87	21,9±0,37	6,33	23,3±0,39***	6,29

Izoh: *(P>0,95) ***(P>0,999)

2-jadval.

Tajriba guruhlaridagi sigirlarning tana tuzilish indekslari (%)

Indekslar	I	II	III
Uzunoyoqlilik	46,5	45,6	45,3
Cho‘zinchoqlik	118,5	117,7	117,0
Ko‘krak	72,0	71,5	71,3
Tos-ko‘krak	99,1	98,9	98,7
Zichlik	130,7	131,8	133,6
Suyakdorlik	15,8	16,0	16,8

Olib borilgan tadqiqotlarimizning uslubiga asosan, olingan tana o‘lchamlari asosida, tajriba guruhlaridagi sigirlarning tana tuzilish indekslarini hisoblab olingan ma’lumotlarni quyidagi 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, I tajriba guruhidagi sigirlarda uzunoyoqlilik indeksi II va III tajriba guruhlaridagi sigirlarga nisbatan past ko‘rsatkichga ega, bu esa II va III tajriba guruhlaridagi sigirlar tanasining yirikligini ko‘rsatadi. I tajriba guruhidagi sigirlar cho‘ziluvchan tanaga ega va ularning ko‘krak qafasi II va III tajriba guruhlaridagi sigirlarga qaraganda biroz yaxshiroq rivojlanganligini cho‘zinchoqlik va ko‘krak indekslardan ham ko‘rishimiz mumkin. Nisbatan zich rivojlangan tanaga III tajriba guruhidagi sigirlar ega bo‘ldi, buni zichlik indeksi ma’lumotlaridan ham ko‘rishimiz mumkin.

Tajriba guruhlaridagi sigirlarning uzunoyoqlilik indeksi 45,3-46,5% oralig‘ida bo‘ldi. Cho‘ziqlilik, ko‘krak, tos-ko‘krak, zichlik va suyakdorlik indekslari shunga mutanosib ravishda: 117,0-118,5; 71,3-72,0; 98,7-99,1; 130,7-133,6 va 15,8-16,7% oralig‘ida bo‘lgan.

Xulosa. Olingan tana o‘lchamlari va hisoblangan tana tuzilish indekslaridan xulosa qilish mumkinki III tajriba guruhidagi sigirlarining tanasi yirik rivojlangan, tana o‘lchamlari sut va sut-go‘sht tipiga mansub I va II tajriba guruhlaridagi sigirlarnikidan yuqori ko‘rsatkichlar bilan tavsiflandi. I tajriba guruhidagi sut tipidagi sigirlar cho‘ziluvchan va yaxshi rivojlangan ko‘krak qafasiga ega bo‘ldilar. Umuman olganda, tadqiqot uchun obyekt qilib olingan barcha tajriba guruhlaridagi sigirlar mutanosib tana tuzilishiga ega bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Ashirov M.I. Sutdor qoramollar seleksiyasi. Toshkent “Navro‘z” nashriyoti 2017. 31-32 bet.

2.Nosirov U.N. Qoramolchilik. Toshkent. 2001. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti 31 b.

3.Kaxarov A.K., Narbaeva M.K., Shaptakov E.S., Shermatov A., Xushvaqtov A.A. “Qishloq xo‘jalik hayvonlarini urchitish” Samarqand “Zarafshon” nashriyot DK 2019 20-21 bet.

4.Sattorov F.R. “Simmental zotli turli ishlab chiqarish tipidagi sigirlarning zarafshon vohasi sharoitida mahsuldorlik va moslashuvchanlik xususiyatlari” q.x.f.f.d. (PhD) diss., Samarqand 2022 55 b

UDK: 62-11

CHORVACHILIK MAHSULOTLARINI QADOQLASH MATERIALLARINING SINFLANISHI

Sh.Fayziyeva, *magistrant,* **R.Pardayev,** *q.x.f.f.d. (PhD),*
Q.Musurmonov, *mustaqil tadqiqotchi,*
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

Аннотация. *В данной статье представлена информация о классификации упаковочных материалов для животноводства, их преимуществах, правилах использования, методах эксплуатации и показателях качества, а также о важности упаковочных машин в пищевой промышленности.*

Abstract. *This article provides information on the classification of livestock packaging materials, their advantages, rules of use, operating techniques and quality indicators, and the importance of packaging machines in the food industry.*

Kalit so'zlar. *Mahsulot, sinf, oziq-ovqat, material, qayta ishlash, qishloq xo'jaligi, korxona, texnologiya.*

Kirish. So'nggi yillarda chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish ularni saqlash va o'z vaqtida qayta ishlash maqsadida bir qator qonunlar va farmonlar qabul qilinmoqda. Shu sababli bu yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlami yig'ib olish, saqlash va qayta ishlashni to'g'ri tashkil etib, yangi zamonaviy omborxonalar va qayta ishlash korxonalari bunyod etilishi, qolaversa, bu boradagi fan-texnika va ilg'or texnologiyalami tadbiq etish, xorij tajriba yutuqlarini o'rganib ishlab chiqarishga keng joriy etilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu bilan bir qatorda qishloq xo'jaligini modemizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini jadal yangilash biz uchun eng muhum ustivor vazifa sifatida izchil davom ettirilishi lozim.

Hozirgi vaqtda zamonaviy qadoqlash mashinalari yaratilib, yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini o'z vaqtida, yangiligida va qayta ishlangan holda zamonaviy usulda qadoqlab, iste'molchilarga sifatli oziq-ovqat mahsuloti holida yetkazib berish insoniyat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Buning sababi shundaki, zamonaviy usulda qadoqlangan mahsulotlarning jahon bozorida tezda sotilishi, mahsulot raqobatbatdoshligini ta'minlash, bozorning rivojlanishi va salohiyatini oshirish, xaridorlarning iste'mol madaniyatini ijobiy tomonga o'zgartirishini ta'minlashi bilan izohlanadi.

Oziq-ovqat sanoatida qadoqlash mashinalari nafaqat mahsulotlarni qadoqlash, balki ilm-fan va qayta ishlash korxonalarida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni qadoqlashda foydalanilayotgan mashinalarni yanada diversifikatsiya qilish orqali, bozor iqtisodiyotining yuksalishiga ko'maklashish, aholi turmush darajasini oshirish hamda sog'lom iste'mol madaniyatini shakillantirish, ichki bozorni yaxshilashda keyingi qadam bo'lishi, iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish va mahsulotimizning dunyo bozorida tezda o'z o'rnini egallashiga imkon beradi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sohasining hozirgi bosqichdagi asosiy maqsadi: xom ashyo yetishtirish joylarida zamonaviy qayta ishlash zavodlarini joylashtirish, dunyo bozorida konserva mahsuloti assortimenti va miqdori mavqeyini mustahkamlash, kelajak uchun aniq istiqbolli rejaga ega bo'lishdir. Korxonaning rivojlanish shakli, uni yuqori organlar tomonidan rivojlanishini boshqarish mexanizmini shakllantrish kerak. Ishlab chiqarish tarmog'ini inqirozdan himoyalash choralarini ko'rish kerakligini bugungi davrning o'zi ko'rsatmoqda.

Chorvachilikdan olinadigan mahsulotlarni qayta ishlash texnologiyasi sohasining rivojlanishi bilan ushbu sohada qadoqlash ham toboro muhim o'rin egallab bormoqda. Tayyor chorva mahsulot-

larini qadoqlash o‘z ichiga quyidagi asosiy vazifalarni oladi:

1. Qadoqlash mashinalarining ishlash jarayonini avtomatlashtirish orqali mehnat unumdorligini sezilarli darajada oshirish; masalan, qand sanoatida qo‘l mehnati orqali 1 daqiqada bir qop shakarni qadoqlash mumkin va shakar qadoqlaydigan zamonaviy mashina yordamida esa daqiqasiga o‘nlab qoplarni qoplashi mumkin. Qadoqlash mashinasining ish samaradorligi qo‘l mehnatiga qaraganda o‘nlab marta yuqori.

2. Avtomatlashtirilgan qadoqlash mashinalari yordamida qadoqlangan mahsulotlarning sifatini yuqori darajada saqlash, xom ashyoning o‘ziga xos xususiyatlarini ya’ni rangi, mazasi, hidi, shakli va hajmini saqlab qolish hamda oziq-ovqat standarti talablariga muvofiq bo‘lishini ta’minlash va mahsulotni standartlashtirishga erishish, jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirish talab etiladi. Qo‘lda qadoqlanganda esa mahsulot sifati kafolatlanmaydi.

3. Mahsulotlarni qo‘lda qadoqlashning imkoni bo‘lmagan taqdirda, mexanik qadoqlash mashinalarida (avtomatlashtirilgan) amalga oshirish mumkinligi. Masalan vakumli qadoqlash, shaffof qadoqlash, izostatik muhirlash (plomba) va hokazo.

4. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida ortiqcha ish sarfini kamaytirish, mehnat sharoitlarini yaxshilashga imkon yaratish, ishlab chiqarilgan mahsulot xavfsizligini ta’minlashda eng yuqori sifatli qadoqlash mashina va jihozlari bilan ta’minlanishi talab etiladi.

5. Mahsulotlarni mexanik qadoqlashda atrof muhitni ifloslanishdan samarali himoya qilish. Xodimlarning mehnat xavfsizligi muhofazasini ta’minlash, ishchi xodimlarning sog‘lig‘iga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar ya’ni changlar, toksinlar, radioktiv moddalar va hashoratlarning zararli ta’siriga yo‘l qo‘yish mumkin emas.

6. Mahsulotning ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga, saqlash va saqlash maydonini tejashga imkon beradigan; masalan paxta, tamaki, ipak va hokozo kabi xomashyolarning o‘lchamlarini sezilarli darajada kamaytirish orqali qadoqlash, saqlash va tashishda transport xarajatlarini kamaytirish uchun xizmat qiladigan zamonaviy avtomatlashtirilgan qadoqlash mashinalarini joriy etish talab etiladi.

7. Mahsulotning gigiyenik sifat ko‘rsatkichlarini ishonchli ta’minlash uchun: oziq-ovqat, farmatsevtika sohasi mahsulotlarini oziq-ovqat talablari va sog‘liqni saqlash qonuniga muvofiq qo‘lda qadoqlashga yo‘l qo‘yilmaydi, chunki ushbu mahsulotlarning sifati buzilishiga olib keladi hamda oziq-ovqat va dori-darmon vositalari bilan bevosita aloqada bo‘lishga yo‘l qo‘ymaslik uchun avtomatlashtirilgan qadoqlash mashina va jihozlaridan foydalanish shart qilib belgilab qo‘yilgan.

Xulosa. Qadoqlash mashinalarining ishlash jarayonini avtomatlashtirish orqali mehnat unumdorligini sezilarli darajada oshirish, avtomatlashtirilgan qadoqlash mashinalari yordamida qadoqlangan mahsulotlarning sifatini yuqori darajada saqlash, chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida ortiqcha ish sarfini kamaytirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158 sonli “O‘zbekiston-2030” strategiyasi 54-qadam.

2. I.I.Mamatkulov, H.R.Abraeva. Xom ashyo va tayyor mahsulotlarni qadoqlashda innovatsion idishlar va qadoqlash materiallaridan foydalanish. “Perspectives for the integration of natural sciences” republican scientific and practical conference november 22, 2024

3. Sh.Fayziyeva, R.Pardayev. Efficiency using polymer containers in packaging dairy and meat products. American Journal of Biology and natural Sciences. https://biojournals.us/index.php/AJBN-SISSN: 2997-7185. Volume: 3|Number: 01(2026) Jan 212-214 P.

4. R.Pardayev, Sh.Fayziyeva. Characteristics of Containers Used for Packaging Livestock Products. International Journal of Biological Engineering and Agriculture Volume 04 Number 03 (2025) Impact Factor: 9.51 SJIF (2023): 3.916 49-52 - bet

UDK: 619:579.64:636.5

BROYLER JO‘JALARIDA PROBIOTIK PREPARATLARINING O‘SISH, RIVOJLANISHGA TA’SIRI

Sherqulov A’zam Mirzoqul o‘g‘li, *tayanch doktorant,*
Veterinariya ilmiy tadqiqot instituti,
Tursunova Maftuna Rahmon qizi, *veterinariya vrachi,*
Samarqand viloyat hayvonlar kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi davlat markazi

Аннотация: *В данной статье рассматривается использование пробиотиков в современном промышленном птицеводстве и обсуждаются актуальные проблемы в этой области. Изучена динамика изменений выживаемости и массы тела цыплят-бройлеров разного возраста при применении пробиотиков.*

Abstract: *This article examines the use of probiotics in modern industrial poultry farming and discusses current issues in this area. The dynamics of changes in survival and body weight in broiler chickens of different ages with the use of probiotics are studied.*

Kalit so’zlar: *Probiotik, kross, preparat, ratsion, parranda, ichak mikroflorasi, tajriba va nazorat*

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda parrandachilik qishloq xo‘jaligining eng jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri bo‘lib, aholini arzon va sifatli hayvon oqsili bilan ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Parrandachilik mahsulotlari - tuxum va parranda go‘shti - inson oziqlanishida muhim biologik ahamiyatga ega bo‘lib, ularning xavfsizligi va sifati bevosita parrandalar sog‘lig‘iga bog‘liqdir. Shu sababli parrandalarda kasalliklarning oldini olish, ularning immun holatini mustahkamlash va biologik xavfsizlikni ta’minlash zamonaviy veterinariya fanining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

So‘nggi yillarda parrandachilikda antibiotiklardan profilaktik va o‘sishni rag‘batlantiruvchi vosita sifatida foydalanish cheklanishi, antibiotiklarga chidamli mikroorganizmlarning paydo bo‘lishi va ekologik xavfsizlik talablarining kuchayishi natijasida muqobil biologik preparatlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, probiotik preparatlar parrandachilikda keng qo‘llanilayotgan, samaradorligi yuqori va xavfsiz vositalardan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

Probiotiklar tarkibiga kiruvchi foydali mikroorganizmlar ichak mikrobiotasining muvozanatini tiklash, patogen mikrofloraning rivojlanishini cheklash, ovqat hazm qilish jarayonlarini yaxshilash hamda organizmning umumiy rezistentligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, Bacillus subtilis asosidagi probiotiklar sporali tuzilishga ega bo‘lgani sababli tashqi muhit omillariga yuqori chidamlilikka ega bo‘lib, ozuqa tarkibida uzoq muddat faol saqlanishi va ichak muhitida biologik faolligini namoyon etishi bilan ajralib turadi.

Tadqiqoning ob’yekti va usuli. Ilmiy tadqiqotlar Samarqand viloyat “Darg’om parranda” MCH-Jga qarashli broyler jo‘jalarida amalga oshirildi. Etalon oxshash juftliklar tamoili asosda 5-kunlikdan 26-kunlikgacha bo’lgan “Ross-308” broyler go‘sht yo‘nalishidagi parranda krossi” larga suv bilan 1-10 kunlikgacha 0.5/1000 litr, 11-21 kunlikgacha 1/1000 litr va 21-35 kunlikgacha 3/1000 llitr suviga qo‘shib berib borildi va jujalarning tana vaznini o‘zgarish dinamikasi va yashovchanligi o‘rganib borildi. Tajriba va nazorat guruhdagi jujalarni tana vazni electron tarozi yordamida, yashovchanligi tajriba davomida jujalarning nobud bo‘lishiga qarab aniqlangan.

Tadqiqotning natijalari. Xo’jalik ratsion orqali boqilgan broyler jo’jalarining ozuqa sifatini

1-jadval.

Broyler jo‘jalarning ratsion tarkibi

Oziqa turlari	O‘lchov birligi	Start	Rost	Finish
		1-10 kunlar	11-24 kunlar	25-40 kunlar
Bug‘doy doni	%	34,38	42,08	40,27
Soya shroti	%	31,0	28,3	23,6
Makka doni	%	28,0	22,0	27,9
Kungaboqar yog‘i	%	2,0	3,8	4,6
Premiks	%	3,0	2,5	2,5
Izvestnyak	%	1,62	1,32	1,13
		100,00	100,00	100,00
Almash. Energiya	kkal 100g	306	318	326
Xom protein	%	22,18	21,06	19,13
Xom yog‘	%	4,07	5,71	6,66
Kletchatka	%	3,71	3,60	3,36
Lizin	%	1,32	1,16	1,03
Metionin	%	0,7	0,61	0,55
Treonin	%	0,93	0,82	0,73
Triptofan	%	0,28	0,27	0,24
Arginin	%	1,33	1,25	1,11
Valin	%	0,94	0,88	0,80
Gistidin	%	0,14	0,15	0,16
Kalsiy	%	1,05	0,9	0,85
Fosfor	%	0,61	0,55	0,51
Kaliy	%	0,86	0,83	0,74
Natriy	%	0,19	0,19	0,19
Xlor	%	0,28	0,27	0,27
Xolin xlorid	%	1,25	1,23	1,12

ta’minlash. Makkajo’xori, bug’doy, kepak, soya va boshqa ozuqaviy qo’shimchalar bo’lishi aniqlandi. Bunga Bacillus subtilis asosidagi probiotiklarni broyler jo‘jalar ozuqasiga (suvga) qo‘shib parrandalarning yashovchanligini va tana vazni o’rganib borildi.

Ratsioni tahlili orqali xo‘jalikdagi broylerlar 1-kunlikdan 10 kunlikgacha start yemi bilan boqilib (Bug‘doy doni-34,38, Soya shroti-31,0, Makka doni-28,0, Kungaboqar yog‘i-2,0, Premiks-3,0 va Almash. Energiya kkal 100g -306 ni) tashkil qilishi aniqlandi. 11-kunligidan 24-kunlikgacha rost yemi bilin boqilib (Bug‘doy doni-42,08, Soya shroti-28,3, Makka doni-22,0, Kungaboqar yog‘i-3,8, Premiks-2,5 va Almash. Energiya kkal 100g -318 ni) tashkil qildi va 25-kunligidan to so‘yilguncha finish yemi bilan boqilib uning (Bug‘doy doni-40,27, Soya shroti-23,6, Makka doni-27,9, Kungaboqar yog‘i-4,6, Premiks-2,5 va Almash. Energiya kkal 100g -326 ni) tashkil qildi.

Broyler jo‘jalarini saqlash va parvarishlashda zoogigienik me’yorlarini yaratib berish muhim omillardan biridir. Bacillus subtilis asosidagi probiotiklar qo‘llab, ratsion bo’yicha oziqlantirib kunlik, haftalik o‘sishni nazorat qilish, 1 kg qo‘shimcha tirik vaznga omuxta yem sarfi va bo‘rdoqilash muddatlariga e’tibor berildi. Tajribadagi broyler jo’jalarni 15 boshdan 2 guruhga ajratib, qalin to’shamali to’siqli xonaga joylashtirildi. Har ikkala guruhdagi broyler jo’jalarni o’stirishda sharoitlar

2-jadval.

Tajriba va nazorat guruhdagi jo‘jalari tana vazning o‘zgarishi (n=30)

Yoshi va guruhlar	Nazorat guruh	Tajriba guruhi	Farqi nazoratga nisbatan
Tirik vaznning o‘zgarib borish dinamikasi (5-26-kun)			
5-kunlik	192,4±2,1	196,2±1,2	3,8±0,9
12-kunlik	425,7±2,2	469,8±3,4	44,1±1,2
19-kunlik	834,8±2,4	904,2±2,1	69,4±0,3
26-kunlik	1352,6±5,6	1454,5±3,1	101,9±2,5
Yashovchanlik %	86,7	100	13,3
O‘sish davrida tirik vaznning ortishi g			
Bir boshning o‘rtacha og‘irligi	1352,6±5,6	1454,5±3,1	101,9±2,5
Nazoratga nisbatan farqi %	**100**	**107,5**	**7,5**

yaratildi; faqat 1-tajriba guruhga suvga qo’shib Bacillus subtilis asosidagi probiotik qo’llanildi. 2-jadval Tajriba va nazorat guruhidagi jujalar yashovchanligi tahlil qilinganda tajriba guruhdagi jujalarda 100 % ni, nazorat guruhda 86,7 % ni tashkil qilishi aniqlandi. Broyler jujalar Bacillus subtilis asosidagi probiotiklar bilan boqilganda yashovchanlik samaradorligi yuqori bo‘lib tana vazni tajriba guruhda nazoratga nisbatan 7,5 % ga yuqori bo‘lishi aniqlandi.

Xulosa: Bacillus subtilis asosidagi spora hosil qiluvchi bakteriyalariga asoslangan probiotiklarni broyler jo’jalariga qo‘llash orqali, parrandalarning yashovchanligi nazoratga nisbatan 13,3 % ga va tana vaznini 7,5 % ga yuqori bo‘lishi tajribada aniqlandi.

Foydalaniladigan adabiyotlar

1. Castanon J.I.R. History of the use of antibiotic as growth promoters in European poultry feeds // Poult. Sci. – 2007. – V. 86, No 11. – P. 2466–2471. doi: 10.3382/ps.2007-00249.

2. Park Y.H., Hamidon F., Rajangan Ch., Soh K.P., Gan Ch.Yu., Lim Th.S., Abdullah W.N.W., Liong M.T. Application of probiotics for the production of safe and high-quality poultry meat // Korean J. Food Sci. Anim. Resour. – 2016. – V. 36, No 5. – P. 567–576. – doi: 10.5851/kosfa.2016.36.5.567.

3. Алексеев Г.А. Примения и состав бактериалных препаратов Москва 1991 г.

4. Н.В. Феоктистова, А.М. Марданова, Г.Ф. Хадиева, М.Р. Шарипова “Пробиотики на основе бактерий рода bacillus в птицеводстве” Казанский (Приволжский) федеральный университет, г. Казань, 420008, Россия 2017

5. Baruzzi F., Quintieri L., Morea M., Caputo L. Antimicrobial Compounds Produced by Bacillus spp. and Applications in Food / A. Méndez, Ed. Formatex Microbiology Series Publication, Spain: Formatex, 2011. P. 1102–1111.



UDK: 636.3.59

HISORI ZOTLI QO‘YLAR BACHADON SHOXLARINING MORFOMETRIK XUSUSIYATLARI

Tangirov Kayum Jurayevich, *v.f.n., professor v.b.,*
Allamurodov Behzod Panjimurod o‘g‘li, *magistrant,*
Abdusaitov Anvar Shokir o‘g‘li, *magistrant,*
Abdinazarova Xosiyat Sodiqovna, *magistrant,*
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti

Аннотация*. В данной статье отмечено, что линейные размеры рогов матки коз местной породы, выращенных в условиях Сурхандарьинской области, быстро увеличиваются с первых 3 дней до 6 месяцев постнатального онтогенеза и имеют наибольший показатель в 60 месяцев. Коэффициент роста абсолютного показателя длины правого рога плода за период от 3 дней до 60 месяцев постнатального онтогенеза коз составляет 145,81 раза, коэффициент роста абсолютного показателя длины левого рога коз от 3 суток постнатального онтогенеза до 60 мес в период до 135,51 раз.*

Abstract. *This article demonstrates that the linear dimensions of the uterine horns of local goats raised in the Surkhandarya region rapidly increase from the first 3 days to 6 months of postnatal ontogenesis, reaching their peak at 60 months. The absolute growth rate of the fetal right horn length from 3 days to 60 months of postnatal ontogenesis is 145.81 times, while the absolute growth rate of the left horn length from 3 days to 60 months of postnatal ontogenesis is 135.51 times.*

Kalit so‘zlar: *qo‘y, postnatal ontogenez, bachadon shoxi, o‘sish koeffitsiyenti, mutlaq ko‘rsatkich, chiziqli o‘lcham.*

Kirish. Respublikamizda aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabini to‘la qondirish keng assortimentdagi ekologik toza mahsulot ishlab chiqarishni ko‘paytirishga qaratilgan chora-tadbirlar keng miqyosida amalga oshirilmoqda. Qo’y go‘shti mahsuloti insonlar organizmiga foydali jihatlari bilan muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, biologik va genetik imkoniyatlari, qo‘ylarning urg‘ochilik organlarini postnatal ontogenezning turli fiziologik bosqichlarida shakllanish va rivojlanish mexanizmlarini hisobga olgan holda, ulardan ratsional foydalanish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Hisori zotli qo‘ylar qalqonsimon bezining postnatal morfogenezi hamda mazkur urg‘ochilik organlarini xususiyatlarining o‘zgarish mexanizmlarini har tomonlama o‘rganish va ilmiy asoslash talab etilmoqda.

Hisori zotli qo’ylar tuxumdonlari jinsiy voyaga yetish davrida gormonal funksiyalarni bajaradigan organlari hisoblanadi. Qo‘ylarning tuxumdonlari bel qismida joylashib, buyraklarga bir oz yuqori va pastki qismida. Ular keng bachadon payining davomi bo‘lgan elastik tuxumdon payida tugaydi. Tuxumdonlarning katta kichikligi va vazni ularning funksional holatiga, shuningdek hayvonlarning yoshi qarab sezilarli darajada farq qiladi. Qo‘yning jinsiy tizimi ikkita tuxumdon, ikkita tuxum yo‘li, bachadon va tashqi jinsiy a’zoga ega qindan iborat .

Mualliflar [6; 47-b.] ta’kidlashicha tuxumdonlar tananing jinsiy bezlari (gonadlar) bo‘lib, tos bo‘shlig‘ida joylashgan bodomsimon shaklga ega va o‘rtacha diametri 1,8-1-3-sm. [2; 5-10 b., 5; 525-530 b.] boshqalari esa ular tekis shar shaklida ekanligini ta’kidlaydilar.

Tuxumdonlarning tashqi tomoni faoliyatsiz epiteliy bilan qoplangan bo‘lib, bu epiteliy oositlarning shakllanishida ishtirok etmaydi. Epiteliydan ichkariga zich biriktiruvchi to‘qima adventitsiya bilan qoplangan. Hayvonlarning tuxumdonlar o‘ng va chap tos kanalida joylashgan juft organ bo‘lib. Ular qo‘y va qo‘ylarda oval yoki bodomsimon, yumaloq shaklga ega. Jinsiy bezlar (tuxumdonlar) ham endokrin, ham ekzokrin funksiyalarga bajara-

di. Ular juftlashgan va otalangan organlar hisoblanadi. Bu tuxumdonlar qo‘y va qo‘ylarda o‘rtacha uzunligi 10-20 mm, og‘irligi 1,8-3,5 g, yetadi.

Olimlarning [4; 41-44 b.] ta’kidlashicha mahalliy qo‘ylari umumiy kattaligi o‘rtacha ularning chap tuxumdonning uzunligi 2,0 smdan, o‘ngda - 2,4 smgacha. Chap tuxumdonning o‘rtacha og‘irligi 0,6 g, o‘ng - 1,1 gni tashkil etadi.

Qo‘ylarining tuxumdonlarining voyaga yetish davrlarida, 6 va 12 oyligida, balog‘atga yetishi, tuxumdonlari bir qatlamli kubsimon epiteliy bilan qoplangan bo‘lib, oq parda yangi tug‘ilgan qo’zilarga qaraganda 6-7 oyida ancha qalinroq. [3; 36-38 b.]

Tuxum yo‘llari bachadonning keng ligasida yotadi va diametri 2-3 mm va uzunligi 10-18 sm bo‘lgan burmalangan naychalar bo‘lib, ular seroz membrana bilan qoplangan, uning ostida silliq muskullarning bo‘ylama va halqasimon qatlamlari joylashgan. Tuxum yo‘lining bo‘limi bir xil emas va bachadon shoxlari tomon torayadi va bu yo‘nalishdagi muskul qavati, aksincha, qalinlashadi. Tuxum yo‘lining tuxumdon uchi fimbria “tuxum yo‘li voronkasi” bilan tugaydigan kengaytma hosil qiladi. Qo‘ylardagi tuxum yo‘lining voronkasi tuxumdon atrofida erkin joylashadi va ovulyatsiya qilingan follikuladan chiqarilgan ovositlarning qorin bo‘shlig‘iga tushishiga yo‘l qo‘ymaydi. [8; 272 b.]

Bachadon ikki shoxli bo‘lib, shoxlar, tana va bachadon bo‘ynidan iborat. Tana va shoxlar bachadonning keng ligamentiga osilgan va qorin pardaning visseral qatlami bilan qoplangan. Homila va ona yo‘ldoshlari o‘rtasidagi aloqa turi desmoxorionikdir. Bachadon bo‘yni muskul qavati qalin va juda zich, chunki unga ko‘p sonli elastik tolalar kiradi. Bachadon bo‘yni kanali balandligi 1 sm gacha bo‘lgan 7-8 ta katta ko‘ndalang burmalarni hosil qiladi, ularning kaudal qismi qin bo‘shlig‘iga chiqib, bachadon bo‘yni farenksini (“baliq og‘zi”) hosil qiladi. [8; 272 b.]

Ko‘payish organlar sistemasida jinsiy hujayralar va gormonlar hosil bo‘lib, otalanish, sut emizuvchilarning urg‘ochi jinslarida esa embrional taraqqiyot uchun zarur sharoit yaratiladi. Jinsiy funksiya boshqa funksiyalar orasida alohida o‘rin tutadi. Tirik organizmning boshqa hamma sistemalaridan faqat individium hayoti uchun emas, balki umuman biologik tur uchun o‘ziga xos ahamiyati borligi bilan farq qiladi. Uning vazifasi - ko‘payish, biologik turning saqlanishi va ravnaqi uchun zarur miqdorda individiumlarni yetishtirishdir. Bu organlar funksiyasining normal kechishi individium hayoti, sog‘lomligi va mahsuldorligiga ham ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatadi [1; 241-274 b].

Tadqiqotlar obyekti va uslublari. Tadqiqot ishlari Surxondaryo viloyatining – Boysun tumani, hisori zotli qo‘ylarning urg‘ochilik ko‘payish organlari ustida olib borildi. Ilmiy tekshirishlar postnatal ontogenezning 3 kunlik, 3, 6, 12, 18, 36, 48, 60 oylik bosqichlaridagi hayvonlar urg‘ochilik ko‘payish organlarida olib borildi.

Tadqiqotlar qo‘ylarni urg‘ochilik ko‘payish organlaridan olingan 8 ta urg‘ochilik ko‘payish organlarida amalga oshirildi. Namunalar olish uchun o‘rganilayotgan yoshlarga mansub, bir xil rang, konstitusional tipga ega, klinik sog‘lom va o‘rtacha semizlikdagi qo’ylar tanlandi. So‘yishdan oldin qo‘ylarning tirik vazni o‘lchandi.

Ilmiy tekshirishlar natijasida olingan barcha raqamiy ma’lumotlar V.K.Merkuryeva uslubi bo‘yicha matematik ishlovdan o‘tkazildi.

Ishonchlilik darajasi – r (R) esa Styudent jadvali bo‘yicha topildi.

Matematik-statistik tahlil St’yudent va Fisher mezonlari yordamida komp’yuterning Microsoft Excel elektron jadvalida bajarildi.

Hisori zotli qo‘ylar bachadon o‘ng shoxining postnatal ontagenezi. Bachadoning o‘ng shoxi uzunligining mutlaq ko‘rsatkichi qo‘ylar postnatal ontogenezining dastlabki 3 kunligida 0,12±0,005 sm tashkil qilgan bo‘lsa, 3 oylik bosqichda ortib, ya’ni 0,18 ± 0,0057 sm, K=1,74; p<0,07 martani tashkil etib, 6 oylik bosqichda bu jarayoni jadal ortishi, 3,07±0,09 sm, (K=19,17) - martani tashkil qilib, keyingi ya’ni postnatal ontogenezning 12 oylikda biroz pasayishi, bu ko‘rsatkich 4,69±0,3 sm, (p<0,06) ga, 12 oylikdan 18 oylikkacha jadal ortishini namoyon qilib, bu 18 oylikda – 12,6±0,5 sm (K=2,67) ga, 36 oylik bosqichda sezilarli darajaga pasayib, 6,9 ±0,3 sm (K=0,59)ga yetishi qayt etil-

di. 48 oylikdan 60 oylikkacha bo‘lgan bosqichlarda yana jadal ortishi kuzatilib, ya’ni bu jarayon 48 oylikda -8,09±0,3 sm (K=1,71)ga, 60 oylikda 13,7±0,5 sm ga o‘sish koeffitsiyenti 1,69-martaga yetishi kuzatildi. Bachadoning o‘ng shoxi uzunligining mutlaq ko‘rsatkichini o‘sish koeffitsiyenti qo‘ylar postnatal ontogenezining 3 kunligidan 60 oyligiga qadar bo‘lgan davr ichida 145,81 martani tashkil etdi.



Hisori zotli qo‘ylar bachadon chap shoxining postnatal ontagenezi

Bachadoning chap shoxi uzunligining mutlaq ko‘rsatkichi qo‘ylar postnatal ontogenezining dastlabki 3 kunligida 0,092±0,009 sm ga etgan bo‘lsa, 3 oylik bosqichda ortib, ya’ni 0,19±0,007 sm, K=1,68; p<0,06 martani tashkil etib, 6 oylik bosqichda bu jarayoni jadal ortishi, bu ko‘rsatkich 3,8±0,09 sm, (K=22,54) martani yetib, keyingi postnatal rivojlanishining 12 oylikda biroz pasayishi, 4,43±0,3 sm, (p<0,06) ga, 18 oylikda jadal ortishini namoyon qilishi, - 11,33±0,5 sm (K=2,63; p<0,07) ga, 36 oylik bosqichda sezilarli darajaga pastlab 6,04±0,23 sm (K=0,56)ga yetishi qayt etildi. 48 oylikdan 60 oylikkacha bo‘lgan bosqichlarda yana jadal ortishi kuzatilib, mos ravishda 48 oylikda -7,42±0,22 sm (K=1,27)ga, 60 oylikda 11,56±0,28 sm ga o‘sish koeffitsiyenti 1,59 martaga yetishi kuzatildi. Bachadoning chap shoxi uzunligining mutlaq ko‘rsatkichini o‘sish koeffitsiyenti qo‘ylar postnatal ontogenezining 3 kunligidan 60 oyligiga qadar bo‘lgan davr ichida 135,51 martani tashkil etdi.

Xulosalar.

1. Hisori zotli qo‘ylar bachadon shoxining chiziqli o‘lchamlari postnatal ontogenezning dastlabki 3 kunligidan 6 oyligiga qadar jadal ortishi, 60 oylikda eng yuqori ko‘rsatkichni namoyon qilishi kuzatiladi

2. Mahalliy zotli qo‘ylar bachadon o‘ng va chap shoxining uzunligi postnatal ontogenezi davomida bosqichli tarzda ortib boradi, bu ko‘rsatkichni qo‘ylarning 3 kunligidan 60 oyligiga qadar mos ravishda, 0,11±0,005, sm dan 13,7±0,5 sm ga; 0,089±0,006 sm dan 11,57±0,28 g ga, o‘sish koeffisiyenti esa 144,77; 133,53 martaga yetdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Dilmurodov N.B., Normurodova Z.F., Muxtarov E.A. Sitologiya, gistologiya va embriologiya. Darslik. 2023 yil. 241-274 b.

2. Katare B, Singh G, Kumar P, et al. Histomorphological studies on the oviduct of goat (Capra hircus) during follicular and luteal phases. Haryana Vet. 2015; 54(1): 36–38.

3. S. Demchuk, K. Skoryk Anatomo-histological structure of inner sexual organs of goats of Zaanenskaya breed Application of derivatives of incomplete wheat-wild-rye amphiploid (WWRA) Elytricum fertile in selection of winter soft wheat 2017 Visnyk agrarnoi nauky 95(8):41-44

4. Semacan A, Kaymaz M, Fındık M, et al. Obstetrics and gynecology in farm animals. Medipres Matbaacılık, Malatya, Turkey. 2012: 525–530.

5. Бурганова Г.Р., Гумерова А.А., Андреева Д.И., Плюшкина А.С., Певнев Г.О., Киясов А.П. Женская половая система – Казань: Казан. ун-т, 2018. – 47 с.

6. Силантьев Денис Владимирович Строение и васкуляризация внутренних органов репродукции коз зааненской породы на некоторых этапах постнатального онтогенеза / АВТОРЕФЕРАТ диссертации на соискание ученой степени кандидата ветеринарных наук Санкт-Петербург 2013.

7. Аксёнова П.В., Ермаков А.М. А 42 Биология репродукции коз: Монография. — СПб.: Издательство «Лань», 2015. — 272 с.: ил. (+ вклей ка, 16 с.). — (Учебники для вузов. Специальная литература).

8. Зенкина В.Г. Морфологические особенности яичников плодов и новорожденных. / В.Г. Зенкина // Фундаментальные исследования. 2014. № 7-3. С. 504-508.

UDK: 636.3.59

SURXONDARYO VILOYATI BOYSUN TUMANIDA HISORI ZOTLI QO'YLAR TUXUM YO'LINING POSTNATAL ONTOGENEZIDA MORFOMETRIK O'ZGARISH DINAMIKASI

Tangirov Kayum Jurayevich, *v.f.n., professor v.b.,*
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti

Аннотация. *В статье проанализированы анатомо-гистологические характеристики яичников овца разного возраста. Это позволяет сделать вывод, что у овца органы разделены на кожицу и мякоть.*

Abstract. *The article analyzes the anatomo-histological characteristics of ovaries of goats of different ages. In newborn goats, this allows us to conclude that the organs are divided into the skin and the pulp.*

Kalit so'zlar: *postnatal ontogenez, kubik, tuxumdon, follikul.*

Kirish. Qo'ylarni ko'paytirish va ko'payish organlari tizimining rivojlanishini bilish masalalarini hal qilish biologiyaning eng muhim muammolaridan biri bo'lib qolmoqda va katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, urg'ochi hayvonlarning jinsiy organlarini o'rganishga bag'ishlangan juda ko'p ishlar mavjud [4, 5, 7, 8]. Biroq, qo'ylardagi bu organlarning morfologiyasi haqidagi ma'lumotlar o'tgan yillardagi adabiyotlarda keltirilgan juda qisqa ma'lumotlar bilan cheklangan [2, 3, 6].

Qo'ylarda jinsiy balog'atga yetish, adabiyotlarga ko'ra, 6-7 oylikda sodir bo'ladi [1].

Shu munosabat bilan biz qo'ylarning jinsiy a'zolari tuzilishining morfologik xususiyatlarini turli yosh davrlarida o'rganib chiqdik.

Materiallar va usullar. Tadqiqot uchun material Surxondaryo viloyati sharoitida yangi tug'ilgan, 6-7 oylik va 5-6 yoshli qo'ylarning urg'ochilik jinsiy bezlari edi.

Tadqiqot natijalari. Biz qo'ylarning tuxumdonlari silliq, yassi-oval shaklda va oq rangda ekanligini aniqladik. Ular birinchi dumg'aza umurtqasining o'rta uzunligi darajasida, bachadon shoxlarining boshlang'ich bo'limi tomonida joylashgan bo'lib, ular bilan tuxumdon paylari bilan bog'langan.

Yuza epiteliysi kubik shaklda, uning ostida tunica albuginea joylashgan. Qo'ylar tuxumdonining kortikal qatlamida ko'plab ibtidoiy follikullar mavjud bo'lib, ular bir qatlamli kubik follikulyar hujayralar bilan o'ralgan katta oositdir. Bu yoshda biz atreziya hodisalarini mavjudligini aniqladik. Bundan tashqari, qatlamli kubik epiteliya bilan o'ralgan oosit bilan ifodalangan birlamchi follikullar ham mavjud. Vezikulyar follikullar qobiqning chuqur qismida joylashgan. Ularda eozinofil tarkibni o'z ichiga olgan bo'shliq mavjud. Oosit tiniq parda bilan o'ralgan va uning atrofida tojsimon - radiata hujayralari joylashgan.

Mag'iz qismi ko'plab qon tomirlari bo'lgan biriktiruvchi to'qimadan hosil bo'ladi.

Balog'at davridagi 7 oylik urg'ochilarda tuxumdonlar oval shaklda, tuber yuzasiga ega. Ular tos bo'shlig'ida son bo'g'imining artikulyar bo'shlig'i darajasida joylashgan. Ba'zi follikullarda sirtga chiqadigan vesikulyar follikullar sezilarli.

Tashqi tomondan tuxumdon bir qavatli kubsimon epiteliy bilan qoplangan, uning ostida tunica albuginea joylashgan.

Po‘stloq qismi biriktiruvchi to‘qima va turli darajadagi yetuklikdagi follikullardan tashkil topgan stroma bilan ifodalanadi.

Tunica albuginea ostida birlamchi va birlamchi follikullar va medullaga yaqinroq - ikkilamchi follikullar mavjud bo‘lib, ularning aksariyati atretikdir. Po‘stloqning stromasi follikullar orasidagi butun bo‘shliqni atretik tanalar bilan to‘ldiradi.

Po‘stloqning kengligi oldingi yoshga nisbatan sezilarli darajada oshadi. Uchinchi darajali follikullar hajmi jihatidan farq qiladi, ba’zilari tuxumdon yuzasiga yaqin joylashgan. Bunday follikullarning donador pardasi 1-2 qavat hujayralardan iborat. Ular yaxshi ifodalangan. Po‘stloqda jinsiy siklning sariq tanasi mavjud. Ular sariq tanaga kiradigan biriktiruvchi to‘qima bilan o‘ralgan. Sariq tanasining parenximasi zich kapillyar tarmoq bilan o‘ralgan ko‘plab luteotsitlar bilan ifodalanadi.

Medullada atretik follikullar va ko‘p miqdordagi yirik qon tomirlari mavjud.

5-6 yoshli qo’ylarda tuxumdonlar yumaloq shaklga ega bo‘lib, yetuk follikullar sirtda yengil dog‘lar - sariq tanalar shaklida ko‘rinadi. Tuxumdonlar bachadon shoxlarining yon tomonida, ularning yon chetidan 1,1 dan 2,3 sm gacha masofada joylashgan.

Katta yoshli qo’ylar tuxumdonining gistostrukturasida 6-7 oylik tuxumdonlardan ba’zi farqlar qayd etilgan. Yuzaki epiteliy bir qavatli kubsimon hujayralardan iborat. Tunica albuginea sezilarli darajada qalinlashadi. Follikullarning barcha turlari po‘stloqda joylashgan – boshlang‘ichdan preovulyatsiyagacha. Birlamchi follikullar soni sezilarli darajada kamroq, ammo atretiklar soni ortadi. Birlashtiruvchi to‘qima kapsulasi bilan qoplangan sariq tananing mavjudligi qayd etilgan, ular nisbatan katta luteotsitlar va kapillyarlarni o‘z ichiga olgan.

Medullada juda ko‘p yirik qon tomirlari mavjud bo‘lib, ularning devorlari sezilarli darajada qalinlashadi.

Xulosalar. Shunday qilib, turli yoshdagi qo’ylarning tuxumdonlari gistologiyasi anatomiyasini o‘rganish natijalarini tahlil qilish, yangi tug‘ilgan hisori zotli qo’ylarda bu organlarning po‘stloq va mag‘iz qismga ajratilganligi haqida xulosa chiqarishga imkon beradi. Vezikulyar follikullar hosil bo‘lgunga qadar intensiv follikulogenez kuzatiladi, ammo barcha follikullar atreziyaga uchraydi.

6-7 oylik qo’ylarda sariq tanachaning mavjudligi, ovulyatsiyadan oldingi follikullarning yetarlicha ko‘pligi va tuxumdonlarning intensiv qon tomirlari balog‘atga yetishish davrining boshlanishini tavsiflaydi.

Yetuk qo’ylarda ularning funksional holati bilan bog‘liq tuxumdonlarda sezilarli o‘zgarishlar kuzatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ветеринарное акушерство и гинекология сельскохозяйственных животных / под ред. проф. Г.А. Кононова. Л.: Колос, 1977. С. 19-20.

2. Джадранов Е.С. Морфологические особенности строения яичников новорожденных козочек / Е.С. Джадранов // X съезд АГЭ: тез. докл. Полтава, 1986. С. 106.

3. Джоробеков М.И. Гистоморфология и гистохимия полового тракта коз: автореф. дис. на соиск. уч. степ. к.в.н. / М.И. Джоробеков. Улан-Удэ, 1975. 19 с.

4. Садирова У.А. Возрастная морфология половой системы телок в зависимости от различной степени двигательной активности: автореф. дис. на соиск. уч. степ. к.б.н. / У.А. Садирова. М., 1994. 18 с.

5. Сковородин Е.Н. Развитие яичников КРС в онтогенезе / Е.Н. Сковородин, В.И. Чикунова, А.И. Андреев // Морфология. 2000. № 3. С. 110

6. Шипилов В.С. Морфологические изменения в половых органах ремонтных коз в разные возрастные периоды / В.С. Шипилов, Н.А. Налетов, В.А. Тымтышев // Известия Тимиряз. сельскохозяйственной акад. М., 1986. № 2. С. 141-151.

7. Хибхенов Л.В. Развитие половых желез домашнего яка в онтогенезе / Л.В. Хибхенов, И.Д. Замьянов // Вестник БГСХА им. В.Р. Филиппова. УланУдэ, 2005. С. 148-155.

8. Gomez Duperly. Ovarian histology of the placentotrophic Mabuya mabouya (Suqamata Scincidae) / Duperly Gomez, - Pihilla Ramirez, Patricica Martha // J. Morphol. 2004. № 1. P. 148-155.

UO‘K: 636.02.826

GOLSHTEN ZOTLI SIGIRLARNING SUT MAHSULDORLIGINI OSHIRISHDA OQSILLI-VITAMINLI OZUQALAR BILAN OZIQLANISHNING AHAMIYATI VA O’QITISH METODIKASI

Shodieva Maftuna Botirovna, *magistrant,*
Toshkent international university of Education,
Tursunov Xayrullo Sharofiddinovich, *dotsent,*
Samarqand davlat veterinariya va chorvachilik biotexnologiyalari universiteti, Toshkent filiali

Аннотация. *В данной статье рассматриваются исследования, проведенные по кормлению крупного рогатого скота протеиново-витаминными кормами, достижения в использовании протеиново-витаминных кормов в животноводстве и молочном производстве, а также их значение для повышения экономической эффективности хозяйства и создания дополнительных рабочих мест, а также преимущества протеиново-витаминных кормов и современных технологий для обучения студентов высших учебных заведений и технических училищ.*

Abstract. *This article discusses research conducted on feeding cattle with protein-vitamin feeds, the achievements in the use of protein-vitamin feeds in cattle breeding and milk production from cattle, and their importance in increasing the economic efficiency of the farm and creating additional jobs, as well as the advantages of protein-vitamin feeds and modern technologies for teaching students of higher education institutions and technical schools.*

Kalit so’zlar. *Oqsil, vitamin, qoramol, oziqlantirish, tadqiqot, sut ishlab chiqish, xo’jalik, iqtisodiy samaradorlik, ishch o’rni.*

Kirish. Hozirgi vaqtda Golshteyn zoti jahon sut chorvachiligida dominant zotga aylandi. Bu zotning sigirlari boshqa zotlar orasida sut ishlab chiqarishda yetakchi hisoblanadi. Bundan tashqari, ular yuqori unumli sog’ish mashinalarida foydalanish uchun yaxshi moslashtirilgan, sut mahsulotlari bilan ozuqa uchun yuqori narxlarni to’laydi va boshqa bir qator qimmatli iqtisodiy foydali xususiyatlarga ega. Ma’lumotlariga ko’ra, bu zotdagi sigirlarning soni 25 million boshni yoki dunyodagi eng ko’p tarqalgan sutli zotning 72 foizini tashkil qiladi.

Sut mahsuldorligi bo’yicha Golshteyn zotli qoramollarga teng keladigani yo’q. 2013 yilda Gollandiya seleksiyasining ushbu zotli hayvonlari o’rtacha sut ishlab chiqarishi 9000 kg, yog’ning massa ulushi 3,8% va oqsil 3,3% edi. Golshteyn qoramollarining Evropa turi yaxshi xususiyati va yuqori sut yog’liligi bilan ajralib turadi, lekin shu bilan birga, golshteyn qoramollari qoniqarli reproduktiv qobiliyat bilan ajralib turadi.

Hozirgi vaqtda dunyoda sigirlarning sut mahsuldorligi darajasi bo‘yicha golshteyn zotli qoramollar boshqa zotlar orasida tengi yo‘q. Bu zotda sut ishlab chiqarish bo’yicha jahon rekordchilari yetishtirilgan. Bundan tashqari, zot bir qator iqtisodiy foydali va biologik xususiyatlarga ega. Bu zotdagi qoramollar har xil tuproq-iqlim sharoitlariga yaxshi moslashgan, unumdorligi yuqori sog‘ish mashinalarida foydalanishga yaxshi moslashgan, sut mahsulotlari bilan yemga yuqori narx to‘laydi, tashqi ko‘rinishi va elini mutanosib rivojlanadi, yosh hayvonlar yuqori o‘sishi bilan ajralib turadi. energiya va boshqa qimmatli fazilatlar.

Golshten zotli sigirlar sut mahsuldorligining genetik salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish va

undan foydalanish, ularning reproduktiv sifatlarini yaxshilash, chorva mollarining yangi naslchilik sharoitlariga moslashish xususiyatlarini oshirishda chorva mollarining moslashuv xususiyatlarini o‘rganish va baholash alohida ahamiyatga ega. Buni ko’plab mualliflarning natijalari tasdiqlaydi. Shunday qilib, dunyoning yetakchi mamlakatlarida Golshteyn zoti salohiyatidan seleksiyada foydalanishda, moslashuv xususiyatlarini o‘rganish va baholash katta ahamiyatga ega, deb hisoblaydilar. yirik sut podalari, chunki bu natijalar mahsuldorlik, reproduktiv, texnologik sifatlarni yaxshilash va sigirlarning iqtisodiy uzoq umrini uzaytirishi mumkin.

Sigirlar va buzoqlarning moslashuvi, xavfsizligi, sut mahsuldorligi, reproduktiv funktsiyasi, kanadalik golshteynlarning ota-onalik potentsialini ro’yobga chiqarishni o’rganishga asoslanib, u, umuman olganda, golshteyn sigirlarining moslashish qobiliyatiga ega bo’lishi mumkin degan xulosaga keladi. qoniqarli deb hisoblanishi va xavf omillarini kamaytirish orqali haqiqatda katta iqtisodiy yo’qotishlarning oldini olish mumkin.

Hayvonlar uchun butun umri davomida qulay sharoit yaratish, stressni oldini olish va komplekslar uchun bizning sharoitimizga ko’proq moslashgan eng yaxshi Golshteynlashtirilgan chorva mollarini sotib olish kerak.

Ayniqsa, Golshteyn qoramollari uchun mineral komponentlar nuqtai nazaridan standartlashtirilgan, muvozanatli oziqlantirishga alohida e’tibor bering.

Ma’lumki, organizmning har qanday xususiyatining rivojlanishi irsiyat (genotip) va yashash sharoitlari bilan belgilanadi. Sut mahsuldorligi, sut tarkibidagi yog ‘miqdori va boshqalarni o’z ichiga olgan miqdoriy belgilar odatda fenotip, ularning organizmning o’sishi va rivojlanishi sharoitida namoyon bo’lishiga qarab baholanadi. Har yili Rossiyaga xorijdan ko‘p sonli qoramol olib kelinayotgani, olib kelingan hayvonlarni yangi ekologik, iqlim va iqtisodiy sharoitlarga moslashtirish muammosi ayniqsa dolzarb bo‘lib qolayotganini yozadilar. Mahalliy tanlab olingan zotlarning genetik salohiyatini oshirish uchun Golshteynlar dunyoning 60 dan ortiq mamlakatlariga olib kelinib, ular chatishtirishda ham, zotli naslchilikda ham foydalaniladi.

Xorijdan olib kelingan chorva mollarini muvaffaqiyatli moslashtirishning eng muhim ko‘rsatkichlari ularning yuqori mahsuldorligi, normal ko‘payish funksiyasini amalga oshirishi, intensiv texnologiyaga moslashuvi, mahalliy iqlim sharoiti, ozuqadan foydalanish samaradorligi, degan xulosaga keladi. Shu bilan birga, yangi muhit va oziqlanish sharoitida tirik organizm tashqi, ichki va iqtisodiy foydali xususiyatlarida ma’lum o’zgarishlarga duchor bo’lgan holda buziladi yoki noodatiy sharoitlarga moslashadi.

O‘zbekistonning issiq iqlimining o‘ziga xos sharoitida chetdan olib kelingan chorva mollari va uning nasllarining moslashish xususiyatlarini o‘rganish eng katta amaliy ahamiyatga ega, chunki u moslashish qobiliyatini aniqlash imkonini beradi va uni irsiy potentsialni namoyish etish va mahsuldorlik fazilatlarini oshirishning samarali usullarini ishlab chiqish mumkin.

Material va metodlar. Tadqiqotda Avstriyadan O‘zbekistonga olib kelingan golshteyn sigirlari barcha laktatsiya davrida sut mahsuldorligi uchun yuqori genetik salohiyatni ko‘rsatdi. Uchinchi va undan katta laktatsiya davridagi sigirlarning o‘rtacha sut mahsuldorligi yog‘liligi 4,02% bo‘lgan 6890,4 kg sutni tashkil etdi va birinchi laktatsiya davriga nisbatan 1039,5 kg yoki 35,4% ga, sut yog‘i 74,5 kg (36,5) ga oshdi. %) , sut mahsuldorligi 4% sut 1861,3 kg (36,7%), tirik vazn 174,8 kg (35,8%).

Shuningdek, “naslchilik guruhi”da 6890, 1 kilogramm sut sog‘uvchi, yog‘liligi 4,02 foiz, “buqalar guruhi”da 8131,2 kilogramm, yog‘liligi 3,98 foiz bo‘lgan seleksiya guruhi tashkil etildi.

Golshteyn sigirlari avstriyalik seleksiyaga tegishli degan xulosaga kelish, Polsha seleksiyasin-

ing bir xil zoti O'zbekiston sharoitida yuqori genetik salohiyatli sut mahsuldorligini ko'rsatishga qodir.

Ishlab chiqarish hajmlarini kengaytirish, mahalliy va xorijiy genetik resurslardan keng foydalanish orqali oziq-ovqat xavfsizligiga erishish mumkinligi qayd etilgan. Rossiyaning naslchilik podalari tarkibida golshteyn sigirlarining ulushi 48,5% ni tashkil etadi va bu zotning imkoniyatlaridan keng foydalanish tarmoqni rivojlantirishda katta amaliy ahamiyatga ega. Ular xuddi shunday xulosaga kelishadi.

Zamonaviy sut-mol fermasida chorva mollarini boqish va boqish uchun qabul qilingan intensiv texnologiyani hisobga olgan holda, turli seleksiyadagi golshteyn sigirlaridan yuqori sut mahsuldorligi olinadi, degan xulosaga kelamiz. Gollandiya seleksiyasining hayvonlari eng yaxshi ko'rsatkichga ega bo'ldi. Fermer xo'jaliklari va majmualarda birinchi bosqichda sut podasini shakllantirish uchun import qilinadigan yuqori mahsuldor qoramollardan foydalanish golshteyn zotli qoramollarning barqaror populyatsiyasini yaratishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Golshteyn qoramollarining o'ziga xos xususiyati bu qoramollarning dunyodagi populyatsiyalari bilan yaqin genetik bog'liqlikdir. Biroq, bu zotdagi hayvonlarning konstitutsiyasi, tashqi va mahsuldorligi, tabiiy va iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda moslashuvi yanada takomillashtirilishi kerak. Ular xuddi shunday fikrga keladilar [48, b. 53-54].

O'zbekiston sharoitida xorijdan keltirilgan golshteyn zotli qoramol nasllarini ko'paytirishda tegishli oziqlantirish va yashash uchun maqbul shart-sharoitlarni yaratish, hayvonlarning kunlik faol harakatlanishini ta'minlash hamda boqish va yurish joylarida shiyponlarni jihozlashni tavsiya qiladi; Sut mahsuldorligidan tashqari, chorva mollarini tanlashda sigirlar yelinining morfofunksional xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ham amalga oshirilishi kerak, bu ularning mashinada sog'ish texnologiyasiga moslashuvini oshirishga yordam beradi.

Mualliflarning qayd etishicha, O'zbekiston sharoitida reproduktiv sut sigir podalarini yaratishda sut mahsuldorligi parametrlari va biologik xususiyatlarini hisobga olgan holda xorijdan keltirilgan golshteyn naslli qoramollarning naslidan foydalanish tavsiya etiladi.

Oqsilli-vitaminli ozuqalar sigirlar sutining kimyoviy tarkibiga ta'sirini aniqlash. Yangi sog'ilgan sutning ta'mi ozgina shirinroq bo'lib, rangi oq sarg'ishroq. Sut o'ziga xos suyuq, bir jinsli issiqlik ishlov berilgach yanada suyuq bo'ladi, sovutilganda esa jipslashadi. Sut 100, 20 C^0 haroratda qaynaydi, 0,54-0,580 C haroratda esa muzlaydi.

Sigir sutining kimyoviy tarkibi turli elementlardan tashkil topgan bo'lib, unda: suv -87,5 %; quruq moddalar-12,5 %; shu bilan birga sut yog'i -3,8 %; oqsil -3,3 % (bulardan: kazein -2,7 albumin-0,5 va globulin 0,1) , sut qandi -4,7%; mineral moddalar -0,7%.

2017 yil 7 iyul kuni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Sut va sut mahsulotlarining xavfsizligi to'g'risidagi umumiy texnik reglamentni tasdiqlash haqida"gi 474-sonli qaroriga qabul qilindi. Sut va sut mahsulotlarining xavfsizligi to'g'risidagi umumiy texnik reglamenti rasmiy e'lon qilingan kunidan boshlab o'n sakkiz oy o'tgandan keyin amalga kiritilishi belgilangan.

Ushbu texnik reglament O'zbekiston Respublikasi hududida muomalaga chiqarilgan va oziqaviy maqsadlardan foydalaniladigan sut va sut mahsulotlariga, jumladan xom sut, sut mahsulotlari, sut va sut mahsulotlarini ishlab chiqarish, saqlash, tashish va yo'qotish jarayonlari, sutni qayta ishlash mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan funksional kompanentlarga tegishlidir. Ayni payt texnik reglament talablari jismoniy shaxslar tomonidan shaxsiy foydalanish uchun keyingi qayta sotish istagisiz ishlab chiqarilgan sut va sut mahsulotlaridan foydalanilib yoki ular asosida tayyor-

lanadigan pazandalik va qandolat mahsulotlariga, oziqaviy va biologik faol qo‘shimchalar, dori vositalari, hayvonlar uchun ozuqalar va nooziqaviy tovarlarga taalluqli emas. 1-jadvalda sigirlar sutining kimyoviy tarkibining o‘zgarish chegaralari hamda o‘rtacha kimyoviy qiymatlar aks ettirilgan bo‘lib bunda ko‘rsatilgan ko‘rsatgichlar barcha zotlar kesimida o‘rtacha olingan hisoblanadi.

1-jadval.

Sigirlar sutining kimyoviy tarkibi

Ko‘rsatgichlar	O’zgaruvchanlik chegaralari	O‘rtacha
Suv	85,5-89,5	86,5
Quruq modda	10,5-14,5	12
Yog‘	2,5-6,0	3,5
Oqsil	2,9-5,0	3,1
Laktoza	3,6-5,5	4,4
	0,6-0,9	0,6

2-jadval malumotlaridan ko‘rishimiz mumkinki laboratoriya tahlili natijalariga ko‘ra oqsilli-vitaminli ozuqalar berib boqilgan sigirlar sutini laboratoriya sharoitida tahlil qilinganda oqsilli-vitaminli ozuqalar bir kunda bir boshga 12 kg iste’mol qilgan birinchi tajriba guruhidagi sigirlar sutining kimyoviy tarkibi nazorat va ikkinchi tajriba guruhi sigirlari sutining kimyoviy tarkibidan bir qancha ustunligi aniqlandi, sut tarkibidagi quruq modda ko‘rsatgichi bo‘yicha birinchi tajriba guruhi sigirlari sutining tarkibida quruq modda 12,46% ni tashkil qilgan bo‘lsa nazorat guruhi sigirlari sutining quruq moddasi 12,35% ni va ikkinchi tajriba guruhida 12,38% ni tashkil qildi. Sut yog‘i ko‘rsatgichi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatgich 12 kg oqsilli-vitaminli ozuqalar iste’mol qilgan birinchi tajriba guruhi sigirlari sutining yog‘i 3,79% ni tashkil qilgan bo‘lsa mos ravishda nazorat va ikkinchi tajriba guruhlarida 3,67% va 3,71% ni tashkil qildi. Sut tarkibidagi oqsil ko‘rsatkichi bo‘yicha eng yuqori oqsil miqdori birinchi tajriba guruhi sigirlar sutida 3,35% ni tashkil qilgan bo‘lsa mos ravishda nazorat va ikkinchi tajriba guruhlarida 3,22% va 3,31% ni tashkil qildi. Sut tarkibidagi laktoza miqdori bo‘yicha birinchi tajriba guruhi sigirlari sutining tarkibida 4,64% ni tashkil qildi va bu nazorat va ikkinchi tajriba guruhiga nisabtan 0,03% ga va ikkinchi tajriba guruhidan 0,02% ga ustun bo‘ldi. Sigirlar sutining zichlik ko‘rsatgichi bo‘yicha o‘tkazilgan laboratoriya tekshiruvi natijasiga ko‘ra eng yuqori ko‘rsatgich birinchi tajriba guruhi sigirlarining sutida qayd etildi bunda sutning zichligi 29,42 °A ga teng bo‘lgan bo‘lsa ushbu ko‘rsatkich nazorat guruhidan 0,63 °A ga yoki 2,14% ga va ikkinchi tajriba guruhidan 0,47 °A ga yoki 1,59% ga yuqori bo‘ldi. Sigirlar sutining kislotalik ko‘rsatkichi laboratoriyada tekshirilganda eng yuqori kislolatlik nazorat guruhi sigirlari sutining tarkibida qayd etildi, ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha nazorat guruhi sigirlari sutining kislotaligi 18,53 teng bo‘lgan bo‘lsa maqsadga muvofiq boladi.

2-jadval.

Oqsilli-vitaminli ozuqalar sigirlar sutining kimyoviy tarkibi

Ko‘rsatgichlar	O‘rtacha %	Nazorat		1-tajriba guruhi		2-tajriba guruhi	
		$\overline{X} \pm S\overline{x}$	S_v, %	$\overline{X} \pm S\overline{x}$	S_v, %	$\overline{X} \pm S\overline{x}$	S_v, %
Suv	86,5	87,65±0,01	0,01	87,54±0,03	0,03	87,62±0,05	0,05
Quruq modda	12	12,35±0,05	0,40	12,46±0,08	0,64	12,38±0,07	0,56
Yog‘	3,5	3,67±0,07	1,90	3,79±0,04	1,05	3,71±0,06	1,61
Oqsil	3,1	3,22±0,08	2,48	3,35±0,08	2,38	3,31±0,09	2,71
Laktoza	4,4	4,61±0,04	0,86	4,64±0,05	1,07	4,62±0,04	0,86
Zichlik, °A		28,79±0,34	1,18	29,42±0,43	1,46	28,95±0,38	1,31
Kislotalik, °T		17,13±0,06	0,70	18,32±0,05	0,002	18,49±0,05	0,27

3-jadval.

Oqsilli-vitaminli ozuqalar berib boqilgan sigirlar sutining kimyoviy tarkibi

Ko‘rsat-gichlar	O‘rta-cha	Nazorat		1-tajriba guruhi		2-tajriba guruhi	
		$\overline{X} \pm S\overline{x}$	S_v, %	$\overline{X} \pm S\overline{x}$	S_v, %	$\overline{X} \pm S\overline{x}$	S_v, %
Suv	86,5	87,79±0,03	0,034	87,64±0,08	0,091	87,72±0,04	0,045
Quruq modda	12	12,21±0,05	0,40	12,36±0,08	0,64	12,28±0,07	0,57
Yog‘	3,5	3,56±0,07	1,96	3,68±0,04	1,08	3,65±0,06	1,64
Oqsil	3,1	3,15±0,04	1,26	3,24±0,07	2,16	3,21±0,08	2,49
Laktoza	4,4	4,31±0,02	0,46	4,44±0,01	0,22	4,37±0,07	1,60
Zichlik, °A		27,16±0,31	1,14	28,67±0,67	2,33	27,86±0,43	1,54
Kislotalik, °T		16,46±0,15	0,85	17,53±0,26	1,40	17,01±0,38	2,10

3-jadval malumotlaridan ko‘rishimiz mumkinki laboratoriya tahlili natijalariga ko‘ra ko’k-yashil suv o’tlari suspenziyasi va o’simlik uni yordamida tayorlangan bo’tqa berib boqilgan sigirlar sutini laboratoriya sharoitida tahlil qilinganda ko’k-yashil suv o’tlari suspenziyasi va o’simlik uni yordamida tayorlangan bo’tqadan iste’mol qilgan birinchi tajriba guruhidagi sigirlar sutining kimyoviy tarkibi nazorat va ikkinchi tajriba guruhi sigirlari sutining kimyoviy tarkibidan bir qancha ustunligi aniqlandi xususan; sut tarkibidagi quruq modda ko‘rsatgichi bo‘yicha birinchi tajriba guruhi sigirlari sutining tarkibida quruq modda 12,36% ni tashkil qilgan bo‘lsa nazorat guruhi sigirlari sutining quruq moddasi 12,21% ni va ikkinchi tajriba guruhida 12,28% ni tashkil qildi. Sut yog‘i ko‘rsatgichi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatgich ko’k-yashil suv o’tlari suspenziyasi va o’simlik uni yordamida tayorlangan bo’tqa iste’mol qilgan birinchi tajriba guruhi sigirlari sutining yog‘i 3,68% ni tashkil qilgan bo‘lsa mos ravishda nazorat va ikkinchi tajriba guruhlarida 3,56% va 3,65% ni tashkil qildi. Sut tarkibidagi oqsil ko‘rsatkichi bo‘yicha eng yuqori oqsil miqdori birinchi tajriba guruhi sigirlar sutida 3,24% ni tashkil qilgan bo‘lsa mos ravishda nazorat va ikkinchi tajriba guruhlarida 3,15% va 3,21% ni tashkil qildi. Sut tarkibidagi laktoza miqdori bo‘yicha birinchi tajriba guruhi sigirlari sutining tarkibida 4,44% ni tashkil qildi va bu nazorat va ikkinchi tajriba guruhiga nisabtan 2,92% ga va ikkinchi tajriba guruhidan 1,57% ga ustun bo‘ldi. Sigirlar sutining zichlik ko‘rsatgichi bo‘yicha o‘tkazilgan laboratoriya tekshiruvi natijasiga ko‘ra eng yuqori ko‘rsatgich birinchi tajriba guruhi sigirlarining sutida qayd etildi bunda sutning zichligi 28,67 °A ga teng bo‘lgan bo‘lsa ushbu ko‘rsatkich nazorat guruhidan 1,51 °A ga yoki 5,26% ga va ikkinchi tajriba guruhidan 0,81 °A ga yoki 2,82% ga yuqori bo‘ldi. Sigirlar sutining kislotalik ko‘rsatkichi laboratoriyada tekshirilganda eng yuqori kislolatlik birinchi tajriba guruhi sigirlari sutining tarkibida qayd etildi, ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha birinchi tajriba guruhi sigirlari sutining kislotaligi 17,53 Ternerga teng bo‘lgan bo‘lsa xulosa qilib aytish mumkinki ko’k-yashil suv o’tlari suspenziyasi yetarli miqdorda berish sog‘in sigirlar sutin-

4-jadval.

Oqsilli-vitaminli ozuqalar berib boqilgan sigirlar suti tarkibidagi aminokislotalar ko‘rstakichi

Aminokislotalar mg/dm³	**Guruhlar**		
	Nazorat	**I tajriba**	**II tajriba**
Arginin	18,6841	22,7814	20,4552
Tirozin	3,5675	4,2904	3,7452
Betta fenilalanin	1,0854	1,3641	1,2871
Gistidin	2,5218	3,0284	2,8168
Valin	2,4527	2,5974	2,5381
prolin	6,5934	7,8249	7,1899
Serin	5,6729	6,6217	6,3658
Alfa-alanin	2,7621	3,3872	2,9786
Glitsin	1,4705	2,1489	1,6305

ing kimyoviy tarkibiga va quruq modda miqdoriga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi.

Laboratoriya tekshiruvi natijlariga ko‘ra ushbu farqlar nafaqat sutning kimyoviy tarkibida balki sut tarkibida mavjud oqsillarni tasjkil qiluvchi aminokislotalar miqdorida ham sezilarli farqlar mavjud edi. Aminokislotalar tarkibi bo‘yicha laboratoriya natijalari 4-5-jadvallarda keltiriladi.

4-jadval ma’lumotlaridan ko‘rishimiz mumkinki **o**qsilli-vitaminli ozuqalar ratsiondagi miqdori sigirlar suti tarkibidagi oqsillarni tashkil qiluvchi aminokislotalar sonining ortishiga sabab bo‘ldi, bunda Arginin aminokislotasi oqsilli- vitaminli ozuqalar iste’mol qilgan 1-tajriba guruhi sigirlari sutining takibida 22,7814 mg/dm³ ni tashkil qilgan bo‘lsa bu ko‘rsatkich oqsilli- vitaminli ozuqalar-

5-jadval.

Oqsilli-vitaminli ozuqalar berib boqilgan sigirlar suti tarkibidagi aminokislotalar ko‘rstakichi

Aminokislotalar mg/dm³	Guruhlar		
	Nazorat	I tajriba	II tajriba
Arginin	17,8926	20,3275	18,3149
Tirozin	3,1461	3,7883	3,3982
Betta fenilalanin	1,0169	1,2171	1,1637
Gistidin	2,2618	3,0137	2,6123
Valin	2,2359	2,4537	2,3179
prolin	6,4927	7,7611	7,0216
Serin	5,5176	6,5453	6,2891
Alfa-alanin	2,6187	3,2719	2,8107
Glitsin	1,3872	2,1172	1,5730

ni bir kunda bir boshga etarlicha iste'mol qilgan nazorat guruhi hamda me`yordan yuqori qabul qilgan ikkinchi tajriba guruhi sigirlarining suti tarkibidagi arginine aminokislotasi miqdoridan mos ravishda 17,98% va 10,21% ga yuqori edi.

5-jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki oqsilli- vitaminli ozuqalar ratsiondagi miqdori sigirlar suti tarkibidagi oqsillarni tashkil qiluvchi aminokislotalar sonining ortishiga sabab bo'ldi, bunda Arginin aminokislotasi xashaki lavlagini bir kunda bir boshga 12 kg iste'mol qilgan 1-tajriba guruhi sigirlari sutining takibida 22,7814 mg/dm^3 ni tashkil qilgan bo'lsa bu ko'rsatkich xashaki lavlagini bir kunda bir boshga 6 kg iste'mol qilgan nazorat guruhi hamda 10 kg qabul qilgan ikkinchi tajriba guruhi sigirlarining suti tarkibidagi arginine aminokislotasi miqdoridan mos ravishda 17,98% va 10,21% ga yuqori edi.

Xulosa. Yangi texnologiyalar asosida spirulina oqsilli- vitaminli ozuqalar chorvachilikda qo'llash asosini: - boqiladigan qoramolning vaznini o'rtacha 30-40 % ga, sut sog'ib olishni esa 25% gacha oshirish, organizmda immunitetni mustahkamlash hisobiga yosh hayvonlar o'limini 4-5 martaga kamaytirish, xo'jalikdagi hayvonlardan foydalanish muddatini uzaytirish - sigirlardan buzoq, olishni ko'paytirish, samarasiz qochirishlarni bartaraf etish hamda veterinariya preparatlarini qo'llashni iqtisod qilish, veterinariya xizmatini 30 % ga qisqarishga erishiladi, ozuqalarni to'liq hazm bo'lish jarayonini oshishi hisobiga, ular sarflanishini 22 % gacha iqtisod qilishga erishiladi. Shu bilan birga kelajak avlodni yani yoshlarni, talabalarni o'qitishda zamonaviy texnologiyaladni qo'llashga erishiladi.

Foyidalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 18-martdagi "Chorvachilik tarmog'ini yanada rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ 4243-sonli qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-martdagi "Chorvachilik tarmoqlarini davlat tomonidan yanada qo'llab-quvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ 5017-sonli qarori.

4. Akmalxanov Sh.A., Jumadullaev B.X., Komilov A., Imanqulova K., Gulmatova N. Chetdan keltirilgan qoramollarni oziqlantirishning mahsuldorlik va pushtdorlik xususiyatlariga ta'siri. //J. "AGROILM". 2019 y., №2 (58), 43-44 b.

5. Акмальханов ш.А. Биологические и зоотехнические основы ведения молочного скотоводства в Узбекистане. Тошкент. «Мехнат» 1983 г.

6. Алифанова Ю.П., Елисеев В.А., Востроилов А.В., Алифанов В.В. Продуктивность и технологические свойства молока животных монбельярдской породы отечественного и импортного происхождения //Вестник Воронежского госагроуниверситета. 2015 г. №2. с.25-28.

7. Амерханов Х.А., Каюмов Ф.Г., Герасимов Н.П., Третьякова Р.Ф. Влияние генотипа и фактора кормления на продуктивность чистопородных и помесных бычков в условиях Калмыкии. //Известия Тимирязевской сельскохозяйственной академии. 2018 г., №2, с. 86-98.

8. Аммерханов Х.А., Мирошников С.А., Костюк Р.В. Проект концепция устойчивого развития мясного скотоводства в Российской Федераций до 2030 года. //Вестник мясного скотоводства. 2017 г., №1 (97), с. 7-11.

9. Bo'riev S.B., Tursunov X.Sh. Хлорелладан самарали фойдаланиш бўйича тавсиялар Услубий қўлланма. Бухоро 2012 .1,5-б/t. 24 bet

10. Tursunov X.Sh., Kichikov T.J. Bir hujayrali ko'k-yashil suv-o'tlardan samarali foyidalanishga doir tavsiyalr. Uslubiy qo'llanma. Buxoro-2021 yil. Durdona nashriyoti.

11. Tursunov X.Sh. Сут ишлаб чиқаришда қорамол зотларидан самарали фойидаланиш ва сутга бирламчи ишлов беришнинг замонавий технологиялари. Наманганский инженерно-технологический институт международная научно-практическая конференция на тему: «инновационные решения проблем в области химической технологии, химической и пищевой промышленности в условиях интеграции науки и производства, а также пути их преодоления». 18-19 ноября 2022 года в г. Наманган. 561 бет.

12. Tursunov X.Sh., Bo'riev S.B. Биологик актив моддалардан фойдаланиб экологик тоза озуқа етиштириш усуллари. Республиканская конференция. Тошкент - 2012. 69 – bet.



UO‘K: 636.926:636.018:636.082.233

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QUYONCHILIK SOHASIDAGI AMALIYOT, ILM-FAN YUTUQLARI, MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI

D.Q.Yuldashev, *bo‘lim mudiri, q.x.f.n., katta ilmiy xodim, Chorvachilik va parrandachilik ilmiy tekshirish instituti qoshidagi Quyonchilik selertsiyasi va genetika markazi,*
K.R.Xaydarov, B.X.Xudoyqulov, *mustaqil tadqiqotchilar, Chorvachilik va parrandachilik ilmiy tadqiqot instituti*

Аннотация: *В статье дана оценка состояния и развития кролиководства, в Республике Узбекистан за последние годы, а также рассмотрены основные проблемы, препятствующие их прогрессу. Особое внимание уделено роли кролиководства в обеспечении продовольственной безопасности, численности кроликов и структуре хозяйств, занимающихся их разведением. Описаны проекты «Создание гибридных поколений кроликов-бройлеров» и «Создание технологий акселерационного кролиководства в Узбекистане», которые реализованы центром селекции и генетики кролиководства. Обоснована перспектива развития кролиководства как отрасли мясного животноводства, а также источника ценного диетического мяса, необходимого для населения.*

Annotation. *This article assesses the state and development of rabbit farming in the Republic of Uzbekistan in recent years, and also examines the main problems hindering its progress. Special attention is given to the role of rabbit farming in ensuring food security, the number of rabbits, and the structure of farms engaged in their breeding. The article describes the projects “Creation of Hybrid Generations of Broiler Rabbits” and “Creation of Accelerated Rabbit Farming Technologies in Uzbekistan,” implemented by the Center for Rabbit Breeding and Genetics. The prospects for developing rabbit farming as a branch of meat production and as a source of valuable dietary meat for the population are substantiated.*

Kalit so‘zlar: *Chorvachilik, go‘sht yo‘nalishi, quyonchilik, texnologiyalar, ona quyonlar, bola olish, ushlash,boqish, so‘yish,*

Kirish. Insoniyat tarixning rivojlanishi bundan 40-yil muqaddam Rimdagi 1984-yilda Butunjahon quyonboqarlar kongressida e’lon qilingan “Quyon - insoniyatning kelajakdagi ozuqasi” shiorini asta-sekin tasdiqlamoqda.Xozirda BMT huzuridagi Xalqaro oziq-ovqat tashkiloti (FAO) bashorati (prognoz) lariga ko‘ra, yaqin yillarda quyon go‘shti inson ratsionida sezilarli o‘rin egallaydi, buni faqat ushbu hayvonlar sonining keskin ko‘payishiva iste’moli oshgani bilan bog’lash mumkin. Insonlar ratsionini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash va dunyoning istalgan mamlakati uchun oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda chorvachilik, parrandachilik va quyonchilikni rivojlantirishning ahamiyati beqiyosdir.Dunyoda turli mabalarga ko’ra yiliga 1,5-1,8 mln tn quyon go‘shti, shu jumladan Xitoyda -932 mln. tn, Shimoliq Koreyada 154 mln. tn, Ispaniyada - 57 mln.tn quyon go‘shti etishtirildi. 2025-yilda yillik quyon go‘shti etishtirishning o‘sish indeksi 2,3 foizni tashkil etdi [4.6].

Quyonchilik sohasini rivojlantirish uchun so‘nggi yillarda mahalliy iqlimga mos nasllarni ko‘paytirish, zamonaviy ozuqa bazasini yaratish va ilmiy asoslangan parvarishlash usullarini joriy etishga qaratilgan hukumatimizning qator qarorlari asoslari huquqiy yaratilmoqda. O‘zbekistonda quyonchilik qishloq xo‘jaligini rivojlantirish va chorvachilikni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan bir qator qonun va qarorlar bilan tartibga solinadi. Quyonchilikka oid asosiy jihatlarga quyidagi hujjatlar va qonunchilik hujjatlari hamda Davlat dasturi, “O‘zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirishning 2022 - 2026-yillarga mo‘ljallangan dasturi”ning 7-bandida quyon go‘shti va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish bo‘yicha aniq maqsad va chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan “Quyonchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish, shuningdek, kooperatsiya tizimi asosida mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish”ni kiritish mumkin [2].

Hozirgi 2026 yilga kelib ushbu ustuvor vazifalar doirasida doirasida respublikamiz viloyyatlarida yiliga 5 mln boshdan ko’p quyonlar etishtirilmoqda.Shu bilan birgalikda quyonchilik sohasini yanda rivojlantirish uchun uning Ilmiy ta’minlash va ommalashtirish dolzarb masalardan biri bo’lib turibdi.Endilikda quyonchilik sohasini izchillik bilan rivojlantirishda uni oddiy ishlab chiqarishdan raqamlashtirilgan innivatsion texnologiyalar o’tish, ixtisoslashgan malakali zootexniklar va veterinariya vrachlari, texnologlar tayyorlashga o’tishga alоxida e’tibor lozim.

Material va metodlar. Ushbu tadqiqotning ob’ekti sifatida respublikamiz viloyyatlarida quyonchilik sohasi olindi. Tadqiqotning predmeti sifatida turli xo’jaliklarda etishtirilayotgan quyonlarning sonlari, zotlari, ularning salomatligi, mahsuldorligi, oziqlanishi va etishtirilish, boshqarilish texnologiyalari olindi. Tadqiqotlarda kuzatuv, natijalarni taxlillash, solishtirish, mulohazalash usullari qo’llandi.

Natijalar va ularning tahlili. Quyonchilik dunyo chorvachiligining jadal rivojlanayotgan tarmog‘i bo‘lib, unda asosiy drayver Xitoy bo‘lib, u dunyo quyon go‘shti ishlab chiqarishining qariyb 50 foizini ta’minlaydi. Tarmoq yuqori intensivlik bilan ajralib turadi: bitta urg‘ochidan bir yilda o‘z vaznidan 50 baravar ko‘p go‘sht olish mumkin. Dunyo bo‘yicha quyon go‘shti ishlab chiqarish yiliga taxminan 1,2-1,7 million tonnani tashkil etadi. Aholi jon boshiga quyon go‘sht iste’molning eng yuqori darajasi Italiyada (yiliga taxminan 4,5 kg) qayd etilgan bo‘lsa, Yevropa bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich 2 kg ni tashkil etadi [4-6].

Dunyoda Quyonchilikning rivojlanishi ikki asosiy yo‘nalishda amalga oshirilmoqda:

Sanoat quyonchiligida quyonlar mexanizatsiyalashtirilgan maxsus tsexlarda 2 qavatli katak batareyalarida ushlanadi. Bu usuldan foydalanishda mikroiqlimni ushlash, to‘liq ratsionli donador ozuqalar bilan oziqlantirish avtomatik trazda ma’lum vaqtlarda amalga osiriladi va nazorat qilinadi. Bu sanoat texnologisida yosh quynlar o’z onalari bilan birga 28-30 kungacha birga o’stiriladi va keyinchalik aloxida tsexlarda kamida 75-80 kun vaznilari 2,5-3 kg.gacha etguncha boqiladi. Bu usul yiliga 1 ona quyondan 7-8 marta quyon bolalari yoki kamida 122 kq quyon go’shti olish imkonini beradi.


Ko’p mamlakatlarida guyonlarning 40% gacha bo‘lgan qismi tomorqa uchastkalarida “qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanmaydigan havaskorlar” tomonidan boqiladi.

Bugungi kunda respublikamizda jami 18 032 ta chorvachilik xo‘jaliklari, jumladan, qoramolchilik yo‘nalishida 7 614 ta, qo‘y va echkichilikda 3 263 ta, yilqichilikda 142 ta, tuyachilikda 52 ta, parrandachilikda 1 163 ta, baliqchilikda 4 829 ta, asalarichilikda 715 ta, quyonchilikda 127 ta xo‘jaliklar faoliyat yuritmoqda (1-diagramma).

Agar quyonchilik bo‘yicha statistik ma’lumotlarga qaraydigan bo‘lsak, har bir viloyat va butun respublika bo‘yicha yil boshidagi quyonlarning umumiy sonini ko‘rish mumkin, xolos.Chunki

1-diagramma.

O’zbekiston respublikasida quyontilik xo’jaliklari tasnifi



quyonchilik bo’yicha statistik ma’lumotlarning shaklanishu Quyonchilikning rivojlanish sur’atlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, quyonlar bosh soni 2015-2025-yillar oralig‘ida 3,3 barobarga ko‘payganligini ko‘rishimiz mumkin. 2025 yil boshiga kelib quyonlar soni deyarli 700 mimg boshga yetdi. Bu dunyodagi quyonlar sonining taxminan 0,3 foizini tashkil qiladi [1] (2-diagramma).

O’zbekiston respublikasida xukumat tomonidan quyonchilik rivojiga berilayotgan katta e’tibor natijasida barcha viloyatlarda quyonchilik xo’jaliklari mavjud. Viloyatlar orasida Xorazmda 31 ta, Samarqandda 20 ta, Qashqadaryoda ta, Toshkentda 10 ta quyonchilik xo’jaliklari joylashgan (3-diagramma).

O’zbekiston respublikasida quyon go’shti etishtirilishda Samarqand,Toshkent navoiy viloyatlari etakchi o’rinlarnini egallamoqda.


2022 yil Quyi Chirchiq tumanida ishga tushirilgan Evro-Osiyida eng yirik 40000 bosh ona quyonlarni ushlash va boqish quvvatiga ega “Mening otzuyim”quyonchilik sanoat majmuasidir (1-rasm).

“Mening otzuyim”quyonchilik sanoat majmuasi Italiyalik xamkorlar ishtirokida loyihalashtirilib, eng zamonaviy tsexlar ichining klimat, gazlar, yoruxlik va oziqlantirish rejimlari, xar bir quyonlar nazoratlari raqamlashtirilgan va sutkalik video kuzatuvdadir.Ona quyonlarning urchitish ishlari suniylashtirilgan va urug’lar maxsus genetika laboratoriyasida tekshiriladi.


Quyonlarni qo’shtga boqish texnologiyasida yangi tug’ilgan kuyonchalar onasi bilan 30 kunlikgacha birga saqlanadi va so’ngra ajlatilib 77

2-diagramma.

O’zbekiston respublikasida 2015-2025 yillarda quyonlar bosh soni to\g\risida statistika ma’lumotlari, ming bosh



3-diagramma. O’zbekiston respublikasi viloyatlarning 2026 yilga quyonchilik xo’jaliklari (ma) joylashuvi va quyon go’shti etishtirilishdagi ulushi,%



kunlikgacha to’yimli moddalar, mineral elementlar, biologik faol moddalar bo’yicha to’laqonli, muvazanatlangan maxsus granulangan ozuqalarda boqiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 2-avgustdagi “Respublikada zootexniya bo‘yicha quyonchilik sohasidagi ilmiy faoliyatni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 647-sonli qaroriga muvofiq, Chorvachilik va parrandachilik ilmiy-tadqiqot instituti huzurida “Quyonchilik seleksiyasi va genetikasi markazi” tashkil etildi [3].

2022–2025-yillarda ushbu Markaz tomonidan “Broyler quyonlarning duragay avlodlarini yaratish” va “Akseleratsion quyonchilikni yo‘lga qo‘yish” nomli ikkita ishlab chiqarish-innovatsion loyiha amalga oshirilib, muvaffaqiyatli yakunlandi. Markaz tomonidan 8 ta monografiya va 4 ta darslik, 50 dan ortiq maqola tayyorlanib, nashr etildi. Ayni paytda 3 nafar fan doktori tayyorlanmoqda. Markaz xodimlari quyonchilikning turli masalalari bo‘yicha xo‘jaliklar va tadbirkorlarga maslahat berish, xo‘jaliklarni auditdan o‘tkazish, quyonchilik masalalari bo‘yicha



1-rasm. “Mening otzuyim”quyonchilik sanoat majmuasining umimiy va ozuqa saglash uskunalari ko’rinishlari (internet manbakardan okingan)

mutaxassislar va aholini o‘qitishda faol ishtirok etmoqda.

Quyonchilik sohasining tahlili unda seleksiya ishlarining sustligi, em-xashak bazasining yetishmasligi va kasalliklarga qarshi kurash choralarining kamligini mahalliy iqlimga chidamli nasllarni ko’paytirish, quynonlar uchun oqsilli, granulalangan ozuqalar ishlab chiqarishning yangi resepturalari ishlab chiqi bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borishni taqoza yetmoqda.

Mavjud muammolarning sabablari quyonchilik bo‘yicha bilimli va ilmga chanqoq yosh mutaxassislar veterinariya vrachlari va zootexnik texnologlarning kamligi bo’lib turibdi.

Quyonchilik amaliyotida esa quyidagi qiyinchiliklar:

– zotdor yosh quyonlar va ozuqa sotib olishda;

– turli yoshdagi va fiziologik holatdagi quyonlarni oziqlantirishni tashkil etishda;

– quyonlar uchun mahalliy ixtisoslashtirilgan granulali omixta yemlarning yetishmasligi va import ozuqalar narxining yuqoriligi;

– mamlakatning aksariyat hududlarida zotdor quyonlar zaxirasining yetishmasligi va mavjud emasligi eng ko’pidir.

Yuqorida bayon etilganlar asosida quyidagi **xulosalar** qilish mumkin:

1. Hozirgi vaqtda mamlakatimiz quyonchiligining chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishdagi o‘rnini aniqlash juda qiyin, chunki faoliyat natijalarini obyektiv baholash murakkab. Hozirgi kunda respublikada quyonchilikning ahvolini dunyoning ayrim mamlakatlarida kuzatilishi mumkin bo‘lgan tijorat emas, balki iste’molchilik, ya’ni aholining ma’lum bir qismining oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan shaxsiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan deb ta’riflash mumkin.

2. O‘zbekistonda quyonchilikni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Ushbu tarmoq orqali nafaqat respublika aholisining ovqatlanish tarkibini yaxshilash, balki boshqa ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal qilishda, xususan, aholini ish bilan ta’minlashda yordam berish mumkin.

3. O‘zbekistonda aholi sonining har yili 730–750 ming kishiga ortishi va chorvachilik mahsulotlarining yetishmasligi kuzatilayotgan bir sharoitda, quyonlarning biologik xususiyatlari, mavjud boqish va parvarishlash usullari, islom dinida go‘shtini iste’mol qilishga ruxsat etilgani, shuningdek, tez yetilishi va serpushtligi tufayli quyonchilik istiqbollari juda porloqdir.

4. O‘zbekiston aholisining talabini to‘liq qondirish uchun har yili 8–10 million boshgacha quyon so‘yish va kamida 2 million bosh ona quyon boqish talab etiladi.

5. O‘zbekistonda quyonchilikni rivojlantirish uchun bu sohani ilmiy asoslarda ishlab chiqilgan zooveterinariya tavsiyanomalari asoslarida tanlash, boqish, ushlash va oziqlantirish, yuqimli kasalliklariga qarshi emlashlar ishlarini amalga oshirish undan iqtisodiy foyda olish garovi bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligining 2015-2023-yillar uchun yillik byulletenlari.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-fevraldagi PQ-120-son “2022-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish dasturi.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 2-avgustdagi “Respublikada quyonchilik sohasida ilmiy faoliyatni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 647-son qarori.

4. S.Beketov, M.Dubinina. Sostoyaniye i perspektivы mirovogo krolikovodstva// Kombikorma. - 2020. - No 5. - S.4-8.

5. Komlatskiy, S. V. Loginov, G. V. Komlatskiy, Ya. Samarali quyonchilik. Krasnodar: KubGAU, 2013. - 224 b.

6. Kosovskix O.G. i dr. Quyonchilik. Moskva viloyati, 2023-yil 352 bet.

7. R. Ro‘ziyev, D.K. Yuldashev. O‘zbekistonda quyonchilikni rivojlantirish istiqbollari. Quyonchilik istiqbollari: muammolar va yechimlar, 1 (1), 4-11. https://inlibrary.uz/index.php/prospects-rabbit/article/view/43991

UDK: 636. 082. 454: 616

MAHSULDOR SIGIRLARDA SIMPTOMATIK BEPUSHTLIKLARNING SABABLARI, DIAGNOSTIKASI VA PROFILAKTIKASI

B.M.Eshburiev, *ilmiy rahbar, professor,*
Abduvohidov Sanjarbek Ahad o‘g‘li, *magistrant*

Аннотация. *В статье утверждается, что причины симптоматического бесплодия у коров зависят от типа кормления молочных коров, уровня поступления биологически активных веществ, макро- и микроэлементов, условий их содержания, различных заболеваний репродуктивной системы, отсутствия регулярного разведения жвачных животных и неблагоприятных климатических условий. Для профилактики бесплодия необходимо улучшить питание животных, включить в рацион корма, богатые витаминами и минералами, а также использовать витаминные препараты.*

Abstract. *The article states that the causes of symptomatic infertility in cows depend on the type of feeding of dairy cows, the level of supply of biologically active substances, macro- and microelements, their maintenance conditions, various diseases of the reproductive system, lack of regular breeding for ruminants, and unfavorable climatic conditions. In order to prevent infertility, it is necessary to improve animal nutrition, include foods rich in vitamins and minerals in the diet, as well as use vitamin preparations.*

Kalit so‘zlar**:** *bepushtlik, mikroelementlar, oqsillar, uglevodlar, vitaminlar va mineral moddalar, tuxumdonlar, kamqonlik, jinsiy sikl, ratsion.*

Mavzuning dolzarbligi. Respublikamiz Prezidentining qator farmonlari va qarorlari asosida Respublikamizda chorvachilikni jadal rivojlantirish, choravchilik mahsulotlari yetishtirishni ko‘paytirish va sifatini yaxshilashga erishish maqsadida Respublikamiz barcha hududlariga so‘ngi yillarda horij davlatlaridan mahsuldor qoramollar olib kelinmoqda. Bu esa o‘z navbatida mamlakatimizning qoramolchiligini jadal rivojlanishiga asos bo‘lib hizmat qilmoqda. Ushbu mahsuldor sigirlarning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri ularda akusher-ginekologik kasalliklarning ko‘p qayd etilishi hisoblanadi, bu kasalliklar orasida sigirlarning simptomatik bepushtliklari keng tarqalgan bo‘lib, hayvonlarni noto‘g‘ri parvarishlash, jinsiy tizim kasalliklari (endometrit, yo‘ldoshni ushlanib qolishi va b.) oziqlantirish, ya’ni yetarlicha oziqlantirmaslik yoki keragidan ortiqcha oziqlantirish, ratsionda jinsiy tizim a’zolarining faoliyatiga ta’sir etuvchi hayotiy muhim komponentlarning yetarlicha bo‘lmasligi oqibatida yuzaga keladi, bunda hayvonlar yangi yashash sharoitlarga moslasha olmaydi, natijada ularning bepushtligiga sabab bo‘lishi mumkin.

Olingan natijalar. Alimentar bepushtlik (alimentum - oziq-ovqat) hayvonni noto‘g‘ri oziqlantirish tufayli kelib chiqadi. Hayvonlarni noto‘g‘ri oziqlantirish, ularni yetarlicha oziqlantirmaslik (yem-xashak yetishmasligi - och qolishi), keragidan ortiqcha oziqlantirish (semirib ketishi) yoki ratsionda jinsiy tizim a’zolarining faoliyatiga ta’sir etuvchi muhim komponentlarning (oqsillar, uglevodlar, vitaminlar va mineral moddalar) yetarlicha bo‘lmasligi bepushtlikka olib kelishi mumkin. [10].

Respublikaning qoramolchilik fermer xo‘jaliklari sharoitida mahsuldor sigirlar va urug‘lantirish yoshidagi tanalarda 10,8–12,7 % bepushtlik

qayd etilib, shundan 65,5 % ni simptomatik, 27,4 % ni alimentar va ekspulatatsion, 7,1 % ni iqlimga bog‘liq bepushtliklar tashkil etadi. Sigir va urug‘lantirish yoshidagi tanalar orasida bepushtlik asosan yoz va qish fasllarida ko‘proq qayd etilib, bahor faslida 15,2%, yozda - 34,4%, kuzda - 16,1% va qish faslida - 34,3 foizni tashkil etadi [4].

Ko‘pchilik olimlarning ishlarida sigirlar bepushtligi tug‘ma patologiyalar, qarilik, simtomatik, alimentar, ekspluatatsion, iqlimiy, sun’iy omillar ta’sirida paydo bo‘lishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan [6]. Ba’zi tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, sigirlarning bepusht bo‘lib qolishi va ginekologik kasalliklar bilan kasallanishiga asosiy, ya’ni simtomatik va alimentar, omillar bilan birgalikda ma’lum darajada ekologik-iqlimiy omillar ham sabab bo‘ladi.

Tadqiqotchilar hayvonlarda pushtsizlikka sabab bo‘ladigan ginekologik kasalliklar orasida jinsiy a’zolardagi yallig‘lanish jarayonlari katta salmoqqa ega ekanligini aniqlaganlar [9].

Tadqiqotchining ma’lumotlariga ko‘ra, 319 bosh sigirlarda akusher-ginekologik dispanserlash natijasida 21% hayvonlarda ovqat hazm tizimi funksiyasining buzilishi, 17% da minerallar almashinuvining buzilishi, 11% da vitaminlar yetishmasligi, 4% da ko‘payish funksiyalarining buzilishi kuzatilib, bepusht hayvonlarning 60% da tuxumdon patologiyalari (persistent sariq tana, gipofunksiya, follikulyar kista), 20% da bachadon qisqarishining buzilishi (atoniya va gipotoniya); 7% da surunkali endometrit, 3% bepusht sigirlarda – vulvit, vestibulovaginit va servitsit aniqlangan. Qish mavsumida 4,0-5,3% da yo‘ldoshning ushlanib qolishi, 2,5-3,7% da bachadon subinvolyusiyasi, 11,2-14,7% sigirlarda tug‘ruqdan keyingi endometrit kuzatilgan [2, 3, 12].

Alimentar bepushtliklarning turi va sabablarini aniqlashda oziqa ratsionlari, oziqa resurslari, ayniqsa yosh hayvonlarni o‘stirish davrida oziqlantirishni tashkil etilishini tahlil qilish katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Hayvon me’yorida oziqlantirilganda ham modda almashinuvi buzilishlari kuzatilganda (oshqozon-ichak va boshqa a’zolar kasalliklarida) ham alimentar bepushtliklar kelib chiqishi mumkin. Oziqlantirishdagi yetishmovchiliklar butun organizmga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, avvalambor jinsiy sikllar jadalligiga ta’sir etib, anofrodiziya va jinsiy siklni to‘liq bo‘lmasligiga sabab bo‘ladi [9,11].

Mualliflarning 3 yillik tekshirishlari natijasida 1085 bosh sigirlarni qisir qolganligini aniqlab, ularning 51,15 % simtomatik sabablar bilan, 40,19 % sun’iy orttirilgan, 4,70 % iqlim sharoiti va 2,11 % alimentar sabablar oqibatida bepushtligi aniqlangan [8].

Yod qalqonsimon bez garmoni tarkibiga kirib, u jinsiy a’zolar faoliyatiga ta’sir etadi. Organizmda yod yetishmasa moddalar almashinuvi buziladi, jinsiy yetilish kechikadi, jinsiy siklni to‘laqonli bo‘lmasligi, yo‘ldoshning ushlanib qolishi, bachadon subinvolyusiyasi kuzatiladi. Yodga bo‘lgan kunlik talab 1 kg tirik vaznga 0,3-0,5 mg bo‘ladi [11].

Organizmda kobalt elementi yetishmasa jinsiy siklning to‘laqonli bo‘lmasligi, kuyga kelish va otalanish susayishi, bola tashlash, bo‘g‘ozlik davrida, tug‘ish paytida va tug‘ishdan keyingi kasalliklar kuzatiladi. Sog‘in sigirlar oziqa ratsionidagi 1 kg quruq oziqa bilan 0,5-1,0 mg, sutdan chiqqan sigirlar esa 0,3-0,8 mg qabul qilishlari kerak [11].

Hayvonlarni yetarli darajada oziqlantirmaslik gipotalamus-gipofiz-ovarial tizimi, qalqonsimon bez va buyrak usti bezlariga ta’sir qilib, ularning gormonal faoliyatini buzadi, keyin esa bu bezlarda morfologik o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi. Bu anafrodiziyaga, to‘liq bo‘lmagan jinsiy sikllar va hayvonni urug‘lanmasligiga olib keladi [8].

Qoramollarning bepushtligining asosiy sabablari ginekologik kasalliklar, hayvonlardan foydalanish texnologiyasining buzilishi, oziqlantirishning past darajasi, qoniqarsiz zoogigienik sharoitlar hisoblanadi. Shuning uchun ularning oldini olish va bartaraf etishning asosiy yo‘nalishlari asosiy sabablarni bartaraf etishga qaratilgan texnologik va veterinariya choralari, shuningdek, dori vositalar yordamida oldini olish, terapiya va jinsiy sikllarni rag‘batlantirishdir [9].

Muallif ma’lumotiga ko‘ra, bepushtliklarning etiologiyasida akusher-ginekalogik kasalliklar (tuxumdon, tuxum yo‘llari, bachadon qin va sut bezi kasalliklari) asosiy o‘rinni egallaydi va ushbu kasalliklar oqibatidagi bepushtliklar 15-35 % ni tashkil etishi mumkun [11].

Mualliflar fikriga ko‘ra, oziqaviy etiologiyali bepushtlik quyidagilar bo‘lishi mumkin: oziqlanishning miqdoriy yetishmovchiligi organizmning charchashiga olib keladi; semizlikka olib keladigan bir tomonlama ortiqcha oziqlanish; oziqa ratsionining alohida tarkibiy qismlari - oqsillar, uglevodlar, vitaminlar, minerallarning yetishmasligi, shuningdek, ularning noto‘g‘ri nisbati bilan tavsiflangan sifat yetishmovchiligi (oziqlantirish sifatining pastligi) [7].

Urg‘ochi hayvonning qisirligi erkak hayvondagi kamchiliklarga ham bog‘liq bo‘lishi mumkin, shuning uchun erkak nasldor hayvonni rejali ravishda tekshirib turish kerak. Erkak hayvonlarda spermaning sifatini yomonlashishi yoki butunlay sperma hosil bo‘lishini to‘xtashiga sabab bo‘ladigan jinsiy a’zolar kasalliklari ko‘p uchraydi [8].

Yuqori mahsuldor bug‘oz sigirlarga va tuqqandan keyin 1 oy davomida seolit ma’danidan bir boshga 150 g hisobida mineral qo‘shimcha sifatida berishning sigirlarda sut mahsuldorligini 15,5 foizga, ulardan tug‘ilgan buzoqlarda tana vazni ortishining nazorat guruhiga nisbatan 6,3% ga yuqori bo‘lishini ma’lum qiladi [10].

Protein preparatlarini (qon zardobi, aminopeptid-2, metall yod oqsili xelat birikmalari va boshqalar) parenteral yuborish yetarli darajada oziqlantirish fonida hayvonlarning reproduktiv funksiyasini va qondagi oqsil darajasini normallashtiradi. Odatda, o‘tlash, mashq qilish, quyoshning ta’sir qilishi va eng muhimi, vitaminga boy oziqani ratsionga kiritish tug‘ilishning tez tiklanishiga yordam beradi. Biroq, bir qator hollarda, bahor va qishki kam ovqatlanishdan so‘ng, hayvonlarning yaxshi oziqlanishiga qaramay, jinsiy sikl faqat 4-6 oydan keyin tiklanadi [1].

Xulosa: Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, sigirlarda simptomatik bepushtliklarning sabablari sog‘in sigirlarni parvarishlash, tug‘ishda uchraydigan va reproduktiv tizim kasalliklari, oziqlantirish tipiga, biologik faol moddalar, makro- va mikroelementlar bilan ta’minlanish darajasi, yayratishning yetishmasligi va noqulay iqlim sharoitlari hisoblanadi. Bepushtliklarni oldini olishda saqlashda zoogigienik talablarga rioya qilinishi, hayvonlarni oziqlantirishni yaxshilash, vitamin va minerallarga boy oziqalarni ratsionga kiritish, shuningdek, ratsionda protein va uglevodlar, makro- va mikroelementlar muvozanatining me’yorlar darajasida bo‘lishini ta’minlash kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Eshburiev B.M. Veterinariya akusherligi. Darslik. Toshkent, 2018.

2. Strategies for improving fertility in the modern dairy cow / W. W. Thatcher, T. R. Bilby, J. A. Bartolome, F. Silvestre, C. R. Staples, J. E. Santos // Theriogenology. – 2006. – Vol.65.– P. 30-44.

3. Волосков, П.А. Основы борьбы с беспло-

дием крупного рогатого скота / П.А. Волосков. – М., 1960. – 260 с.

4. Дарменова А.Г. Применение антиплацентарной крови и препарата «нитамин» при лечении и профилактике акушерско-гинекологических заболеваний коров. Автореф. ..канд. вет. наук. Казань – 2018, 23 с., Кочура М.Н. Клинико-морфологическая характеристика, диагностика и терапия подострой субинволюции матки коров: автореф. дис ... канд. вет. наук: [Текст] / - Воронеж, 2006. - 22 с.

5. Қулдошев О.Ў. Сигирлар бепуштлиги, эндометритларни даволаш ва олдини олиш усулларини такомиллаштириш. Вет.фан. доктори илмий даражасини олиш учун диссертация автореферати. Самарқанд, 2022.

6. Никитин В.Я., Студенцов А.П., Шипилов В.С. Ветеринарное акушерство, гинекология и биотехника размножения - М.: Колос, 1999, 495 с.

7. Никитина В.Я. и Миролюбова М.Г. «Учебник под редакцией. Ветеринарное акушерство, гинекология и биотехника размножения.» Москва «Колос» 1999.

8. Попов А.И. Совершенствование фармакопрофилактики и фармокотерапии задержания последа у коров с использованием озонированного изотонического раствора хлорида натрия: автореф. Дис. канд. вет. наук// Екатеринбург, 2006. - С. 20.

9. Руководство по акушерству, гинекологии и биотехнике размножения животных / Е. В. Ильинский, М. В. Назаров, А. Н. Трошин, В. Н. Шевкопляс. - Краснодар, 2002. - 581 с. Ильинский, Е. В. Профилактика бесплодия коров в условиях интенсификации молочного скотоводства / Е. В. Ильинский. - Краснодар : Кн. изд-во, 1983. - 176 с.

10. Федотов, С.В. Коррекция лечебно-профилактических мероприятий при субинволюции матки и повышения плодовитости у мясного скота // С.В. Федотов, В.С. Авдеенко, А.Т. Жангалиева. - Вестник Алтайского государственного аграрного университета. – 2016. – №11 – С.130-135.

11. Шкуратова И.А. Влияние адаптированной витаминно-минеральной добавки на молочную продуктивность и воспроизводительную функцию коров // Ветеринария Кубани. - 2009. - №6. - С. 56-59.



УДК: 631.15:33:636.2.034

ЎЗБЕКИСТОНДА ҚОРАМОЛ ЗОТЛАРИНИ РАЙОНЛАШТИРИШ ЁКИ ҲУДУДИЙ ИХТИСОСЛАШТИРИШНИНГ АЙРИМ ЖИҲАТЛАРИ

Аллаяров Шерали Шамшиевич, *докторант, қ.х.ф.ф.д. (PhD),*
Тошкентдаги Сингапур менежментни ривожлантириш институти,
Маматкулов Абдурашид Вахидович, *и.ф.д., профессор,*
Тошкент давлат аграр университети,
Маматқулов Олимжон Эшонқулович, *директор, қ.х.ф.ф.д. (Phd),*
Наслчилик илмий-ишлаб чиқариш маркази

Аннотация. *В статье приведена аналитическая информация по вопросам особенностей районирования по породам, являющейся важным фактором, определяющим эффективность животноводства, в условиях Узбекистана. Кроме того, обоснована необходимость подхода к этому вопросу с учётом природно-климатических, земельно-водных, кормовых ресурсов и организационно-правовой формы субъектов животноводства. В статье также изложены ряд предложений по этому вопросу.*

Abstract. *The article presents an analysis of one of the key factors determining livestock productivity - the issue of breed zoning, highlighting its specific features under the conditions of Uzbekistan. The study substantiates the necessity of addressing this issue by taking into account the natural and climatic conditions, land and water resources, feed base, as well as the organizational and legal forms of livestock enterprises engaged in cattle breeding. In addition, several practical recommendations have been proposed for improving breed zoning in cattle farming.*

Калит сўзлар: *қорамолчилик, зот, чорвачилик, қорамол, сигир,* наслчилик, сут, гўшт, хўжалик тоифалари, тармоқ, омил, самарадорлик.

Кириш. Қишлоқ хўжалигида районлаштириш тушунчаси асосан иқтисодий тушунча бўлиб, яқин иқтисодий тарихдааги режали иқтисодиётда кенг қўлланиладиган (рус-*породное районирование*) - ўсимликлар ва чорва моллари тур, зотларининг маълум бир ҳудудлар бўйича жойлаштириш, ихтисослаштирилган ҳолда урчитишни назарда тутади. Бунда, ҳар бир ҳудуднинг табиий-иқлим ва ижтимоий–иқтисодий шароитлари, қорамолларнинг зот хусусиятлари инобатга олиниб, ишлаб чиқаришни ташкил этишда ушбу омилларнинг бир-бирига имкон қадар уйғунлаштирган ҳолда комплекс фойдаланиш мақсад қилиб олинади [9]. Демак, қорамол зотларининг ҳудудий ихтисослашуви ёки қорамол зотларини районлаш-тириш – бу ишлаб чиқаришни режалаштириш, ташкил этиш ва бошқаришга оид тушунча бўлиб, қорамолчиликда имкон қадар юқори самардорликни таъминлаш мақсадида ҳудуддаги мавжуд шарт-шароит ва омилларга мос қорамол зотларини танлаб урчитиш орқали қорамол бош сонлари ва қорамолчилик маҳсулотлари ишлаб чиқаришни кўпайтиришдир [5, 7].

Асосий қисм. Ушбу масаланинг муҳимлигини Ўзбекистон Республикасининг 1995 йил 21 декабрдаги 165-I-сонли “Наслчилик тўғрисида”ги қонунининг 7-моддаси Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Агросаноат мажмуи устидан назорат қилиш инспекциясининг наслчилик соҳасидаги ваколатларига қишлоқ хўжалиги ҳайвонларини зоти бўйича районлаштириш ишларини назорат қилиш ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 28 мартдаги “Ветеринария ва чорвачилик соҳасида давлат бошқаруви ти-

зимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5696-сонли фармонида Ветеринария ва чорвачиликни ривожлантириш қўмитасининг асосий вазифаларидан бири сифатида қишлоқ хўжалиги ҳайвонларини зоти бўйича районлаштириш масаласи ҳам киритилганлигидан билиш мумкин [1,2].

Чунки, районлаштириш тадбири кенг кўламли селекция наслчилик ишларини маъмурий ҳуддудлар бўйича режалаштириш, ташкил этиш, назорат ва мувофиқлаштиришни ўз ичига олган бошқариш ишларини самарали юритиш, наслчилик хўжаликларда зотлар софлигини сақлаш, наслчилик маҳсулотлари билан таъминлаш тизимини оқилона ташкил этиш, пода маҳсулдорлигини ошириш мақсадидаги жуфтлаш режасини тузиш ва уни муваффақиятли амалга оширишнинг пойдевори бўлиб хизмат қилади.

Қорамол зотлари бўйича ҳудудий ихтисослашув ёки қорамол зотларини районлаштиришда эътиборга олинадиган асосий омиллар қуйидагилардир:

- ҳудуднинг табиий-иқлим шароитлари;

- ҳудуддаги мавжуд озуқа экинлари майдони, яйлов, ишчи кучи, инфраструктура ва бошқа ишлаб чиқариш ресурслари;

- қорамолчилик маҳсулотларига бўлган ҳудудий эҳтиёж;

- қорамол зотларининг маҳсулдорлик йўналиши ва бошқа: маҳаллий табиий-иқлим шароитлари, шу ҳудудда учрайдиган касалликларга чидамлилиги каби зот хусусиятлари;

- бошқа омиллар.

Қорамол зотларини районлаштириш тадбирлари мамлакатимизда кенг миқёсда амалга оширилиши собиқ иттифоқ даврида бошланган бўлиб, ўша даврлардан бошлаб ўрнатилган тартибга кўра одатда, бир ҳудудда 2-3, бир хўжаликда битта, камдан-кам ҳолларда иккита қорамол зоти урчитилади.

Собиқ Совет Иттифоқи Госагропромининг 03.04.1985 йилдаги “Сут ва сут-гўшт йўналишидаги қорамол зотларини районлаштириш тўғрисида”ги буйруғига асосан Ўзбекистон Республикасига қизил чўл, бушуев, қора-ола, швиц ва авлиёота зотлари районлаштирилган эди. Кейинчалик киритилган ўзгартиришларга асосан Болтиқбуйи репсубликалари қизил тусли қорамоллари: эстон қизил, латвия ва литва қизил қорамолларини ҳам урчитилиши белгиланган эди.

Мустақиллик йилларида эса Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ хўжалиги вазирининг 1997 йил 10 мартдаги “Республика туманларида қорамол зотларини жойлаштириш режаси ҳақида”ги 65-сонли буйруғи билан аввалги белгиланган зотларга қўшимча равишда сут йўналишидаги голштин (қора-ола ва қизил) ҳамда болтиқбуйи қизил қорамол зотлари, гўшт йўналишидаги санта-гертруда, абердин-ангус ва қозоқи оқбош зотларини жойлаштириш кўзда тутилиб, сут-гўшт йўналишидаги авлиёота зоти руйхатдан чиқарилган эди [3].

Кейинчалик эса мавжуд шарт-шароитлар тақозасига кўра бошқа меъёрий ҳужжатлар чиқарилиб, уларга асосан:

Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ ва сув хўжалиги вазирининг 2014 йил 16 июндаги 155-сонли буйруғи билан тасдиқланган “Наслчилик соҳасида селекция, биотехнология ва ирсият-муҳандислик усулларини қўлланиш шартларини белгилаш тартиби тўғрисидаги Низом”га асосан қорамолларнинг қуйидаги зотларининг руйхати тасдиқланган:

сут-гўшт йўналишидаги зотлар: қора-ола зотлар; қизил зотлар; бушуев зоти; бошқа зотлар;

гўшт-сут йўналишидаги зотлар: швиц, қўнғир зотлар; симментал (флекфи); бошқа зотлар;

гўшт йўналишидаги зотлар: санта-гертруда; абердин-ангус; қозоқи оқбош зоти; бошқа зотлар.

Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ ва сув хўжалиги вазирининг 2014 йил 29 августдаги

218-сонли “Республикада қорамол зотларини урчитиш ва туманларда қорамол зотларини жойлаштириш тўғрисида”ги буйруғи чиқарилиб, унга асосан:

сут-гўшт йўналишидаги зотлар умумлаштирилган ҳолда: қора-ола зотлар (қора ола, голштин қора-ола ва қизил-ола); қизил зотлар; бушуев зоти ва бошқа зотлар;

гўшт-сут йўналишидаги зотлар: швиц, қўнғир зотлари; симментал (флекфи) зотлари ва бошқа зотлар;

гўшт йўналишидаги зотлардан: санта-гертруда; абердин-ангус; қозоқи оқбош зоти; бошқа зотлар ҳар бир вилоят ва туманлар кесимида жойлаштирилиши белгиланди.

Ўзбекистон Республикаси Ветеринария ва чорвачиликни ривожлантириш қўмитасининг 2024 йил 20 февралдаги, “Республика ҳудудлари кесимида қишлоқ хўжалиги ҳайвонларини урчитиш, кўпайтириш ва уларни районлаштириш тўғрисида”ги 22-и/ч сонли буйруғи билан бу тадбир янада такомиллаштирилган. Аммо, айни вақтда юқорида кўрсатилган Республикада қорамол зотларини урчитиш ва туманларда қорамол зотларини жойлаштириш тартибига қўшимча ва ўзгаришлар киритиш зарурияти вужудга келган. Бундай зарурият сабабларига мисол сифатида қуйидагиларни келтириш мумкин. Масалан, сўнгги вақтларда тадбиркорларимиз томонидан гўшт зотлардан шароле, лимузин, оч тусли аквитан зотларига қизиқиш кучайиб, шу зотга мансуб наслли наслли мол ва наслчилик маҳсулотлари сотиб олинмоқда. Қорақалпоғистон Республикаси, Бухоро ва Хоразм вилоятларига жойлаштириш учун эса сут-гўшт йўналишидаги зот сифатида симменталь ва қўнғир зотлар белгиланган, ваҳоланки, бу ҳудудлар ўта иссиқ ва кескин ўзгарувчан иқлими, озуқа экин ерлари ва яйловлари, эпизоотик шарт-шароитларига кўра ушбу зотлар мослашиши қийин. Шу сабабли, наслчилик иши асосий қўш маҳсулдор зотлар сифатида улар белгиланиб, бошқа зотлар чегараланиб қолмаслиги зарур.

Шу ўринда таъкидлаш лозимки, мамлакатимиз иқлим шароитига нисбатан мосроқ бўлган қизил чўл зоти Қорақалпоғистон Республикаси қорамоллари пода таркибида қарийиб 40, Бухоро ва Хоразм вилоятларида 70-80 фоизни ташкил этган ҳолда, ушбу зотни сақлаб қолиш ва такомиллаштиришнинг улкан заҳираси мавжуд. Аммо, айни вақтда ушбу зотга мансуб наслли моллар халқаро базорда қарийиб сотилмаётганлиги, уни яхшилашда қўлланиладиган Англер ва Дания қизил қорамол зотларининг наслдор буқалари камёблиги сабабли бу мақсадда Хитой Халқ Республикасининг Қизил чўл зотидан фойдаланиш мақсадга мувофиқ. Ушбу зот моллари маҳсулдорлик жиҳатидан юқоридаги зотларга тенглаша олмасада, иссиқ иқлим, паразитар касалликларга ва унчалик яхши бўлмаган озуқа шароитига чидамлилиги, сутининг ёғи нисбтан кўплиги, узоқ яшаб кўп бузоқлаши билан қорамолларнинг 90 фоиздан ортиғи парваришланаётган аҳоли хўжаликларидаги шароитга юқоридаги ўта “маданийлашган” зотларга нисбатан мос зотдир.

Бундан ташқари, чорвачилик, хусусан, қорамолчилик соҳасидаги турли кўринишда шаклланаётган хўжалик тоифаларига мансуб хўжаликлардаги мавжуд қорамолларнинг республика қорамоллар подасидаги салмоғи ва ушбу хўжалик тоифаларининг озуқа, молиявий ва бошқа моддий-техник ресурслар таъминоти, жойлашган жойдаги агроиқлим шароитлари ҳамда улар таъсирида шаклланган хўжалик юритиш усулларнинг ўзига хослигини ҳам инобатга олиш заруриятини вужудга келтирмоқда.

Маълумки, қормолчилик тармоғида ҳам чорвачиликнинг барча йўналишларидаги каби тармоқ ривожини белгилаб берувчи асосий омиллардан бири - қорамолларнинг наслий сифатидир. Бу борада республикамизда наслчиликни такомиллаштириш бўйича қатор

ижобий чора-тадбирлар амалга оширилган бўлсада, ҳали алоҳида эътибор қаратилиши зарур бўлган муаммолар мавжуд. Чунки, сўнгги йилларда республикамиз қорамоллар подаси турли хўжалик тоифалари бўйича қорамоллар салмоғи бир-биридан кескин фарқланган ҳолда шаклланди [8].

Улар қаторида шахсий ёрдамчи ва деҳқон хўжаликлари тоифасига мансуб оилавий индивидуал хўжалик шакли - бошқарув нуқтаи назаридан, ўзининг бошқа: фермер хўжаликлари ва юридик шахс мақомига эга бошқа қишлоқ хўжалиги корхоналарига нисбатан ҳажми анча кичиклиги ва эгалик ҳуқуқи кўп сонли эканлигига боғлиқ равишда, тарқоқ, молиявий ва иқтисодий имкониятлари чекланган, пировард натижада, ўзига бошқа тоифадаги хўжаликларга нисбатан алоҳида ёндошув талаб этадиган хўжалик тоифасидир. Айни вақтда эса долзарб масалалар бўлган: аҳолини озиқ-овқат маҳсулотлари билан таъминлаш, айниқса, қишлоқларда аҳоли бандлигини оширишда бу муаммони ҳал этиш учун ушбу тоифага мансуб хўжаликлар салмоғини камайтириш тадбирини қўллаш эса айни вақтда мақбул ечим бўлмай, балки, бу борадаги мавжуд имкониятларни бой бериш, улардаги мавжуд чорва моллари имкон қадар кўпроқ ва сифатли маҳсулот ишлаб чиқариш чораларини кўриш эса мавжуд имкониятлардан унумли фойдаланиш демакдир. Шу билан бирга, аҳоли бандлиги нуқтаи назаридан, ишсиз ва рўзғор юмушлари билан банд, аммо, қўшимча меҳнат фаолияти юритишга шай ишчи кучи заҳирасининг катта манбаи ҳам шу тоифадаги хўжаликларда мужассам.

Масалан, охирги 5 йилда республикада мавжуд жами қорамолларнинг ўртача 95 фоизи, шу жумладан, сигирларнинг 94 фоизи шахсий ёрдамчи, яъни, аҳоли шахсий хўжаликлари қарамоғида парваришланаётганли бу борадаги имкониятларнинг асосий қисми ушбу тоифада жамланганлигини кўрсатади [6].

1-жадвал.

Республикада қорамоллар подаси таркибининг хўжалик тоифалари бўйича тақсимланиши

(сўнгги 5 йилликдаги ўртача яхлитланган кўрсаткич бўйича)

Хўжалик тоифалари	Подадаги улуши, %	
	Жами қорамоллар	Шу жумладан сигирлар
Фермер хўжаликлари	4,0	5,0
Қорамолчилик билан шуғулланувчи бошқа қишлоқ хўжалик корхоналари	1,0	1,0
Деҳқон (шахсий ёрдамчи) хўжаликлар	95,0	94,0

Манба: Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси маълумотларидан фойдаланиб ўртача ҳисобланган.

2-жадвал. Республикада мавжуд сигирларнинг хўжалик тоифалари бўйича ўртача сут маҳсулдорлиги

Хўжалик тоифалари	1 бош соғин сигирнинг ўртача сут маҳсулдорлиги, кг	Жами 1 йилда соғиб олинган ўртача сут миқдорида фоиз улуши, %
Фермер хўжаликларида	1800	3,9
Қорамолчилик билан шуғулланувчи бошқа қишлоқ хўжалик корхоналарида	1600	1,4
Деҳқон (шахсий ёрдамчи) хўжаликларида	2200	95,0

· Манба: Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси маълумотларидаги жами ишлаб чиқарилган сут миқдорини сигирлар бош сонига тақсимлаган ҳолда 5 йиллик ўртача миқдорлар ҳисобланган.

Ушбу хўжаликлар чорвачилик билан шуғулланиши мумкин бўлган шахсларнинг

замонавий хўжалик юритиш усулларидан хабардорлик даражаси кам, молиявий имкониятлари ва унга боғлиқ ҳолда моддий-техник иконият лари чекланган, ташкилий бошқарув жиҳатидан жуда тарқоқ бўлган ишлаб чиқариш субъектлари эканлиги сабабли улар фаолиятини мувофиқлаштиришда алоҳида ёндошув талаб этилади.

1-жадвалдан кўриниб турибдики, миқдорий жиҳатдан устунлиги сабабли шахсий таморқа хўжаликларидаги қорамоллар бош сони энг катта имконият заҳирасидир. Аммо, айни вақтда республикамизга кўп йиллар давомида шаклланган пода таркибидан келиб чиқиб, асосан сут йўналишидаги, саноат сутчилигига мос сутдор зотлар районлаштирилган ва шу зотларга мансуб наслчилик материллари олиб келинмоқда, яъни, бу борада барча тоифадаги хўжаликларга уларнинг ўзига хос хусусиятларини инобатга олиб ёндошиш зарурияти мавжуд. Чунки, энг кўп мол бош сонига эга шахсий томорқа хўжаликларидаги мавжуд шарт-шароитлар: саноат асосида ташкил этилган йирик фермалардаги каби юқори даражада ташкил этилмаган сақлаш шароити (микроиқлим), озуқа таъминоти шароити, иссиқ ҳудудларга хос бўлган касалликларга қарши профилактик шарт-шароитларни инобатга олган ҳолда уларни: жуссаси нисбатан кичик, аммо, пишиқ ва нисбатан камроқ ҳажмда озуқа талаб этадиган ва шунга боғлиқ ҳолда камроқ, аммо, серёғ сут берадиган, айниқса, қон-паразитар каслликларига чидамли зотларга мансуб моллар билан бойитишни тақозо этади.

Бундан ташқари, саноат ишлаб чиқаришга мос ҳолда шакллантирилган, кўп миқдорда сут берадиган сигирлар, ўта маданийлашганлиги сабабли соғлиги турли шарт-шароитларга ўта таъсирчан ва уларда туғиш пайтида мураккаб вазиятлар содир бўлиш эҳтимоли (8-12%) нисбатан кичик жуссали қорамолларга (5-6 %) нисбатан юқорилиги қарамоғида мол бош сони кам аҳоли подасида катта аҳамиятга эга. Чунки, қорамолчиликда илғор тажрибага эга давлатларда ҳам биргина голштин зотли сигирлар шивиц зотлиларига қараганда енгил туғиш кўрсаткичи бўйича ўртача 3 фоизга фарқланади [10]. Тўғри, ҳозиргача республикамиз ҳудудларига мослаштирилган салмоғи жиҳатидан асосий бўлган қора-ола, қизил чўл, швиц зотларини маҳаллий шароитга мослаштириш борасида тўғри ва кенг кўламдаги ижобий ишлар амалга оширилган эди, аммо, улар ҳам ўз ўрнида, яъни, йирик ферма шароитидагина кўзланган даражадаги натижаларни беради. Шу ўринда таъкидлаш лозимки, сўнгги йилларда қўш маҳсулдор йўналишида бўлсада, четдан келтирилаётган зотлар ичида шу хусусиятларга эга симментал ва голштин зотларининг улуши янада ошиб бормоқда

Шу сабабли, республикага четдан наслчилик материаллари келтириш ва жуфтлаш, районлаштириш жараёнида деҳқон хўжаликлари эҳтиёжи учун шу хўжаликларнинг ўзига хос шарт-шароитларини инобатга олга ҳолда, уларга мос хўжалик белгиларига асосан танлаш зарур. Айниқса бу тадбир, турли давлат дастурлари ва ҳомийлик лойиҳалари доирасида аҳолига бепул қорамол тарқатиш ва сотиш жараёнида қўлланилиши мақсадга мувофиқдир. Фикримизча, бу мақсадга зебусимон қорамоллар асосида яратилган зотлар ёки жирсей, швиц каби зотли қорамолларнинг жанубий мамлакатларга мослаштирилган тармоқларига мансуб моллар кўпроқ мос келади. Айниқса, мамлакатимизнинг асосий қисмини чўл ҳудудлари ташкил этишидан келиб чиқиб, маҳсулдорлик кўрсаткичлари паст бўлсада, аммо, яшаш шарт-шароитларига чидамли ва яйлов чорвачилигига мослиги сабабли қўлдан озуқа бериб боқиш шароити бўлмаган арид ҳудудларда иқтисодий жиҳатдан самарали қорамол зотларини кўпайтириш мақсадида Монголия, Шимолий-ғарбий Хитой, Покистон, Эрон ва Жанубий

Америка, Шимолий Африка мамлакатларига иқлимлаштирилган Европа қорамолларининг наслчилик материалларидан фойдаланиш масаласини амалиётда синаб кўриш лозим деб ҳисоблаймиз.

Шу ўринда, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 24 сентябрдаги "Ўзбекистон ва Хитой халқ Республикаси ҳамкорлиги бўйича Ҳукуматлараро қўмитанинг бешинчи мажлиси якунларига кўра тузилган шартномаларни амалга ошириш чоралари тўғрисида"ги 805-сонли қарорига асосан Қорақалпоғистон Республикаси шароитида нафақат иссиққа, балки, чўл ҳудудларга хос совуқ қишга чидамли "Янбиян" ва "Мўғул" зотли қорамолларни кўпайтиришни биргаликда тадқиқ этиш келишуви бу борадаги муҳим қадам бўлганлигини қайд этиш мумкин [4]. Аммо, режалаштиришда ҳисоб-китоблар ноаниқлиги оқибатида бу тадбир ҳозирча амалга ошмаётган бўлсада, ушбу мақсадни амалга оширишнинг нисбатан ресурсурстежамкор усуллари мавжуд. Масалан, ушбу зотларга мансуб наслдорп буқалар олиб келиниб, улардан уруғ ишлаб чиқариш ва грант лойиҳалари маблағлари ҳисобидан аҳоли сигирларини бепул уруғлантирган ҳолда амалга ошириш мумкин.

Бунда, иқтисодий жиҳатдан хавфни камайтириш мақсадида, аҳоли қарамоғидаги сигирларни юқорида кўрсатилган зотларга мансуб буқалар уруғи билан сунъий уруғлантиришни кенг кўламда, шу билан бирга, ҳудуд ва миқдор жиҳатдан аниқ ҳисоб-китобларга асосланган режа асосида жорий этиш зарур. Бу орқали тадбир сифатли амалга оширилиши ва унинг натижаларининг барқарорлиги таъминланади.

Шу ўринда алоҳида таъкидлаб ўтиш керакки, мамлакатимиз ҳудудида яратилган ягона, маҳаллий шарт-шароитларга нисбатан энг мос келадиган, сут маҳсулдорлиги ва сутдаги ёғи, эркак наслларининг гўштдорлик хусусиятлари жиҳатидан деҳқон хўжаликларида парваришлаш учун қулай бўлган қорамол зоти - Бушуев молларининг районлаштирилган моллар ичида улуши жуда кам бўлиб, уни кўпайтириш бўйича туб ўзгаришлар амалга оширилмаяпти. Зеро, бу тадбир нафақат иқтисодий жиҳатдан қулай бўлиб, балки, биохилмахилликни сақлаш ва кўпайтириш нуқтаи назаридан ҳам айни муддао бўлар эди. Чунки, фақатгина ушбу қорамол зоти қонида республикадаги маҳаллий абориген қорамолларнинг қони улуши улардан генетик маҳсулот сифатида фойдалана олиш даражасидаги улушга эга. Дурагайлашмаган маҳаллий абориген моллар эса деярли мавжуд эмас, ёки мавжуд бўлса популяция даражасидаги миқдордан кам.

Шу сабабли, деҳқон, шахсий таморқа хўжаликларига мос бўлган зотга мансуб молларни кўпайтириш ҳар тамонлама мақсадга мувофиқдир. Бу деҳқон ва шахсий таморқа хўжаликларида нафақат сут ишлаб чиқариш самарадорлигини ошиши, балки, гўшт ишлаб чиқариш кўрсаткичларига ҳам ижобий туртки беради. Чунки, шундай зотга мансуб буқачаларнинг гўшт маҳсулдорлиги ҳам қониқарли даражада Ваҳоланки, подадаги насл олиш эҳтиёжидан анча ортиқ бўладиган эркак бузоқлар гўшт ишлаб чиқаришнинг энг катта заҳираларидан биридир ва қорамол зотларини районлаштириш ва наслчлик ишларини ташкил этишда шахсий ёрдамчи хўжаликлар тоифасини инобатга олган ҳолда қорамолларнинг гўштдорлик хусусиятларига ҳам эътибор қаратиш муҳим аҳамиятга эга. Чунки, бу - республиканинг асосий қисмини ташкил этадиган арид ер майдонларида гўштдор қорамолчиликка мос серўт яйловлар қарийиб мавжуд эмаслиги, биноларда боқиш усулида эса озуқа экинлари учун сувли майдонлар камлиги ширали ва кучли озуқалар таъминотига ва оқибатда иқтисодий самарадорликка таъсири гўштдор зотларни кўпайтиришга ноқулай шароитда

унумли фойдаланиш мумкин бўлган катта ички имкониятдир.

Юқоридагилардан келиб чиқиб, қормолчиликнинг иқтисодий самарадорлигини оширишда қорамол зотларининг хусусиятлари ва хўжалик тоифалари ўртасидаги мутаносибликнинг аҳамиятини инобатга олган ҳолда наслчилик ишларини ташкил этиш, хусусан, четдан наслчилик материллари келтириш ва қорамол зотларини районлаштиришда Мамлакатимизнинг 81 фоизини эгаллаган арид ҳудудларда истиқомат қиладиган чорвадорларнинг шахсий томорқа шарт-шароитларини ҳам инобатга олиш иқтисодий жиҳатдан мақсадга мувофиқдир. Чунки, юқорида кўрсатилган омилларнинг барчаси пировард натижада ҳар бир шахсий томорқа хўжалиги, туманлар, ҳудудлар ҳамда республика қорамолчилиги умумий иқтисодий самарадорлигида ўз ифодасини топади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикасининг 1995 йил 21декабрдаги 165-I-сонли “Наслчилик тўғрисида”ги қонуни;

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 28 мартдаги “Ветеринария ва чорвачилик соҳасида давлат бошқаруви тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5696-сонли фармони;

3. Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ хўжалиги вазирининг 1997 йил 10 мартдаги “Республика туманларида қорамол зотларини жойлаштириш режаси ҳақида”ги 65-сонли буйруғи;

4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 24 сентябрдаги “Ўзбекистон Республикасининг Хитой Халқ Республикаси билан хамкорлик бўйича ҳукуматлараро қўмитанинг бешинчи мажлиси якунларига кўра эришилган келишувларни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида” 805-сонли қарори;

5. https://ozlib.com/803128/tovarovedenie/organizatsiya_plemennoy_raboty_zhivotnovodstve.

6. https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/agriculture-2.

7. Породное районирование/ https://agricultural_dictionary.academic.ru

8. Республикамизда парваришланадиган қорамол зотлари /https://agronet.uz/ qoramol-zotlari

9. Чинаров В.И. Экономические основы породного районирования в молочном скотоводстве / В.И. Чинаров // Экономика сельскохозяйственных и перерабатывающих предприятий. - 2019. - № 12. - С. 13-19.

10. Что происходит с признаком «легкость отела»/ https://www.mkg-nn.ru/.



УДК: 633.51

ИНТЕГРАЛЬНЫЕ ПРЕПАРАТЫ ДЛЯ БОРЬБЫ С КЛЕЩАМИ КРУПНОГО РОГАТОГО СКОТА

Д.С.Вахидова, *профессор,*
А.К.Волынкина, *студентка,*
Ташкентского аграрного университета

Annotatsia. *Maqolada yirik qoramollarda parazitlik qiluvchi Ixodidae oilasiga mansub kanalarga qarshi yangi akaritsidlarni qidirish bo'yicha materiallar keltirilgan. Maqola mualliflari, ayniqsa, Shomil kasalliklariga patogen ta'sir ko'rsatuvchi mikroorganizmlarni o'z-o'zidan ajratib ko'rsatdi. Mikroorganizmlarning toza ekinlarini ajratib olish nobud bo'lgan va tirik kanalarning yuvilgan massasidan ekish yo'li bilan amalga oshirildi. O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida Tyiringiensis var.thuringiensis aniqlandi.*

Abstract. *This article presents data on the development of new acaricides against ticks of the Ixodidae family, which parasitize cattle. The authors aimed to isolate microorganisms from the ticks themselves, particularly those with pathogenic effects on themselves. Pure microbial cultures were isolated by inoculating a smear of dead and living ticks. The study resulted in the isolation of Tyiringiensis var. thuringiensis.*

Ключевые слова: *клещи, акарициды, эффективность действия препарата, летальность клещей, микробиологические препараты, Bacillus thuringiensis. чистая культура микроба, принудительное контактирование с препаратом.*

Введение. В настоящее время большое значение придается обеспечению населения продуктами животноводства в виде мяса и мясной продукции, молока и молочной продукции. Необходимость решения этой задачи связна с сохранением здоровья животных, особенно в период выпаса их на пастбищах. В это время на них нападают множественные виды насекомых и клещей.

Известно, что паразитирование насекомых и клещей на животных причиняет им беспокойство, этим самым снижают аппетит, что влияет на снижение мясных привесов и уменьшению молочной продуктивности у коров.

В своих работах ученые энтомологи (Рузимурадов А., Азизов Н., Файзилдинов А., Вахидова Д.) и акарологи (Узаков У., Расулов И., Абдурасулов Ш.) отмечали в своих научных работах, что паразитирование и нападение клещей на животных, пасущихся на пастбищах, помимо экономического ущерба ещё имеют зоонозный характер, так как являются переносчиками многих инфекционных и инвазионных заболеваний. К этим болезням относятся: тейлериоз, бабезиоз, пироплазмоз, а также особо опасные болезни, которые представляют большую угрозу для жизни человека: сибирская язва, чума , пастерёллез и другие.

Не маловажное значение имеет распространение клещами яиц многих гельминтов, которые могут привести с гибели животных.

В настоящее время для борьбы с клещами используются химические фосфорсодержащие препараты, а также синтетические компоненты, которые вводятся в организм животных или путем инъекций, или лиментарно, или проводятся купки животных перед выпасом на пастбище.

Согласно данным Рузимурадов А., Мавлянов С., Мардыев З., Жумашева Р., Халиков Х. и другие (1995, 1997, 2003, 2008, 2017, 2021) многие акарициды и инсектициды вызывают резистентность у клещей и используемые акарициды не оказывают на клещей эффективного действия, а также обладают свойством кумуля-

ции и способными накапливаться в паренхиматозных органах, в подкожной клетчатке, а также после обработки выделяются с молоком в течении нескольких дней.

Все выше перечисленные факты ставят перед специалистами задачу об изыскании новых, не токсичных, но эффективных акарицидов.

Исходя из вышеперечисленных фактов, мы поставили перед собой задачу по изысканию микробиологических препаратов против пастбищных клещей**.**

Задача исследований. Выделить из самих клещей микробы, которые приводят их к гибели. Из них делали посевы на питательные среды с целью выделения чистой микробной культуры. При определении вида патогенных организмов пользовались определителем, разработанным методов в институте паразитологии имени Исаева.

Методика исследования. Для выполнения этой задачи в осенне-зимний период собирали клещей в помещениях, между окнами и щелях полов, как живых, так и находящихся в стадии оцепенения клещей, находящихся в стадии зимней диапаузы. Собранные клещи после определения их видового состава, помещали в 70^0 спирте на 2 часа, с последующим раздавливанием их в капле физиологического раствора. Данную смесь высеивали на специальные питательные смеси, предназначенные для роста микробиологической культуры в чашки Петри (среда Чапекак), выделенной из самих паразитов. В течении 24-36 часов посевной материал находился в стерильных инкубаторах при необходимой температуре. 24 ^{0} С. Культуры микроорганизмов многократно пересеивались с целью выделения чистой культуры микроорганизмов. Из выросших на питательной среде культур, делали мазки с целью определения видов микробов. По методу, разработанному в институте Микробиологии АН Узбекистана определяли виды микроорганизмов.

Результаты исследования. Совместно с сотрудникам института Микробиологии АН Узбекистана проводили микробиологические окрашивания из колоний культур по методу Циль Нильсона. Выросшие культуры микроорганизмов изменяли цвет питательной среды из соломенно – желтого на серебристый, синий, голубой и др. При этом образованный рост микробов придал питательной среде запах уксусной кислоты.

С целю достижения достоверного результата позволили культуре микроорганизмов находит-

Таблица 1.

Микроорганизмы, выделенные из погибших клещей

№	Вид микробов	Цвет колоний	Вызываемые болезни
1.	Babesia canis,	Серо-белый	Бабезтоз, пироплазмоз
2.	Anaplasma phagocytophilum:	Светло-голубой	Анаплазмоз
3.	Ehrlichia Colli	Темно-синий	Эрлихиоза
4.	Borrelia burgdorferi:	Желтый	Болезни Лайма
5.	Rickettsia (Риккетсии	Синий	Пятнистой лихорадки
6.	Riketsiya	Темно-серый	Поражающие клещей (эндосимбионты)
7.	Bac.Thuringiensis	Золотисто-желтый	Может привести к гибели самих клещей

ся в термостате еще 24 часа, тем самым произошел буйный рост колоний микробов и усиление серебристого оттенка. Исследования проводили в двух направлениях: первое - посев делали из смеси из живых, второе - смесь готовили из погибших клещей, что позволит определить разницы видов микробов в каждом случае.

На основании методики по работе с микроорганизмами, разработанной Рузимурадова А., Вахидовой Д. (в результате исследований ими был разработан и получен патент2006), а также методики Ромашовой Е проводили классификацию микроорганизмов выросших колоний. Результаты полученные в итоге исследований отображены в ниже следующей таблице 1.

Из выше приведенной таблицы 1, видно, что из всех микроорганизмов, Bac.Thuringiensis представляет определенный интерес, как факт для использования данный микроорганизм, из которого возможно создание микробиологического препарата для борьбы с клещами.

Заключение. Исследования в этом направлении представляют задачи будущих наших научных экспериментов.

Использованная литература:

1. Акбаев, Р.М. Микробная обсемененность клещей Dermanyssus gallinae и пухоедов Menopon gallinae.Российский ветеринарный журнал. – 2013. – № 2. – С. 13-14.

2. Бутаков, Е.И. Эффективность препарата на основе аверсектина С против эктопаразитов птиц – клещей рода Ixodes (Latreille) и Menacanthus (Neumann) при полевых и производственных испытаниях В мире научных открытий. – 2014. – № 2. – С. 524-539.

3. Бутаков, Е.И. Эффективность препарата на основе аверсектина С против эктопаразитов птиц – клещей рода Ixodes (Latreille) и Menacanthus (Neumann) при полевых и производственных испытаниях В мире научных открытий. – 2014. – № 2. – С. 524-539.

4. Вахидова Д.С. Разработка биологичесчких методов борьбы с пастбищ ными насекомыми. Материалы научно-практической конференции. Барнаул 2008.

5. Рузимурадов А и другие. Патент. Выделение и применение микробиологического препарата Bac. Thuringiensis против комнатных мух 2006.

6. Рузимурадов А.Р. Организация мероприятий против зоофильных мух. «Ветеринария», М, 2008: 34:35.

7. Тонконоженко А.П., Кац М.Б., Алешина Е.А. Эффективность микробиологических инсектицидов против личинок комнатной мухи. «Вет. энтомология и акарология», М., 2003: 170-172.

8. Непоклонова М.И., Беляева А.П., Непоклонов А.А. Эффективность этафоса против клещей иксодос рицинус. – «Тезисы докладов Госкомиссии 2010 г., г. Воронеж», М., 162.



УДК: 619:638.15:595.799

ОСОБЕННОСТИ КЛИНИЧЕСКОГО ПРОЯВЛЕНИЯ И ПАТОГЕНЕЗА АСКОФЕРОЗА ПЧЁЛ В УСЛОВИЯХ СОВРЕМЕННОГО ПЧЕЛОВОДСТВА

Махмудова Карима Исмаиловна, *ассистент,*
Базаров Мурат Ахмаджонович, *д.в.н., доцент*
Андижанский институт
сельского хозяйства и агротехнологий

Аннотация: *В статье подробно описаны, что при естественном заражении (постановка зараженного сота) от начала болезни до мумификации расплода проходит 11–13 дней, а при искусственном заражении (опрыскивание раствором с возбудителем болезни) проходит 14 – 16 дней.*

Отмечаются три стадии клинического проявления аскосфероза: а) заражение и гибель расплода, б) рост мицелия, в) мумификация расплода.

По характеру течения аскосфероза наблюдаются скрытая, легкая и тяжелая формы.

Annotation: *The article describes in detail that with natural infection (planting an infected comb), 11–13 days pass from the onset of the disease to mummification of the brood, and with artificial infection (spraying with a solution containing the pathogen), 14–16 days pass.*

There are three stages of clinical manifestation of ascospherosis: a) infection and death of the brood, b) growth of the mycelium, c) mummification of the brood.

According to the nature of the course of ascospherosis, latent, mild and severe forms are observed.

Ключевые слова: *Аскосфероз, заражение и гибель расплода, роста мицелия, возбудителя болезни, эпизоотическая обстановка, заболевания, осмотр пчелосемей, неблагополучных пасек, распространения, мумификация расплода.*

Введение. В последние годы пчеловодство играет важную роль в обеспечении устойчивости агроэкосистем и повышении продуктивности сельскохозяйственных культур. Медоносные пчёлы (*Apis mellifera*) являются основными опылителями многих сельскохозяйственных растений, что существенно влияет на урожайность и качество продукции растениеводства. В связи с этим сохранение здоровья пчелиных семей и предупреждение их заболеваний приобретает важное научное и практическое значение [9].

Среди заболеваний пчёл особое место занимают инфекционные болезни расплода, значительную долю которых составляют грибковые заболевания (микозы). К наиболее распространённым микозам относится аскосфероз (известковый расплод), вызываемый патогенным грибом *Ascosphaera apis*. Данное заболевание характеризуется поражением личинок пчёл, их гибелью и последующей мумификацией, что приводит к ослаблению и снижению продуктивности пчелиных семей [6, 7].

Аскосфероз широко распространён во многих странах мира и регистрируется как в промышленном, так и в любительском пчеловодстве. Развитию заболевания способствуют различные неблагоприятные факторы окружающей среды, включая повышенную влажность в ульях, резкие колебания температуры, недостаток кормовых ресурсов, а также воздействие химических загрязнителей и пестицидов. Под влиянием этих факторов снижается естественная резистентность организма пчёл, что создаёт благоприятные условия для развития патогенных грибов [5, 7].

Возбудитель заболевания — гриб *Ascosphaera apis* — относится к аскомицетам и обладает выраженной патогенностью по отношению к личинкам медоносных пчёл. Заражение происходит при попадании спор гриба в организм личинки, после чего развивается мицелий, который пронизывает ткани расплода и вызывает их разрушение. В дальнейшем погибшие личинки подвергаются мумификации и превращаются в характерные белые или сероватые образования, напоминающие кусочки извести, что и обусловило название заболевания — известковый расплод [7,8].

Несмотря на значительное количество исследований, посвящённых изучению аскосфероза пчёл, многие аспекты клинического проявления заболевания и патогенеза инфекции остаются недостаточно изученными. В частности, важным является установление особенностей течения заболевания в зависимости от возраста расплода, условий содержания пчелиных семей и эпизоотической обстановки на пасеках [3, 4].

В связи с этим изучение особенностей клинического проявления и патогенеза аскосфероза пчёл в условиях современного пчеловодства имеет важное научное и практическое значение. Полученные результаты позволяют углубить представления о механизмах развития заболевания и могут служить основой для совершенствования методов диагностики, профилактики и борьбы с аскосферозом в пчеловодческих хозяйствах.

Методы и результаты исследование: Клиническое проявление симптомов, патогенез и патологоанатомические изменения при заражении *Ascosphaera apis* описаны рядом исследователей, изучавших микозы пчелиного расплода [1, 4, 6].

Клиническое проявление симптомов, патогенез и патологоанатомические изменения в организме пчел при заражении Ascosphaera apis изучали при экспериментальном заражении пчел в условиях Избаскенского района. Проявления болезни в естественных условиях изучали на 15 неблагополучных пасеках, расположенных в Ханабадском, Избаскенском и Мархаматского района.

Результаты экспериментального заражения: Экспериментальное заражения расплода возбудителем аскосфероза проводили двумя способами:

1. Зараженные Ascosphaera apis соты для посева расплода здоровой маткой размещали в благополучный улей.

2. Для заражения личинок от 2 до 3 млн спор Ascosphaera apis распрыскивали на 1 гнездевую рамку с 2- 3-дневным расплодом.

После засева яиц в зараженные соты на поверхности кутикулы 2 – 3-дневных личинок пчел отмечали пушистые образования, свидетельствовавшие о начале роста мицелия возбудителя болезни. В зараженных сотах от гибели расплода до мумификации проходили 11 – 13 дней. При распрыскивании спор возбудителя болезни клинические признаки болезни проявлялись на 3 – 4 день. При этом расплод погибал в 4 – 5-дневном возрасте. Мумификация погибшего расплода происходила на 14 – 16 день.

Выявлены три стадии развития клинических симптомов аскосфероза пчел.

В первой стадии развития заболевания (заражение и гибель расплода) отмечали вытягивание личинок вдоль стенок ячейки, поверхности кутикулы тускнела, происходило сглаживание сегментации личинок, которые приобретали плотную консистенцию, поверхность ячеек не запечатывалась. При гистологическом исследовании эта стадия характеризовалась мобилизацией иммунобиологической системы организма на подавление вредоносного фактора. Так, отмечали 20 – 30-кратное увеличение количества и размеров эноцитов. Целостность слизистой оболочки кишечника нарушена, эпителий мальпигиевых сосудов и трахеитов

Таблица 1.

Гибель личинок расплода (Избаскенский район, 2025 г.), % (M± $\overline{m}$)

Незапечатанные ячейки расплода	Возраст личинок, сутки	Апрель	Июнь	Сентябрь
Пчелиный	1 – 2	47,4±4,8	10,2±1,7	4,8±1,7
	3 – 4	29,7±5,6	68,4±6,7	37,4±4,4
	5 – 6	19,5±2,7	19,1±2,3	54,7±5,1
Трутневый	1 – 2	29,0±2,6	13,2±1,2	3,7±1,3
	3 – 4	44,0±10,6	64,1±5,8	39,2±4,2
	5 – 7	24,0±2,0	20,0±1,9	54,2±4,9

утолщен. Таким образом, первая стадия характеризовалась активизацией защитной реакции организма, выражавшейся в увеличении эноцитов и нарушении функциональной деятельности жизненно важных центров развивавшейся личинки.

Вторая стадия (рост мицелия) сопровождалась ростом плесени на поверхности тела личинки и внутрь ячейки. Если пчеломатка закладывала яйца в инфицированные соты, процесс образования мицелия на поверхности тела личинки происходил одновременно с ростом мицелия внутри расплода. В результате разрастания мицелия Ascosphaera apis по всему телу личинки происходили деструктивные изменения, и нарушалась ядерно-плазменная структура внутренних органов.

Третья стадия (мумификация расплода) сопровождалась обызвествлением тела личинок и превращением их в бело-сероватые комочки. В гистоструктуре тканей мумифицированных личинок выявили бесформенную массу (клеточный детрит, пронизанный во всех направлениях нитями мицелия), интенсивно базофильно окрашенные очаги, отложение солей кальция.

В период пчеловодного сезона нами определена зависимость сроков проявления клиники аскосфероза от возраста личинок. Установлено (табл. 1, что в апреле аскосферозом поражаются 47,4±4,8 и 29,0±2,6%, в июле – 10,2±1,7 и 13,2±1,2% 1 – 2-дневных соответственно пчелиных и трутневых расплодов. В сентябре заболеванию наиболее подвержены 54,7 ± 5,1 и 54,2 ± 4,9% 5- – 6-дневных личинок соответственно пчелиного и трутневого расплодов.

В продолжительности стадий аскосфероза у пчелиного и трутневого расплодов выявлены различия (табл. 2).

Таблица 2.

Продолжительность стадий клиники аскосфероза пчел в пчеловодный период (Избаскенский район, 2025 г.), сутки (M± $\overline{m}$)

Стадия	Возраст расплода, сутки					
	пчелиный			трутневый		
	1 – 2	3 – 4	5 – 6	1 – 2	3 – 4	5 – 6
1	1,0±0,2	1,9±0,5	2,3±0,5	0,7±0,1	1,4±0,3	1,9±0,2
2	4,0±1,0	5,0±1,0	6,0±1,4	3,0±1,0	5,0±1,0	4,0±1,4
3	8,0±1,6	9,0±1,6	14,0±1,6	12,0±1,6	14,0±1,6	11,0±2,6
1 – 3	15,0±3,0	18,0±3,0	23,0±3,0	17,0±3,0	21,0±3,0	25,0±4,0

Так, у 1- – 2-дневного трутневого расплода первая стадия длилась 0,7±0,1, а у 3- – 4-дневного – 1,4±0,3 суток, у пчелиного расплода этого возраста – 1,9 ± 0,5 суток. Продолжительность первой стадии болезни у 5- – 6-дневного пчелиного и трутневого расплодов увеличивалась соответственно до 2,3±0,5 и 1,9 ± 0,2 суток.

Если у 1- – 2-дневного пчелиного и трутневого расплода от момента заболевания личинки до мумификации проходило соответственно 15,0±3,0 и 17,0±3,0, то у 5- – 6-дневного – 23,0±3,0 и 25,0 ± 4,0 суток.

На первый и второй день после экспериментального заражения рамки с расплодом клинических признаков болезни не отмечали. Виден был однодневный засев, пчелы были спокойными, хорошо летали, отстраивали вощины. На третий день из рамки, зараженной, аскосферозом, пчелы выбросили личинок, стали беспокойными, у некоторых наблюдали майятникообразные движения. Таких пчел в улья не пускали. На четвертый день в этих рамках с расплодом также наблюдали беспокойство пчел, незначительное изменение цвета сотов и крышек запечатанного расплода, имевших неровную поверхность. У некоторых личинок отмечали отсутствие тактильной чувствительности. На 5 – 6 дни общее беспокойство пчел усиливалось.

Через два дня после повторного заражения пчел появилась клиника аскосфероза. Выявляли личинок, апикальный конец которых вытягивался вдоль стенки ячейки, сегментация сглаживалась, отсутствовала тактильная чувствительность. Через 2,1±0,5 суток на головном конце или по всему телу личинок наблюдали рост белых нитей гриба, количество которых увеличивалось и на 4 – 5 дни, ячейки сотов заполнялись белым мицелием в виде комочка ваты. Постепенно мицелий темнел, приобретая серый цвет. Под стереоскопическим микроскопом наблюдали плодовые тела возбудителя аскосфероза. Мумификация погибшего расплода происходила в течение 14 – 16 суток. Гибель личинок от их общего количества составила 12,5%, 1- – 2-дневного расплода к общему числу погибших личинок – 5,1±0,3, 3- – 4-дневного – 78,5±5,5 и 5- – 6-дневного – 16,4 ± 1,1%.

На запечатанных ячейках обнаружен рост гриба, а их крышечки были слегка выпуклыми. Впоследствии на их поверхности наблюдали рост отдельных белых нитей, которые со временем сливались и образовывали сплошной сероватый налет. Поражение личинок обнаруживали и в других запечатанных ячейках, поверхность крышечек которых была ровной, но на некоторых имелись отверстия диаметром до 1 мм. При вскрытии таких ячеек обнаружены погибшие личинки, покрытые серым мицелием с органами плодоношения A. apis.

В контрольных семьях выброшенных личинок не обнаружено, пчелы вели себя спокойно, а пчеломатки откладывали яйца.

Выводы.

При естественном заражении (постановка зараженного сота) от начала болезни до мумификации расплода проходит 11 – 13дней, а при искусственном заражении (опрыскивание раствором с возбудителем болезни) проходит 14 – 16 дней.

Установлено, что развитие заболевания проходит несколько стадий: заражение личинок, рост мицелия и мумификация расплода, что подтверждается исследованиями зарубежных авторов [7, 8].

Наиболее восприимчивыми к аскосферозу являются личинки в возрасте 3–4 суток, что отмечено в ряде экспериментальных исследований [6, 9].

Развитие мицелия гриба *Ascosphaera apis* сопровождается разрушением тканей личинки

и образованием характерных мумифицированных остатков расплода [8, 10].

По характеру течения аскосфероза наблюдаются скрытая, легкая и тяжелая формы.

Список литературы:

1. Базаров М.А. Узбекистон Республикасида асалари зараркунандалари ва уларга интеграция усулида қарши кураш чоралари. – Монография. – ISBN 978-9910.

2. Бакулов И.А., Юрков Г.Г., Песковацков А.П. Методические указания по эпизоотологическому исследованию. – М.: Колос, 1982. – 30 с.

3. Urinova M., Bazarov M. Clinical manifestations of ascospherosis in Fergana valley depending on the system and method of maintenance // *Science and Innovation*. – 2024. – Vol.3. – №D2. – P.47-49.

4. Urinova M., Bazarov M. Diagnoses, prevention, and treatment of rotting disease and ascospherosis infectious of honeybees in Andijan region // *Science and Innovation*. – 2024. – Vol.3. – №D2. – P.44-46.

5. Urinova M., Bazarov M. Microbiological characteristics of *Ascosphaera apis* // *Science and Innovation*. – 2024. – Vol.3. – №D2. – P.109-111.

6. Gilliam M. Chalkbrood disease of honey bees: A review of the literature // *Bee World*. – 1997. – Vol.78. – P.37-48.

7. Aronstein K.A., Murray K.D. Chalkbrood disease in honey bees // *Journal of Invertebrate Pathology*. – 2010. – Vol.103. – P.S20-S29.

8. Spiltoir C.F., Olive L.S. A reclassification of the genus *Pericystis* Betts and description of the genus *Ascosphaera* // *Mycologia*. – 1955. – Vol.47. – P.238-244.

9. Bailey L., Ball B.V. Honey Bee Pathology. – 2nd ed. – London: Academic Press, 1991. – 193 p.

10. Flores J.M., Ruiz J.A., Ruz J.M. Chalkbrood development in honey bee brood under different environmental conditions // *Apidologie*. – 2005. – Vol.36. – P.415-422.



УЎК: 636.1.042/636.084.1.2.

НАСЛЛИ, СПОРТ ВА ХИЗМАТ ОТЛАРИНИ ОЗИҚЛАНТИРИШНИНГ МУҲИМ ЖИҲАТЛАРИ

Ҳафизов Иноят Исмоилович, *қ.х.ф.н., к.и.х.,*
Чорвачилик ва паррандачилик илмий тадқиқот институти,
Баракаев Жавохир Бобошерович, *магистрант,*
Навоий давлат кончилик ва технологиялар университети

Аннотация. *В статье подробно рассматриваются правила кормления племенных и спортивных лошадей, важные аспекты кормления лошадей, значение воды для организма лошади, виды кормов, доля кормов в рационе, порядок внесения изменений и дополнений в рацион.*

Abstract. *The article thoroughly examines the rules for feeding breeding and sport horses, crucial aspects of horse nutrition, the significance of water for a horse's organism, types of feed, the proportion of different feeds in the diet, and the procedure for introducing changes and additions to the feeding regimen.*

Калит сўзлар. *рацион, озуқалар, озуқа қўшимчалари, наслли ва спорт отлари, озуқа бирлиги, протеин, минерал моддалар, пичан, дағал хашак, озиқлантириш.*

Кириш. Отлар ҳам бошқа қишлоқ хўжалиги ҳайвонлари сингари тўла қийматли озиқлантирилиши муҳим ҳисобланади. Отлар организмида протеин (оқсил), ёғлар, углеводлар, минерал моддалар ва витаминлар етишмаса:

- наслли отларда урчитиш хусусиятларини бузилишига;

- ёш тойларда ўсиш ривожланишни секинлашувига;

- етук ёшдаги отларда ишчанлик қобилиятини пасайишига ва тез чарчаб қолишига олиб келади.

